O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI
NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

R. G. Safarova, D. J. Gaipov

PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENLIK

Oliy ta’lim muassasalarining 70110102- Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi talabalari uchun darslik

NUKUS
«AVANGARD – BASPA»
2025

UOK 373.2.091.33:81(075.8)
KBK 74.10+81.2-5
S-24

R. G. Safarova, D. J. Gaipov.
Pedagogik deontologiya va kompetentlik. [Tekst] Nókis: «AVANGARD-BASPA» baspası 2025-jıl. – 120 bet.

Mazur darslikda zamonaviy o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar, o‘qituvchilik kasbining axloqiy-kasbiy jihatlari, pedagogik deontologiya va kompetentlikning mazmuni, mohiyati, nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Shuningdek darslikda “Pedagogik deontologiya va kompetentlik” fanining nazariy-metodologik asoslari taraqqiyot bosqichlari,tizimi mezonlari, pedagoglik kasbining sathlarini tashkil etuvchi kompetensiyalar, pedagogik kreativlik uning meyorlarini aniqlovchi jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga pedagogik jarayonda deontologik va kompetentlik mazmunining o‘ziga xos tomonlari yoritilgan.

Taqrizchilar:

A.Nauruzbaeva – Nukus davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor.

R.Nurjanova – Nukus innovacion texnologiyalar universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug‘i asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-569-16-6

© R. G. Safarova, D. J. Gaipov
© «AVANGARD – BASPA» 2025.

KIRISH

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Pedagogik deontologiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi xulq-atvor normalarini ko‘rib chiqadigan kasbiy burch haqidagi fandir. Bu fan qonunlar, qoidalarning qat'iy doirasi bilan cheklanmaydi, u o‘qituvchining axloqiy moslashuvchanligini ko‘rsatish, mumkin bo‘lgan pedagogik vaziyatlarda eng to‘g‘ri echim topish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Kerakli darajada kasbiy faoliyatga qodir bo‘lishi uchun, ya'ni ta'lim sohasidagi yangi muammolarni yuqori professional tarzda hal qilish uchun bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbiy burchini bajarishga deontologik jihatdan tayyor bo‘lishi lozim. Deontologik tayyorgarlik o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismi bo‘lib, uning kasbiy burchiga muvofiq bilim, ko‘nikma va malakalar asosida shakllangan ongi holatini aks ettiradi. O‘qituvchining deontologik tayyorgarligining tarkibiy qismlaridan biri shakllangan deontologik sifatlar, ya'ni kasbiy burchga muvofiq uning barqaror professional xulq-atvorini ta'minlaydigan fazilatlar majmui hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda o‘qituvchini tayyorlash, birinchi navbatda, o‘qituvchining o‘ziga yuklangan kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun axloqiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal etish o‘qituvchining shaxsiyatiga, o‘z kasbiy burchini munosib bajarish zarurligini anglashiga, pedagogik mahorat darajasiga bog‘liq. Shuning uchun ham pedagogik deontologiya bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etadi, chunki jamiyatning o‘qituvchiga nisbatan bildirilishi mumkin bo‘lgan mulohazalari va tanqidlari asosan o‘qituvchining noprofessional xatti-harakatlariga to‘g‘ri keladi.

Ana shu nuqtai nazardan mazkur darslik ta’lim jarayonini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilar o‘rtasidagi insonparvarlik munosabatlariga asoslangan muhitni yaratish, yosh avlodni jamiyat va ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonida deontoligik munosabatni yo‘lga qo‘yish hamda kasbiy layoqatni shakllantirish bo‘yicha muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

1-MAVZU: PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIK FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Tayanch tushunchalar: ta’lim, tarbiya, deontologiya, xulq-atvor, kompetentlik, kasbiy yetuklik, rivojlanish, taraqqiyot, maqsad, natija, pedagogik kompetentlik, kasbiy etika, pedagogik deontologiya, tamoyil.

1.1 Pedagogik deontologiya tushunchasi va uning tamoyillari

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim muassasalariga har tomonlama keng fikrlay oladigan va insonparvarlik doirasida pedagogik faoliyatning o‘ziga xos jihatlarini yarata oladigan o‘qituvchi faoliyatida olib borishi talab etiladi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy xulq-atvor asoslarini shakllantirish pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagogik deontologiya fani bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga ham axloqiy, ham psixologik jihatdan tayyorlaydigan, shu orqali kasbiy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishga hissa qo‘shadi.

“Deontologiya” so‘zi lotincha deontos – “shart”, “burch”, logos – “ta’limot”, degan ma’noni anglatib, ingliz faylasufi Dj.Bentam mazkur tushunchani ilmiy jihatdan asoslagan[1]. Uning “Deontology of science of morally”[2] asarida deontologiya ya’ni, inson axloqi, etikasi haqidagi ilmiy fikrlar bayon qilingan. Keyinchalik Dj.Bentam tomonidan tavsiya qilingan “deontologiya” fanidagi g‘oyalar nemis faylasufi I.Kant tomonidan rivojlantirildi, u deontologiyani “etika bu burch, majburiyat etikasidir” deb ta’rifladi.

Dastlab deontologiya so‘zi tor ma’noda insonning Ollohga ishonchi, keyinchalik esa keng ma’noda ishlatilib, insonning majburiyatlarini ifodalovchi tushuncha sifatida izohlangan. Bugungi kunda “Deontologiya” inson tomonidan talab darajasida xulq normalarini va qoidalarini o‘rgatuvchi fandir. Deontologiya so‘zi kasbiy etikada keng qo‘llanilib har bir kasb doirasida kasbning odob, xulq, qonunchilik, sud, pedagog, quruvchi, hamda davlat boshqaruvi tizimida burch, odob-axloq normalarini ifodalaydi.

Pedagogik odobni, burchni egallashda, guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Bunday muhitda o‘zaro

[1]Bentham J. Deontology // Bentham J. Deontology together with a Table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983, p. 121.
[2]Bentham J. Deontology // Bentham J. Deontologytogether with a Table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983,p. 12

fikr almashish shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirayotgan qarashlar bilan taqqoslash ularning to‘g‘riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish mavjud bilimlarni yanada boyitishga imkoniyat yaratadi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda odob, axloq, burch va majburiyatlarni yuqori darajada his etish va unga amal qilish haqida sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, zamonaviy pedagog olimlarimiz Malla Ochilov, Xolboy Ibragimov, Dilnoz Ro‘ziyeva, Begzod Xodjayev, Oynisa Musurmonova va boshqalar o‘qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o‘qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan sifatlar xususidagi fikrlarini bayon qilganlar.

“Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan shaxs ta’lim-tarbiya samaradorligini va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi”[1] , – deb ta’kidlaydi O.Musurmonova o‘zining pedagogik mulohazalarida. Yuqoridagi fikrlarga tayanib deontologiya fani qoidalariga asoslanib o‘qituvchilarimizga quyidagi maslahatni tavsiya qilamiz:

a) o‘qituvchilik kasbining asosiy burchi va uning mazmuniga e’tibor berish;

b) qo‘yilgan talablarning bajarilishida pedagogik xulq-atvor muhim ekanligini inobatga olish. Har bir vazifani bajarilishi o‘qituvchining axloqiy qoidalari va me’yorlariga mos kelishi.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida inson turmushining barcha sohalarida kishining xulqi, xatti-harakatlarini tartibga soluvchi, boshqarib turuvchi qoidalar, tamoyillar, yo‘l-yo‘riqlar, mezonlar, normalar hamda pand-nasihatlar majmuidan iboratdir. Kishilik jamiyatlaridan barchamizga ma’lumki, insonlarga yaxshilik qilish, to‘g‘riso‘z bo‘lish, botirlik, kamtarlik, halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlar doimo e’zozlangan. Inson mehnat faoliyatini ma’lum bir soha bilan shug‘ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy talablar asosida faoliyat olib boradi. O‘qituvchilik kasbi faxrli, obro‘li el-yurt nazariga tushgan kasblardan biridir. Xalqimiz o‘qituvchilar mehnatini doimo hurmat qiladi, ardoqlaydi. Chunki o‘qituvchilarning ko‘pchiligi o‘z burchini, majburiyatini chuqur his etadi va fidoyilik bilan xalqimizning kelajagi bo‘lgan yoshlar tarbiyasida faol qatnashadi.

[1] О.Мусурмонова. Умумий педагогика. Тошкент. “Ўз китоб савдо”, Нашриёти 2020, 61-бет.

“O‘qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikri, axloqiy fazilati va e’tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e’tiqod va sifatlar o‘qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o‘quvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala munosabatlarida kundalik turmushda o‘zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta’sir o‘tkazishda ko‘zga tashlanadi. O‘qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy, milliy axloqiy fazilat tushunchalariga mos keladi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, burch, qadr-qimmat, mas’uliyat, vijdon, halollik, rostgo‘ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy sifatlar o‘qituvchi odobida pedagoglik faoliyati bilan tahlil qilinadi. Professor M.Ochilov o‘qituvchi burchi to‘g‘risida ham o‘z fikrini quyidagicha ifodalaydi: “O‘qituvchi yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish sohasidagi o‘z burchini zo‘rlik tufayli yuklatilgan majburiyat emas, balki o‘z hayotining ma’nosi, ishonch va vijdon da’vati deb hisoblaydi. Fuqarolik burchini his etmoq butun xalq va O‘zbekiston davlatining buyuk kelajagi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishini taqozo etadi”[1].

Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotning tub mohiyati, mazkur jarayonlar istiqbolining rivojlanishi bevosita ta’lim-tarbiya va unda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik xulq-atvori, kompetentiligi, professeonal etikasi bilan bog‘liq holda takomillashishini davr isbotlab turibdi. Yangi O‘zbekistonni qurish jarayoni taraqqiyot va ijtimoiy hayotning ko‘rsatishicha shu jarayonni muvaffaqiyatli amalga tadbiq etishga mas’ul bo‘lgan jamiyat a’zolari, eng avvalo o‘z kasbining ustasi bo‘lgan o‘qituvchi-mutaxassislar va ularning kasbiy kompetenligi, pedagogik etikasi bilan bog‘liq ekanligini taraqqiyot dolzarb vazifa qilib qo‘ydi. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish, maqsadida olib borilayotgan ishlar mazmunidagi moddiy va ma’naviy qiyinchiliklar, ijtimoiy tahdidlarga qarshi kurash, avvalo, zamona mutaxassisi sog‘lom fikr, yangicha tafakkur va ilmiy bilimlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi-tarbiyachi lozimligi taqozo etmoqda. Yuqorida qayd etilgan muammolarning maqsadli hal bo‘lishi, shu jarayon ishtirokchisi bo‘lgan o‘qituvchi-tarbiyachilar, ularning xulq-atvori, kasbiy mahorati va bilim saviyasi bilan belgilanadi. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublika Prezdenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Darhaqiqat, millionlab farzandlarimiz qalbiga ilm-fan ziyosini singdirib, ularni el-yurtga munosib insonlar etib tarbiyalayotgan zahmatkash va olijanob ustozlarimizga har qancha tahsinlar aytsak, arziydi”, - zero,

[1]Очилов М. “Муаллим – қалб меъмори”. - Т.: “Ўқитувчи”, 2001. 38 бет

“Xabaringiz bor, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqimda men boshqa ko‘pgina muhim masalalar qatorida “Yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiya”ni qabul qilishga oid O‘zbekiston tashabbusiga yana bir bor jahon hamjamiyatining e’tiborini qaratdim.

Yoshlar huquqi deganda, biz, birinchi navbatda, ularning tinch va sog‘lom yashash hamda ta’lim olishga bo‘lgan to‘laqonli huquqini tushunamiz. Shu bois, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo‘lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta’lim olishini ta’minlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi”[1] .

Qayd etilgan fikrlardan shunday xulosa chiqadiki, bugungi kun o‘qituvchi-tarbiyachisi o‘z ixtisosligi bo‘yicha yuksak insoniy fazilat, kasbiy xulq-atvor, pedagogik mahorat va pedagogik etika egasi bo‘lmog‘i darkor. Shu bois oliy pedagogik ta’lim maktablarida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yo‘nalishlari bo‘yicha ma’lumot berish bilan birga, ularga kasbiy xulq-atvor, pedagogik kompetentlik, o‘qituvchi-tarbiyachilik etikasi bo‘yicha ma’lumotlar berish zaruriyati maydonga keldi.

Bunday ma’lumotlarni bizga deontologiya fani o‘rgatadi. Deontologiya –o‘qituvchi tarbiyachining xulq-atvori, kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati va etikasi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi fan. Deontologiya atamasi, kishining xulqi, odobi haqidagi tushuncha bo‘lib, 16-asrning boshlarida fanga kirib keldi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha deontologiya (Bioetika-shifokor burchi) tarzida, deon- burch, logos - fan burchga rioya qilish, muloqot qoidalariga amal qilish to‘g‘risidagi fan tarzida iste’molga kirdi. Unga ingliz faylasufi va huquqshunosi Djreme Bentam asos solib, o‘zining 1834 yilda yozilgan “Deontologiya yoki axloq to‘g‘risi”dagi kitobida ilmiy jihatdan asosladi. Bu kitobda u shifokorning bemor bilan muloqot jarayonida o‘zaro munosabatda Axloqiy-huquqiy burch tarzida namoyon bo‘ladi, - deb ta’kidladi. Keyinchalik 1970-72 yillarda amerikalik vrach Van Ransseler Roter tomonidan “Bioetika” termini ostida davolovchining bemor bilan munosabatini axloqiy-huquqiy burch naqtai nazardan ifodalashga harakat qildi. Uning 1971-yilda yozilgan “Bioetika: yashab ketish ilmi” va 1972-yilda yozilgan “Bioetika: kelajakka ko‘prik” nomli asarida yoritilgan. Shunday qilib “deontologiya” so‘zi fanga har qanday kasbning burchga

[1]http://uza.uz/posts/3452. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи.30.09.2020 йил

muvofiq xulq-atvori to‘g‘risidagi ta’limot sifatidagi yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatmalar tarzida izohlandi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, "Shaxs-odam" tizimiga oid kasblar bo‘yicha tavsiflar maydonga kelib, bu kasblar insonning ichki dunyosiga ta’sir qiladi, uning shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi, tabiiy moyillikni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, shuning uchun har bir mutaxassislik faqat o‘ziga xos bo‘lgan professional kasbiy-axloqiy, o‘ziga xos deontologik qiyofaga ega deb, qayd qilish lozim. Bundan o‘qituvchilik kasbi ham mustasno emas. Bu yo‘nalishda, ya’ni o‘qituvchining kasbiy burchiga muvofiq xulq-atvori haqidagi fan sifatida ilmiy pedagogik manbalarda (Ye.N. Jumanqulova, G.A. Karaxanova, G.M. Kertayeva, G.M. Kodjaspirova, A.Ye. Kuderina, M.Sh. Kunanbayeva , K.M. Levitan va boshqalar) talqin qilina boshlandi.

Keyinchalik, o‘qituvchining ta’lim-tarbiya yo‘nalishidagi faoliyatini inobatga olgan holda, pedagogik deontologiya deb ataldi. Bunda o‘qituvchi-tarbiyachining shaxsiy xususiyatlari, xulq-atvori burchi, muruvvati, adolatparvarligi, beg‘arazligi, bolajonligi, bilimdonligi inobatga olinib, ular ta’lim-tarbiya ishlarida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etishi nazarda tutildi. Shunday qilib, pedagogik deontologiya – jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsi, uning pedagogik majburiyatlari, ma’suliyati munosabatiga nisbatan qo‘yiladigan talab va axloqiy yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatmalar majmui tarzida izohlandi.

Binobarin, pedagogik denotalogiya axloqiy me’yorlarni, qadriyatlarni, shuningdek, pedagogik axloq-odobga xos talablarni shakllantirish bilan shug‘ullanuvchi soha hisoblanib, ularni anglash va amalga oshirish ishlarini olib boruvchi fan sifatida qabul qilindi. Shunga asosan pedagogik deontologiyaning predmeti - o‘qituvchining kasbiy xulq-atvori va odobini belgilaydigan axloqiy me’yorlar tizimini o‘zida ifodalaydigan ta’limiy-tarbiyaviy faoliyatni o‘zlashtirish va boshqarish jarayonini o‘rganish demakdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik deontologiya o‘qituvchining xulq-atvori nafaqat ijtimoiy me’yorlarni (axloq normalari, urf-odatlar, huquq normalari va boshqalarni) bilish bilan, balki uning ushbu ijtimoiy, kasbiy qadriyatlarga (huquqiy, axloqiy estetik va boshqalar) munosabati bilan belgilanadi.

Pedagogik deontologiya fanining predmeti - bu o‘qituvchini uning kasbiy xulq-atvorini birgalikda belgilaydigan axloqiy me’yorlar tizimi tomonidan amaliy faoliyatda o‘zlashtirish va boshqarish jarayonini o‘rganish.

Shuni ta’kidlash kerakki, o‘qituvchining xulq-atvori nafaqat ijtimoiy normalarni (axloq normalari, urf-odatlar, huquq normalari va boshqalarni) bilish bilan, balki uning ushbu ijtimoiy, va birinchi navbatda, kasbiy qadriyatlarga (huquqiy, axloqiy estetik va boshqalar) munosabati bilan belgilanadi.

Pedagogik deontologiya fan sifatida shakllanish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qadimda axloq degan tushuncha shaklangan bo‘lib, bu jamiyatni axloqiy normalari sifatida qaralagan bo‘lib, ibtidoiy davrdan boshlangan jamoada, urug‘da barcha amal qilishi lozim bo‘lgan normalardir. Axloq keyinchalik etika sifatida qaralib, bu insonlarning axloq odobini o‘rganuvchi fan sanalgan.

Etika (yun. egpoz — xulq, odat) — axloq va uning shaxs hamda jamiyat hayotidagi o‘rnini o‘rganuvchi falsafiy fan. Etika axloqshunoslikning falsafiy nazariy muammolarini va axloqqa doir didaktik amaliy asarlarni o‘z ichiga oladi. U insoniyat o‘z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikoyatlar, hikmatlar, naqllar, maqollar tarzida bayon etadi, kishilarga axloqning mohiyatini tushuntirib, falsafiy xulosalar chiqaradi, ularga axloqiy qonun-qoidalarni o‘rgatadi Etikaning quyidagi mezoniy tushunchalari — kategoriyalari bor: fazilat, illat, yaxshilik va yomonlik, halollik, rostgo‘ylik, kamtarlik, adolat, burch, vijdon, nomus, ideal, baxt, hayotning ma’nosi va boshqalar. Axloq inson va jamiyat hayotining barcha (shaxsiy, jamoaviy, kasbiy va h.k.) jabhalarini qamrab olganligi tufayli uni o‘rganuvchi etika barcha fanlar bilan aloqador. Ayniqsa, uning ma’naviyat tizimidagi fanlarga ta’siri katta.

Etika keyinchalik deontologiya atamasi bilan o‘rin almashdi va deontologiya ham axloq haqidagi fan sifatida qaraldi. Deontologiya, yoki deontologik etika (boshqalaridan-yunoncha "Due")— axloq va axloq muammolari haqidagi ta’limot bo’lib, etikaning bir bo’limi. Mukammal harakatni baholashda deontologiya uning muayyan qoidalarga muvofiqligi yoki mos kelmasligi bilan boshqariladi. Ba’zan burch (yoki burch) axloqi yoki xulq-atvor qoidalariga asoslangan axloqiy tizim deb ataladi, chunki ular burch tushunchasining asosi hisoblanadi. Kasb - bu maqsad uchun ishlab chiqilgan kasbni anglatadi jamiyat farovonligi bilan hamkorlik qilish. Bu ishni bajarish uchun, kerak professional (xuddi shu narsani amalga oshiradigan shaxs) amaldagi qonunchilik ushbu faoliyatni rivojlantirish uchun qo‘ygan talablarga rioya qilgan holda mas’uliyat bilan harakat qiladi.

Kasbiy axloq axloq normalari asosida vujudga kelgan va amalga oshiriladi. Kasbiy etika bilan shaxsiy odob-axloq qoidalarini chalkashtirib

yubormaslik kerak; ikkinchisi shaxsiy tajribalar va oilaviy ta’lim, din va madaniyat kabi boshqa omillar bilan shakllanadi. Ya’ni, shaxsiy axloq qoidalari uni tartibga soluvchi va tuzadigan ko‘plab manbalarga ega, kasb axloqi ixtisoslashtirilgan qoidalardan iborat bo‘lib, ular kasbga yoki bajarilayotgan ishga qarab o‘zgarib turadi.

Darhaqiqat, inson o‘z kasbiy va shaxsiy axloq qoidalari o‘rtasidagi ziddiyatlarni boshdan kechirishi mumkin. Bunday hollarda, inson o‘z vijdoni uchun ham, atrofidagi odamlar uchun ham qulayroq bo‘lgan axloq qoidalariga moyil bo‘lishi kerak. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kasbiy axloqning maqsadi odamlarga o‘z hududida muammolarga yoki muayyan vaziyatlarga duch kelganda yordam beradigan vaziyatni yaratishdir. Shu sababli, ushbu axloq xatolarning oldini olishga yordam beradi, kasbni to‘g‘ri bajarish uchun imkon beradi.

Kasbiy axloq kasbiy etika doirasida olib boriladigan faoliyatni tartibga solishga qaratilgan. Shu ma’noda, kasb axloqi tartibga solingan intizomdir, amaliy etika esa voqelikning ma’lum bir qismiga ishora qiladi.

Ta’kidlash joizki, axloq, umuman olganda, majburlash xususiyatiga ega emas (u qonuniy yoki tartibga soluvchi choralar ko‘rmaydi). Biroq, professional etika, ma’lum ma’noda deontologik kodlar kasbiy faoliyatni tartibga soluvchi tushunchadir. Deontologiya normativ etika deb nomlanadigan fanning bir qismi, majburiy rioya qilishning bir qator printsiplari va qoidalarini taqdim etadi.

Shunday qilib, professional etika o’qituvchi kasbida to‘plangan majburiy normalarni o‘rganadi. Axloqshunoslik maqbul narsani taklif qiladi, qilmaslik kerak bo‘lgan narsani qoralaydi, etika esa kasbni axloqiy jihatdan ta’minlash uchun ma’muriy vositalarga ega.

Professional deontologiya har bir kasb egalarining faoliyatida axloq va kundalik xatti-harakatlarida axloqning umumiy me’yorlarini qo‘llash to‘grisidagi tushuncha bo‘lib fan sifatida ancha ilgari (XVI-XVII asrlarda) shakllangan.

Har davrda deontologiya turli xil tarzda namoyon bo‘lganki, fanning shakllanish va rivojlanish bosqichlarida yoqoridagi iboralar bila izohlanib kelgan. Shunday iboralarning tadrijiy davomi sifatida pedagogigik axloq tushunchasi vujudga kelganki, fanning rivojlanganligidan dalolat beradi.

O‘qituvchi halollik, rostgo‘ylik, axloqiy poklik, odamiylik, kamtarlik kabi fazilatlarga ega bo‘lishi, pedagogik axloq-odobining muhim talab qoidasidir. Muallim deyarli har kuni o‘quvchilar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning yaxshi xulqi, ezgu ishlarini ma’qullaydi, bilimini baholaydi, nojo‘ya hatti- harkati uchun tanbeh beradi. Albatta,

o‘qituvchining fikr-mulohazalarida nisbiylik, sub’ektivlik alomatlari mavjudki, bu fazilatlar uning kasbiy sifatlaridan kelib chiqadi. Pedagogik axloq o‘qituvchining yuksak insoniy fazilatlarining yig‘indisidir. Har qanday mutaxassis odob-axloq namunalariga ega bo‘lishi tabiiy, lekin pedagogik odoblilik mutlaqo o‘zgacha holdir. CHunki tabiatga, jamiyatga, notanish kishilarga, jism va ashyolarga, o‘z-o‘ziga munosabatda haqiqiy mezon rolini bajaruvchi qobiliyatga ega bo‘lishlik aynan o‘qituvchi shaxsida mujassamlashadi. Pedagogik nazokat etnopsixologik his-tuyg‘ulari, milliy xarakter xususiyati, xulq, faoliyat, muomala qoidalari, qonuniyatlari va ko‘nikmalaridan me’yoriy ravishda maqsadga muvofiq tarzda foydalanishda o‘z aksini topadi:

- emostional his-tuyg‘ular, kechinmalar, stress va affektiv holatlar xossalari, chegaralariga batamom rioya qilish;
- xulq-atvor malakalarini amaliyotda oqilona qo‘llash;
- bachkana qiliqlar, ortiqcha harakatlar qilishdan o‘zini tiyish;
- nutq madaniyatidan tashqari chiqmaslik, shaxsiyatga tegadigan iboralar ishlatmaslik, qo‘pol va dag‘al so‘zlar qo‘llamaslik;
- hissiy, aqliy bilish jarayonida muayyyan me’yorlarga asoslanish, manmanlikni namoyish etmaslik;
- o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoalari bilan, ota-onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatga kirishishda rasmiy, qat’iy ishbilarmonlik uslublariga asoslanish va hokazolar pedagogik axloqning ko‘rinishlari hisoblanadi.

Pedagogik axloq o‘z navbatida pedagogik etika tushunchasi bilan hamohangki nu atamalar fanning mazmun- mohiyatini ochib berishda asos boladi. Pedagogik etika o‘qituvchining axloqiy faoliyatining xususiyatlari va mazmunini o‘rganadi, pedagogik ish sohasida axloqning umumiy tamoyillarini amalga oshirish xususiyatlarini aniqlaydi. O‘qituvchining axloqi, shifokorning axloqiy odatlari kabi, qadimgi ildizlarga ham ega. Qadimgi Yunonistonda allaqachon o‘qituvchidan bolalarni sevish, uning mavzusini chuqur bilish, cheklash, jazolar va mukofotlarda adolat talab qilingan. Pedagogik axloqning o‘ziga xos xususiyati o‘qituvchi faoliyatining "ob’yekti" bolaning shaxsiyati bo‘lib, uning rivojlanishi va shakllanishi jarayoni ko‘plab qarama-qarshiliklar, axloqiy dialektika va nizolar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, ushbu kasb vakillari doimo jamiyat oldida alohida mas’uliyatni his qilishadi. Shuning uchun ular uchun bolalar, ota-onalar va hamkasblari bilan munosabatlarda axloqiy me’yorlarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Yosh avlodni tarbiyalash va o‘qitish jarayoni o‘qituvchidan nafaqat yuqori malakali, balki

pedagogik jarayonda qulay munosabatlarni yaratish uchun professional ahamiyatga ega bo‘lgan axloqiy fazilatlar to‘plamini ham talab qiladi. Bu insoniylik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, odillik, halollik, mas’uliyat, adolat, majburiyat, vazminlik. Ijtimoiy fikrni rivojlantirish jarayonida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o‘qituvchiga bo‘lgan axloqiy talablar va ulardan kelib chiqadigan normalar pedagogik axloq kodeksiga asoslanadi. Unda universal xarakterga ega bo‘lgan talablar, shuningdek hozirgi kunda pedagogik fan va amaliyot oldida to‘rgan yangi vazifalar bilan belgilanadigan talablar mavjud.

O‘qituvchi etikasi shaxsning ilmiy halollik, halollik, fuqarolik jasorati, demokratiya, vatanparvarlik, mas’uliyat kabi axloqiy xususiyatlarini shakllantiradi. Uning faoliyat axloqi haqiqatni qo‘llab-quvvatlashni va ilmiy yutuqlarni insoniyat manfaatlarida ishlatishga intilishni talab qiladi.

O‘qituvchi faoliyatidagi pedagogik etika o‘z navbatida pedagogik deontologiya tushunchasi bilan hamohanglikda bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalanishida muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchining xulq-atvori kasbiy fikrlash madaniyati, o‘z ishini ilmiy asosda tashkil eta olish qobiliyati, muomala mahorati, kasbiy tajribasini tanqidiy baholash va takomillashtirish, o‘z imkoniyatlarini tahlil qilish, to‘g‘ri qaror qabul qilish, jamoada qulay psixologik iqlim yaratish qobiliyati va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchining kasbiy xulq-atvorining o‘ziga xosligi nafaqat uning kasbining obro‘sini oshirish, turli xil eksperimentlarni tashkil etish va o‘tkazish, kasbiy attestatsiyaga tayyorgarlik ko‘rish kabi muammolar mavjudligi bilan belgilanadi, shuningdek tizimdagi maxsus psixologik, axloqiy munosabatlar: "o‘qituvchi o‘zida", "o‘qituvchi-talaba ", "o‘qituvchi-o‘qituvchi "," o‘qituvchi-jamoa" kabi munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Professor, M.O.Ochilov ta’qidlaganidek, “O‘qituvchi odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta’lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, muallimning o‘quvchilar o‘z kasbdoshlari, ota-onalar, maktab raxbarlari bilan muomala-munosabatlarida ifodalanadigan axloqiy-kasbiy xususiyatdir[1].

Pedagogik deontologiya tushunchasining yuqorida qayd etilgan mazmun-mohiyati uning tamoyillarida o‘z ifodasini topa olgan. Tamoyil-lotincha “tamoyilium” so‘zidan olingan bo‘lib, asos, boshlang‘ich nutqa,

[1]М.О.Очилов “Ўқитувчи одоби”.1997 йил 10-11 бетлар

holat, asosiy g‘oya, xulq va faoliyatning asosiy qoidasi kabi ma’nolarni anglatadi”[1].

Zero, tamoyil yuqoridagi ta’rifga ko‘ra, fanning yoxud muayyan predmetning asosiy qoidalarini, uni tashkil qilish va amalga oshirish yo‘llarini faoliyat va xulqqa nisbatan qo‘yilgan asosiy talablarni nazarda tutadi. Shunga binoan pedagogik deontologiya tamoyillari deganda, fanning mazmuniga, yo‘nalishiga, uni tashkil qilish shakllariga mazkur jarayon ishtirokchilari faoliyatiga xulq-atvoriga o‘zaro munosabatlariga qo‘yiladigan asosiy talablarni anglatuvchi dastlabki qoidalar hisoblanadi. Bu qoidalar fanning mazmundorligini, o‘qitilishini, o‘rganilishini aniq yo‘lga qo‘yuvchi kompas bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy-nazariy ta’limotlarda qayd qilinishicha pedagogik deontologiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. ***Talabaning biologik va fiziologik xususiyatlarni inobatga olib, yuksak intelektual salohiyatli inson bo‘lib rivojlanishiga ko‘maklashish tamoyili***. Bu o‘qituvchining ta’lim-tarbiya ishlarini yo‘lga qo‘yish va amalga oshirishda bilim oluvchilarning induvidual-ruhiy xususiyatlarni inobatga olishni unga asoslanib, talabaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirishni, bilish faolligini oshirishni va ularga asoslanib o‘qituvchining ko‘nikma va malaka darajasini doimiy ravishda takomillashtirishni hamda davr talablari asosida ta’limni rivojlantirish g‘oyalarini hayotga tadbiq etishni nazarda tutadi. Chunonchi, bilim oluvchining aqliy, ma’naviy axloqiy salohiyatini, jismoniy barkamoligini o‘stirish uchun har o‘quvchi-tarbiyalanuvchining induvidual va yosh xususiyatlarini, o‘zlashtirish darajasini, bolaning psixologik tayyorgarligini inobatga olgan holda, u bilan muloqotda bo‘lish, ta’lim-tarbiya vazifalarni bajarishni yo‘lga qo‘yish pedagogikaning muhim talablaridan biri.

2. Adolatlilik va xolisonalik tamoyili. Har qanday faoliyatning muvofaqiyati adolat bilan tashkil qilingan qoidalarga bog‘liq. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘zini va ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini haqiqiy xizmatiga qarab, sarf qilingan sa’y-harakatlariga mutanosib ravishda nazarda tutishi va baholashi kerak. Chunki, adolat tarozisi buzilgan joyda hech qachon muvofaqqiyat bo‘lmaydi. Shu uchun bo‘lsa kerak buyuk sarkarda va davlat arbobi, bobokalonimiz Amir Temurning faoliyat tamoyili “Rosti-Rusti” (“Kuch adolatda”) bo‘lgan.

O‘qituvchi o‘quvchi-talabalar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda axloqiy yo‘l-yo‘riq va ko‘rsamalar berishda albatta, bilim

[1]Словар.ин.слов.М.1955.563 бет

oluvchilarga adolat yuzasidan ish yuritishgina jamiyat va shaxs faoliyatida taraqqiyotga sabab bo‘ladi.

3. ***Talaba va uning jismoniy hamda ruhiy salomatligiga zarar yetkazmasdan foydali ta’sir ko‘rsatish tamoyili.*** Ushbu tamoyil o‘qituvchining har bir aniq talaba, hamkasbiga individual xususiyatlarini, o‘zining sherigi o‘rnida qo‘yish va vaziyatga o‘z pozitsiyasidan qarash qobiliyatini, shuningdek, o‘quvchilarining psixosomatik kasalliklariga davo topa olish qobiliyatini hisobga olgan holda, har bir talaba, hamkasbiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishini nazarda tutadi. Shaxsiy xususiyatlarini deontologik talablarga muvofiqlashtirish, sog‘liqni saqlash, valeologik savodxonlikni amaliyotga tatbiq etish.

4. Pedogogik jarayonda faoliyatning axloqiy jihatlariga amal qilish tamoyili. Ma’lumki, o‘qituvchi pedagogik jarayonda quyidagi majburiyatlarni bajarishi shart bo‘ladi. Muayyan vazifalarini, asosan aqliy mehnat vazifalarini amalga oshirish, talabalar, ularning ota-onalari, ham kasblari bilan o‘zaro munosabatni maqsadli va aniq tashkil etish, o‘qituvchilik kasbiga talabalar va pedagogik jamoaga hamda jamiyatga bo‘lgan shaxsiy munosabatini chuqur anglashiga to‘g‘ri keladi. Shu bois faoliyatning axloqiy jihatlari to‘g‘risida ma’lumotlar kerak bo‘ladi. Ular quyidagilardan iborat:axloqiy ma’rifatparvarlik, jamiyat talablariga mos xulq egasi bo‘lish, axloqiy bilimlarga oid tajribaga ega bo‘lish; o‘z o‘zini muntazam ravishda axloqiy jahatdan tarbiyalab borish. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagog faoliyatda axloqiy jihatlarga rioya qilmas ekan, talabalarga Axloqiy fazilatlarni o‘rgata olmaydi, talabalarni yaxshi xulqiy odatlari bilan tarbiyalay olmaydi, talabalarni ham, o‘zini ham axloqiy hijatdan yuksaltira olmaydi. Shunday ekan, axloqiy fazilatlar jamoa uchun ham, jamiyat uchun ham foydala berishi lozim.

5. Pedagogik faoliyatda kasbiy xulq-atvor va muomala odobiga rioya qilish tamoyili. Ma’lumki pedagogik deontologiya o‘qituvchining burchi. madaniyati va odobi haqidagi nazariyadir. Harbir pedagog o‘z kasbiy odobini va muomala madaniyatini bilishi zarur. Ma’lumki,o‘qituvchi pedagogik odobi tarkibiga axloqiy ong va bilimlarni egallash, axloqiy g‘oyalar, e’tiqodlar, axloqiy his-tuyg‘ularga ega bo‘lish kabi tushunchalar mujassamlashgan. Chunki, pedagogik odobga doir bilimlarning mukammalligi va barqarorligi ta’lim-tarbiya ishlarining bosh mezonidir. Bu mezonlar jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy odatlar, kasbiy burch va ma’suliyatda namoyon bo‘ladi.

Axloqiy e’tiqod o‘qituvchining axloqiy bilim va qarashlarining jamiyatga, kasbga, o‘quvchilarga, ularning ota-onalariga munosabatida,

ta’lim-tarbiya topshiriqlarni bajarishida muayyan qonun-qoidalarga aylantirildi. Axloqiy etikaga ega bo‘lgan pedagog voqeylikka, dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga befarq bo‘la olmaydi. Axloqiy etiqod nafaqat pedagoglarni, balki barcha soha egalarini xushyorlikka undaydi.

Axloqiy e’tiqod, bilimlar axloqiy his-tuyg‘uni shakllantiradi. O‘qituvchining axloqiy his-tuyg‘usi bo‘lsa, o‘z faoliyatida ta’lim-tarbiya vazifalariga, pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilariga befarqlik bilan qaramaydi, burchga sadoqat bilan qarash, insonparvarlik, baynalminallik, millatlararo muloqot madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, pedagogik deontologiyaning tamoyillari o‘qituvchiga ijodkorlikni, o‘z-o‘ziga talabchanlikni, kasbiy bilimlarini boyitib borish va malakasini oshirishga qiziqishni oshirib, murakkab pedagogik nizolarni ijobiy hal qilish ko‘nikmalarni shakllanishiga yordam beradi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, pedagogik deontologiya quyidagi masalalarni o‘rganishni o‘zining predmeti qilib olgan. Jumladan,

1.Pedagogik deontologiya va kasbiy (o‘qituvchilik) xulq-atvori

2.O‘qituvchining pedagogik kompetentligi

3.Pedagigik mahorat va pedagogik muloqot

4.Pedagogik kreativlik

5. Inson faoliyati kompetensiyalari

6. Tyutorlik va fasililatorlik faoliyati.

7. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar

O‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyatini tashkil etishda pedagog quyidagi majburiyatlarni bajara olishi zarur: muayyan vazifalarini, asosan, aqliy mehnat vazifalarini amalga oshirish;talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblar bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri tashkil etish, tanlagan kasbiga, talabalar va pedagogik jamoaga hamda jamiyatga bo‘lgan shaxsiy munosabatini chuqur anglash. Pedagogik majburiyatlar sirasidan, shuningdek, kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy munosabatda bo‘lish, o‘ziga nisbatan talabchanlik, kasbiy bilimlarini boyitib va pedagogik malakasini oshirishga intilish, talabalar va ularning ota-onalari bilan o‘zaro hurmatga asoslangan va talabchan munosabatni o‘rnatish, murakkab pedagogik nizolarni ijobiy hal qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish kabilar ham o‘rin oladi.

1.2. Pedagogik deontologiya fanining maqsadi va vazifalari

Pedagogik deontologiya va kompetentlik fani o‘qituvchi madaniyatiga bag‘ishlangan fan bo‘lib, fanning maqsadi – magistrlarni pedagogik deontologiya va kompetentlik fanining ilmiy-nazoriy asoslari, pedagogik deontologiya va kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va kasbiy etikaning pedagogik faoliyatidagi ahamiyati va o‘rni, kasbiy etika meyorlari haqida ma’lumotlar berishdan iborat.

Pedagogik deontologiyaning vazifalari nafaqat o‘qituvchining kasbiy majburiyatining ma’nosini ochish, kasbiy faoliyat natijalari uchun javobgarlik, talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblari bilan munosabatlar jarayonida o‘qituvchilarga qo‘yiladigan me’yorlar va talablar tizimini belgilashdan tashqari, ularni amalda bajarish shartlarini aniqlashdan iboratdir.

Pedagogik deontologiya ham har qanday fan kabi jamiyatda o‘z vazifasini bajaradi. Bunday vazifalar quyidagilar:

-o‘qituvchining kasbiy burch va majburiyatlarining mohiyatini, uning deontologik tayyorgarligini, deontologik fazilatlarini tarbiyalashni va boshqalarni ilmiy-nazariy o‘rganish;

-axloqiy funksiya, bu o‘qituvchilarning axloqiy ong, xulq-atvorning barqaror me’yorlari sifatida qadriyat yo‘’nalishlarini o‘rganish, shakllantirishni nazarda tutadi

- konstruktiv-texnikaviy, o‘qituvchilarning kasbiy burchini bajarishini amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqishni ta’minlaydigan, o‘qituvchining pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabatlari jarayonida qulay axloqiy-psixologik iqlimni yaratishi, o‘quvchining jismoniy-ruhiy salomatligiga zarar etkazmasdan uning uyg‘un rivojlanishiga ko‘maklashish bo‘yicha ish usullari;

- pedagogik deontologiyaning rivojlanish istiqbollarini, uning individual yo‘nalishlarini (o‘qituvchining deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlashga deontologik tayyorgarligi, umumta’lim maktablari o‘quvchilari orasida faol shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga o‘qituvchining deontologik tayyorligi va boshqalarni) o‘rganib chiqish, yangi (o‘qituvchining deontologik tayyorligi) ning paydo bo‘lishi va rivojlanishi.

Magistrlarning pedagogik deontoligiya va kompetentlikning mazmun mohiyatini yoritib berish, pedagogik faoliyatning kasbiy etika normalari haqida tasavvur hosil qilish, pedagogik faoliyatida kasbiy etika va kompetentlikka oid kompetensiyalarni shakllantirish ham fanning vazifasiga kiradi.

Pedagogik deontologiya va kompetentlik fani hayotda ilgari surilgan g‘oyalar, pedagogning shaxsi va kasbiga qo‘yiladigan talablar,

majmuriyatlar, ma’suliyatni ifodalab, axloqiy ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riqlardan kelib chiqadi. Shunga binoan, pedagogik deontologiya fanining maqsadi, kasb xususiyatlaridan kelib chiqib, uning xulq, odobini kasb nuqtai nazaridan ifodalab, o‘qituvchini axloqiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, shu asosida uning kompetensiyasi, ya’ni mahoratini oshirishga yo‘naltirilgan masalalarni yoritishdan iborat. Zero, har qanday jamiyatda kasb odobi va axloqi shu jamiyatning axloq qoidalari va qonuniyatlarga asoslanadi. Bizning davrimizda pedagogik deontologiya va kompetentlik pedagogik xulq-atvorni ifodalab, pedagoglar amal qiladigan ijtimoiy taraqqiyotga yo‘naltirilgan va u qo‘ygan vazifalarni bajaradigan axloqiy talablar, me’yorlar, mezonlarni tavsiflaydi. Shunga binoan pedagogik deontologiya fanining maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda, prezidentimizning nutqlarida, huquqiy normalar va hujjatlarda ifodalangan pedagogik madaniyat, burch va axloqqa oid masalalarni ifodalaydi. Jumladan, professor M.Ochilov va N.Ochilovalarning “O‘qituvchi odobi” kitoblarida keltirilganidek, “Kasb axloqining umuminsoniy, milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslanishi o‘qituvchi odobi uchun ham xarakterlidir. O‘qituvchi odobining shakl va usullari, xalqimizning tarixiy an’analari, urf-odatlari, fan, madaniyat, ma’naviyat bobidagi ko‘p asrlik tajribasi asosida kelajagi buyuk O‘zbekiston davlati istiqbollarni ko‘zlab tashkil etiladi”[1] .

Pedagogik deontologiya va kompetentlik fanining maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarishni nazarda tutadi:

1. Magistratura talabalariga umuminsoniy va milliy axloqqa oid ta’limotlar, kasb-axloqiga, o‘qituvchining axloqiy fazilatlari va kasb odobiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar berish;

2.Magistratura ta’lim-tarbiya jarayonida pedagog bilan talabalar, kursdoshlar, ota-onalar, ta’lim muassasasi boshliqlari o‘rtasidagi muomala munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, muayyan sohaga yo‘naltirilgan ma’lumotlar bilan qurollantirish;

3.Oliygohning ta’lim-tarbiya ishtirokchilari, boshqaruvchilari o‘rtasidagi muomala odobiga pedagogik faoliyatning axloqiy jihatlariga amal qilish, oliygohda belgilangan axloqiy me’yorlarni qabul qilish, talabalar ongiga singdirishga o‘rgatish.

[1]Очилов М.Н., Очилова Н.М. Ўқитувчи одоби – Т:. Ўқитувчи, 1997. - 11-12 бет.

4.Magistrlik faoliyati davomida axloqiy bilimlar, axloqiy e’tiqod va o‘z-o‘zini axloqiy tarbiyalash to‘g‘risida bilimlar berib, ularni o‘zida rivojlantirishga o‘rgatish.

5.Pedagog kasbiga tayyorlanish jarayonida fanning ilmiy-nazariy asoslari bilan qurollanib, talabalar bilan muomala kasbdoshlari bilan muloqot odobiga rioya qilish qonuniyatlariga o‘rgatish.

6.O‘qish jarayonini o‘zining bajarayotgan faoliyatining axloqiy me’yorga mos kelishini uning jamoa, jamiyat uchun foydali ekanligini tushinishga o‘rgatish.

Shu maqsad va vazifalar pedagogik deontologiya fanining ilmiy-nazariy va amaliy mazmundorligini oshiradi, pedagogik faoliyatda kasb etikasi nuqtai nazardan tayyorlanishga yo‘naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, fanning vazifasi - magistrlarga pedagogik deontologiya va kompetentlikning mazmun-mohiyatini yoritib berish, pedagogik faoliyatning kasbiy etik normalari xaqida tasavvur hosil qilish, pedagogik faoliyatida kasbiy etika va kompetenlikga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

1.3 Pedagogik deontologiya kasbiy xulq-atvor to‘g‘risidagi fan

Birinchi faslda bayon qilganimizdek, shaxsning shakllanish tizimida ko‘pgina kasblar qatori o‘qituvchi-tarbiyachi (pedagog)lik kasbi ham kiradi. Ushbu kasbning o‘ziga xos faoliyati, ilmiy-nazariy, shaxsiy-axloqiy me’yorlar, talablar mavjud. Pedagogik nazariya va amaliyotda o‘qituvchi odobi, xulq-atvori, ma’naviyati kabi tushunchalar mavjud. Bu tushunchalar tarqibida pedagogik deontologiya ham kirib, u kasbiy xulq-atvor degan ma’noni anglatadi. Kasbiy xulq-atvor o‘z mazmunida umuminsoniy va milliy axloq qonuniyatlarini, mezonlarini, tamoyillarini, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘qituvchining talabalar, ularning ota-onalari, kasbdoshlari, ta’lim muassasasi rahbarlari bilan muomala munosabatida ro‘y beradigan shaxsiy-kasbiy jihatlarini qamrab oladi. Ular tarkibidagi axloqiy normalar pedagogik deontologiya uchun muhimdir. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda mavjud axloq kasb axloqi bilan ma’lum bir munosabatda bo‘ladi. Bu umumiylik bilan xususiylik o‘rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalarini, tamoyillari va tushunchalarini, afzalliklari va kamchiliklarini o‘zida mujassamlantiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi. Bundan tashqari, kasb axloqi faqat shu soha kishilari uchun xos bo‘lgan ayrim odob, axloq normalari va

qoidalarini ham ichiga oladi. Ayrim kasblar — o‘qituvchi, xakim (vrach), tijoratchi, huquqshunos, artist, rahbar xodimlar uchun inson mehnat ob’yekti hisoblanadi. Bu kasblarda mehnat ob’yekti shaxsning taqdiri ko‘p jihatdan shu kasb egasining axloqiy faoliyatiga bog‘liq. Bunday kasb egalaridan faoliyat ob’yekti bo‘lgan odamlar bilan o‘zaro muomala munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy normalarga qat’iy amal qilish talab etiladi. Bu esa kasb egalarining axloqiy mas’uliyatini oshiradi. Jamiyatning, davlatning bunday kishilarga ishonchi ham boshqacha bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qituvchi, vrach, tijoratchi, rahbar xodimning axloqiy fazilatlari shu kasbda ishlashga yaroqli ekanligini ko‘rsatuvchi muhim belgilardan hisoblanadi. Muallimlik ana shunday kasblardan bo‘lgani uchun o‘qituvchi odobi kasb axloqining boshqa turlaridan farq qiladi, bu — pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Kasbiy axloqqa doir asarlarda professional etika ma’lum bir jamiyatda ayrim kasb uchun xarakterli bo‘lgan axloqiy normalar, tushunchalar, baho va ideallarning majmuidan iborat, deb ta’riflanadi. Professional etika nazariyotchilari o‘z asarlarida kasb axloqining umuminsoniy axloq bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlab ko‘rsatadilar. Kasb axloqi tushunchasi professional guruhlar axloqiy ongining rivojlanish darajasi amalda o‘qutuvchi odobiga ta’rif berganda mantiqiy tafakkur qonuniyatlarini buzib, xatolikka yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘qituvchi odobi kasb axloqining bir turi, ko‘rinishi (yo‘nalishi)dir, deb ta’riflab, bu ta’rifda o‘qituvchi odobini tavsiflaydigan muhim, asosiy belgilarni ko‘rsatish zarur.

“O‘qituvchi odobining muhim, asosiy belgilari qatoriga quyidagilar kiradi: umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, tamoyillari, tushunchalari, mezonlari, talablariga amal qilish; pedagogik jarayon va pedagogik faoliyatning o‘zigagina xos bo‘lgan va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari muallimning o‘quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, maktab rahbarlari bilan muomalasida, munosabatlarida, shuningdeq o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishda, pedagogik mehnatning samaradorligida namoyon bo‘lishi kabilar”[1] .

Demak, pedagogik deontologiya kasbiy xulq-atvor to‘g‘risidagi fan bo‘lib, u umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta’lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, muallimning o‘quvchilar, o‘z kasbdoshlari, ota-onalar, maktab rahbarlari va boshqa pedagogik kasbiga taluqli shaxslar bilan

[1]ОчиловМ.,Н.Очилова Н,М Ўқитувчи одоби” – Т:. Ўқитувчи, 1997, -10- бет.

muomala-munosabatlarida ifodalanadigan professional axloqiy xususiyatlarni qamrab olgan.

Shu ma'noda professor M.Ochilov o'zining "O'qituvchining axloqiy shakllanishi kitobida" kasb axloqini shunday ta'riflaydi: "Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar ham bor. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda hukmron bo'lgan axloq bilan kasb axloqi o'rtasida ma'lum bir munosabat mavjud. Bu umumiylik bilan xususiylik o'rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalari va kamchiliklarini o'zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi" [1].

Pedagogik deontologiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri o'qituvchining pedagogik kompetentligidir. B.Xodjayev, B,Jo'rayevlar ta'kidlaganlaridek: "Kompetentlilik har doim faoliyatda namoyon bo'ladi. Mutaxassisning kasbiy kompetentliligi professional topshiriqlarni bajarish davomida namoyon bo'ladi. Bunda kasbiy kompetentlik namoyon bo'ladigan kontekstni ko'rish muhim bo'lib hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra kompetentlilik tabiati shundayki, u insoniy qadriyatlar bilan, ya'ni muayyan turdagi faoliyatga nisbatan chuqur shaxsiy qiziquvchanlik sharoitida namoyon bo'ladi. Amaliyotda shaxsiy qadriyat darajasida ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat mazmuni aniq natija (mahsulot) yoki xulq-atvor shakli ko'rinishida bo'lishi mumkin. XXI asrda mutaxassis kompetentligini anglash insonning integrativ va analitik qobiliyatlari rivojlanganligiga asoslanishi lozim. Ijtimoiy taraqqiyot asosida pedagogik faoliyat insonning kasbiy faoliyati davrida to'la aniqlanmaganligini nazarda tutadi hamda uzluksiz tayyorgarlikni, o'z kasbiy kompetentliligini doimiy oshirib borishni talab etadi[2].

Shunga asosan o'qituvchining pedagogik kompetentligi, uning pedagogik kasbiga layoqatini, qobiliyatini, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish va takomillashtirishdagi ijodkorligi, yangilikka intilishini ifodalovchi nazariy pedagogik tushuncha bo'lib, u ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy-ma'rifiy hayot qonuniyatlarini aks ettiradi.

O'qituvchi - inson, ta'lim bilan shug'ullanadi, yosh avlodni tarbiyalovchi va tarbiyalovchi. Uning vazifasi shu tarzda ma'lumotlarni taqdim etishdir, tinglovchilar buni eslab qolishlari uchun, olingan bilimlardan hayotda foydalanishni tushunadi va o'rganadi.

[1]ОчиловМ.,Н.Очилова Н,М Ўқитувчи одоби" – Т:. Ўқитувчи, 1997, -59-60 бет.
[2]Ходжаев Б, Жўраев Б. Педагогик фаолиятга кириш Т:, "Мухаррир" нашриёти 2020 -94 бет

Barchangizga ma’lumki, so‘nggi yillarda Respublikamizda mutaxasislar tayyorlash va ta’limni tashkil etishning jahon standartlariga javob beradigan samarali tizimi yaratildi va bugungi kunda ham oliy ta’limni modernizatsiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son qarori, 2017 yil 9 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarida pedagogika yo‘nalishlarida maxsus sirtqi bo‘limlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3183-son qarori, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son qarori O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Shu bilan birga, mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan.

Mamalakat ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsad bo‘lajak o‘qituvchilarimizni pedagogik madaniyati va kompetentligini rivojlantirish nazarda tutilgan.

1.4 Pedagogik kompetentlik va o‘qutuvchi kasbiy etikasiga qo‘yiladigan talablar

Axloqiy qadriyatlar - kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari haqida g‘oyalar tizimi. O‘qituvchining axloqiy me’yorlariga quiydagilar kiradi: xushmuomalalik, odoblilik oddiylik, kamtarlik halollik, rostgo‘ylik sobitqadamlik ochik ko‘ngillik saxiylik, muruvvatlilik o‘zaro hurmat, do‘stona munosabat, samimiylik sipolik kattalarni hurmat qilish va boshqalar.

Odoblilik — yaxshi tarbiya ko‘rganlikning namoyon bo‘lishi, xatti-harakatlarda, so‘zlashuvda me’yorni, chegarani, muvofiqlilik va

nomuvofiqlikni bilishdir. Odoblilikning asosiy belgisi – o‘zini tuta bilish, hukm chiqarishda shoshilmaslik kishlarning orqasidan g‘iybat qilmaslik o‘zgalar fikrini tinglay bilish, shirinso‘zlik hisoblanadi.

Xushmuomalilik — ko‘ngildagi ardoqli fikrlarni, yeng noyob his-tuyg‘ularni, yeng yezgu niyatlarni o‘quvchilar, odamlar bilan baham ko‘rish, osoyishtaliq vazminlik xotirjamlik bilan ish tutishdir.

Halollik- har bir insoning o‘z kuchi bilan mehnat qilishi, shuning evaziga topgan mol-mulki, obro‘si, jamiyatga tutgan o‘rni, xulqining to‘griligi, so‘zida qat’iylik va sadoqatining majmuasidir.

Sobitqadamlik — niyat qilingan ishga jiddiy kirishish va oxiriga yetmaguncha undan chekinmaslik boshlangan ishni oxiriga yetkazishdir.

Sabr-qanoat — boshga tushgan qiyinchiliklarni chidam bilan yengishdir.

Kamtarlik kishining o‘zini tabiiy holda qanday bo‘lsa shundayligicha hamma bilan teng bab-barobar tutishiga aytiladi.

Rostgo‘yilik — halollikning bir ko‘rinishi bo‘lib, haqiqatni gapirish, o‘zining ham, o‘zgalarning ham qadr-qimmatini to‘gri baholash, yaxshini yaxshi, yomonni yomon deb ochiqchasiga aytishdir.

Shijoat — botirliq jasorat, dovyurakliq mardlik degani.

Pokizalik — bu tozalik va soflik degani. Tozalik-inson salomatligining garovi. O‘qituvchining axloq normasi sifatida kiyim-kechagi, ish joyining pokiza bo‘lishini hamda qalbining pok bo‘lishini, taomiga harom aralashmasligi, halol bo‘lishini talab qiladi.

Burch — ado yetilishi, bajarilishi shart bo‘lgan vazifa, majburiyatdir. Pedagogik burch pedagogik etikaning eng muhim kategoriyalaridan biridir. Ta’lim sohasi xodimlarning kasbiy burchi deb jamiyat, davlat qo‘ygan vazifalarni, xizmat vazifalarini majburiy ravishda bajarishlariga aytiladi.

Pedagogik burchning asosiy mazmunini tashkil etuvchi vazifa va majburiyatlar quyidagilardan iborat:

- ona Vatan — O‘zbekiston Respublikasiga cheksiz sadoqat bilan xizmat qilish;
- o‘z davlati Konstitutsiyasiga va qonunlariga qat’iy rioya qilish, buyruq va nizomlarning talablarini bajarish;
- o‘qituvchilik faoliyati shaxsiy hayotda halol va to‘g‘ri, mehnatsevar, intizomli bo‘lish;
- axloq, odob qoidalariga qat’iy rioya qilish, doimo ozoda va orasta kiyinish;
- o‘z fani mazmuni o‘qitish metodikasini puxta egallash;

- o‘z kasbiga nisbatan muhabbatli bo‘lish, bolalarni sevish, ular bilan ishlay olish qobiliyatiga ega bo‘lish;

- kasbiy mahoratini doimo rivojlantirib borishi;

- zamonaviy talablar bo‘yicha yetuk faol, ijtimoiy, siyosiy masalalarni to‘g‘ri tushuna olish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

Pedagoglik mehnatini o‘ziga olgan har qanday shaxs moyillik qobiliyat va imkoniyatlariga qaramasdan muayyan axloqiy qoidalar, talablarni bajarishga majburdir.

Pedagogik burchning talablaridan biri – o‘zining bilimlarini doimiy ravishda to‘ldirib borishdir. Bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo‘lish o‘qituvchi axloqiy qiyofasida muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o‘qituvchi muntazam o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlashi shart. Burch o‘qituvchi oldida bo‘sh vaqtning kamligiga qaramasdan o‘z ustida doimiy ishlashni talab etadi. Pedagogik burchni eng yuqori nuqtasi fidoyilik, vaqt va salomatlik holatiga qaramasdan ishlashdir. Kasbiy fidoyilikning yorqin namunasiga A.S. Makarenko va V.A. Suxomlinskiy hayoti va faoliyati misol bo‘la oladi.

O‘qituvchilik mas’uliyati. Shaxs axloqini tavsiflaydigan belgilardan biri mas’uliyatdir. O‘qituvchining mas’uliyati, muallimlik faoliyati va ta’lim – tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas’uliyati yuklangan. O‘qituvchilik qilayotgan yoki kasbini tanlagan kishilar o‘z zimmalariga qanchalik yuksak sharafli mas’uliyat olayotganliklarini tasavvur yetishlari lozim.

Adolat axloqiy tushunchalarning eng keng tarqalgan tushunchalaridan biri va etikaning eng muhim kategoriyalaridan biridir. Adolat — odamlarning o‘z burch va vazifalarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda to‘g‘ri, qonuniy, halol, vijdonan, haqqoniy va odilona bajarishlarini o‘zida aks yettiruvchi axloqiy, siyosiy, huquqiy kategoriyadir. Adolat tamoyili o‘z mazmuniga ko‘ra uch tarkibiy qismdan:

- taqdirlash mezoni;
- talab qilish mezoni;
- qonuniy baho berishdan tashkil topadi.

Adolat tamoyilining taqdirlash mezoni — o‘quvchilar jamoasining har bir bolani, o‘quvchining qilgan mehnatiga, xizmatiga yarasha siylashi yoki qilmishiga yarasha jazolashi tushuniladi.

Talab qilish mezoni — o‘quvchining jamiyat tomonidan norma, odob qoidasi, an’ana, urf-odat shaklida qaror topgan axloqiy talablarga

og‘ishmay amal qilishini, ularni bajarishini qat’iyan talab qilinishi tushuniladi.

Qonuniy baho berish deganda o‘rnatilgan axloqiy baholash o‘lchovi asosida har bir harakatga berilgan bahoning to‘g‘ri yoki noto‘griligini belgilab berishi tushuniladi.

“Adolatli ustoz” iborasi har qanday maqtovdan ustun turadi. Bu insonning axloqiy va ishchanlik xususiyatlarini baholashdir. “Adolat” bu bolaning o‘qituvchilarga bo‘lgan ishonchning asosi. Adolatli bo‘lish uchun har bir bolaning ruhiy dunyosini bilish kerak” — deb yozgan mashhur rus pedagogi V.A. Suxomlinskiy. “Aqlli, fikran boy, bag‘ri keng insonchalik hech narsa yoshlarni qiziqtirmaydi, o‘zining ortidan ergashtira olmaydi ham, aql — aql bilan tarbiyalanadi, vijdon — vijdon bilan, vatanga sadoqatlilik —bevosita vatan uchun xizmat qilish bilan, — deb ta’kidlagan edi V.A. Suxomlinskiy. — U o‘zining butun borlig‘i, kundalik hayoti, ma’naviy madaniyati bilan o‘qituvchi va o‘quvchilarga o‘rnak bo‘ladiu, larni o‘z ortidan ergashtiradi. Shuning uchun tarbiyachi barcha masalalarda, amallarda odillik modeli, ya’ni o‘zi namuna va adolatparvar bo‘lishi kerak.

Or deganda, o‘ziga nomunosib yoki el ko‘rmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, nomus qilish tushunilsa, nomus deganda kishining o‘z obro‘sini ulug‘lashi va ardoqlashi, oriyat, diyonat, uyat-andisha qilish, sharm-hayo tushuniladi. Shunga ko‘ra oriyatli odam deb or-nomusni biladigan, o‘z obro‘yini qadrlaydigan kishilarga aytilsa, nomusli odam deb uyat-andishani biladigan, sharm-hayoli kishilarga aytiladi.

O‘qituvchilik kasbining sha’ni deb, o‘qituvchilik faoliyatini bajarishida o‘zlarining insoniylik adolatparvarlik vijdoniylik halollik xislatlarini har tomonlama namoyish qilib, oriyatli, diyonatli bo‘lib, o‘z kasblarini ulug‘lashlari va ardoqlashlariga aytiladi.

Qadr-qimmat deb xodimlarning jamiyatda, kishilar orasida tutgan o‘rni, topgan obro‘si, hurmati va nufuziga aytiladi.

Or-nomus kategoriyasi shaxs axloqining tashqi tomonlarini ifodalasa, qadr-qimmat kategoriyasi esa insonning o‘z-o‘zini anglashi, nazorat qilishni ifodalaydi. Qadr-qimmat o‘z qadrini anglash shakli bo‘lib, insonni kamsitadigan, xo‘rlaydigan, shu bilan uning boshqa kishilar ko‘z o‘ngidao‘z qimmatini yo‘qotishga sabab bo‘ladigan qiliqlarga yo‘l qo‘ymaydigan to‘siq hisoblanadi.

O‘qituvchilarning qadr-qimmati ularning o‘zini-o‘zi hurmat qilishi va saqlashi, o‘quvchilar hurmatini yo‘qotmasligi, o‘z sha’niga dog‘ tushirmaslik uchun o‘zini nazorat qilishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik vijdon deb o‘qituvchining o‘z xatti-harakati, qilmishi yurish-turishi uchun o‘quvchilar, odamlar, jamoatchilik oldidagi mas’uliyat tuyg‘usi tushiniladi. Insonda irodaning paydo bo‘lishi va kuchayishi uni harakatga keltiradi, vijdon azobidan qutqaradi.

Vijdon insonning faqat o‘ziga, o‘z xatti-harakatlarigagina emas, balki boshqa kishlarga, ijtimoiy manfaatlarga munosabatini ham ifoda yetadi. O‘qituvchi qanchalik vijdonli bo‘lsa, o‘z kasbiy burchini shunchalik chuqurroq anglaydi va faolroq bajaradi. “Tarbiyada hamma narsa murabbiyning shaxsiga asoslanishi kerak” ―deydi rus pedagogi K.D.Ushinskiy.

1.5 Pedagogik deontologiya va kompenetlik fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Pedagogik deontologiya va kompetentlik fan sifatida boshqa fanlarning nazariyalaridan ijodiy qo‘llash natijasida rivojlanadi. Pedagogik hodisa va jarayonlarni bilish, tadqiq qilishning umumiy yondashuvlarini falsafa ko‘rsatib beradi. Pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar ta’lim va tarbiya mazmunini ishlab chiqishda, maqsadni belgilashda, uning metodologiyasini aniqlashda falsafiy bilimlar tizimiga tayanadilar.

Fiziologiya, anatomiya, psixologiya kabi inson to‘g‘risidagi fanlar inson shaxsini shakllanishi, qonuniyati va mohiyatini har tomonlama chuqur o‘rganishga yordam beradi.

Pedagogik deontologiya va kompetentlik fanini ijtimoiy fanlar bilan aloqada bo‘lib, ijtimoiy fanlar tarbiya maqsadini va mohiyatini aniqlashga yordam beradi. Pedagogika ijtimoiy fanlardan falsafa bilan uzviy bog‘liq. Falsafiy ta’limotlar pedagogikaning metodologik asosi hisoblanib, ta’lim va tarbiya maqsadini anglashga yordam beradi. Falsafiy qarashlar tizimidan (materialistik, ekzistensial, pragmatik, neopozitivistik v.b..) pedagogika tadqiqotchilari tayangan holda pedagogik izlanish yo‘nalishlarini belgilab, ta’lim jarayonini texnologik xususiyatlarini, maqsadini, mohiyatini aniqlaydilar. Pedagogika va falsafaga tegishli qator umumiy savol va muammolar mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

– tarbiya maqsadi muammosi;

– dunyoqarashni shakllanishi muammosi;

– jamoa va shaxs aloqadorligi;

– bilish nazariyasi bilan bog‘liq gnoseologik muammolar.

Pedagogik deontologiya va kompetentlik shu bilan birgalikda falsafaning mustaqil sohalari etika va estetika bilan ham uzviy bog‘liqlikda

rivojlanadi. Ular axloqiy, estetik tarbiya hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kabi pedagogik vazifalarni hal etishda yordam beradi. Pedagogik deontologiya va kompetentlik aholining turli guruh va qatlamlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini, ijtimoiylashuv qonuniyatlarini, ijtimoiy muhitning insonga ta’sirini, shaxsning turli ijtimoiy institutlardagi tarbiyasini tadqiq qiluvchi sotsiologiya bilan uzviy bog‘liq. Pedagogik deontologiya va kompetentlik biologik fanlar bilan ham uzviy bog‘liq. U fanlar ham pedagogik deontaogiya va kompetentlikning tabiiy-ilmiy tayanchi hisoblanadi. Pedagogik deontologiya va kompetentlik rus fiziologlari I.M.Sechenov, I.P.Pavlovlarning birinchi va ikkinchi signallar tizimi, insonni ruhan rivojlanishi, tabiati, sezgi organlarining rivojlanishi, funksiyalari to‘g‘risidagi fundamental ishlariga tayanadi. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya masalalarini hal etish, mehnat qilish, dam olish tartibini ishlab chiqish, inson organizmi funksiyalari va xususiyatlari to‘g‘risidagi yosh fiziologiya, maktabdagi turli mashg‘ulotlarni tashkil etishning gigeyenik masalalarini hal etish muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik deontologiya va kompetentlik fani yosh fiziologiyasi va gigiyenasi fani bilan ham aloqadorki, fan qonun-qoidalarni bilish, unga amal qilish bolalar, o‘smirlarning o‘quv, mehnat va ishlab chiqarish faoliyatlarini me’yorlash bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni ham hal qilish uchun zarurdir. Oliy asab faoliyati haqidagi ta’limot esa psixologiya va pedagogikaning tibbiy ilmiy asosi hisoblanadi.

O‘qituvchilar ta’lim-tarbiva ishlarini yoshga oid fiziologiya va o‘smirlar gigiyenasi fani ma’lumotlariga asoslangan holda olib borishlari ham muhim ahamiyatga ega. Pedagog bilib olishi shart bo‘lgan birinchi narsa bu bola tanasining tuzilishi va hayoti, bola organizmining anatomiyasi. fiziologiyasi va uning rivojlanishi.

Bu bilimlarsiz yaxshi pedagog bo‘lish bolani, o‘quvchi yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalash mumkin emas. Bolaning jismoniy va aqliy ish qobiliyatlarini, uning nimalarga qodir ekanligini bilmasdan, yoshga aloqador xususiyatlarini nazar e’tiborga olmasdan turib ta’lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish mumkin emas.

Pedagogik deontologiya va kompetentlik fanining boshqa fanlar bilan aloqalari tahlil natijasida quyidagi bir-birini to‘ldirish shakllarini ifodalashimiz mumkin:

-boshqa fanlar tomonidan umumlashtirilgan, asosiy nazariya va g‘oyalardan pedagogikada ijodiy qo‘llash va foydalanish, boshqa fanlarda qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlaridan (matematik modellashtirish,

sotsiologik so‘rov) foydalanish, psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya va boshqa fanlarda olingan aniq natijalarni pedagogikada qo‘llash, kompleks tadqiqotlarda ishtirok etish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Deontologiya tushunchasi nimani anglatadi?
2. Pedagogik deontologiya deganda nima nazarga tutalgan?
3. Pedagogik deontologiya fanining tamoyillarini izohlang.
4. Pedagogik denotalogiya fani nama sababdan kasbiy xulq-atvor to‘g‘risidagi fan deyiladi?
5. Pedagogik deontologiya fanining maqsadini aytib bering?
6. Pedagogik deontologiya fani qanday vazifalarni hal qilishga qaratilgan?
7. Pedagogik deontoloik va kasbiy kompetentlikka qo‘yilgan talablarni izohlang.
8. Pedagogik deontologiya fani qaysi fanlar bilan aloqadorlikda o‘qitiladi?

2-MAVZU: PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIK FANINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Tayanch tushunchalar:pedagogika, pedagogik kompetentlik, deontologiya, metod, yondashuv, fanlararo yondashuv, ma'lumotli yondashuv, kompetensiya, amali tayyorgarlik, nazariy tayyorgarlik.

2.1. Pedagogik deontologiya va kompetentlik faniga metodologik yondashuvlar

Pedagogik deontologiya va kompetentlik faniga metodologik yondashuvlar tushunchasi XXI asrda jamiyatimizda ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy-ma'rifiy hayot borasida islohotlar jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimini bosqichma - bosqich rivojlanishi, murakkab ijtimoiy hodisa sifatida umume'tiborli va davr talabidagi jarayonga aylanishi natajasida vujudga keldi. Shunday vaziyatda mamlakatimiz ta'lim tizimining asosiy maqsadi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan barkamol jamiyat fuqarolarini voyaga yetkazishdan iboratdir. Pedagogik faoliyatda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirish orqali insonni mehnatga, shaxsiy hayotga, ijimoiy munosabatlar va muloqotga tayyorlash muhim pedagogik hodisa hisoblanadi.

Bunda pedagogik deontologiya va kompetentlik fani muhim o‘rin tutadi. Zero, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy madaniyatini shakllantirish, xulq-atvori shakllantirish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik jarayonda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etishda nazariy metodologik yondashuvlar, amaliy ko‘nikmalar va o‘qituvchining hissiy sifatlari, o‘z-o‘zini axloqiy tarbiyalash, kasbiy mahorati bu sohani rovojlantirishda muhim andoza hisoblanadi.

Shunga muvofiq pedagogik deontologiya va kompetentlik fanining nazariy metodologik asoslarini ilmiy yoritish, kasbiy pedagogik yuqori sifat darajasiga ko‘tarish muhim hisoblanadi. Bu uchun dastavval deontologiya, pedagogik deontologiya va kasbiy kompetentlik tushunchalarining ilmiy asoslarini maqsadli hal etish imkonini beradi. Dastavval pedagogik deontologiya va kompetentlikning nazariy asoslarini ko‘rib chiqamiz.

Deontologiya, yoki deontologik etika (qadimgi yunoncha "deontos" va logos iboralardan kelib chiqqan bo‘lib, axloq va axloq muammolari

to‘g‘risidagi ta’limot, axloqning bir bo‘limi. Amalga oshirilgan harakatni baholashda deontologiya ma’lum qoidalarga muvofiqligi yoki mos kelmasligi asosida amalga oshiriladi. Ba’zan uni burch axloqi (yoki majburiyat) yoki xulq-atvor qoidalariga asoslangan axloqiy tizim deb atashadi, chunki ular burch tushunchasining asosidir[1].

Ilmiy-nazariy manbalarida qayd etilishicha, deontologik axloqning mohiyati shundan iboratki, tushunchaning mazmunidan kelib chiqib uning harakat oqibatlarga asoslanib, odatda natijali,- deb qayd etish mumkin.

Ushbu atamani Jeremiah Bentham o‘zining "Deontologiya" yoki "Axloqshunoslik to‘g‘risida" asarida axloq nazariyasini axloq haqidagi fan deb atash uchun qo’llagan. Keyinchalik, fan burchni axloqiy qadriyatlar tomonidan berilgan majburlashning ichki tajribasi sifatida ko‘rib, insoniy burch muammolarini tavsiflash bilan cheklandi. Zamonga mos holda bu atama C.D.Brod tomonidan 1930 yilda nashr yetilgan "Axloq nazariyasining beshta turi" kitobida kiritilgan[2].

So‘nggi paytlarda "deontologiya" atamasi ta’lim tizimi xodimlari orasida juda mashhur bo‘lib qoldi. Yunon tilidan oingan bu atama zamirada kasbiy axloq-odob turadi. So‘zning lug‘aviy ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uni "burch haqidagi ta’limot", boshqalari - "huquq to‘g‘risidagi ta’limot" yoki "huquq haqidagi fan" deb tarjima qilishadi. U yoki bu tarzda shuni aniq aytish mumkinki: har qanday ixtisoslikdagi ta’lim tizimi xodimlarning, shu jumladan pedagoglarning kasbiy fikrlashida vazifa yoki majburiyat tushunchasi o‘ta muhim, deontologiyaning asosiy tamoyili har qanday manfaatlarni ongli ravishda shaxsiy manfaatlariga bo‘ysuntirishdir.

Ta’lim tizimi xodimlari faoliyatini axloqiy, huquqiy tartibga solish masalalari bo‘yicha adabiyotlarning ko‘pligi bu masalalar o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganligini so‘nggi yillarda ularga tobora ko‘proq e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi, garchi pedagog etika - "pedagogning ruhi", ta’lim beruvchining donoligi "- ta’lim rivojlangan davrda paydo bo‘lgan unga parallel ravishda ta’lim-tarbiyani takomillashtirish bilan rivojlangan. Deontologiya atamasi dastlab shifokorlar faoliyatida vujudga kelgan tushuncha bo‘lib, ularni bemorlar bilan munosabatida namoyon bo‘lgan. Jumladan, Hindistonda 3000 yil oldin shifokorlar quyidagi qoidaga rioya qilishi kerak edi:

[1] [dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy/2171/ДЕОНТОЛОГИЯ Деонтология] // Философский энциклопедический словарь. / Гл. редакция: Л. Ф. Ильичёв,

[2] Beauchamp, Tom L. 1991 Philosophical Ethics: An Introduction to Moral Philosophy, 2nd Ed. New York: McGraw Hill: 171

- Har doim sabrli, diqqatli va xushmuomala bo‘lish;
- Aqlning temir mantig‘iga bo‘ysungan holda, kamtar bo‘lish;
- Kasallarga shifo berishga harakat qilish;
- O‘zingiz uchun hech qanday qurbonlik va foyda talab qilmaslik;

“Bitta mohir davolovchi ko‘plab jangchilarga arziydi. U o‘qni kesib, jarohatni dori bilan davovlaydi” [1].Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni pedagogika faniga ko‘chirib, tahlil qiladigan bo‘lsak, u kasb etikasi yoxud pedagogik axloq degan mazmunni beradi. Ma’lumki, O‘rta Osiyo mamlakatlarida yashab ijod etgan mutafakkirlarning ta’limotlarida umuminsoniy, milliy axloqqa doir g‘oyalar o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularda asosan ta’lim beruvchilarga kasb axloqiga alohida urg‘u berilgan. Shuningdek, keyingi davrlarda pedagogikada kasbiy pedagogik axloqqa alohida e’tiblor qaratilib, turli g‘oyalar va yondashuvlar maydonga keldi. XX asrda kasbiy xulq-atvor yoxud pedagogik axloqqa munosabat rus pedagog olimlari V.N.Chernokozovaning “Pedagogik etika”, I.I Chernokozovning “O’qituvchi etikasi”, I.Ya. Pisarenko tomonidan “Pedagogik etika” nomli asarlarida bayon qilingan.

Turli tarixiy ijtimoiy davrlarda barcha kasblarning axloqiy xususiyatlarga alohida e’tibor bilan qarashgan. Chunki axloq, axloqiy fazilatlarning bir turi va ijtimoiy ong shakllarini tashkil qilgan bo‘lib, inson hayotining barcha sohalarida uning xulqi, hatti-harakatlarni tartibga solib, boshqarib turuvchi vosita hisoblangan.

Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasida bu masalaga XX asrning 70-yillarida e’tibor qaratilgan. Bu masalaga birinchilardan bo‘lib, professor M.Ochilov qo‘l urdi va “O‘qituvchining axloqiy shakllanishi” mavzusida monografiya yozib, 1978-yilda doktorlik dessertatsiyasini himoya qildi. Ushbu muallifning 1997-yilda N.Ochilova bilan hamkorlikda chop etilgan “O‘qituvchi odobi” va 2001-yilda “O‘qituvchi” nashriyotidan nashr etilgan “ Muallim – qalb me’mori” nomli kitobi o‘qituvchilik kasbining axloqiy jihatlariga bag‘ishlangan.

XX asrda jahonning turli mamlakatlarida tibbiyot deontologiyasiga e’tibor qaratildi. Bunga dastlab tibbiy stomotologiya nuqtai nazaridan yondashildi. Ular kundalik faoliyatda aholi sog‘lig‘ini yaxshilash, bemorlarni azob-uqubatlardan manfaatdorlikdan xalos etish ishlarini amalga oshirdilar. Biroq, ba’zi shifokorlar bemorni o‘z daromadlari va mavjudligining bevosita yoki bilvosita manbai deb bildilar. Bunday holat

[1] (Г.В. Морозова, Г.И. Тсарегородтсева, 1983).

stomatolog shifokor va bemorlar o‘rtasida nostandart axloqiy va axloqiy munosabatlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Shunday qilib, tibbiy deontologiya tibbiyot xodimlarining kasbiy vazifalarini bajarishda axloqiy me’yorlar va xatti-harakatlarni ifodalovchi ta’limotlarni yaratishga erishdilar[1]

Hozirgi davrda xam pedagogik faoliyatda va tibbiyotda kasbiy deontologiya alohida e’tibor qaratilib, pedagog va talaba, shifokor va bemor o‘rtasida o‘zaro insoniy munosabatlarni kasbiy madaniyatni o‘zaro hurmatni kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi bo‘lishi kerakligi ta’kidlanmoqda. Buning uchun ham pedagogikada, xam tibbiyotda bu kasbiy kompentlik bilan e’tirof etilmoqda.

Kompetenlik tushunchasini izohlaydigan bo‘lsak u quyidagi ma’noni bildiradi.

“Kompetentlik” (ingl. “competence”so‘zidan olingan bo‘lib, “qobiliyat” ma’nosini anglatadi. Bu degani bo‘lajak kasb egasi tomonidan egallanadigan va faoliyatda qo‘llaniladigan nazariy bilimlardan unumli foydalanish demakdir. Ya’ni yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahoratni iqtidorli namoyon eta olish tushunchasi bilan belgilanadi. Kompetentlik tizimida kasbiy kompetentlik asosiy metodologik hodisa bo‘lib hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi demakdir. Kompetensiyalar faoliyatning samarali bajarilishini ta’minlaydigan harakatlarning umumlashtirilgan usullari. Bu insonning o‘z malakasini amalda qo‘llash qobiliyatidir.

Bugungi kunda jahon ta’limining yangilanishi sharoitda barcha kasblar ta’lim jarayonida kompetensiya nuqtai nazaridan faoliyatli yondashuv, fanlararo yondashuv, ma’lumotli yondashuv orqali dunyoni, ijtimoiy, iqtisodiy hayotni ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishni, jumladan pedagogik faoliyatni tizimli ko‘ra olish, unda ilmiy yondashuv faoliyatini ko‘rsatish davr uchun muammo bo‘lgan masalalarni hal etishga ko‘maklashadi.

[1][П.А. Леус, 1997].

2.2. Kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuvlar, fanlararo yondashuv, ma’lumotli yondashuv

Zamonaviy pedagogikada mutaxassislarni tayyorlash uchun turli xil yondashuvlar ma’lum. Ular orasida taniqli bo‘lgan (masalan, fanlararo yondashuv, ma’lumotli yondashuv, tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv va boshqalar), shuningdek, yaqin orada paydo bo‘lgan yangi (vaziyatli yondashuvi, axborot, konseptual, ergonomik) va boshqalar) yondashuvlar ham mavjud.

Pedagogikada kompetensiyaga asoslangan yondashuv tushunchasi 20-asrning 80-yillarida, "Perspektivlar" deb nomlangan jurnalda ilk bor tilga olingan. V.D Landsherning ham shu mavzudagi "Minimal vakolat" konsepsiyasi nomli maqolasi yondashuvlar haqida so‘z boradi. Dastlab yondashuv haqida emas, balki faqat "kompetensiya", "kasbiy kompetensiya" tushunchalari, shuningdek ta’limning maqsadi va natijasi sifatida shaxsning kasbiy kompetensiyasi haqidagi fikrlar maydonga keldi. Kompetensiya atamasi dastlab "mavzuni chuqur bilish" deb tushunilgan. Keyinchalik kompetensiya atamasiga keng ma’no izoh berilib, uning ko‘lami va mazmunini kengaytirdilar.

Kompetensiya nuqtai nazaridan pedagogik deontologiyada yondashuvlar ma’lum toifalarga asoslanadi. Bular kompetensiya nuqtai nazaridan pedagogik deontologiyagi yondashuvlar "faoliyat" va "faoliyat" toifalariga asoslanadi.

Ularning shakllanishi va rivojlanishi haqida olimlarning turli fikrlari mavjud:

Rus pedagoglaridan O.Ye.Lebedev kompetensiya nuqtai nazaridan pedagogik deontologiyada yondashuv - bu ta’lim maqsadlarini aniqlash, ta’lim mazmunini tanlash, ta’lim jarayonini tashkil etish va ta’lim natijalarini baholash tamoyillari to‘plami, deb ta’riflaydi. A.M. Mityayeva esa ko‘p darajali ta’limni loyihalashtirishning uslubiy tamoyili sifatida kompetensiyali yondashuvni amalga oshirish asosida mahalliy ta’lim tizimini yangi sifatli holatga o‘tish zarurligi haqida gapiradi. D.S. Ermakov kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ta’limning maqsadi va natijalarini uning sifat normalari, modellashtirish usuli sifatida belgilaydi, ta’lim natijasini ajralmas shaklda bitiruvchining ma’lum bir faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi belgilarining tizimi sifatida aks ettiradi.

Pedagogik deontologiya va kompetentlik fanida kompetensiyali yondashuvda bilim, ma’lumot o‘rinda turadi. Bilim inson ongida tuproqdagi don kabi o‘sadi, demak, bilim tashqi aloqa bilan belgilanmaydi.

Pedagogik yondashuvlardan biri bu fanlararo yondashuvdir. Bilish jarayoni murakkab, xilma-xil olamni bilish jarayonida yangi usullar va yondashuvlarni tinmay izlashdan iborat. Zamonaviy bilish apparatining rivojlanish sektori murakkablashib borayotgan, o‘zaro bog‘liq, o‘zaro shartlangan olamni bilishga, yangi usullar, metodologik ustanovkalarni shakllantirishga qaratilgan. Olamni faqat dissiplinar yondashuv orqali o‘rganish unumli bo‘lmasdan, bunga murakkablikni o‘rganish imkonini beradigan yondashuvlar zarur. Bilish apparatiga fanlararo yondashuv qo‘shildi.

Ma’lum bo‘lishicha, har bir dissiplinar fan, o‘z bilish yondashuvlari, usullaridan foydalangan holda voqelikning muayyan bir qismini o‘rganadi, bu aniq fanning tamoyillari, farazlari, nazariyalari, qonunlarida aks etadi. Fanlar o‘zaro aloqadorligi tufayli shakllanadigan fanlararo yondashuv, bir fanning usullaridan o‘z tadqiqot predmeti va usullariga ega bo‘lgan boshqa fanlardan foydalanishda namoyon bo‘ladi (biofizika, matematik iqtisod va h.k.), masalan, biologik jarayonlar fizik yondashuvlar orqali o‘rganiladi. Fanlararo yondashuvning boshqa shakli – aynan bir ob’yektni turli fanlar usullaridan foydalangan holda o‘rganishdan iborat. Hozirgi zamon insoniyat oldiga kompleks, majmuaviy tarzda hal qilinishi kerak bo‘lgan ko‘plab muammolar qo‘ymoqda. Masalan, ekologik muammolar, inson muammosi va h.k. Fanlararo tafakkur - birlashayotgan (integratsiyalashayotgan) dissiplinar fanlar uchun umumiy muammolarni hal qilishda bilish makonini shakllantirish asosini tashkil qiladi. Mazkur muammolarni o‘rganish muayyan turdagi tafakkurning shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi kerak. Bir fanning nazariy tasavvurlari boshqa dissiplinar fan tomonidan ishlatiladi, bu jarayon umumiy muammolarni hal qilishda yordam beradi, ya’ni fanlararo tadqiqotlarda umumiy metodologik, bilish yondashuvlarini yaratish to‘g‘risida so‘z yuritadi.

Fan rivojlanish tarixi o‘ziga bilish tamoyillariga asoslangan metodologiyaning qabul qilinmasligini, ya’ni ilmiy jamoa qaror topgan metodologiyaga qarshi bo‘lmagan narsalarni qabul qilmasligidan dalolat beradi. Bunga A. Puankarening nochiziqli jarayonlar bo‘yicha tadqiqotlarini misol qilib keltirish mumkin. Fanlararo yondashuvning shakllanishi faqatgina fanlar integratsiyasini taqozo etmaydi. V. Budanov ta’kidlaganidek, “sinergetika hozir so‘zlashuv doirasida bo‘lib, shakllanish falsafasi, evolyutsion epistemologiya, kognitivistika, refleksiv boshqarish, sun’iy intellekt nazariyasi, integral psixologiya, tibbiyot va h.k. kabi boshqa zamonaviy ssenariylarni assotsiatsiyalashga urinmoqda. Sinergetikaning mega loyihasining yakunlanishiga hali ancha vaqt bor, u

hozir konstruktiv yetuklik fazasiga kirib bormoqda. Aynan ana shu bosqichda sinergetika va falsafalarning bir-biriga ehtiyoji har qaysi vaqtdan ko‘ra katta”[1].

Fanlararo yondashuv pedagogik deontolgiyada o‘qituvchi xulqining shakllanishida xizmat qiladi. Chunki o‘qitituvchi qalblarga ziyo tararuvchi sham nuridur bo‘lib, barchani shu yorug‘likdan ziyo olishini talab etadi.

I.T.Kasavin ta’kidlaganidek, “fanlararolik hodisasi epistemologiyaning zamonaviy da’vatlaridan biridir. uning navbatdagi inqirozi, ham yangi parvozidir”. “Fanlararolik ko‘p hollarda nazariy bilim va texnologiyalar, bilim va ko‘nikmalar sintezi sifatida qo‘llaniladi, bunda ikki tomon ham muayyan kognitiv strategiyalarga qurilgan, ya’nifanlararo tadqiqotlarning epistemologik konteksti ularning ajralmas tarkibiy qismidir” [2].

Fanlararo yondashuv zamonaviy jamiyatda nafaqat ilmiy, balki amaliy muammolarni harakatga soluvchisi, hal qiluvchisidir. Masalan, sinergetik yondashuv bir-biridan tubdan farq qiluvchi jonli va jonsiz tabiatlarning umumiy tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Fanlararo o‘z muammolarini birgalikda hal qilishga intilgan va bunda ustuvorlikni aniq dissiplinar fanga beruvchi turli fanlar hamdo‘stligidir. E.Moren qayt etishicha, «fanlararolik faqat shuni anglatadiki, xuddi BMTda turli millatlar o‘z huquqlarini va qo‘shni mamlakat tajovuziga nisbatan o‘zining mustaqilligini e’lon qilish maqsadida yig‘ilganday turli fanlar bir stol atrofida yig‘iladilar. Lekin fanlararolik ayirboshlash va kooperatsiyaga ham intilishi mumkin, buning natijasida fanlararolik uyg‘un bir narsaga aylanadi. Batafsilroq aytganda, kompetensiya nuqtai nazaridan pedagogik deontologiyadagi yondashuvlar - bu kasbiy faoliyatning samarali bajarilishini, insonning o‘z malakasini amalda qo‘llash qobiliyatini ta’minlaydigan ta’sir usullarini o‘zida mujassamlashtirgan yondashuvlardir. Har qanday kompetensiya markazida ma’lum qobiliyatlar mavjud - bu muayyan sharoitlarda harakat qilish usullari to‘plamidir. Ularsiz kompetensiyalar amalga oshmaydi.

Kompetensiya nuqtai nazaridan pedagogik deontologiyada yondashuvlardan biri faoliyatga asoslangan yondashuv bo‘lib, kompetensiyalar ta’limning asosiy natijasi bo‘lishi kerak deb uqtiradi. Bular: siyosiy, kommunikativ, ijtimoiy, madaniyatlararo, axborot va boshqalar. Ular yangi bilimlarni egallashlari, ushbu bilimlarni yangi

[1]Budanov V. Metodologiya i printsipi sinergetiki // Filosofiya osnovi, 2006. №1(3), -S.155

[2] Knyazeva Ye.N. Transdistsiplinarnie strategii issledovaniy //Vestnik TGPU (TSPU Bulletin), 2011. 10(112), -S.193-201

talablarga kasbiy va martaba o‘sishining o‘zgaruvchan holatiga moslashtirishlari uchun zarurdir.

Faoliyatli yondashuvning ikkita asosiy tip bo‘lib: ular kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan professional imkoniyatlar deb nomlangan yondashuv, ikkinchisi "mobil" deb nomlangan o‘zaro faoliyat bilan bog‘liq yondashuv. Bular ichida samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy, aloqa va boshqa vakolatlar turli kasblar va faoliyat sohalari ham mavjud. Faoliyatli yondashuv professonalikka asoslangan. Professionallik - bu mutaxassisning sifati, holati, uning jismoniy, ruhiy va ma’naviy jihatdan ma’lum bir kasb, mutaxassislik, malaka standartlari, lavozim talablariga muvofiqligini ta’minlaydigan tushuncha. Faoliyatli yondashuvlar ish joyini tashkil qilish mahorati, hamkasblar va menejment bilan muloqot qilish mahorati, hayot xavfsizligini ta’minlash mahorati, nihoyat atrof-muhitni muhofaza qilish mahoratiga bo‘linadi. Bularning barchasi faoliyatli yondashuvning muhim tarkibi qismlari sanalib, faoliyatli yondashuvning tarkibini to‘ldirib, barchasini amalga oshirishga yordamlashadi.

Oliy ta’limning o‘quv jarayonida kompetensiya nuqtai nazaridan pedagogik deontologiyaga va kompetenlikdagi yondashuvlardan biri ma’lumotli yondashuvdir. Universitet o‘qituvchilarining hammasi ham kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuvlarni to‘liq bilmaydi. Shuning uchun ham kelajak mutaxassislarini tayyorlash jarayonida ma’lumotli yondashuvga etibor qaratilmoqda. Barcha universitet o‘qituvchilari tomonidan kompetensiyaga asoslangan yondashuv konsepsiyasini o‘zlashtirish masalasi, ayniqsa, ularning ma’lumotli yondashuvga asoslangan oliy ta’limning uslubiy strategiyasini bilishlari uchun dolzarbdir. An’anaviy mashg‘ulotdan ma’lumotli yondashuvga asoslangan treningga o‘tishda eng katta qiyinchilik - bu o‘qituvchilar tomonidan boshqarishning yangi turi - bu butun vaziyatni tizimli boshqarish, shaxsning o‘z pozitsiyasi va o‘quv vaziyatidagi rolini o‘zgartirishni hamda ma’lumotlar bazasini o‘z ichiga olgan jarayonni o‘rganishdir.

Umuman, ma’lumot haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, pedagogikada shaxsning o‘qish-o‘rganish natijasida o‘zlashtirgan bilim ko‘nikmalari hajmi, yo‘nalishi va darajasiga aytiladi. Ta’lim-tarbiya hamda mustaqil bilim olish jarayonida ma’lumot olinadi. Ma’lumot insoning ongli faoliyati jarayonida o‘zlashtirib boriladi. Ushbu jarayon bolaning fikrlash qobiliyati shakllanishidan boshlab dastlab oilada, so‘ngra uzluksiz ta’lim tizimining bosqichlarida ta’lim-tarbiya olish davomida amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichida tegishli ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari bilan belgilangan hajm, yo‘nalishdagi ma’lumot

o‘zlashtirib boriladi. Ma’lumotni o‘zlashtirish jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli ta’lim va tarbiya mashg‘ulotlaridan iborat. Bunda ma’lumot oluvchini talaba, o‘quvchi, shogird, bu jarayonga rahbarlik qiluvchilarni o‘qituvchi, murabbiy, ustoz deb nomlanadi. Ma’lumot olish manbai darslik, qo‘llanma, qo‘shimcha adabiyotlar, atrof-muhitdagi narsa va voqea-hodisalar, ma’lumot olish vositasi o‘quv qurollari hamda mantiqiy tafakkur jarayonidan iborat. Ma’lumot oila, bog‘cha, maktab, akademik litsey yoki kasb-hunar maktabi, oliy o‘quv yurti, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim shakllari — aspirantura, doktorantura hamda qayta tayyorlash va malaka oshirishda o‘zlashtiriladi. Bu ma’lumot kompetensiya nuqtai nazaridan pedagogik deontologiyada ham yondashuvlarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot jamiyatida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish zarur, bu ta’limning yetarli natijasidir. Inson tez o‘zgaruvchan axborot oqimlarida harakat qilishi, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishi, o‘z-o‘zini o‘rganishi, yetishmayotgan bilimlarni qidirishi va ulardan foydalanishi kerak. O‘tkazilgan xalqaro qiyosiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar reproduktiv xarakterdagi topshiriqlarni bajarishda chet ellik tengdoshlariga qaraganda yaxshiroq, predmet bilimlari va ko‘nikmalarini o‘zlashtirganligini aks ettiradi, ammo bilimlarni amaliyotga tatbiq yetish bo‘yicha vazifalarni bajarishda ularning natijalari pastroq, hayotiy vaziyatlar, ularning mazmuni g‘ayrioddiy, nostandart shaklda taqdim etilgan bo‘lib, unda ularni tahlil qilish yoki sharhlash, xulosani shakllantirish yoki ba’zi o‘zgarishlarning natijalarini nomlash zarur. Shunday qilib, ma’lumotli yondashuvga asoslangan pedagogik deontologiyada, ta’lim sohasida o‘zgarishlarga ehtiyoj mavjud bo‘lib, bugungi kunda ta’lim sohasida nafaqat bilimdon, balki o‘z bilimlarini amalda qo‘llay oladigan magistrlarni tayyorlash uchun ta’limni modernizatsiya qilishga mo‘ljallangan yangi avlod standartlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O‘zbekistonda ta’limining davom etayotgan modernizatsiyasi, oliy ta’lim bitiruvchilari uchun yangi imkoniyatlardan iborat bo‘lgan yangi ta’lim sifatiga erishishni nazarda tutadi - ular talabalarning oldingi avlodlari hal qilmagan muammolarni hal qilishlari kerak. Muammolarni hal qilish qobiliyati ma’lum bir ko‘nikmalar to‘plamini o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, bir nechta tarkibiy qismlardan iborat: faoliyat motivlari, axborot manbalarida navigatsiya qilish qobiliyati, faoliyatning ayrim turlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar, muammoning mohiyatini

tushunish va uni hal qilish usullarini tanlash uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlar bilishlari zarur.

B.D. Elkonin shunday deb yozadi: "Biz madaniyat sub’ekt "sifatida bilimdan emas, balki ma’lum bir bilim shaklidan bosh tortishimiz lozim deb ta’kidlagan. V.P. Zinchenko bilim va ma’lumotga qarama-qarshi: «Axborot insoniyatni qamrab oladi”, borgan sari "bilimlar xazinasi" singari barpo etilayotgan ushbu jarayon ta’limni chetlab o‘tmaydi. Ko‘pincha haqiqiy tushunish, bilim va xabardorlik tushunchalari mavjud. Ularning orasidagi chiziqlar tobora xira bo‘lib bormoqda, shuningdek, bilim va ma’lumot o‘rtasidagi chiziqlarda ham nuqsonlar ko‘zga tashlanmoqda. Kompetensiyaviy nuqtai nazardan pedagogik deontologiyadagi yondashuvlarda ham shu jihatlar mavjud. Tajribali o‘qituvchi kasbiy xulq-atvor va odob doirasida hamma narsani biladigan va tez o‘rganadigan, mulohazali, puxta bilimli talabalarni osongina ajrata oladi. Ushbu illyuziyalar pedagogikada ham, psixologiyada ham, pedagogik deontologiya fanida ham mavjud.

Shunday qilib, zamonaviy kompetensiyaviy nuqtai nazardan pedagogik deontologiyaning yondashuvlari ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, ham kengaytirish, ham xulosalarni ekstrapolyatsiya qilish, hodisalarni oldindan aytib berish imkoni beradi.

2.3 Kompetensiya tizimida amaliy va nazariy tayyorgarlikning o‘rni

Pedagogik deontologiya va kompetentlikda kompetensiya nuqtai nazaridan yondashish bilan birgalikda kompetensiya tizimi amaliy va nazariy tayyorgarlikning ahamiyati nihoyatda dolzarb. “Kompetensiya” so‘zi – loyiqman, muvofiqman, mos kelaman ma’nolarni anglatib, u har qanday kasbni egallash uchun muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollanish tushuniladi. Shuningdek, kompetensiya tizimida muayyan vazifani bajarish uchun biror shaxs yoki tashkilotga amaliy va nazariy berilgan vakolat, huquq ma’nosida ham qo‘llaniladi.

Kompetentlilik va kompetensiya so‘zlari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradigan tushunchalardir. Shunga asosan, kompetensiya tizimi amaliy va nazariy tayyorgarlik jihatidan o‘zida bir qator kompetentlik va kompetensiyalarni jamlagan. Biroq, yetarli darajada kompetensiyasi taraqqiy etmagan, rivojlanmagan, kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar o‘z vazifalarini mukammal bajara olmaydi. Kompetentli deb muayyan bir sohaga oid ma’lumotga ega bo‘lgan, shu sohaga xos kompetensiyalarni egallagan kasb egasiga aytiladi.

“Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalari tizimdagi amaliy va nazariy tayyorgarlik jihatdan tafovutlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

•kompetensiya – davlat standartlarida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, har bir kasb egasining muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun muhim bo‘lgan ta’limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi;

•kompetentlilik – kasb egasi tomonidan egallangan kompetensiya bo‘lib, kishining muayyan sohada egallagan shaxsiy sifatilari, muayyan sohada orttirilgan tajribasidir.

Ta’limiy kompetensiyalar shunisi bilan farqlanadiki, ular talabani faoliyatini kelajakda to‘laqonli hayot kechirishi (faoliyat ko‘rsatishi) uchun rivojlantiradi. Ma’lum davrgacha, yoshgacha, inson biror bir kompetensiyani namoyon eta olmaydi, ammo bu kompetensiyani rivojlantirmaslik kerak degani emas. Bunday holatda ta’limiy kompetensiyalar haqida, ya’ni o‘zaro bog‘liq mazmun yo‘nalishlari, bilim, ko‘nikma, malakalar, borliqda mavjud voqeliklarga munosabat nuqtai nazaridan axloq va xulq atvorida, tajribasida ifodalangan, ham shaxsiy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-nazariy tayyorgarlik to‘g‘risida gap boradi.

Kompetentlilik har doim insonning xulq-atvorini xam amaliy jihatdan, ham nazariy jihatdan namoyon bo‘ladi. Mutaxassisning kasbiy kompetentliligi professional topshiriqlarni bajarish jarayonida amaliy va nazariy tayyorgarlik ko‘rish kerak bo‘ladi. Bunda kompetentlik namoyon bo‘ladigan muhitni ko‘rish muhim bo‘lib hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra kompetentlilik tabiati shundayki, u insoniy qadriyatlar bilan, ya’ni muayyan turdagi faoliyatga nisbatan chuqur shaxsiy qiziquvchanlikda, axloq odobida namoyon bo‘ladi. Amaliyotda shaxsiy qadriyat darajasida ahamiyatga ega bo‘lgan pedagogik odobning mazmuni aniq natija (mahsulot) yoki xulq-atvor shakli ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. XXI-asrda mutaxassis kompetentligini anglash insonning integrativ va analitik qobiliyatlari rivojlanganligiga asoslanishi lozim. Ijtimoiy taraqqiyot dinamikasi pedagogik axloq-odobi insonning kasb karyerasi davrida to‘la aniqlanmaganligini nazarda tutadi hamda uzluksiz tayyorgarlikni, o‘z kasbiy kompetentliligini nazariy va amaliy tayyorgarliklarini doimiy oshirib borishni talab yetadi.

Kompetensiya tizimida amaliy va nazariy tayyorgarlikning o‘rni juda muhim va axamiyatlidir. Kompetensiya tizimida amaliy va nazariy tayyorgarlik kelajakdagi to‘liq hayoti uchun faoliyatini modellashtiradigan ta’lim kompetensiyalaridan ajratish kerak. Muayyan yoshga qadar fuqaro

hali biron bir malakani anglay olmaydi, ammo bu uning shakllanishi kerak emas degani emas. Bunday holda, biz ta’lim kompetensiyasi haqida gapiramiz.

Ta’lim kompetensiyasi - bu o‘quvchining shaxsiy, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan real faoliyat ob’yektlarining ma’lum doirasiga nisbatan o‘zaro bog‘liq semantik yo‘nalishlar, bilim, qobiliyat, ko‘nikma, tajriba majmuasi bilan ifodalangan talablar samarali faoliyatidir. Mana shu faoliyatda amaliy va nazariy tayyorgarlikning o‘rni nihoyatda ahamiyatli.

Talaba uchun kompetensiyalar - bu uning kelajagi tasviri, o‘zlashtirish uchun mos yozuvlar nuqtasi bo‘lib, talabalik davrida "kattalar" kompetensiyalarining ayrim tarkibiy qismlarini rivojlantiradi, nafaqat kelajakka tayyorgarlik ko‘rish, balki hozirgi zamonda yashash uchun ularni tarbiyaviy nuqtai nazardan o‘zlashtiradi. Ta’lim kompetensiyalari inson ishtirok etadigan faoliyatning barcha turlariga, masalan, kattalar mutaxassisi uchun emas, balki faqat umumiy ta’lim yo‘nalishlari, o‘quv predmetlariga kiradiganlarga tegishli bo‘lib, bunday kompetensiyalar umumiy ta’limning predmeti-faoliyat komponentini aks ettiradi, uning maqsadlariga har tomonlama erishilishini ta’minlashga chaqiriladi. Masalan, maktab o‘quvchisi fuqaroning vakolatlarini rivojlantiradi, lekin uni tugatgandan so‘ng uning tarkibiy qismlaridan to‘liq foydalanadi, shuning uchun o‘qish davomida ushbu kompetensiya tizimida amaliy va nazariy tayyorgarlik jihatidan namoyon bo‘ladi.

Kompetensiya tizimida amaliy va nazariy tayyorgarlikda quyidagilarga amal qilish lozim bo‘ladi.

- maqsadni belgilash va unga erishish yo‘llarini tashkil qilish, maqsadni anglash;

- o‘z o‘quv-bilish faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish, aks ettirish, o‘z-o‘zini baholashni amalga oshirish qobiliyati rivojlantirish;

- kuzatilgan faktlar, dalillarga tanqidiy nuqtai nazardan savollar bilan murojjat qilish;

- hodisalarning sabablarini ko‘rsatish, ularning tushunilishi yoki tushunmovchiligini ko‘rsatish o‘rganilayotgan muammo bilan to‘liq tanishish;

- bilim vazifalarini belgilash va farazlarni ilgari surish, kuzatish yoki tajriba o‘tkazish uchun shartlarni tanlash, shuningdek zarur asbob va uskunalar, o‘lchash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, ko‘rsatmalar bilan ishlash, idrokning ehtimollik va statistik usullaridan foydalanish, natijalar, xulosalarni shakllantirish;

- olingan natijalarini og‘zaki va yozma ravishda taqdim etish;

- kompyuter vositalari va texnologiyalaridan foydalangan holda tahlillar va tadqiqotlar o‘tkazish; jurnallar (matnli va grafik muharrirlar, taqdimotlar);

- dunyo haqidagi tassavurlarni idrok etish tajribasi.

Kompetensiya tizimiga nazariy va amaliy jihatdan tayyorgarlikning ijtimoiy-madaniy vakolatlariga quyidagilar kiradi.

- odatdagi ijtimoiy rollarni bajarishda bilim va tajribaga yega bo‘lish: oila a’zosi, fuqaro, xodim, yegasi, iste’molchi, xaridor; oilaviy va maishiy sohadagi kundalik vaziyatlarda harakat qilish;

- atrofdagi dunyoda, oilada, jamoada, davlatda o‘z o‘rni va rolini aniqlash qobiliyati, o‘z faoliyatida yashagan madaniy me’yorlar va an’analarga egalik qilish, bo‘sh vaqtni samarali tashkil etish usullari;

- mamlakatlarda ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar tizimlarini tahlil qilish, ko‘p millatli, ko‘p madaniyatli, ko‘p konfessiyali jamiyatdagi ongli hayot tajribasiga ega bo‘lish;

- shaxsiy va jamoat manfaatlariga muvofiq mehnat munosabatlari sohasida harakat qilish qobiliyati, mehnat va fuqarolik munosabatlari axloq qoidalarini bilish;

- o‘quvchi, tinglovchi, ijrochi, tomoshabin, yosh rassom, yozuvchi, hunarmand va boshqalarning badiiy-ijodiy vakolatlari elementlariga egalik qilish.

Kompetensiya tizimiga amaliy va nazariy tayyorgarlikning kommunikativ vakolatlari:

- o‘zini og‘zaki va yozma ravishda taqdim yetish, anketalarni to‘ldirish, ariza, rezyume, xat, tabriklash va rasmiylashtirish;

- madaniy aloqalar sharoitida, madaniyatlar muloqotida o‘z sinfingizni, maktabingizni, mamlakatingizni namoyish etish qobiliyati, chet el tili va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uchun;

- boshqalar bilan muomala qilish usullariga ega bo‘lish, og‘zaki xabar bilan gaplashish, savollar berish, tarbiyaviy dialogni to‘g‘ri olib borish;

- nutq faoliyatining har xil turlarini (monolog, dialog, o‘qish, yozish), lingvistik va lingvistik kompetensiyalarga ega bo‘lish;

guruhda birgalikdagi faoliyat usullarini, aloqa vaziyatlarida harakat qilish usullarini yegallash, murosalarni izlash va topish qobiliyati;

- turli xil milliy jamoalar va ijtimoiy guruhlarning tarixiy ildizlari va an’analarini bilishga asoslangan ko‘p madaniyatli, ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatda ijobiy muloqot qobiliyatlarining mavjudligi.

Kompetensiya tizimiga amaliy va nazariy tayyorgarlikning axborot vakolatlari:

- turli xil ma’lumot manbalari: kitoblar, darsliklar, ma’lumotnomalar, atlaslar, xaritalar, identifiqatorlar, yensiklopediyalar, kataloglar, lug‘atlar, SO-Cat, internet bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- ta’lim muammolarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni mustaqil ravishda izlash, ajratish, tizimlashtirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o‘zgartirish, saqlash va uzatish;

- axborot oqimlarida navigatsiya qilish, ulardagi asosiy va zarurni ajratib ko‘rsatish, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ma’lumotlarni ongli ravishda idrok yetish qobiliyati;

- axborot qurilmalari: kompyuter, televizor, magnitofon, telefon, mobil telefon, peyjer, faks, printer, modem, xeroxdan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- ta’lim muammolarini hal qilish uchun axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash qobiliyati: audio va video yozuvlar, elektron pochta, Internet.

Kompetensiya tizimiga amaliy va nazariy tayyorgarlikning tabiat tarixi va sog‘liqni saqlash vakolatlariga quyidagilar kiradi.

- tabiiy muhitda (o‘rmonda, dalada, suv havzalarida va boshqalarda) yo‘naltirish va atrof-muhit faoliyati bo‘yicha tajriba orttirish;

- ekstremal vaziyatlarda o‘zini tutish qoidalarini bilish va qo‘llash;

- sog‘lig‘iga ijobiy munosabatda bo‘lish va unga g‘amxo‘rlik qilish, jismoniy o‘zini o‘zi takomillashtirish, hissiy o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi qo‘llab-quvvatlash va o‘zini boshqarish usullariga ega bo‘lish;

- shaxsiy gigiyena qoidalarini bilish va qo‘llash, ta’minlash;

- shaxsiy xavfsizligini ta’minlash;

- psixologik savodxonlik, jinsiy madaniyat va xulq-atvor elementlarining mavjudligi;

- harakat tajribasi mavjudligi va uni raqobatbardosh faoliyatning ommaviy shakllarida, faol dam olish va bo‘sh vaqtni tashkil qilishda foydalanish;

- jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun individual vositalar va usullarni tanlash;

Hozirgi davrda pedagogik xulq-atvor va kompetentlik takomillashtirishda ta’lim kompetensiyalarining murakkabligi o‘quv maqsadlari, ta’lim mazmuni (ta’lim standartlari) va ta’lim texnologiyalarini talabalar tomonidan pedagogik xulq-atvor va kompetentlikni rivojlanishini tekshirishga imkon beradi. Talabalarni

pedagogik xulq-atvor va kompetentligi tayyorlash darajasiga qo‘yiladigan talablar nuqtai nazaridan, ta’lim kompetensiyalari talabalarni tayyorlash sifatining ajralmas xususiyatlari bo‘lib, ularning bilimlar, ko‘nikmalar va faoliyat uslublari kompleksidan maqsadli foydalanish qobiliyatlari bilan bog‘liq.

Hozirgi kunda pedagogik xulq-atvor va kompetentlikni shakllantirish ta’lim mazmuni orqali amalga oshiriladi. Natijada, talaba qobiliyatlari rivojlanadi va kundalik hayotda - kundalik hayotdan ishlab chiqarishgacha va ijtimoiy hayotdagi haqiqiy muammolarni hal qila oladi.

Shunday qilib, hozirgi davrda pedagogik deontalogiya va kompetentlikni takomillashtirish kompetensiyaga asoslangan ta’lim mazmuni barcha o‘quv predmetlari (ta’lim yo‘nalishlari) orqali o‘tadi, har safar tegishli materialda realistik, shaxsga va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Natijada, o‘quv fanlarini yagona ajralmas tarkibga birlashtirish mumkin.

Hozirgi davrda pedagogik xulq-atvor va kompetentlikni takomillashtirishda ta’lim kompetensiyalari - bu ta’limga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning tizimli xususiyatlari, chunki ular talabalarning shaxsiyati bilan bog‘liq bo‘lib, uning ijodiy faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi.

Shu asosda ishlab chiqilgan ta’lim nafaqat tarqoq predmetli ta’limni, balki kompetensiyaga asoslangan yaxlit ta’lim tizimida pedagogik xulq-atvor va kompetentlikni ta’minlaydi. Talabaning pedagogik xulq-atvor va kompetentligi nafaqat maktabda, balki oilada, do‘stlar orasida, kelajakdagi ishlab chiqarish munosabatlarida o‘zini namoyon qiladi.

Hozirgi kunda pedagogik xulq-atvor va kompetentlik texnologiyasi pedagogik deontologiya va kompetenlik nuqtiy nazaridan, umumiy va predmetli kompetensiyalarning mazmunini yaratish uchun maxsus texnologiya yaratishni taqozo etmoqda.

Hozirgi davrda pedagogik xulq-atvor va kompetentlikni takomillashtirishda ta’lim kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha bilim ko‘nikma va malakalarga asoslangan mavjud ta’limning kompetensiya mazmunini aniqlash va quyidagi bosqichlarda amalga oshirish mumkin;

- har bir aniq o‘quv mavzusida asosiy kompetensiyalarni amalga oshirish;
- ortiqcha mavzuli sistematikani qurish;
- barcha uch darajadagi ta’lim uchun vertikal darajadagi umumiy predmetli ta’lim kompetensiyalarini loyihalash;

-kompetensiyalarning o‘quv predmetlari darajasida loyihalash va ularning ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘qitish uslublarida aks etishi;

Pedagogik xulq-atvor va kompetentlikni shakllantirishning tanlangan o‘quv mavzusiga (matematika, til, tarix, informatika va boshqalar) taalluqli (bog‘liq bo‘lishi mumkin) bo‘lgan ta’lim vakolatlari ro‘yxati tuziladi. Buning uchun ushbu mavzudagi asosiy kompetensiyalarning namoyon bo‘lishi (qiymat-semantik, umumiy madaniy, ma’rifiy va kognitiv, axborot, kommunikativ, ijtimoiy va mehnat, o‘zini o‘zi takomillashtirish vakolatlari) va akademik sub’ektning mumkin bo‘lgan hissasi har bir asosiy vakolatni shakllantirishga aniqlik kiritiladi.

Pedagogik xulq-atvor va kompetentlik ta’lim tarbiya jarayonida eng yuqori kasbiy saloxiyat, shuningdek muloqatchanlik va ijobiy fazilatlar shaxsiy sifatlar, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy xayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko‘nikma va malaka hisoblanadi.

Shaxsning tanlagan sohasi bo‘yicha malakali, yuqori mahoratga ega, mutaxassis sifatida shakllanishi ko‘p yillik samarali mehnati, ijodiy izlanishlar natijasi, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi davomida unda kasbiy kompetentlikning rivojlanishi ham muhim ahamiyatga tushunchalar yig‘indisidir.

Hozirgi kunda pedagogik xulq-atvor va kompetentlik oliy kasbiy ta’lim pedagogik mutaxasislarini tayyorlashning zamonaviy tizimida ta’lim jarayonlarini loyixalashtirish ko‘nikmasini rivojlantiradigan psixologik-pedagogik va kasbiy-ijodiy yo‘nalishlarni integratsiyalash negizida bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogik faoliyat sub’ekti hisoblangan o‘qituvchining kasbiy mahorati va tajribasiga bog‘liqdir. Pedagoglik kasbiga loyiqlik kasb uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar yig‘indisi, pedagogik xulq-atvor va kompetentlikdan iborat bo‘lib, u kommunikativ qobiliyatlarda ham o‘z aksini topadi. Pedagogik muloqot bilan bog‘liq vazifalarni bajarish uchun har bir pedagogda soha uchun eng muhim xususiyat hisoblangan muloqotchanlik yoki kommunikativ kompetentlikni shakllantirish kerak.

Pedagogning kasbiy kompetentligi pedagogika va psixologiya fanlariga doir bilimlarga ega bo‘lish, o‘z ustida ishlash, ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish, o‘quvchilarda o‘quv faoliyati motivatsiyasini shakllantirish, axborot kommunikatsiya

texnologiyalarini yaxshi bilish, ta’lim muhitiga yangilik kiritish, o‘z fanini mukammal bilish, xorijiy tillardan birini yaxshi bilishni taqazo etadi.

A.V.Xutorskiy ta’lim jarayoni uchun muhim bo‘lgan pedagogning quyidagi kompetentligini tavsiflaydi:

- Dunyoqarash, qadriyat va o‘zini anglash- o‘qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. U atrofmuhitdagi voqea va hodisalar mohiyatini aniqlay biladi va tushunadi unga o‘zini yo‘naltiradi, pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay olish hamda muammoning yechimini topa bilish ko‘nikmasiga ega. Bu kompetensiya o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘zini - o‘zi anglash mexanizmini ta’minlaydi.

- Umummadaniy - milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlarga hurmat; ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini anglay olishi va o‘quvchi yoshlarga tushuntira olishi.

- O‘quv va bilish jarayoni-o‘qituvchining mustaqil bilish faoliyati, mantiqiy fikrlashi, o‘quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko‘nikmasini tahlil qila olishi.

- Ma’lumotga ega bo‘lish-pedagogik faoliyati, o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko‘nikmasi.

- Muloqotchanlik- til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

- Ijtimoiy-foydali mehnat-oilaviy munosabatlar va mas’uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

- O‘z ustida ishlashi-jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o‘z-o‘zini rivojlantirib borishi, hissiyotini boshqarish.

Shunday qilib, hozirgi davrda pedagogik xulq-atvor va kompetentlikni takomillashtirish kompetensiyaga asoslangan ta’lim mazmuni barcha o‘quv predmetlari (ta’lim yo‘nalishlari) orqali o‘tadi, har safar tegishli materialda realistik, shaxsga va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Natijada, o‘quv fanlarini yagona ajralmas tarkibga birlashtirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida kompetensiya tizimiga amaliy va nazariy jihatdan tayyorgarlikning o‘rnini belgilab berishda muhim bo‘lgan bir necha turlarini ochib berishga xarakat qilib, ilmiy va amaliy, nazariy jihatlariga to‘xtalib, pedagog faoliyatida, kompetensiya tizimida pedagogning axloqiy xulq-atvorida, qanday sifatlar bo‘lishi lozim ekanligini, ular bo‘lajak pedagoglarda

shakllanishida pedagogik deontologiya va kompetentlik nuqtai nazaridan xizmatqilishini ta’kidlangan. Yuqoridagi sifatlar pedagogik deontologiya fani misolida har bir pedagogning madaniyati axloqida, xulqida, odobida rivojlantirishida muhim manba bo‘ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Pedagogik deontologiya va kompetentlikning metodologik yondashuvlari haqida ma’lumot bering.
2. Kompetensiya va kompetentlik so‘zlarini izohlang.
3. Kompetensiyali yondashuvlar haqida ma’lumot bering.
4. Fanlararo yondashuv va ma’lumotli yondashuv nima?
5. Kompetensiya tizimini Venn diagrammasi asosida tushuntirib bering?
6. Zamonaviy o’qituvchi faoliyatida pedagogik deontologiyaning o’rni haqida ma’lumot bering.
7. Pedagogning kasbiy kompetentligi tarkibi nimalardan iborat?

3-MAVZU: RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENLIKNING TARAQQIYOTI

Tayanch tushunchalar: Yevropa ta’lim tizimi, pedagogik deontologiya, kasbiy kompetentlik, kasb axloq, ilmiy izlanish, O‘zbekiston ta’lim tizimi, ta’lim, kompetensiya.

3.1 Yevropa mamlakatlari ta’lim tizimida pedagogik deontologiya va kompetentlikning o‘rni

Bugungi mavjud ta’lim tizimlarini tahlil etar ekanmiz, Yevropa mamlakatlari talim tizimidagi o‘quv rejalar va o‘quv dasturlarida turli xildagi fanlar, ularning o‘quv soatlariga duch kelamiz, darajalarining o‘ta murakkabligi, xilma-xilligini ko‘ramiz. Shunday fanlar tizimida pedagogik deontologiya va kompetentlik fani ham davrlar osha ko‘pgina davlatlarda yoshlarga o‘qitilib kelinmoqda. Oliy ta’limning bakalavr bosqichida ham, magistratura bosqichida ham, an’anaviy, yangi kiritilayotgan ekvivalent darajalari 3–4 yil tahsil olishni taqozo qilayotgan ta’lim yonalishlarida ham pedagogik deontologiya va kompetentlik fani fan sifatida o‘qitilib kelinmoqda.

“Pedagogik deontologiya va kompetentlik” fani quyidagilardan iborat: pedagogik deontologiyaning asosiy tushunchalari va qonuniyatlarini ishlab chiqish asosida pedagogika magistrlarining asosiy kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga ko‘maklashish, magistrlar o‘rtasida kasbiy faoliyat tamoyillari va axloqiy me’yorlari tizimi sifatida o‘qituvchining kasbiy etikasiga yaxlit nuqtai nazarni shakllantirish masalariga e’tibor qaratiladi. Fan belgilangan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etishni taklif etadi:

- pedagogik deontologiyaning mohiyati va mazmunini ochib berish;
- pedagogik faoliyatning kasbiy va axloqiy me’yorlari haqida umumiy tushuncha berish;
- o‘qituvchining kasbiy va axloqiy kodeksida belgilangan asosiy qadriyatlarni hisobga olish.

“Deontologiya” (yunoncha deonthos – tufayli) 18-asrda ilmiy leksikaga Ingliz faylasufi I. Bentam (1748-1832) tomonidan kiritilgan bo’lsada diniy jihatdan deontologiya atamasi ma’no jihatdan Ollohning oldida har bir mo‘min va diniy jamoa burchini va majburiyatlarini ifodalaydigan tushuncha sifatida qaralgan. Deontologiya atamasini nemis faylasufi Kant (1724-1804) keng ma’noda qo‘llab, unga burch etikasi deb, ta’rif bergan. Faylasufning fikrlariga ko‘ra, axloqning mohiyati o‘zgarmas

axloqiy qonunda yotadi, shaxsdan uni so‘zsiz bajarishni talab qiladigan ma’no aks etgan.

Hozirgi vaqtda deontologiya hayotning istalgan sohasida shaxs yoki bir guruh odamlarning burch va to‘g‘ri xulq-atvori to‘g‘risidagi ta’limot sifatida talqin etiladi. Deontologiya axloqiy tizimning o‘zagi hisoblanadi, chunki to‘g‘ri xulq-atvor insondan tashqarida bo‘lgan xatti-harakatlar tamoyillari va normalari ko‘rinishidagi talablarning bajarilishini kafolatlaydi.

Shunday qilib, pedagogik deontologiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatining turli sohalarida burchi va to‘g‘ri xulq-atvori haqidagi ta’limotdir.

Pedagogik deontologiya quyidagi sabablarga ko‘ra yuzaga keladi:

- o‘quvchining, bilvosita butun jamiyatning farovonligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, u o‘qituvchidan barcha kasbiy vazifalarni qat’iy va sifatli bajarishni talab qiladi.

Deontologiya, birinchidan, kasbiy burch mazmuniga, ikkinchidan, pedagogik etika talablarini amalga oshirishni ta’minlovchi mexanizmga e’tiborini qaratadi.

Inson mehnati va faoliyatining ma’lum bir sohasi bilan shug‘ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar azal-azaldan vujudga kelgan, taraqqiy etgan. Bunday normalar kasb (professional) axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda mavjud axloq kasb axloqi bilan ma’lum bir munosabatda bo‘ladi. Bu umumiylik bilan xususiylik o‘rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalarini, tamoyillari va tushunchalarini, afzalliklari va kamchiliklarini o‘zida mujassamlantiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi. Bundan tashqari, kasb axloqi faqat shu soha kishilari uchun xos bo‘lgan ayrim odob, axloq normalari va qoidalarini ham ichiga oladi. Ayrim kasblar — o‘qituvchi, xakim (vrach), tijoratchi, huquqshunos, artist, rahbar xodimlar uchun inson — mexnat ob’yekti hisoblanadi. Bu kasblarda mehnat ob’yektining — shaxsning taqdiri ko‘p jihatdan shu kasb egasining axloqiy faoliyatiga bogliq. Bunday kasb egalaridan faoliyat ob’yekti bo‘lgan odamlar bilan uzaro muomala munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy normalarga qat’iy amal qilish talab etiladi. Bu esa kasb egalarining axloqiy mas’uliyatini oshiradi. Jamiyatning, davlatning bunday kishilarga ishonchi ham boshqacha bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qituvchi, vrach, tijoratchi, raxbar xodimning axloqiy fazilatlari shu kasbda ishlashga yaroqli ekanligini ko‘rsatuvchi muhim belgilardan hisoblanadi. Muallimlik ana shunday kasblardan bo‘lgani uchun o‘qituvchi odobi kasb axloqining

boshqa turlaridan farq qiladi, bu — pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Yevropa mamlakatlari ta’lim tizimida pedagogik deontologiya va kompetentlikning taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak fan qadim davrlarda vujudga kelgan, taraqqiy etgan. Bugungi kunda Yevropaning ko‘pchilik mamlakatlari ta’lim tizmida fan o‘qitiladi, albatta bu fan asoschilari qadimgi yunon-rim mualliflari ekanligiga pedagogika tarixi guvohdir.

Qadimgi yunon olimlari Platon (Aflotun), Aristotel (Arastu), Sokrat (Suqrot), Gippokrat (Buqrot), Galen (Jolinus), Yevklid (Iklidus) kabilar pedagogik deontologiya va kompetentlik fani tarixiga munosib hissa qo‘shganlar.

Pedagogik deontologiya va kompetentlik degan tushunchalar qadimgi Yunoniston va Rimda xulq-atvorning tashqi shakllarini belgilovchi qoidalar orqali namoyon bo‘lgan. Ayni paytda, odamlarning chiroyli xulq-atvorini maxsus o‘rganishga qaratilgan birinchi urinishlar mavjud. Ayni paytda" chiroyli xatti-harakatlar" qadimgi insonning fazilatlariga, axloq va fuqarolik haqidagi g‘oyalariga to‘g‘ri keldi. Chiroyli va axloqiy (olijanob) kombinatsiyasi qadimgi yunonlarda "kalokagatiya" tushunchasi bilan belgilandi (yunoncha. "Kalos" - chiroyli, "agatos" _ yaxshi). Kalokagatiyaning asosi mukammallik va tana tuzilishi, ma’naviy-axloqiy ombor bo‘lib, go‘zallik va kuch bilan birga adolat, poklik, jasorat va aql-zakovatni o‘z ichiga olgan. Shu ma’noda, antik davrda inson madaniyatining namoyon bo‘lishining tashqi shakli sifatida axloq qoidalari yo‘q edi.

Kundalik xatti-harakatlar qoidalari insonni o‘zining shaxsiy fazilatlarini namoyon qilishga yo‘naltirdi. Xulq-atvor me’yorlari muayyan vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini ko‘rsatmadi, lekin har bir kishiga xatti-harakatni tanlashning maksimal erkinligini ifodalovchi faoliyatning umumiy yo‘nalishlari o‘rgatilgan.

Qadimgi yunonlar uchun asosiy narsa - ajdodlar va davlat qonunlariga ko‘ra, oqilona yashash, ortiqcha va cheklovlardan qochish edi. Boshqacha qilib aytganda, ularning xatti-harakati strategiyasini belgilaydigan eng muhim printsiplar "oqilona" va "oltin o‘rtacha" ("oqilona chora") tamoyillari edi.

Xulq-atvor normalari inson aql-zakovatiga, aql-idrokiga va maqsadga muvofiqligini ta’minlashga qaratilgan. Yaxshi tarbiya insonni, birinchi navbatda, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi va qanday fikrda bo‘lishni belgilash uning olgan ta’limiga bo‘gliq edi. Bunga albatta tarixda sodir

bo‘lgan voqealar guvohlik beradi. Rim tarixchisi Plutarx muloqot tamoyillariga asoslangan, donishmandlar o‘rtasidagi bahs-munozaralar insonning xulq-atvori yanada chiroyliroq bo‘lishini ta’kidlagan.

Yevropa ilm-fanining o‘chog‘i bo‘lmish qadimgi yunon-rim davlatlarida ta’lim-tarbiya va axloq-odob masalalari doimo birinchi o‘rinda bo‘lgan. Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan deontologiya va kompetentlik bu qadimiy davlatlarda axloq-odob bilan izohlangan.

Aristotelning konsepsiyasida **bypass** tushunchasi bo‘lib,keyinchalik odob-axloq deb ataladigan axloqiy **prototip** atamasida shakllangan. Aristotelning kontseptsiyasida uch turdagi odob-axloq masalalari bo‘lib, birinchidan, muomalada barcha qarama-qarshiliklarda qanday munosabatda bo‘lish va ularni qabul qilish, qanday yordam berish masalalariga e’tibor berilgan. Ikkinchidan har qanday holatda insonlar bir biriga yordam berishi masalalasiga munosabat bildirilgan. Uchinchidan xushmuomalalik - mehmondo‘st munosabatlariga to‘xtalgan.

O‘sha davrning shaxsiy namunasi axloqiy, fuqarolik, estetik xususiyatlarning birligiga ega bo‘lgan erkak xatti-harakati, olijanob inson, qahramonning namunasi edi. Zukkolik birinchi navbatda aristokratik kelib chiqishi bilan bog‘liq edi. Yaxshi odam chiroyli nutq va muloyimlik bilan ajralib turishi kerak edi. Keyingi asrlarda nutq madaniyati insonning axloqiy madaniyatining eng yorqin namoyonlaridan biri bo‘lib, uning sinf va madaniy aloqasini ta’kidlaydigan "yorliq" ning bir turiga aylandi. Xushmuomalalik hamma narsada namoyon bo‘lib, insonlarning fe’l-atvorlarida, fazilatlarida namoyon bo‘ldi.

O‘rta asrlarda axloq qoidalari juda boshqacha ko‘rinishda namoyon bo‘la boshladi, u o‘zining klassik shaklida shakllanadi. Ko‘plab tadqiqotchilari davrni odob-axloq, xulq-atvorning yaxshi rivojlangan davri sifatida qaradilar.Ayniqsa, deontologiya va kompetentlikning ko‘rinishlari bo‘lgan axloq-odob muammolari o‘rta asrlar Yevropasida so‘nggi ikki bosqich: XI-XV asrlarda va keyinchalik XVI-XVII asrning birinchi yarmi - feodalizmning parchalanishi va burjua jamiyatining kelib chiqishi davrida gullab yashnadi.

Bu davrga kelib universitet ta’limi orqasida bo‘lmagan muvaffaqiyatli, bilimdon insonni tasavvur qilish qiyin. O‘rta asrlarda ham "universitet" tushunchalari paydo bo‘ldi. Yevropada oliy ta’limni mustahkam yozuv tufayli mustahkam o‘rnashib, u odamlar bir qator tizimli bilim o‘tkazish imkoniga ega bo‘ldi.

G‘arbiy Yevropaning o‘rta asr jamiyati qat’iy ierarxik davri bo‘lib, davrning ijtimoiy ongi uni uchta toifadan tashkil topgan - "ibodat qilish,

jang qilish va ishlash"edi. G‘arbiy Yevropada XII-XV asrlarda ritsarlar o‘zlarini "dunyoning rangi" deb hisoblashgan, ularning turmush tarzini, axloq va axloq kodeksini yaratgan jamiyatning eng yuqori qatlami sanalib, noyob, oddiy odamlardan ajralib turishga imkon beradigan qadriyatlarshakllandi. Ritsar hayotining yorqin namunasi Buyuk ispan adibi Megil de Servantesning “Don Kixot” romanida (1605 yil) bayon qilingan bo‘lib, asar qahramoni maishiy hayotda xayolparast va tajang, hardamxayol va pokiza qalbli Don Kixot, uning o‘ziga o‘xshash yaroqbardori Sancho Pansa obrazlari orqali o‘sha davr hayotidagi ta’lim-tarbiya masalarini yoritib berishga muvaffaq bo‘lgan.

XVII asr Yevropa madaniyatida davrning iqtisodiy, texnik va ilmiy faoliyatda, insoniy ong va xatti-harakatlarning barcha boshqa shakllari yo‘naltirilgan ilmiy bilim, ijtimoiy ong hukmron edi. Davrning o‘ziga xosligi muammolari vaqtning ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlariga sezgir bo‘lgan axloq qoidalarining mazmuni, faoliyati va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga ta’sir qila olmadi.Biroq, bu davrda ilm-fan, bilim eng yuqori qiymat sifatida qaraldi. Fizika, matematika sohasidagi o‘zgarishlar ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishda faol qo‘llanila boshlandi. Jamiyat mexaniqa qonunlariga muvofiq oqilona tashkil etilgan mexanizm sifatida o‘rganiladi. O‘rta asrlarda Yevropada oliy ta’limi din bilan bog‘liq bo‘lib, deyarli har bir universitet cherkov roziligini olish kerak edi, ko‘p diniy idoralar faoliyati, jamoat ta’limning barcha sohalariga aralashdi va ilm-fanning rivojlanishini sezilarli darajada chekladi.

Yangi jamiyat hayotidagi shaxsning roli va o‘rnini tushunishga yangi urg‘u berdi. Davrning diqqat markazida individual shaxs, uning shaxsiy fazilatlari edi. Inson o‘z irodasi erkinligiga ega bo‘lgan o‘z faoliyatining muataqil mavzu sifatida qaraldi. Insonga o‘z-o‘zini qadrlaydigan munosabat o‘z ifodasini topdi va shu vaqtning o‘zida axloqiy qadriyatlar qatorida insonning suverenitetini belgilovchi insoniy qadr-qimmatning qadr-qimmatini ta’kidlaydi, bu unga o‘zini erkin, mustaqil va mas’uliyatli "men"deb bilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, shaxsiy qadr-qimmatning ma’naviy qadriyatlariga asoslangan yangi zamonning axloqi, shaxsning o‘zini o‘zi tasdiqlashning shakllaridan biri, uning "men",o‘z - o‘zini hurmat qilish odob-axloq qoidalariga asos bo‘ldi. Shaxsning o‘z qadr-qimmatini bilish, shuningdek, ijtimoiy tarbiya masalalariga ko‘proq e’tibor qaratish zarurligiga olib keldi, uning eng muhim qismi axloq qoidalari, yaxshi xulq-atvor edi. XVIII asr odob-axloq madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, u pragmatizmning asri edi, u erda faoliyat mezonlari, insonning harakatlari, uning shaxsiy fazilatlari muhim o‘rin

egalladi. Saxiylik, isrofgarchilik, olijanob fazilatlari o‘rniga asta-sekin bilan mehnatsevarlik va tejamkorlik fazilatlari o‘z ifodasini topa boshladi. Ayni paytda axloq qoidalari biznes va xususiy hayotda muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida qaraldi.

Yevropada 17-asrda o‘qitish va ta’lim jarayoni olimlar tomonidan qo‘llab quvvatlana boshlanib, chex pedagogi Ya. A. Komenskiy o‘zining "Buyuk didaktika" asari (1657) da bolalar va o‘smirlarni ma’lumotli qilish va ularga ta’lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi A. Disterveg o‘zining "Nemis o‘qituvchilarini ma’lumotli qilishga rahbarlik" (1834—35) asarida ta’lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qismini yozdi.

XVIII asrda fransuz ma’rifatchilari Didro, Gelvesiy, Golbax, Russo va boshqalar inson shaxsining shakllanishida tashqi muhitning hal qiluvchi roli to‘g‘risidagi ta’limotni taraqqiy ettirishdi.

Insonning pedagogikaga bo‘lgan qiziqishi ortishiga, deontologiya va kompetentlikning nazariy asoslari amalda bajarilishiga sabab bo‘ldi. Jon Lokk (Angliya), Jan Jak Russo (Fransiya), Iogann Pestalossi (Shveysariya)ning pedagogik qarashlari hamda XVIII asrning oxiridagi nemis faylasuflarining pedagogik tajribasida namoyon bo‘ldi.

XVIII asrning 70-80-yillarida German davlatlarida yangi yo‘nalishdagi maktablar paydo bo‘ldi. Bular filantroplar (insonparvarlar) ochgan maktablar edi. O‘qituvchilar bunday maktablarda akademistlar, pedagogistlar va fabulyantlar kabi guruhlarga bo‘linishgan. Akademitslar - aslzodalar, pedagogistlar - amaldorlar, fabulyantlar mehnatkashlarning farzandlari bo‘lgan.

Ta’lim jarayonini tartibga solish va isloh qilish masalalasida Yan Amos Komenskiy XVI asrda o‘zining qarashlarini keng ommaga bayon etdi.

Komenskiyning pedagogik nazariyasida talim - o‘qitish katta o‘rin egallaydi. Bunda u tabiylik usulini asos qilib oladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda bolaning yoshi, bilim darajasi, psixologik xususiyatlari hisobga olinib darsni tabiat borlig‘iga moslab olib borish kerak degan, goya ilgari suriladi. Tarbiyaning xalqchilligi haqidagi g‘oya Ushinskiyning pedagogik nazariyasidagi eng asosiy g‘oyadir. "Har bir mamlakatda bolalarni tarbiyalash tizimi", deb aytgan edi u, "Xalqning rivojlanish sharoitlari, uning ehtiyoj va talablari bilan belgilangan". «Hamma uchun umumiy bo‘lgan birgina tug‘ma moyillik borki, tarbiya xamisha shunga tayanishi mumkin: bu biz xalqchillik deb atagan narsadir. Xalqning o‘zi tomonidan yaratilgan va xalqchillik asosiga qurilgan tarbiya

shunday tarbiyaviy kuchga egaki, bunday kuch abstrakt g‘oyalarga asoslangan yoki boshqa xalqlardan olingan, eng yaxshi tizimlarda ham yo‘qdir».

Ushinskiy xalq manfaatlariga muvofiq tuzilgan tarbiya tizimi bolalarda vatanparvarlik va milliy iftixor, mehnatga muhabbat kabi qimmatli psixologik tuyg‘ularni va axloqiy sifatlarni rivojlantirishi va mustahkamlashini isbotlar edi. U bolalarning ilk yoshlik chog‘idan boshlab xalq madaniyati bilimlarini o‘zlashtirishini, ona tilini egallab olishini, xalq og‘zaki ijodi asarlari bilan tanishishini talab qilar edi.

Ushinskiy xalqchillik deb har bir xalqning o‘ziga xosligini tushunar ediki, bu o‘ziga xoslik, o‘sha xalq yashashi va mehnat qilishi lozim bo‘lgan tarixiy taraqqiyot, geografik va tabiiy sharoitlar bilan ifodalanadi.

U «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi haqida» nomli maqolasida tarbiyaning xalqchillik ruhida bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi tahlilni turli xalqlarda tarixan tarkib topgan alomatlarni xarakterlashdan boshlaydi. Ushinskiy fransuz, ingliz, nemis va amerika tarbiyasini to‘g‘ri deb hisoblaydi va uni chuqur tahlil qiladi. Ayniqsa o‘sha zamondagi reaksion nemis pedagogikasini tanqid qilishga mufassal to‘xtaydi. Chorizm shu pedagogika muxlisi adi. Bu pedagogikani mexanik suratda rus tuprog‘iga ko‘chirishning aqlga mutlaqo muvofiq emasligini Ushinskiy isbot qiladi.

K. D. Ushinskiy, rus xalqi tarbiyasining asosiy tomoni bolalarni vatanparvarlik, Vatanga chuqur muhabbat ruhida o‘stirishdan iboratdir, deydi. Ushinskiy tarbiyada xalq ruhining eng yaxshi ifodasi ona tili ekanligini, rus bolalarini o‘qitishda rus tili asos bo‘lishi kerakligini, boshlang‘ich maktablardagi ta’lim ham bolalarni rus tarixi, Rossiya geografiyasi va uning tabiati bilan muntazam tanishtirilib borilmog‘i kerakligini bir necha bor aytib o‘tadi va buni aniq misollar bilan isbotlab boradi.

Biroq xalq ruhi bilan sug‘orilgan tarbiya bu vatanparvarlik shaxsning fuqarolik ijtimoiy burchi ekanligini, uni bajarishda xamisha va kun sayin ko‘rsatib turishga o‘rgatishi kerak deb ko‘rsatib o‘tadi.

Bu tarbiya bolalarda milliy iftixor tuyg‘usini o‘stirishga xizmat etishi, ammo shovinizmga yot va boshqa xalqlarni hurmat qilish bilan birlikda bo‘lmog‘i kerak. Bu tarbiya bolalarda vatan oldidagi burchini his qilish tuyg‘usini o‘stirishi, o‘z shaxsiy manfaatidan umum manfaatini ustun qo‘yishga o‘rgatishi lozim.

Ushinskiy tarbiya ishidagi turli vositalar orasida axloqiytarbiyaga asosiy o‘rinni berdi. U, «Tarbiyaning asosiy vazifasi axloqiy jihatdan ta’sir

etishdan iboratdir, bu aqlni umuman o‘stirish, boshnibilimlar bilan to‘ldirishdan ko‘ra xam muximroqdir», deb yozgan edi.

Ushinskiyning fikricha, axloxiy tarbiya bolada insonparvarlik, vijdonlilik. rostguylik, mexnatsevarlik, intizomlilik va masuliyatni sezish, kamtarlik bilan birlikda o‘z qadr-qimmatini bilishni o‘stirishi lozim. Tarbiya bolada q’atiy xarakter va iroda, chidamlilik, o‘z burchini sezish tuygusini o‘stirmog‘i kerak.

Ushinskiyning tavsiya etgan axloqiy tarbiya tizimida uning xalqchillikka asoslangan butun pedagogik tizimiga muvofiq vatanparvarlik, vatanga fidokorona muxabbat ruxida tarbiyalash asosiy o‘rinni egallaydi. Vatanga muxabbat,— deb yozadi Ushinskiy,— bu insonning eng kuchli tuyg‘usidir.

Axloqiy tarbiya bolalarda odamlarga hurmat va muhabbat bilan qarashni, ularga nisbatan samimiy, xayrixox va adolatli munosabatda bo‘lishni o‘stirishi kerak.

Ushinskiy ko‘r-ko‘rona, tayoq intizomiga qarshi norozilik bildirib, bunday deb yozgan edi: «Eski maktabda intizom nihoyatda g‘ayri tabiiy asosga — yo mukofotlar va yoki jazolar ulashib beruvchi o‘qituvchidan qo‘rqish asosiga ko‘rilgan edi.

Bu qo‘rquv bolalarni ularga xos bo‘lmagan xolatlarga emas, balki zararli xolatlarga: sustkashlikka, sinf doirasidagi zerikishga va ikki yuzlamachilikka olib keldi». Ushinskiy bolalarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lishni talab qildi, ammo bu munosabat nozik tabiatlilik va erkalikni o‘stirmasligi lozim. Pedagog bolalarni o‘z burchi va mas’uliyatini sezish asosida tarbiyalashda ular oldiga oqilona talablar ko‘rishi lozim.

Ushinskiy shaxsiyatparastlik, mansabparastlik, bekorchilik, g‘arazguylik, munofiqlik singari nuqson va kamchiliklarni qattiq qoralaydi.

Ushinskiyning fikricha, axloqiy tarbiyaning vositalari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak;

1) axloqiy tarbiyada kitob va darslikning o‘rni kattadir, o‘quvchi bu kitoblarda o‘z nutqni o‘stirishni, bilimni umumlashtirishni axloqiy tarbiyalarni egallashni tez o‘rganadi;

2)o‘qituvchining shaxsan o‘zi namuna bo‘lishi kerak Ushinskiyning obrazli ifodalashicha, «bu narsa yosh qalb uchun quyoshning barakali nuridirki, uni xech bir narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi;

3) e’tiqodga u juda katta etibor bergan edi;

4) o‘quvchilarga moxirlik bilan munosabatda bo‘lish (pedagogik odob);

5) ogohlantirish choralari;

6) rag‘batlantirish va jazolash.

Ushinskiy o‘qitishni axloqiy tarbiyaning eng muxim vositasi deb hisoblagan. U ta’lim va tarbiya o‘rtasida mustahkam aloqa bo‘lishi zarurligini ta’kidladi. Hamma o‘quv jarayoni deb ta’kidlagan edi u, juda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, tarbiya ishiga aloqador bo‘lgan hamma kishilar o‘zlarining barcha ishlarida, o‘quvchilar, tarbiyalanuvchilar bilan bo‘ladigan hamma munosabatlarida buni esdan chiqarmasliklari kerak. Bu jihatdan u ham maktablardagi o‘quv fanlari ichida ona tilini ayniqsa yuqori baholadi hamda bolalar ona tilini egallash bilan faqat bilim olib qolmay, xalqning milliy tuyg‘ulariga, uning ma’naviy xayotiga, axloqiy tushuncha va tasavvurlarga ham ega bo‘lishlarini ishonarli qilib ko‘rsatib berdi.

Ishontirishni Ushinskiy axloqiy tarbiya vositalaridan biri deb hisobladi. Bunda u kishini bezor qiladigan nasihatlar va ko‘ndirishlardan (bular ko‘pincha bolalar ongiga etib bormaydi) ehtiyot bo‘lishi kerak deb ta’kidlagan edi.

Axloqiy tarbiyaning zaruriy sharti bolalarda jamiyat tarixida, insonning rivojlanishida mehnatning vazifasi va ahamiyati to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvur hosil qilishdan iborat deb ko‘rsatgan edi Ushinskiy. U o‘zining «Mehnatning psixologik va tarbiyaviy ahamiyati» nomli maqolasida odamning hayotida mehnatning o‘rni to‘g‘risida ajoyib fikrlar bildirdi: «Agar tarbiya kishini baxtli qilmoqchi bo‘lsa, uni baxt uchun tarbiyalamas-ligi kerak, balki hayotdagi mehnat uchun tayyorlashi lozim...» «Tarbiya qishida mehnat qilish odatini va mehnatga muhabbat hissini rivojlantirishi kerak; u kishiga hayotda o‘zi uchun ish topib olish imkonini berishi zarur».

Rus pedagogigi Ushinskiyning rus pedagogiglari ichida birinchilardan bo‘lib deontologiya va kompetentlik haqida to‘xtaldi va tushunchalarni axloq-odob, tarbiya deb izohladi, pedagogik deontologiya va kompetenlikning rivojiga o‘z hissasini qo‘shdi. Shuningdek, K.D.Ushinskiy asl rus pedagogikasi, jumladan maktabgacha tarbiya pedagogikasining asoschisidir; u jahon pedagogika g‘oyalarining rivojlanishiga juda muhim hissa qo‘shdi. Ushinskiy chet eldagi tarbiya hamda tajribani chuqur tahlil qildi, shu soxadagi muvaffaqiyatlar va kamchiliklarni ko‘rsatdi va bu bilan boshqa xalqlar pedagogikasi taraqqiyotiga katta xissa qo‘shdi.

U tarbiyaning xalqchillik g‘oyasini asoslab berdi. Bu esa asl rus pedagogikasini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Uning bolalarni aqliy va axloqiy tarbiyalashda hamda ularga talim berishda ona tilining o‘rni haqidaga, xalq maktabi to‘g‘risidagi talimoti, uning bolalarni maktabgacha tarbiyalash nazariyasi ko‘p millatli Rossiyaning o‘sha zamondaga pedagoglar avlodigagana emas, balki keyingi avlodiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

K. D. Ushinskiyning xizmati shundaki, u o‘z vataniga, o‘z xalqiga xizmat qilishni pedagogik faoliyatining asosiy burchi deb hisobladi. K. D. Ushinskiy ilmiy-amaliy pedagogik faoliyatining asosiy g‘oyasi va yo‘nalishi ham yuqoridagi mehnatlari bilan bevosita bog‘liqdir. K. D. Ushinskiy rus pedagogikasining o‘ziga xosligini, milliy xususiyatlarini himoya qiddi, shuningdek, tarbiyani xalqchil bo‘lishi kerakligini lozim, deb hisobladi. K. D. Ushinskiy mehnatga inson baxt- saodatining asosi sifatida qaradi, bolalarni mehnat orqali tarbiyalashga katta etibor berdi. Ushinskiy talimotning mazmuni, tamoyillari, shakl va usullarini ishlab chiqishda ham ko‘p ishlar qildi. U talimni va uning ko‘rsatmaliligini, ongli va uzviy talim-tarbiya masalalarini ishlab chikdi, o‘qitish shakl va usullarining rang- barangligiga erishishni talab etdi.

K. D. Ushinskiyning tarixiy xizmati shundan iboratki, u didaktika — o‘qitish nazariyasining psixologik asoslarini o‘sha vaqtdagi ilmiy muvaffaqiyatlarga muvofiq ravishda bayon qilib berdi. U qanday qilib ta’lim jarayonida mashqlar yo‘li bilan bolalarning faol diqqatini rivojlantirish, qanday qilib ongli xotirani tarbiyalash, takrorlash yo‘li bilan o‘quv dasturlarini o‘quvchilar ongida mustahkamlash (bu ta’lim jarayonining uzviy qismidir) haqida qimmatli ko‘rsatmalar berdi. Takrorlash, deb hisoblaydi Ushinskiy, «unutilgan narsalarni qayta tiklash (agar biror narsa unutilgan bo‘lsa, yomon-da)» uchungina kerak emas, «balki unutib qo‘yish mumkinligining oldini olish uchun ham» zarurdir; o‘qitish ishida olg‘a qo‘yilgan har bir qadamda o‘tilgan bilimlarga tayanish kerak.

Ushinskiy tarbiyalovchi talimning eng muhim didaktik tamoyillarini: ko‘rsatmalilik, uzviylik va izchillik, o‘quvchilarning o‘quv dasturini asosli ravishda va puxta o‘zlashtirib olishi, o‘qitish usullarining xilma-xilligini psixologik nuqtai nazardan asoslab berdi.

Shuni ta’kidlash lozimki, K. D. Ushinskiy o‘qituvchining mehnati va uning tarbiyalanuvchi shaxsga ta’sirini yuqori baholadi. Ushinskiy Rossiyada o‘qituvchilar tayyorlash tizimini birinchi bor ishlab chiqdi. Xulosa qiib aytganda, K. D. Ushinskiy o‘qituvchining mehnati va

talimning eng muhim didaktik tamoyillarini, o’qituvchi kasbiy etikasi va kompetentligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan.

3.2. Pedagogik deontologiya va kasbiy kompetentlik sohasidagi ilmiy izlanishlar

Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan eng muhim professional tarmoqlardan biri pedagogika sohasi sanaladi. Mazkur soha nafaqat fan asoslarini o‘qitish jarayonini, balki tajriba, an’analar, milliy va umuminsoniy madaniyatni ham nazarda tutadi. O‘qituvchining ta’sir zonasi boshqa shaxsdir, shuning uchun bu soha bir qator boshqalardan ma’suliyat, mas’uliyat hissi, bir vaqtning o‘zida o‘zgaruvchannligi va boshqaruv faoliyati qobiliyatiga ega bo‘lish zarurati bilan ajralib turadi. Shaxsni shakllantirish va o‘zgartirishdan iborat pedagogik ta’sirning maqsadi insonning intellektual, axloqiy, hissiy va jismoniy rivojlanish jarayonini tashkil etish va boshqarishda amalga oshiriladi.O‘qituvchining malakasi so‘nggi yillarda ijtimoiy tajriba doimiy ravishda o‘zgarib borayotganligi sababli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda hamda ta’lim sohasi isloh qilinmoqda.

O‘qituvchi kasbining mazmuni ta’lim-tarbiya tashkil etadi. Albatta, o‘qituvchi o‘zi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyati, kasbiy mahorati, professional burchini munosib bajarish kabi etuk shaxsning bunday mahoratiga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, u talabalarning xatti-harakatlari, rivojlanish jarayoni va ularning shaxsiyatini shakllantirish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi kerak. Bundan tashqari, quyidagi majburiyatlarni qabul qilish kerak: pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan o‘z imkoniyatlarini ob’yektiv baholash, intellektual faoliyatning umumiy madaniyatini, xulq-atvor va muloqot madaniyatini o‘rganish, psixologiya sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, talabani o‘z "men" ga teng bo‘lgan shaxs sifatida tushunish, xatti-harakatlar va boshqa shaxs bilan muloqot qonunlarini bilish; ta’lim faoliyatini tashkil etishda, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining hamkorligini ta’minlash, ta’lim, tarbiya va rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan faoliyatda talabalar bilan hamkorlikni amalga oshirishda o‘z rolini tushunish. Ushbu majburiyatlar aloqa va tashkiliy faoliyatni rivojlantirish va o‘z ko‘nikmalarini takomillashtirish vazifalarini doimiy ravishda hal qilish zarurligini o‘z ichiga oladi; psixologik va pedagogik bilimlarni o‘rganish va ularni kundalik amaliyotda samarali qo‘llash o’qituvchidan pedagogic etikava kompetenlikni talab etadi.

Ingliz faylasufi I. Bentham insonning kasbiy xulq-atvorini bilish[1] haqidagi soha ekanligini ta’kidlagan. "Deontologiya" tushunchasi professional faoliyatning har qanday sohasiga tegishli bo‘lib, pedagogik, psixologik, tibbiy, huquqiy va boshqa sohalarda ham ishlatilingan va bu borada izlanishlar amalga oshirib kelingan. Pedagogik deontologiya va kasbiy kompetentlik sohasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqdaki, uning markazida o‘qituvchining kasbiy faoliyati sohasidagi xatti-harakati qoidalari va normalarini ishlab chiqish muammosi birinchi o‘rinda turadi. K.M.Levitanning ta’kidlashicha, professional xatti-harakatlar me’yorlari har doim tarixiy va o‘ziga xos haqiqiy hayot va faoliyatning shartlari va talablariga muvofiq kelavermaydi[2]. U jamiyat va insonning rivojlanishida o‘qituvchining roli, o‘qituvchining talablari va uning kasbiy xatti-harakatlari haqidagi g‘oyalarni aniqlashda quyidagi tarixiy shaxslarning fikrlarini o‘rganib, ko‘rib chiqadi.

Jumladan, o‘qituvchi haqida fikr bildirgan Aristotel "Afina siyosati" nomli asarida o‘qituvchilarga ta’rif berar ekan, yoshlarni jismonan baqquvat bo‘lishi, ularni egalarining huquqlari va mol-mulkini himoya qilish, mehnat va xizmatkorlarga nisbatan nafrat ruhida tarbiyalash uchun tayyorlashlari kerak degan fikrni ilgari suradi.

Kvintilian "Ma’ruzachi tarbiyasi to‘g‘risida" nomli asarida “O‘qituvchi faqat yuqori malakali inson bo‘lishi mumkin, bolalarni sevadigan va tushunadigan, aqlli, xushmuomala, axloqiy xulq-atvorning namunasidir” –deb tarif bergan.

O‘rta asrlar o‘qituvchi qat’iy bo‘lishi kerak, dangasa va yaramas bolalarni jazolashi kerak — ta’limning ajralmas qismi - bolaning irodasini bostirish va jismoniy jazolashi kerak degan g‘oya ilgari surilgan. Bu fikrlar o‘rta asrlarda o‘qituvchi etikasi va kompetentligini qanday bo‘lganligini ko‘rsatadi va bu boradagi qarashlarni namoyon etadi.

Chex pedagogi Ya. A. Komenskiy (XVII asr): o‘qituvchi ijobiy baho berib, "O‘qituvchining eng yaqin tashvishi o‘quvchilarni yaxshi namuna bilan jalb qilishdir", "O‘qituvchining pozitsiyasi quyosh ostida boshqa hech kimga bo’lmagan juda yaxshi fazilatga ega bo’lishi lozim" –degan ta’riflarni keltirgan.

J.J. Russo (XVIII asr) ma’rifatning boshqa vakillarini: taraqqiyotning asosiy kuchlari aql, fan va ta’limdir. O‘qituvchi insoniy kamchiliklardan mahrum bo‘lishi va axloqiy jihatdan jamiyatdan ustun turishi kerak deb ta’kidlagan.

[1]Бентам И. Деонтология, или наука о морали. М.: Инфра-М, 1997 Т. 1, 2
[2] ЛевитанК. М. Педагогическая деонтология. Екатеринбург: Деловаяknига, 1999 272 с.

I. G. Pestalotsiy (XVIII-XIX asrlar) haqiqiy o‘qituvchi har qanday bolada (hatto jismoniy va ma’naviy jihatdan kam) bunday ijobiy fazilatlarni ko‘rishi kerak, bu unga jamiyatga foydali fuqaro bo‘lishga yordam beradi.

Deontologiya talab, me’yorlar, to‘g‘ri kasbiy xatti-harakatlar tamoyillari va keyinchalik ilmiy intizom sifatida ijtimoiy amaliyotda odamlarning to‘g‘ri xatti-harakatlari va majburiyatlari haqidagi axloqiy bilim tizimiga bo‘lgan ehtiyojga javob bo‘ldi. Axloqiy va huquqiy munosabatlarga irsiy jihatdan xos bo‘lgan ilm-fan bo‘limi mavjud edi.

Professional deontologiya- bu to‘g‘ri hodisalarni, jamiyatning ayrim sohalarida munosabatlarni ko‘rib chiqishning ob’yektiv ehtiyojlari tufayli falsafaning umumiy nazariy masalalarini, ijtimoiy hayotdagi muayyan tushunchalarni tarjima qilishga yordam beradigan professional etikani bilishning muammoli sohasi ekanligi isbotlangan.

Deontologiyada asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan me’yor (talab, majburiyat) va muayyan faoliyat ijrochisi o‘rtasidagi munosabatlar kiradi. Bu munosabatlar to‘g‘ri xarakterga ega, jamiyat va shaxs, jamiyat va jamoa, jamoa va shaxs, shaxs va shaxsning murakkab o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi.

Deontologiya masalalari bilan shug‘ullanadigan turli fanlarda (tibbiy, huquqiy) shakllantirilgan ta’riflarni tahlil qilish asosida "pedagogik deontologiya" tushunchasi pedagogik fan sohasi sifatida belgilanadi, bu esa o‘z navbatida kasbiy faoliyat sharoitida o‘qituvchining xatti-harakatlariga mos keladigan printsiplar, me’yorlar, talablarni umumlashtiruvchi tizimni ifodalaydi. Pedagogik deontologiya professional va shaxsiy buyurtma talablari tizimini shakllantiradi, o‘qituvchining xatti-harakatining axloqiy tomonini "to‘g‘ri" nuqtai nazardan yoritadi, uning o‘ziga xosligi shundaki, u "mas’uliyat" tushunchasi, o‘qituvchining professional ishlarga mas’ul munosabati, uning ishtirokchilari (talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblari va boshqalar)ni tarbiyalaydi.

Pedagogik deontologiya -o‘qituvchining kasbiy faoliyatida printsiplar, me’yorlar, talablar tizimiga mos keladigan xatti-harakati yig’indisi

O‘qituvchining deontologik tayyorgarligi professional pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy ahamiyatga ega fazilatlarni shakllantirish uchun deontologik vakolatni ta’minlaydigan maqsadli boshqariladigan jarayon sifatida tavsiflanadi.

Pedagogik deontologiya o‘qituvchining kasbiy faoliyati sohasidagi xulq-atvorining qoidalari va normalarini ishlab chiqadi. Normativ talablarni aks ettirish, ongdagi professional me’yorlar o‘qituvchiga

pedagogik haqiqatni to‘liq va to‘g‘ri qabul qilish, unga rahbarlik qilish, strategiya va taktikani ishlab chiqish, kasbiy faoliyatning rejalari, maqsadlari, ularning xatti-harakatlarini ongli ravishda tartibga solish imkonini beradi. Ushbu qoidalar, me’yorlar pedagogik haqiqatni bilish uchun ham shart, ham mahsulot, ham vositadir. Ularning yordami bilan o‘qituvchi professional sifatida o‘z nuqtai nazarini rivojlantiradi, pedagogik jarayonning boshqa ishtirokchilariga, ularning qarshlaridan foydalanib, pedagogik haqiqatning barcha haqiqatlarini baholaydi.

Pedagogik madaniyat-bu pedagogik qadriyatlar, faoliyat usullari va o‘qituvchining kasbiy xulq-atvorining dinamik tizimi bo‘lib, uning tarkibiy qismlari:

a) pedagogik pozitsiya va shaxsiy fazilatlar;

b) kasbiy bilim va pedagogik fikrlash madaniyati;

v) kasbiy ko‘nikmalar va pedagogik faoliyatning ijodiy tabiati;

d) o‘qituvchining shaxsiyatini va kasbiy xulq-atvorini o‘z-o‘zini boshqarish.

Xulq-atvor madaniyati insonning axloqiy madaniyatining "tashqi" darajasi o‘qituvchining professional madaniyatining zarur qismidir. Bu daraja odamlar, mijozlar bilan muloqotda mutaxassisning kundalik pedagogik namoyonlarini tavsiflaydi.

Xulq-atvor madaniyati-jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy va estetik me’yorlarni aks ettiradigan xatti-harakatlarning shakllari va usullari to‘plami. O‘z ongini ijtimoiy me’yorlarni qayta ko‘rib chiqqandan so‘ng, shaxs ularni xizmatga oladi, xatti-harakatlarga mos keladi, bu esa atrofdagi odamlar bilan samarali muloqotni amalga oshirishga yordam beradi. Samarali muloqot orqali biz o‘z ishtirokchilarining barcha ijobiy tomonlarini ochib beradigan, takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan, munosabatlarning uyg‘unligini anglaymiz, bu shaxs jamiyat tomonidan qabul qilinishini va bu jamiyatni o‘zi qabul qilganligini ko‘rsatadi[1] .

Odob-axloq qoidalari xulq-atvorni o‘z ichiga oladi, shuning uchun axloq qoidalariga ega bo‘lish, bu shaxsning qaysi sohada rivojlanishidan qat’i nazar, shaxsning xatti-harakati madaniyatini oshiradi. O‘qituvchining xatti-harakati madaniyati ikki barobar yuklaydi. Birinchidan, u o‘qituvchini zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan shaxs sifatida tavsiflaydi, ikkinchidan, u tarbiyaviy ta’sirga ega bo‘lgan professional sifatdir. Faqat xulq-atvor madaniyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchi uni

[1]Андреев, В.И. Педагогика творческого саморазвития. [Текст] / В.И.Андреев. Педагогика творческого саморазвития. - Кн. 2. – Казань, 1998. – 318 с.

pedagogik faoliyat sohasida bo‘lganlar uchun sifatli shakllantirishi mumkin. O‘qituvchi va maktab o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarida xulq-atvor madaniyatini shakllantiradi, shuningdek o‘quvchilarning ota-onalarining xatti-harakatlariga ta’sir qiladi. Kollej yoki universitet o‘qituvchisi kelajakdagi o‘qituvchilarning xulq-atvorini yaxshilaydi. O‘qituvchining jamiyatga bunday vositachilik ta’siri biz uchun juda muhimdir.

Axloq qoidalari xulq-atvorni tartibga solidi, shuning uchun o‘qituvchi eng muvaffaqiyatli xulq-atvorni tanlashi mumkin, shuningdek, bolalar va kattalarning xatti-harakatlariga e’tibor qaratishi mumkin. Axloq qoidalarining funksiyalarini hisobga olgan holda, o‘qituvchi o‘z xatti-harakatlarini oqilona qurish, pedagogik muloqot uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, uning faoliyati sifatini oshirishga, hamkasblar bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga, uning obro‘sini oshirishga imkon beradi. Zamonaviy pedagogik ta’lim muassasasi, bolalar bog‘chasi, maktab, kollej yoki universitet bo‘lsin, turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan (millat, ijtimoiy ahvol, psixologik va yosh xususiyatlari, qarashlari, ta’lim darajasi va boshqalar) mavjud bo‘lgan ochiq ta’lim va tarbiya tizimi. Axloq qoidalari bu farqlarni hisobga oladi, chunki ularning muvofiqligi ta’lim va ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli ta’sir qiladi. Axloq qoidalarini bilish uchun o‘qituvchi bolalar va kattalar guruhida qanday qilib eng yaxshi yo‘l tutishni aniqlaydi. [1]

Mashhur psixolog Kan-Kalik pedagogik muloqotning quyidagi uslublarini tavsiya etadi.[2]

1) O‘qituvchining yuqori malaka munosabatlariga asoslangan muloqot, unda umuman pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabati. Ular shunday deyishadi: "uning orqasida bolalar (talabalar) tom ma’noda poshnalarda yurishadi!"Oliy maktabda muloqotga bo‘lgan qiziqish, ayniqsa, umumiy kasbiy manfaatlar bilan rag‘batlantiriladi.

2) Do‘stona tartibga asoslangan muloqot. Bu umumiy ish uchun ehtirosni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi murabbiy,do‘st, qo‘shma ta’lim faoliyati ishtirokchisi sifatida xizmat qiladi. Biroq, bu tanishlikdan qochish kerak. Bu, ayniqsa, ziddiyatli vaziyatlarga kirishni istamagan yosh o‘qituvchilar uchun to‘g‘ri keladi.

3) Aloqa-masofa pedagogik muloqotning eng keng tarqalgan turlariga tegishlidir. Bu holda, munosabatlar doimo hayot tajribasi, barcha sohalarda

[1]Левитан, К.М. Педагогическая деонтология. [Текст] / К.М. Левитан. Педагогическая деонтология. – Екатеринбург: «Деловая книга», 1999.- 272 с

[2]Митина, Л. М. Психология труда и профессионального развития учителя. [Текст] / Л.М. Митина. Психология труда и профессионального развития учителя. – М. -2004. – 320 с.

masofaga taqaladi. Ushbu uslub o‘qituvchi-talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantiradi. Biroq, bu talabalar o‘qituvchini tengdoshga o‘xshatishi kerak degani emas.

Pedagogik deontologiya va kompetentlik fani Sharq mutafakkirlari va G‘arb pedagoglari jamiyatda tutgan o‘rni haqida noyob fikrlarni aytishgan. Muallimlik kasbining qadr – qimmati, nafaqat uning o‘qituvchi, turli – tuman fanlardan bilim beruvchi va mohir tarbiyachi bo‘lganligi uchun emas, avvalo, umumiy ishga qo‘shayotgan hissasining salmog‘i va sifati bilan ham belgilanadi. Aqliy va jismoniy mehnatning samarasi bilan, ishbilarmonligi bilan qadrlanadi. O‘qituvchining qadr – qimmati uning mansabi, kasb – koridan ko‘ra ham ko‘proq o‘z kasbini qanday bajarishiga, uning odobi va xulq – atvoriga bog‘liq.ekanligini ko’rsatadi.

Bunday obro‘ – e’tiborga ega bo‘lish uchun kasb – hunar yo‘nalishidagi barcha mutaxassisliklar bo‘yicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bo‘lgan fundamental fanlarni hamda o‘qitish, tarbiyalashni metod va usullarini, psixologiya va pedagogika asoslarini yuqori darajada egallagan bo‘lishi shart.

Ana shu nuqtai nazardan to‘la ma’nodagi muallim turli darajadagi bilimga, istak va irodaga va tarbiyaga ega bo‘lgan talabalarni ajoyib ota – ona va san’atkor kabi o‘ziga ergashtira oladi. O‘qituvchidagi bunday sifatlar hozirgi vaqtda oliy o‘quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan yosh mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur o‘rgatib qolmasdan, balki ayni vaqtda buyuk insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan, muomalaga kirisha oladigan, o‘z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga katta e’tibor qilishni talab etadi. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi bo‘lajak o‘qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va texnika ko‘nikmalari bilan qurollangan, madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini hayot talab qilmoqda.

Yuksak salohiyatli insonni shakllanirish masalasi barcha davrda ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta’kidlansa, islom ta’limoti g‘oyalariga ko‘ra yetuklikning bosh mezoni - ilmlilik, bilimli bo‘lishdir.

O‘qituvchi kasbining nozikligi, mas’uliyatiligi va murakkabligi hamda sharafli ekanligi to‘g‘risida mulohazalar, muallimning mahorati, ularga qo‘yiladigan talablar, fazilatlariga oid qasharlar, munosabatga kirishish mahorati, muomala madaniyati Sharq mutafakkirlarining asarlarida ifodasini topgan. Sharq ma’naviy-madaniyatining xilma-xil jihatlari, ayniqsa Uyg‘onish davrida juda rivojlangan bo‘lib, bu davrda yashab ijod

etgan Abu Nasr Farobiy. Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida yosh murabbiylarning ma’naviy-axloqiy kamolotida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham komil inson qiyofasining yoritilishiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy komil insonni shakllantirish va fozil jamoa (yetuk jamiyat)ni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yo‘nalishi ekanligiga urg‘u beradi. Allomaning fikricha, fozil jamiyat komil inson sa’yi-harakati bilan barpo etilishi mumkin. Shu bois mamlakatni boshqaruvchi shaxs o‘zida eng oliy insoniy fazilatlarni mujassam eta olishi zarur, deb hisoblaydi. «Aql ma’nolari tog‘risidagi» risolasida Abu Nasr Forobiy rahbar shaxs qiyofasida namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan o‘n ikki fazilatni keltirib o‘tadi. Bizning fikrimizcha, mazkur fazilatlar har bir zamonaviy shaxsda o‘z aksini topa olishi kerak, zero, ular inson hayotini mo‘’tadil kechishi hamda muayyan kasbiy faoliyatlarni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishishni kafolatlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ham komillikning asosini ilmli bo‘lishda deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urg‘u beradi. Allomaning fikricha, axloqiylik, to‘g‘rilik, odillik, tadbirkorlik, o‘zini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, shuningdek, adolatli va vijdonli bo‘lish komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo‘lgan eng asosiy sifatlardir.

Abu Ali ibn Sino ham kamolotga erishishning birinchi mezon sifatida bilimli bo‘lishni alohida qayd etadi. Bilimli insonning adolatli bo‘lishi esa uning yanada yuksalishini ta’minlaydi, deya baholab alloma, adolatni ruhiy lazzat (ruhiy xotirjamlik)ning muhim ko‘rsatkichi ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o‘rinni egallaydi va o‘z orzusidagi komil inson shaxsini asarlarining qahramonlari timsolida gavdalantirishga urinadi. Mutafakkir qarashlarida komil inson quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi borasidagi g‘oya ilgari suriladi: aqlli, axloqli, bilimli, ijodkor,qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, saqovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog‘lom, jismonan baquvvat, mard va jasur.

Abdulla Avloniy komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlari bilan Sharq mutafakkirlarining fikrlarini boyitar ekan, komil inson qiyofasida, yana shuningdek, vatanparvarlik, hamda intizomlilik sifatlari ham namoyon bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Alloma millat taqdirining

jonkuyari sifatida milliy til taraqqiyoti jamiyat ma’naviy rivojini ta’minlovchi asosiy omil, deya baholaydi.

Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta’minlashdagi o‘rni va roliga alohida e’tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o‘zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta’sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo‘lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta’kidlaydi. Bolani yomon ta’sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi.

Shuningdek, alloma o‘qitish samaradorligini ta’minlashda bolalarga jamoa asosida bilimlarni berishni maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi.

Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, inson boshqalar bilan munosabatda bo‘lish, ularning yordami va qo‘llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo‘lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetaklaydi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o‘zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrixohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o‘rnini belgilab beradi.

Abu Ali ibn Sino mulohazasinga ko‘ra tarbiyachi dastlab bolalarni yaxshi ko‘rish, hurmat qilishi, ular bilan xushmuomala bo‘lishi shart. Agar bola ishni yaxshi bajarsa, uni o‘z vaqtida rag‘batlantirish, gohida maqtab qo‘yish, aksincha bo‘lganda esa, unga tanbeh berish kerak. Lekin dedi Ibn Sino, tanbeh izzat-nafsiga tegadiganbo‘lmasligi lozim, o‘quvchiga murosassozlik qilish esa bolaning o‘zboshimcha bo‘lib qolishga olib boradi», - deydi ibn Sino [24].

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida o‘qituvchi bolalarga ta’lim berishdek mas’uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvafaqiyatga erishish garovi bo‘lgan quyidagi tavsiyalarni beradi: bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish; berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishiga e’tiborni qaratish; ta’limda turli shakl va metodlardan foydalanish; talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi, fanga qiziqtira olishi; berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi; bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish; har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish nazarda tutilgan.

Nasriddin Tusiy o‘zining «O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida» degan asarida shunday deydi: «O‘qituvchi munozaralarni olib borishi, rad

etib bo‘lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi lozim» O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol va qattiq bo‘lishi mumkin emas.

Yetuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy (1414-1492) o‘z asarlarida bola dunyoqarashining kamol topishida maktab va muallimning roliga katta baho beradi. Uning fikriga qaraganda, muallim aqlli, adolatli, o‘zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi, degan fikrni bildiradi.

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o‘z asarlarida o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o‘rin beradi. Jadid adabiyotining yirik vakili shoir, dramaturg, muallim Abdulla Avloniy (1878-1934)ningxizmatlari ko‘p. U maktablar ochib, shaxsan o‘zi muallimlik qilish bilan birga maktablarni darsliklarbilan ta’minlash ishiga katta hissa qo‘shdi. Uning qalamiga mansub «Turkiy Guliston yoxud axloq»,«Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» «Maktab Gulistoni » asarlari bir necha bor nashr etildi. Bularichida «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari o‘zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasihisoblanadi[1].Allomaning asrlarida qayd etishicha, bolaning sog‘lom bo‘lib o‘sishida ota-onalar o‘ziga xos rol o‘ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta’kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur», - deydi[2].

O‘qituvchi va uning professional sifatlari orasidagi muammolar chet ellik olimlar Y.A.Komenskiy, Djon Lokk, I.G.Pestalotssi, A.Disterverg kabilarning asarlarida o‘z ifodasini topdi. Jumladan, ulug‘ chex olimi, pedagog Y.A.Komenskiy o‘qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolani sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritib, ularning mohiyatini atroflicha tavsiflab beradi.

Yan Amos Komenskiy o‘z davrida o‘qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o‘qituvchilik “yer yuzidagi har qanday kasbdan ko‘ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb” ekanligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, pedagog o‘z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o‘z qadr-qimmatini to‘la baholay bilishi zarur.

[1]Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” T.:1917 yil. 1-bet.
[2] Farberman L. «Ilg‘or pedagogik texnologiyalar» T. «FAN», 2000 yil.

Y.A.Komenskiy o‘qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarning namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiqligiga urg‘u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, oquvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘otuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortida ergashtiruvchi va diniy e’tiqodga ega bo‘lgan shaxs.

Ushbu masalagasal boshqacharoq yondoshgan I.G.Pestalotssi o‘qituvchining professional sifatlariga baho berishidan umuman chetlashib, uning xalq ta’limi tarmog‘ini takomillashtirishdagi roli, fan asoslarini egallashdagi ahamiyati, vazifalariga to‘xtalib o‘tadi.

A.Disterverg o‘qituvchining ta’limdagi roliga baho berib, u o‘z faoliyatini bilishi, uni sevishi, o‘quvchilarini yoqtirishi deb uqtiradi, o‘qituvchi bolalarning individual xususiyatlarga qobiliyati, faoliyati uslubi to‘g‘risida muayyan darajada bilimga ega bo‘lish kerakligini ham ta’kidlab o‘tadi.

Mutafakkir Djon Lokk o‘qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlari orasiga mo‘tadillik, g‘ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi hislatlarini kiritib, ularning ta’limdagi roli yuzasidan mulohaza yuritadi.

G‘arb mutafakkirlari g‘oyalarining vorislari sifatida A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, I.G. Chernishevskiy, K.D.Ushinskiy kabi rus mutafakkirlari mazkur muammolarga o‘z mulohazalarini bildirganlar.

A.I.Gersen mulohazasiga ko‘ra, o‘qituvchining asosiy xislati – bu uning bolalar bilan munosabatda bo‘layotganligi sezishda bolalar ruhiy dunyosini tushuncha olishda, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste’dodga erisha olmaydi, buni unutmaslik kerak.

O‘qituvchi kasbiga oid ilmiy, tajribalarda sinalgan mulohazalar rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, hech bir ustav yoki programma hamda sun’iy organizm puxta ishlab chiqarilganiga qaramay, inson shaxsining o‘rnini bosa olmaydi deb hisoblaydi. Insonining harakteri va his-tuyg‘ulari, uning o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish usuli, o‘qituvchi qalbi bolalarga yaqinligi kabi axloqiy hislatlarining shaxsiga xos muhim fazilatlar bo‘lib hisoblanib, muallimning tarbiyaviy kuchini belgilaydi va ijtimoiy qimmatiga ega bo‘lgan, barkamol bola shaxsini tarkib toptiradi.

Pus pedagogi K.D.Ushinskiy ta’kidlashicha, pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi pedagogik-psixologik odob (takt) hisoblanadi. Uning fikricha, psixologik odob (takt) hayotimizning barcha jabhalarida g‘oyatda keng qo‘llaniladi, shuning uchun usiz odamlar orasida hech

qanday muloqot va nutq qobiliyatining o‘zi ham bo‘lmagan bo‘lar edi, deydi.

K.D.Ushinskiy o‘qituvchi ma’naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho berib, ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomilashtirib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bu g‘oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o‘qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

Umuman olganda o‘qituvchining mahorati va kasbiy sifatlari barchasi kelajak avlod ta’lim-tarbiyasiga qaratilgan va uning rivojiga xizmat qiladi.

3.3 O‘zbekistonda pedagogik dentalogiya va kompetentlik fanining rivoji.

O’zbekiston Respublikasida pedagogik dentalogiya va kompetentlik o’qituvchining ma’naviy qiyofasi, axloqiy salohiyati hamda kasbiy mahorati namoyon bo‘lib, o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablarda bu soha juda aniq ko‘rinadiki, bugungi kunda bo‘lajak pedagoglarni tarbiyalashga nisbatan jiddiy talablar qo’yilmoqda. O’zbekiston Respublikasida malakali o’qituvchilarni qo’llab quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirish, borasida turli xil tanlovlar joriy etilib, ularni kasbining fidoiylariga aylanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, “Yil o’qituvchisi” Respublika ko’rik-tanlovi, yoki “Yil maktabi” Respublika ko’rik-tanlovi ta’lim muassasalarida faoliyat olib borilayotgan o’qituvchilarga pedagogik mahoratini individual ravishda namoyish etish imkoniyatini yaratmoqdaki, Respublika miqyosida o‘z kasbiy faoliyatda muvafaqqiyatlarga erishayotgan o’qituvchilar, soha mutaxassislarini rag‘batlantirishborasida tegishli qonunlar qabul qilindi.

O’qituvchi butun o’qitish jarayonida o’zi dars berayotgan fanning umuminsoniy va milliy axloqiy tarbiya vazifalarini singdirish yo’li bilan o’quvchilarga muntazam tarbiyaviy ta’sir o’tkazadi[1].

Yurtimiz yoshlariga ma’naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi xususiyatlarni singdirishda o’qituvchilarning roli beqiyosdir. Shu boisdan, eng avvalo, o‘qituvchilarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizni mukammal egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, o‘z faoliyati orqali jamiyatga namuna qilmoq lozim.

[1]Кенжабоев А.Э., Кенжабоев Д.А. Педагогик деонтология ваўқитувчининг касбий компетентлиги. Замонавий таълим / современное образование 2021, 4 (101)

Jamiyatda turli sohalarda faoliyat olib borilayotgan ko’plab kasb egalari o’zlarining Vatan, xalq va jamiyat oldidagi burchlari, majburiyatlarini sadoqat bilan bajarmoqdalar. Jumladan, 2020-yil butun dunyo xalqlari uchun tashvishli davrda har kasb egalarini o’z kasbiga nisbatan sadoqatliligi, uning Vatan oldidagi, xalq oldidagi majburiyati haqida imkon qadar bugungi pedagogik faoliyatda shug’ullanuvchi hamkasblarda pedagogik deontologiya va kompetentlikni rivojlantirish fuqarolik pozitsiyalarini kuchaytirish borasida keng kop’lamli ishlar amalga oshirildi. O’qituvchilarning kasbiy burchlari va ta’lim tizimidagi o‘rni haqida 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risidagi” Qonunning tegishli moddalarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda pedagogik dentalogiya va kompetentlik rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu boradasharq mutafakkirlari ilm-fani va madaniyati tarixidan munosib o‘rin olgan mutafakkirlar ham fan rivojiga o‘zlarining g‘oyaviy qarashlari bilan benazir hissalarini qo‘shganlar.

Bu buyuk mutafakkirlar turli fanlarga oid yaratgan asarlarida ma’naviy-madaniy qadriyatlarning ilmiy-falsafiy asoslarini ishlab chiqqanlar. Ular asrlar davomida ta’lim-tarbiya sohasida ajdodlarimiz orttirgan tajribalarning kuchli qudratga ega ekanligini va xalqchilligini o‘z asarlarida ifodalaganlar. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining taniqli namoyondalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov,Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy, Xamza Xakimzoda, Abdulla Qodiriy, Abdulxamid Cho‘lpon, Elbek kabi ma’rifatparvarlar ham pedagogik madaniyat va kompetntlikni rivojlantirish uchun ma’rifatparvarlikka asoslanish, ta’limni isloh qilish zarurligi goyasini olg‘a surib, Turkistonda ijtimoiy ong taraqqiyotini boshlab berdilar. Ularning ma’rifiy qarashlarini davom ettirgan olim va shoirlar: Qori Niyoziy, Siddiq Rajabov, Shorasul Zunnun, G‘afur G‘ulom, Oybek, Xamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Zulfiya kabi ustozlarning pedagogik qarashlarini davom ettirayotgan Erkin Voxidov,Abdulla Oripov, Po‘lat Muminlarning ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari aks ettirilgan. Zamonaviy pedagog olimlarimiz Malla Ochilov, O.Roziqov, K.Zaripov, X. Ibragimov, B.Q.Xodjayev, B.R.Adizov, Sh.Sh.Olimov. Dilnoz Ro’zieva, Oynisa Musurmonova, Begzod Xodjaev va boshqalar o’qituvchilik kasbi, pedagogik madaniyat, pedagogik mahorat uning mashaqqatlari, shuningdek, o’qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo’lgan sifatlar xususidagi fikrlarini bayon qilganlar.

“Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo’lmagan shaxs ta’lim-tarbiya samaradorligini va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo’lmaydi”[1], – deb ta’kidlaydi, O.Musurmonova o’zining pedagogik mulohazalarida.

Kishilik jamiyati taraqqiyotidan ma’lumki, insonlarga yaxshilik qilish, to’g’ri so’z bo’lish, botirlik, kamtarlik, halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlar har zamonda ham e’zozlangan. Inson mehnat faoliyatini ma’lum bir soha bilan shug’ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy talablar asosida faoliyat olib boradi. O’qituvchilik kasbi faxrli, obro’li el-yurt nazariga tushgan kasblardan biridir. Xalqimiz o’qituvchilar mehnatini doimo hurmat qiladi, ardoqlaydi. Chunki o’qituvchilarning ko’pchiligi o’z burchini, majburiyatini chuqur his etadi va fidoyilik bilan xalqimizning kelajagi bo’lgan yoshlar tarbiyasida faol qatnashmoqdalar. O’qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikri, axloqiy fazilati va e’tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e’tiqod va sifatlar o’qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o’quvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala munosabatlarida kundalik turmushda o’zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta’sir o’tkazishda ko’zga tashlanadi. O’qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy axloqiy fazilat tushunchalariga mos keladi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g’urur, burch, qadr-qimmat, mas’uliyat, vijdon, halollik, rostgo’ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy sifatlar o’qituvchi odobida pedagoglik faoliyati bilan tahlil qilinadi. Professor M.Ochilov o’qituvchi burchi to’g’risida ham o’z fikrini quyidagicha ifodalaydi: “O’qituvchi yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish sohasidagi o’z burchini zo’rlik tufayli yuklatilgan majburiyat emas, balki o’z hayotining ma’nosi, ishonch va vijdon da’vati deb hisoblaydi. Fuqarolik burchini his etmoq butun xalq va O’zbekiston davlatining buyuk kelajagi to’g’risida g’amxo’rlik qilishini taqozo etadi”[2].

O’qituvchining burchi, mas’uliyati va kasb odobi kabi jihatlar, hattoki milliy dastur va “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunimizda ham o’z aksini topgan. “Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo’llab-quvvatlanadi, o’z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro’sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o’z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi”

[1] О.Мусурмонова. Умумий педагогика. Тошкент.“Ўзкитоб савдо нашриёти”, 2020, 61-бет.
[2] Очилов М. Муаллим – қалб меъмори. - Т.: “Ўқитувчи”, 2001. 38 бет.

(5-bob 45-modda). Shuningdek, Qonunda pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

- o’z sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro’sini himoya qilish;
- o’quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish;
- zamonaviy pedagogik shakllarni o’qitish, tarbiyalash vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanishi;
- o’quv, uslubiy yo’l-yo’riqlardagi axborot resurs markazlaridan bepul foydalanish;
- pedagog xodimlar qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa huquqlarga ham ega bo’lishi mumkin haqida ham fikrlar keltirilgan.

O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha “Harakatlar strategiyasi” da: “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish mehnat bozorini zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali mutaxasislar tayyorlash siyosatini davom ettirish”[1], ta’lim va fan sohasini rivojlantirish muammolari ko’ndalang qo’yilgan. O’z davrining buyuk allomasi Alisher Navoiy ham o’zining “Mahbub ul-qulub”[2] nomli didaktik asarida: “o’qituvchi xalq oldida obro’ga, hurmat va izzatga sazovor bo’lishi kerakligini, u xalq g’ami bilan yashashini, xalqqa yordam beruvchi, xalq bilan birga bo’lishi lozimligini aytadi. Nodon mutaassib johil mudarrislarni tanqid qilib, mudarris orasidagi eng sara “malak qiyofali kishi bo’lishi, ya’ni sof ko’ngilli, pok qalbli, insofli, odobli, yaxshi kishilarni odobini o’zida aks ettirishi lozim”, deb aytib o’tgan.

O’tgan asrning 60-70-yillarida ta’limda qator islohotlar amalga oshirilib, “kompetentsiyaviy yondashuv” yangi tadqiqot yo’nalishi sifatida paydo bo’ldi. Kompetentsiya lotincha so’z bo’lib “compete” – kirishayapman, munosibman, loyiqman yoki bir sohadagi bilimlar, tajribalar ma’nolarini anglatadi. Demak, inson ma’lum sohani yaxlit biladigan, tajribaga ega bo’lgan kabi ma’nolarni bildiradi.

“Kompetentlik – bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, rahbarlik faoliyatiga singdirib borish”. “Kompetentsiya – biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo’lgan masalalar doirasi”[3] - deb rus psixologi B.D.El’konin ta’rif bergan.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017йил 7 февралдаги ”Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бўйича Ҳаракатлар стратегияситўғрисида”ги ПФ-4947-сон фармони. - https://lex.uz/docs/3107036

[2] А.Навоий. “Маҳбуб ул-қулуб” Ўн беш томлик. - Тошкент. Бадиий адабиёт нашриёти, 1966 й. 13 том. 192-193-бетлар

[3] Эльконин Б.Д.Понятие компетентности позицияразвивающего обучения. - Москва. 2002.

“Kompetentsiya – biror kishining vazifalari,huquqlari doirasi”[1] – deb S.I.Ojegov aytib o’tgan.Umuman “kompetentsiya” va “kompetentlik” atamalari pedagog olimlar tomonidan bir xil tahlil etilmaydi. Kompetentlikka yo’naltirilgan ta’lim amerikalik tilshunos M.Xomski (1956) Massachusets universiteti tomonidan taklif etilgan “kompetentsiya” atamasining umumiy ma’nosi shakllandi. Yevropa kengashi dasturi bo’yicha Bern shahrida bo’lib o’tgan simpoziumda (1996 yil) “kompetentsiya” – qobiliyat, mahorat singari tushunchalar qatoriga kiritilganligi ta’kidlanadi.

Aleks Mur ko’p qirrali qobiliyat tushunchasiga asos soldi, ya’ni ko’p qirrali qobiliyatlilik tushunchasi kompetentlik tushunchasiga mos kelibuning fikricha: “ko’p qirrali qobiliyatlar deganda, turli xil insonlar turli xil uslublar orqali yoki bir inson turli xil narsalarni turli xilda o’rganish tushuniladi”[2].

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o’qituvchilar faoliyatida “kompetentlik” va “kompetentsiya”so’zlari keng ma’noda ishlatilmoqda. Ushbu atamalarning mazmun va mohiyati pedagog, psixolog, metodolog olimlar tomonidan turlicha talqinetiladi.

MDH mamlakatlari olimlari Yu.K.Babanskiy, M.N.Skatkin, N.V.Kuzmina, V.A.Slastyoninlar o’z tadqiqotlarida bo’lajak o’qituvchini kasbga tayyorlash, “effektiv o’qituvchi” texnologiyasiva uning mazmuniga umumdidaktik yondashuvlar ilgari suriladi. O’zbekistonlik pedagog olimlar N.S.Saidahmedov, Sh.S.Sharipov jumladan, O.Musurmonova faoliyatida: “ta’lim muassasalarida ta’limni insonparvarlashtirish hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish, uzluksiz ta’lim muassasasi o’qituvchilarning kompetentsiyasi va unga qo’yiladigan didaktik talablar”- deb, tushuntiradilar.

Bugungi kunda “kompetentsiya” tushunchasi O.Musurmonovaning fikricha, kasb egasiga zarur bo’lgan qonunlar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar shuningdek, shaxsiy deontologik me’yorlaryig’indisini anglatadi.

“Kompetentlik” esa shaxsiy amaliy faoliyat bilan bog’liq bo’lib, kompetentsiya me’yorlarini jamiyat talablaridan kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir[3].

O‘qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo‘yiladigan

[1] Ожегов С.И. Словарь русского языка. – Москва: “Русский язык”, 1999. 248 стр
[2]АлехMore. Teaching learning. Pedagogy. Curriculum and culture. 2014, p. 146
[3] Мусурмонова О. Педагогик технологиялар – таълим самарадорлиги омили. - Т.: “Ёшлар нашриёт уйи”, 2020, 44 бет.

talablar, Respublika ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlash, ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog‘liqdir.

Shunday qilib, chet el mutafakkirlari o‘z asarlarida o‘qituvchining qator muhim fazilatlari mavjud bo‘lishini bayon qilganlar. Bularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o‘qituvchining har tomonlama barkamol bo‘lishish, o‘zining yuksak hislatlari va his tuyg‘ulari bilan boshqa kasbdagi kishilardan ajralib turishi,

- davrlarni o‘zlashtirshda orqada qolganlar bilan individual ishlash, o‘quvchilar diqqatini o‘ziga torta olish sehri,

- mustaqil ishlash va o‘z mahoratini, malakasini oshirish. Pedagogik qobiliyat va odobga ega bo‘lish kabilar.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, sharq va g‘arb mutafakkirlari tomonidan tahlil qilingan ko‘pgina o‘qituvchi kasbi haqidagi mulohazalari to hozirgi ajdodlar g‘oyasini takomillashtirish evaziga ta’limni yuksak bosqichga ko‘tarish mumkindir.

Pedogogik jarayonlarni samaradorligini ta’minlash uchun o‘qituvchilar aniq belgilangan yo‘nalishida pedogogik jarayonlarni maqsadli rejalashtirish, loyihalashtirish, modellashtirish, o‘quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta’minlash, vaziyatlarga ko‘ra pedogogik jarayonni boshqarish usullari, metodlari hamda tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni bilishi va bular asosida pedogogik jarayon subyektlarining faoliyatiga murakkab pedogogik tizim sifatida yondoshuvlariga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyatni tashkil etishi zarur hisoblanadi. Bunda asosiy e’tibor ta’lim–tarbiya jarayonining tashkilotchisi pedogoglarga qaratilgandir. Pedogoglik kasbining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, o‘qituvchilar o‘z bilimlari, malaka va ko‘nikmalarini muntazam to‘ldirib borishni taqoza etadi. Zamonaviy pedogog tadbirkor tarbiyachi, ma’naviy-mafkuraviy ishlarni ijobiy faol qatnashchisi, o‘qitayotgan fanining chuqur bilimdoni, fani bo‘yicha ilmiylikni yosh avlodga san’atkorona o‘rgatadigan shaxs bo‘lishi lozim. Hozirgi ilm-fan shiddat bilan yuksalib borayotgan davrda pedogoglarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish-birinchi navbatda ularning zamonaviy axborot texnologiyalarini puxta o‘zlashtirishini, bu borada ilmiy metodik ko‘nikmalarini rivojlantirishni, ilmiy texnikaviy axborotlar va o‘quv-ilmiy adabiyotlarni o‘rganib borishni taqozo qiladi hamda o‘qituvchining kasb mahoratini, ko‘nikma va bilimini

uzluksiz takomillashtirish uchun qulay shart sharoit yaratishni talab qiladi, bu jarayon malaka oshirish kurslarida to‘la amalga oshiriladi, desak xato bo‘lmaydi.

Ta’lim oluvchi o‘quvchilarning boshlang‘ich tushunchalari, qiziqishlari, ehtiyoji va qobiliyatlarini, shaxsiy xislatlarini shakllantirishda o‘qituvchi pedogogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etishning murakkab tomonlarini faol o‘rganib shuning natijasida ko‘zlangan maqsadga erishishga harakat qilmog‘i va malaka oshirish natijasida o‘rgangan ko‘nikmalarini pedogogik jarayonni takomillashtirishda qo‘llashi, pedogogik samaradorlikni oshirishga yordam beradigan turli tdbirlarni ishlab chiqishlari zarur. Pedogogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etishda quyidagi keltirilgan muammolarni inobatga olish va ularning ijobiy yechimlarni topish o‘qituvchi faoliyatida samaradorlikka erishishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida xizmat qiladi:

- pedogogik jarayonlarning faolligiga ta’sir qiluvchi, yangiliklarni joriy etish surati bilan ularning qiziqishi, ehtiyoji va boshlang‘ich tushunchalari, imkoniyatlari hamda o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan tushunchalarning murakkabligi va ularni inobatga olish zaruriyati o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni vujudga keltiruvchi omillar;

- pedogog xodimlarning shaxsiy xislatlari va kasbiy qobiliyatlarini shakllantirish darajasi bilan ta’lim muassasalariga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar o‘rtasidagi ziddiyatlar;

-ta’lim tizimida vujudga kelayotgan tashabbus hamda qo‘llanilayotgan va yaratilayotgan yangiliklarni joriy etish surati bilan ilmiy metodik ta’limotlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik:

-ta’lim muassasasining integrativ tabiatiga mos yondoshuvlar va ularni shakllantirish texnologiyalarining mavjud emasligi.

Pedogogik jarayonlarni tashkil etish samaradorligi bo‘lsa - bu boshqaruv qonuniyatlari, usul va metodlari hamda innovatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv faoliyati negizida tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayonining natijaviyligi hisoblanadi. Pedogogik jarayonlar samaradorligi mazkur jarayonning asosini tashkil etuvchi ta’lim-tarbiya jarayonining natijaviyligi hisoblanadi, chunki tadbiq etilayotgan yangiliklar va innovatsiyalar hamda tashkil etilayotgan innavatsion jarayon aniq bir maqsadga, ya’ni ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish ularni faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

Pedogogik jarayonlar samaradorligi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarining rivojlanishi,

o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari darajasining o‘sishi bilan belgilanadi. Xulosa qilb aytganda, pedagogik madaniyat va kompetentlik o’qituvchi faoliyatida asosiy o’ringa ega bo’lgan tushunchalar sanalib, ta’lim-tarbiya jarayonida o’qituvchining axloqiy sifatlarini belgilashga xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlovchi savol va topshiriqlar.

1. Yevropada pedagogik deontologiya fanining rivojlanish tarixini aytib bering.
2. Xorijiy davlatlar ta’lim tizimida pedagogik deontologiya va kompetentlik tushunchalari haqida so‘zlab bering.
3. O‘qituvchining odobi, xulq-atvori haqida O’zbekiston pedagog-olimlarning fikrlarini izohlang.
4. Pedagogik deontologiya va kompetentlik fani doirasidagi ilmiy izlanishlar haqida so‘zlab bering.
5. O‘zbekistonda pedagogik deontologiya fanining ahvoli haqida esse yozing.
6. O‘qituvchi odobi va madaniyati, kompetentlik tushunchalarini izohlang.
7. T-jadval asosida pedagogik deontologiya va kompetentlik borasida faoliyat yuritgan xorijiy va o‘zbek olimlarini yutuq va kamchiliklarini izohlang.

4- MAVZU: OLIY TA’LIM O‘QITUVCHISI KASBIY KOMPETENSIYASINING TAKOMILLASHTIRISH JIHATLARI

Tayanch tushunchalar: kompetensiya, kompetentlilik, ta’limiy kompetsiyalar, kasbiy kompetensiya, maxsus kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, shaxsiy kompetentlik.

4.1 Kompetensiya haqida tushuncha

“Kompetensiya” deganda esa (lotincha compete – erishaman, muvofiqman, mos kelaman) kishilarning muayyan sohani muvafaqiyatli amalga oshirishda, hal qilishda kerak bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malakalar majmui, amaliy tajriba tushuniladi. Kompetensiya, shuningdeq muayyan vazifani bajarish uchun biror shaxs yoki tashkilotga berilgan vakolat va huquq ma’nosilarida ham qo‘llaniladi.

Umumiy qilib aytganda kompetensiya - bu barcha sohalarda kasbiy va mehnat muammolarini hal qilishga qaratilgan ijtimoiy va mehnat munosabatlari integratsiyalashuvi asosida olib boriladigan universal faoliyat usullari.

Huquqiy jihatdan olib qaraganda kompetensiya - muayyan organ yoki mansabdor shaxsning qonun bilan belgilangan vakolatlari, huquq va majburiyatlari majmui; davlat organlari (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari) tizimidagi o‘rnini belgilaydidigan tushuncha.

Kompetentlilik va kompetensiya so‘zlari bir-biri bilan bog‘liq va biri ikkinchisini ma’no jihatdan to‘ldiradigan tushunchalar sanaladi. Shunga ko‘ra kasbiy kompetensiya o‘zida bir qator kompetentlik va kompetensiyalarni mujassamlashtiradi. Zero, yetarli darajada kasbiy kompetensiyasi rivojlanmagan va keng doiradagi kompetensiyaga ega bo‘lmagan mutaxassis o‘z lavozim vazifalarini muvaffaqiyatli bajara olmaydi. Kompetentli deb muayyan bir sohaga oid ma’lumotga ega bo‘lgan va shu sohaga xos kompetensiyalarni egallagan kishiga aytiladi.

Kompetensiya ta’lim oluvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma, malakalariga qarab darajalarga ajratiladi. Chunki kompetensiya mutaxassislarning egallagan bilim, malaka, ko‘nikmalari, kasbiy va shaxsiy sifatlari, faoliyati davomida namoyon bo‘ladi va shu asosida ular passiv, o‘rta, yuqori darajalarga ajratiladi.

Kompetensiya tushunchasi izohlashda davom etar ekanmiz kompetensiya tafakkur va xayolning namoyon bo‘lishiga qarab, olib borilayotgan faoliyatda kasbiy va shaxsiy fazilatlarning namoyon bo‘lishiga ko‘ra ham farqlanadi.

Biz shu o‘rinda pedagogika fanlari doktori professor Komil Zaripovning o‘qituvchilarni faoliyatidagi sifatlariga qarab ularni ilg‘or, ijodkor, novarot o‘qituvchalarga bergan ta’riflari bilan izoxlasak, barcha kitobxonlarga tushunarli bo‘ladi.

Chunonchi kompetensiya pedagogxodimlarini baholashda ham qo‘llaniladi. O‘qituvchilar kompetensiyasini baholashda Kompetentsiyalar to‘plami - bu ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun pedagog-xodimlarga zarur bo‘lgan fazilatlarni tavsiflovchi kompetentsiya modeli asos bo‘ilb xizmat qiladi.

“Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarining farqi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

• kompetensiya – davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, u o‘quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta’limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi;

• kompetentlilik – bu o‘quvchi (ishchi) tomonidan egallangan bilim, malaka, ko‘nikmalari, muayyan sohada egallagan shaxsiy sifatlari, muayyan sohada orttirilgan tajribasi tushiniladi.

Ta’limiy kopetensiyalar shunisi bilan farqlanadiki, ular o‘quvchi faoliyatini kelajakda to‘laqonli hayot kechirishi (faoliyat ko‘rsatishi) uchun modellashtiradi. Ma’lum yoshgacha, davrgacha inson biror bir kopetensiyani namoyon yeta olmaydi, ammo bu kompetensiyani shakllantirmaslik kerak degani yemas. Bunday holatda ta’limiy kompetensiyalar haqida, ya’ni o‘zaro bog‘liq mazmun yo‘nalishlari, bilim, ko‘nikma, malakalar, borliqda mavjud voqeliklarga munosabat nuqtai nazaridan faoliyat tajribasida ifodalangan, ham shaxsiy, ham ijtimoiy ahamiyatga yega bo‘lgan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ta’limiy tayyorgarlik to‘g‘risida gap boradi.

Kompetentlilik har doim faoliyatda namoyon bo‘ladi. Mutaxassisning kasbiy kompetentliligi professional topshiriqlarni bajarish dayomida namoyon bo‘ladi. Bunda kasbiy kompetentlik namoyon bo‘ladigan kontekstni ko‘rish muhim bo‘lib hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra kompetentlilik tabiati shundayki, u insoniy qadriyatlar bilan, ya`ni muayyan turdagi faoliyatga nisbatan chuqur shaxsiy qiziquvchanlik sharoitida namoyon bo‘ladi. Amaliyotda shaxsiy qadriyat darajasida ahamiyatga yega bo‘lgan faoliyat mazmuni aniq natija (mahsulot) yoki xulq-atvor shakli ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.XXI asrda mutaxassis kompetentligini anglash insonning integrativ va analitik qobilyatlari rivojlanganligiga asoslanishi lozim. Ijtimoiy taraqqiyot dinamikasi pedagogik faoliyat insonning kasb karyerasi davrida to‘la

aniqlanmaganligini nazarda tutadi hamda uzluksiz tayyorgarlikni, o‘z kasbiy kompetentliligini doimiy oshirib borishni talab yetadi.

Kompetentlilikning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

1. Kompetentlilik faoliyat bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib, malum bir sohaga oid bilim, ko‘nikma, malakalar bilan uyg‘unlashgan umumiy ko‘nikmalarga yega bo‘lishni talab yetadi.

2. Kompetentlilik muayyan vaziyatda o‘zini xolis baholagan holda yo‘l tanlay olish ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi

Shuningdek kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo yetadi.

Kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;

Kompetentligi yuqori bo’lgan o’qituvchi bu bilimlarni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi. Quyida kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik pedagogik faoliyat da sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil yetishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik metodik informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga yegaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq yetish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga yerishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy-gumanitar bilimlar, jumladan pedagogika sohasi mutaxassisi ishini tahlil qilish natijasida shunday turdagi faoliyat uchun xos bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni ajratish imkonini berdi. Bular quyidagilar:

1) konseptual – kasbiy-pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini tushunish, pedagogika sohasiga oid umumiy, falsafiy va metodologik yondashuvlarni egallash;

2) intrumental – pedagogik metodlar va malakalarga ega bo‘lish;

3) axloqiy qadriyatli – pedagoglik ishining qabul qilingan me’yorlari, ma’naviy qadriyatlari, uning missionerlik va insonparvar yo‘nalganligi,

pedagogning ijtimoiy mas’uliyati, jamiyatning taraqqiyoti uchun pedagogik faoliyatning ahamiyati, bolalikni va alohida bir insonning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash;

4) integrativ – nazariya va amaliyotni, ularning axloqiy-metodologik tarkibini pedagogik muammolarni hal etishda uyg‘unlashtira olish qobiliyati;

5) kontekstual – pedagogik faoliyat amalga oshiriladigan ijtimoiy, madaniy, tashkiliy muhitni tushunish, pedagogik jarayonda individuallikni namoyon etishning o‘ziga xosligi;

6) adaptatsiyali – pedagogik jarayonlarning ziddiyatlarini, ijtimoiy-pedagogik o‘zgarishlar xarakterini, voqea-hodisalar va odamlar xulq-atvorining o‘zgaruvchanligini oldindan ko‘ra olish, bularning hammasiga tayyor bo‘lish qobiliyati;

7) kommunikativ – zamonaviy axborot oqimlaridan, shaxslararo kommunikatsiyaning yozma va og‘zaki vositalaridan samarali foydalana olish, turli turli ijtimoiy-rolli pedagogik pozitsiyalarda dialogik muloqot qila olish, turli xil odamlarning o‘ziga xosligi, pozitsiyasi va fikrlarini qabul qila olish ko‘nikmalari.

Bo‘lajak o‘qituvchi ta’lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida kasbiy malakaga ega bo‘lgach, ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat olib borib, bilimi va tajribasini namoyon etadi. Bu esa ta’lim jarayonida aqlan rivojlangan, ma’naviy-axloqiy shakllangan, jismoniy yetuk, muayyan kasb-hunar asoslarini puxta egallagan, har tomonlama rivojlangan bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlashga jiddiy talablar qo‘yadi.

Jamiyatni isloh qilishning asosiy maqsadi insonning qadr-qimmatini, uning turmush darajasini, kelajagini yuksaltirishga qaratilgan bo‘lib, bunda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlarning asosiy maqsadi ham inson manfaatlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Bu olamshumul jarayon xalqning hayoti va taraqqiyotiga yangi davr bo‘lib kirdi.

XX asrning oxiri XXI asrning boshlanishi insoniyatning ma’naviy va moddiy sohalarida tub o‘zgarishlar davri bo‘ldi.

Tarixiy jarayonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy rivojlanishda keng ko‘lamdagi innovatsion tendensiyalar, fan, madaniyat sohasidagi o‘zgarishlar, axloq, estetika va san’atning boshqa turlaridagi nomutanosibliklar chuqur ta’sir ko‘rsatdi va ta’sir ko‘rsatish davom etmoqda. Bunday ta’sirlardan ta’lim sohasi ham chetda qolmayapti. XXI asrning birinchi o‘n yilligi va undan keyin ham moddiy boylikning bilim, tajriba, ko‘nikma, sog‘liq, jismoniy rivojlanish darajasiga bog‘liq

bo‘lib qolishi bashorat qilinmoqda. Binobarin, har bir jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda ilm-fan va madaniyat muhim o‘rin tutadi. Jahondagi ilg‘or mamlakatlar tajribasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Zero, ta’lim-tarbiyaga ustuvor ahamiyat berish mamlakat va xalqning istiqbolini belgilab beradi.

AQSH, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribasi ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tiborning qaratilishi, uning jamiyat tomonidan moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlanishi soha rivojlanishini ta’minlashda yetakchi omil ekanligini tasdiqlamoqda.

Shu bois mustaqil O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini rivojlantirish, uni jahon standartlari darajasiga ko‘tarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etildi va ana shu maqsadda keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish ijtimoiy maqsad etib belgilandi. Ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsad faol, mustaqil, mas’uliyatli, aniq hayotiy maqsad hamda mustaqil fikrga ega, shuningdek, mavjud murakkab sharoitda hayot muammolarini hal etishga qodir bo‘lajak o‘qituvchiini shakllantirishdan iboratdir.

Jamiyat taraqqiyoti va bo‘lajak o‘qituvchi rivojining o‘zaro uyg‘unligi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda subyektning funksional imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq.

Pedagogik va psixologik yo‘nalishlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, ijtimoiy munosabatlar jarayonida raqobat yetakchi o‘rin tutayotgan bugungi kunda ham yoshlar mazkur sharoitda yashash va faoliyat ko‘rsatish, qiyin vaziyatlardan chiqib ketishga psixologik va ijtimoiy jihatdan tayyor emaslar.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, shu jumladan, ta’limiy islohotlarning natijasi yosh avlodning intellektual salohiyat, yuksak aql-zakovatiga, ta’lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida rivojlantirishga, eng yangi texnologiyalarni ta’lim jarayoniga kiritilishiga, uning milliy zaminini mustahkamlashga qaratilganligi bejiz emas.

Jamiyatning hozirgi taraqqiyoti inson faoliyatining ma’naviy va moddiy sohalarida katta o‘zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Bu bo‘lajak o‘qituvchi omili, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati rolining ahamiyati ortib borayotganligi bilan belgilanadi. Zero, bo‘lajak o‘qituvchi intellektual qobiliyatini rivojlantirmay, uni ma’naviy-axloqiy tarbiyalamay, shuningdek, imkoniyatlarining yangi qirralarini to‘la ro‘yobga chiqarmay turib ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Jamiyat tomonidan bo‘lajak o‘qituvchi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit

yaratilar ekan, o‘z navbatida o‘qituvchi qobiliyati, imkoniyatlari ana shu jamiyatning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Ayni vaqtda o‘qituvchining kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorligi, qobiliyati, imkoniyatlarini rivojlantirish va uni yagona ijtimoiy maqsadga yo‘naltirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Mavjud sharoitda ta’lim tizimida 1) o‘qituvchiga yo‘naltirilgan maqsadli ta’lim (ta’limiy jarayon bo‘lajak o‘qituvchining subyektiv tajribasiga tayangan holda olib boriladi); 2) amaliy-faoliyatli (o‘qituvchi ta’limiy faoliyatning faol subyekti hisoblanadi); 3) ta’limga insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, kabi yondashuvlar yetakchi o‘rin tutmoqda.

Ushbu talablar O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va ta’lim jarayonining ularga muvofiq tashkil etilishi ijtimoiy buyurtmaning muvaffaqiyatli bajarilishini ifodalaydi. Jumladan, ta’lim islohotlarining asosiy maqsadi yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxasislarni shakllantirishdan iborat yaratishdan iborat ekanligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

4.2 Kasbiy kompetentlikning jamiyatdagi o‘rni

Respublikamizning milliy ta’lim tizimi mohiyatiga ko’ra ta’lim mazmunining minimal talablari bilim, ko‘nikma va malakaga asoslanadi. Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va xarakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to‘plamini maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini anglatadi. Kompetentlik - bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy axamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi xamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi.

Inson faoliyatida har tomonlama kompetentlikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta’limining asosiy sharti bo‘lib hisoblanadi. Bu talab o‘qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo ta’limini yangilashning asosiy yo‘nalishi ta’lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, pedagogik faoliyatni yaxlit tizimli ko‘ra olish, unda tizimli faoliyat ko‘rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Kompetentlik - bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy axamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur fanda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati xam to‘la ochiladi, u quyidagi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatlari ko‘lami xamda kasbiy soxaning tayanch talablari sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim mazmunining o‘quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar tuplami uchun) va predmetli (ma’lum bir fan uchun) tarzda guruxlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e’tirof etib o‘tamiz: - tayanch kompetentlik (ta’limning gumanitar, ijtimoiy- iqtisodiy mazmuniga ko‘ra); - fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning o‘quv fanlari va ta’lim bloklarining ma’lum doirligiga ko‘ra); - bitta predmet(fan) bo‘yicha kompetentligi (maxsus o‘quv fani doirasida aniq va ma’lum imkoniyatga egaligiga ko‘ra).

Shunday qilib, tayanch kompetentlik oliy pedagogik ta’limning har bir bosqichi uchun ta’lim bloklari va o‘quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta’limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko‘nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi:

Pedagoglarda kasbiy kopitensiyani shakllantirishning umumiy maqsadi – pedagoglarning muayyan sohadagi kasbiy pedagogik faoliyatida umumiy ilmiy, kasbiy pedagogik va maxsus kompitensiyalari rivojlanish jarayonini aniqlash.

Kasbiy tayyorgarlik natijasi “kasbiy kompetentlik” tushunchasi yordamida aniq va to‘liq tasvirlanishi mumkin.

Kasbiy kompetentlik integral xususiyatga egadir. U pedagogik faoliyat jarayonida paydo bo‘ladigan vaziyatlarda kasbiy muammolar va kasbiy topshiriqlarni hal yeta olish qobiliyati va tayyorlik darajasi bo‘lib, bilim, ko‘nikma, malaka, kasbiy va hayotiy tajribani, qadriyatlar va madaniyatni ishga solishni nazarda tutadi.

“Qobiliyat” bu o‘rinda “moyillik”, “ko‘nikma” ma’nosida tushuniladi, yaxlit olganda qobiliyat muayyan faoliyat sohasini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va bajarishda asqotadigan shaxsiy sifat bo‘lib hisoblanadi.

“Tayyorlik” atamasi bu o‘rinda, avvalo, mustaqil faoliyatga zarur bo‘lganda, ijodiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlik ma’nosida qo‘llanilgan.

Kasbiy tayyorgarlikka kasbiy rivojlanish deb qaraydigan bo‘lsaq bo‘lajak pedagogik faoliyat tajribasini egallash deganda kompetentli mutaxassisning istiqbol sari intiluvchan, o‘zgarishlarni oldindan ko‘rib biladigan, doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘nalganligi nazarda tutiladi. Tayanch, bazaviy va maxsus kompetensiyalar majmui kasbiy kompetentlik mazmunini tashkil yetadi.

Kasbiy kompetentlilikning rivojlanish bosqichlari mavjud:

1-bosqich – ta’lim oluvchilarning kasbiy-professional topshiriqlarga “sho‘ng‘ish” jarayoni kechadi. Bu topshiriqlarni hal yetish usullarni yegallash orqali shakllantirilgan tayanch kompetensiyalar asosida bazaviy kompetensiyalar hosil qilinadi. Bu bosqichda bazaviy va tayanch kopetensiyalarning o‘zaro singishi (integratsiyasi) ro‘y beradi.

2-bosqich – bazaviy kompetensiyaning tayanch va maxsus kompetensiya bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq integratsiyasi amalga oshiriladi. Shundan so‘ng maxsus kompetensiyalarning rivojlanish jarayoni kecha boshlaydi.

Tayanch kompetensiyalar istalgan pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lib, hozirgina davrda shaxsning erishgan muvaffaqiyatlari bilan bog‘liq. Tayansh kompitensiyalar bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ular eng avvalo, axborotlarga ishlov berish asosida professional topshiriqlarni bajara olish qobiliyati; kommunikatsiya, shuningdek chet tilida muloqot qila olish; fuqarolik jamiyatida shaxsning ijtimoiy-huquqiy xulq-atvori asoslarida namoyon bo‘ladi.

Bazaviy kompetensiyalar muayyan pedagogik faoliyatning (pedagogiq boshqaruv v.b) o‘ziga xos xuxusiyatlarini ifodalaydi.

Maxsus kompetensiyalar pedagogik faoliyatning aniq predmetli yoki tor sohasini ifodalaydi. Maxsus kompitensiyalarga muayyan pedagogik

faoliyat sohasida tayanch bazaviy kompetensiyalarning amalda qo‘llanilishi sifatida qarash mumkin. Kompetentlilikning uchala turi ham o‘zaro bog‘liq, birgalikda rivojlanadi. Shuningdek faoliyatni individual uslubini shakllantiradi, mutaxassisni yaxlit obrazini yaratadi va pirovard natijada kasbiy kompetentlilikning yaxlit ko‘rinishini hosil qiladi.

Tayanch, bazaviy, maxsus kompetensiyalar o‘zaro uyg‘un ravishda hayotiy muhim turli darajadagi va murakkablikdagi topshiriqlar hal yetishda namoyon bo‘ladi.

Pedagogning maxsus kompetensiyalari rivojlanish jarayoni ish tajribasi va o‘quv topshiriqlarini bajarish, ijodiy ish va loyihalarning o‘zaro uyg‘unligi, pedagogik tadqiqotlar olib borish orqali kechadi.

Ta’lim yo‘shalishi bo‘yichao‘qituvchi malakasini olgan oliy talim muassasasi bitiruvchisi: davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq ravishda pedagogik faoliyat olib borishga tayyor bo‘lishi, yuqori nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini ta’minlaydigan zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishi, ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etishi, ularni o‘quv rejasi va o‘quv jarayoniga muvofiq ravishda to‘la hajmda amalga oshirilishi uchun mas’ul bo‘lishi, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat etishni tashkil etishi, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashga ularni tayyorlashi va ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlarini nazorat qilishi, aniqo‘quv fani o‘quv-metodik jihozlanishining bazasini yaratishi, ta’lim muassasasining ilmiy-metodik faoliyatida ishtirok etishi, sinf rahbari vazifasini bajarishi, ta’lim oluvchilar bilan tarbiyaviy ishni tashkil etishi va o‘tkazishi, o‘quv rejalari va dasturlariningbajarilishini ta’minlashi, ta’lim intizomini ta’minlashi, ta’lim oluvchilarning huquqlari va erkinliklariga rioya etishi, o‘z kasbiy malakasini oshirishi lozim.

Mutaxassisning malakaviy tavsifida, talim yo‘shalishi bo‘yicha bakalavrlarni tayyorlash mazmuni asosan bo‘lajak o‘qituvchi bilimining faoliyatli-ijodiy aspekti bilan ifodalangan va u o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining kasbiy vazifalarini yaxlit hal etish tajribasini nazarda tutadi.

Kasbiy kompetentlilik mutaxassis faoliyatini va uning ichki tuzilishi muxim xarakteristikalarini aks ettirishga tayanadi, deb tushunishga asoslangan xolda, kasbiy kompetentlilik strukturasini uning asosiy komponentlarini tavsiflash nuqtai nazaridan oydinlashtirish mumkin.

Pedagogik faoliyatga nisbatan uning komponentlarini pedagog faoliyatining nisbatan mustaqil funksional turlari sifatida ajratish yondashuvi ustun turadi.

V.A.Slastenin nuqtai nazariga muvofiq, pedagogik tayyorlash unda ushbu vazifalarni amalga oshirish bilimlarini tarbiyalashni ko‘zda tutadi: analitik-refleksiv, konstruktiv-prognostik, tashkiliy, baxolash-axborot, korreksiyalash-rostlash. Muallif tutgan nuqtai nazar, bizning fikrimizcha, o‘qituvchi faoliyatining strukturasi haqida qaror topgan tasavvurlarni ko‘p darajada aks ettiradi. Shu bilan birga, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi strukturasini tadqiqqilish pedagog mexnatini puxta taxlil qilish, uning tayyorgarlik darajasiga hozirda modernizatsiya qilinayotgan va uzluksiz pedagogik ta’lim konsepsiyasi amalga oshirilayotgan sharoitlarda oliy va o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi tizimi tomonidan qo‘yilayotgan talablarni aniqlashni nazarda tutadi[1].

Psixologlar L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, P.Ya.Golperin ishlariga tayanadigan faoliyatli yondashuvni izchil amalga oshirilishi oliy ta’lim muassasasida o‘qitish maqsadi sifatida o‘qitish sub’ektida ma’lum faoliyatni bajarishda kasbiy tayyorgarlikni tarbiyalashni ko‘zda tutadi. U holda oliy talim muassasalarida o‘qitishning asosiy natijasi talabalarda kasbiy vazifalarni amalga oshirish, faoliyat masalalarini hal etish bilimlarini shakllantirishdan iborat bo‘ladi[2].

4.3 Pedagogning umumiy va kasbiy kompetentligi

Jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan o‘qituvchilarda albatta umumiy va kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalar mavjud bo‘lib, ular nafaqat o‘qituvchilarda balki barcha soha xodimlarida bo‘lishi kerak. Shunday ekan, o‘qituvchilarda umumiy va kasbiy kompetentligini shakllantirish davlat ta’lim standartlarida belgilab berilgan.

Unga ko‘ra har bir mutaxasis ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi umumiy malakaviy kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim:

Umumiy kompetensiyalar:

- intellektual, madaniy, axloqiy, jismoniy va kasbiy o‘zida shakllantirish va takomillashtirish;

- tarixiy meros va madaniy an’analarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ijtimoiy va madaniy tafovutlarni bag‘rikenglik bilan qabul qila olish;

- tarixiy jarayonning harakatlantiruvchi kuchlari va qonuniyatlarini, insonning tarixiy jarayondagi, jamiyatning siyosiy tuzilishida o‘zini tushuna bilish;

[1] Селевко Г. Педагогические технологии на основе дидак- тического и методического усовершенствования УВП - М.: 2005.

[2] Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. - М., Изд-во АПН РСФСР, 1956. - С.438-452.

- dunyoqarash, ijtimoiy va shaxsiy axamiyatga ega bo‘lgan falsafiy muammolarni tushunish, tahlil qilish;

- o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilish;

- axloqiy va huquqiy me’yor hamda majburiyatlarni hisobga olgani holda maqsadga erishish yo‘lida qat’iyatli bo‘lish;

- og‘zaki va yozma fikrlarni aniq bayon qilish qobiliyati shakllantirish;

- to‘plangan tajribani tanqidiy qayta anglash, zarur hollarda o‘z kasbiy faoliyat turi va xarakterini o‘zgartira olish;

-hayotiy faoliyat xavfsizligi sharoitlarini umumiy baholay olish, tabiiy ofatlardan va zamonaviy qurol vositalarini qo‘llash oqibatlaridan himoya qilish, ularning asoratlarini bartarafqilish bo‘yicha chora-tadbirlarni qo‘llay olish;

- zamonaviy axborotlashgan jamiyatda axborotning mohiyati va axamiyatini tushunish, bu jarayonda yuzaga keladigan taxdid va xavflarni anglay olish, axborot xavfsizligi bo‘yicha asosiy talablarga rioya qilish, jumladan davlat sirini saqlash;

- axborotni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy metod, usul va vositalarini egallash, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalari ga ega bo‘lish;

- global kompyuter tarmoqlarida axborot bilan ishlash qobiliyatiga ega bo‘lish;

- chet tillardan birini so‘zlashuv darajasidan past bo‘lmagan darajada egallash;

- ishlab chiqarish xodimlari va aholini tasodifiy halokat, tabiiy ofatlardan himoya qilishning asosiy metodlarini egallash;

- jismoniy tarbiya va salomatlikni mustaxkamlashning mustaqil, metodik jihatdan to‘g‘ri vositalarini egallash, to‘laqonli ijtimoiy va kasbiy faoliyatni ta’minlash uchun jismoniy tayyorgarlikning zarur darajasiga erishishga tayyor bo‘lish;

Umumiy kompetensiyalar bazaviy kompetensiyalar deb ham atalib, zamonaviy pedagogik faoliyatning asosini tashkil etadi, bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatida tayanch kompetensiyalar, maxsus kompetensiyalar, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.Bunday kompetansiyalarni yana quyidagi tartibda izohlasak yanada tushunarliroq bo‘ladi.

1. Mazmun va maqsadga yo‘naltirilgan kompetensiya — o‘quvchilarni qiziqishlari va ularning dunyoqarashlarini o‘zida mujassam etishi, ularning atrof muhit bilan bog‘liq holda jamiyatda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan o‘z munosabatini bildira olishi va mustaqil

qaror qabul qila olishi. Bu kompetensiya o‘quvchini o‘z oldiga qo‘ygan maqsad vazifalariga erishish trayektoriyasini belgilab, o‘quv jarayoni va boshqa faoliyatda o‘zini anglash mexanizmini shakllantiradi. O‘quvchining jamiyatda o‘z o‘rini topa olishi ushbu mexanizm bilan bog‘liq bo‘ladi.

2. Umummadaniy – kompetensiya — o‘quvchining yuksak tayyorgarlilik darajasi, malakasi, madaniy va ma’naviy-axloqiy saviyasi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o‘zining faoliyatida aks ettirishi, an’ana va qadriyatlarga asoslangan hayot faoliyati. O‘quvchining jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilishi, masalan o‘zining bo‘sh vaqtini foydali ravishda tashkil eta olishi, (muzeylarga borishi, uy ishlariga qarashishi, kitob mutolaa qilish, boshqalarning qadr-qimmatni e’tirof etish va uni hurmat qilish v h.k.).

Jismoniy, ma’naviy va ma’rifiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zining his tuyg‘ularini boshqara olishga yo‘naltiradi. Shaxsiy tushunish va o‘rganish ehtiyojlarini kuzatib borish; mos keluvchi manbalarni aniqlash; bilim olishni bir jabhadan boshqasiga ko‘chirib o‘ta olish.

3. O‘quv-ta’limiy – kompetensiya — o‘quvchining ta’lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olishi. Quyidagi elementlarni o‘zi ichiga olgan o‘zini-o‘zi anglashidagi bilimlar yig‘indisi. Jumladan; mantiqiy, metodologik, qiyoslash, idrok qilish, tadbiq etish, o‘z-o‘zini baholash faoliyati. Mazkur kompitentlilik doirasida o‘quvchida faktlarni asosiylaridan ajrata olish va xulosa chiqarish malakasi shakllanadi.

4. Axborotlashgan kompetensiya — internet, OAV va boshqa tarmoqlardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topish, ma’lumotlar bazasini yaratish mustaqil to‘play olish, ularni tahlil etish, baholash, axborotni qayta ishlash va ularni uzatish, asosiylarini tanlab olish, foydalana olish.

5. Kommunikativ kompetensiya — o‘quvchilarda guruhlarda va jamoalarda ijodiy ishlay olish, hamkorlik qila olish. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetentlilik darajalarini shakllantirish bo‘yicha tarix fani ta’limi maqsadlarini va baholash mezonlarini aniqroq va yaqqolroq belgilovchi quyidagi tamoyillar belgilandi.

Bilish, o‘rganish — o‘rganilgan materialni bilib olish, qayta aytib bera olish.

Tushunish, idrok qilish — o‘rganilgan materialni xotirada saqlab qolish, mohiyatini idrok etish va tushunganlikni namoyish qilish, bir darvdan boshqa davrga ko‘chira olish. U yoki bu holatga tanqidiy baho bera olish. Munozaralarda ishtirok eta olish. O‘zining fikrini va qarashlarini fanda olgan bilimlari asosida himoya qila olish.

Qo‘llay olish — o‘rganilgan umumiy tushuncha, atamalarni, muammoli vaziyatlarga, misol orqali tadbiq eta olish hamda samarali qo‘llay olish; Jamoada ishlay olish va yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etish; turli xil rollar va mas’uliyatlarni qabul qila olish; boshqalar bilan birgalikda samarali mehnat qila olish.

Analiz (tahlil) va sintez, filtr qilish — berilgan muammoni hal qilish uchun zarur ma’lumotlarni turli xil manbalardan to‘plash, tartibga solish, tahlil qilish; o‘rganilgan bir butun materialni mayda bo‘laklarga, tarkibiy qismlarga ajrata olish va ular orasida munosabatlarni o‘rnatish va tahlil qila olish; aniqlangan xususiy natijalarni umumlashtirib, asosiylarini ajratish, xulosa chiqara olish.

Tanqidiy fikrlash va tizimli fikrlash — masalani anglashda va murakkab qarorlar qabul qilishda puxta dalillar keltirishdan foydalanish; tizimlar voqealar va hodisalar, vaziyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglash.

Baholash va xulosa chiqarish — voqea va hodisalarga baho bera olish, muammoli vaziyatni ma’lum ichki yoki tashqi mezonlar asosida baholash va taqqoslash, sabab va oqibatlarini o‘rganish, natijalarni tahlil qilish asosida tanqidiy fikrlash, xulosa chiqarishdir.

Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlarida qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi modelida o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd yetiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi.

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishidao‘zini o‘zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O‘zini o‘zi tahlil qilish pedagog tomonidan pedagogik faoliyatida tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir.

O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi ob’yektiv baholash imkoniyatiga yega bo‘ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatgaega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi. Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;

- pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;

- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;

- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;

- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq yetish;

- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;

- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga o‘tish sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

•jamiyatda o‘zgarishlarning intensivligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atining yuqoriligi;

•ijtimoiy va kasbiy axborot oqimining uzluksiz o‘sib borishi;

•shaxs talablari hamda yuqori malakali mutaxasislarga bo‘lgan jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’limni modernizatsiyalash vazifalari;

•zamonaviy odam, mutaxassisning hayotiy faoliyati davomida turli topshiriqlarni hal etishga nisbatan faollik mustaqillik tayyorliligiga nisbatan talab ortganligi.

Umuman, pedagogik tayyorgarlikka kompetensiyali yondashuvning o‘ziga xos farqlanuvchi tomoni ta’lim jarayonining kasbiy-pedagogik topshiriqlarni hal etishda aniq (moddiylashtirilgan va sub’ektiv) natijaga erishishga yo‘nalganligi bilan belgilanadi.

Pedagogikada kompetentli yondashish mutlaqo yangi xodisa emas, balki uning irmoqlari uzluksiz rivojlanib boruvchi ta’lim jarayonlarida mavjud bo‘lib, ular bosqichma-bosqich shakllangan jarayondir. Kompetensiya tushuncha «mahorat», «malaka», «salohiyat» tushunchalarga mazmun jihatdan yaqin bo‘lib, kasbiy kompetensiya tushunchasini M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, V.V.Kraevskiy, G.P.Shedrovidskiy, V.V.Davidov va boshqa pedagogika soxasining olimlari ilmiy asarlari asoslab berishga, tahlil qilishga harakat qilganlar va o‘z maqsadlariga erishganlar. Biz o‘z fikrlarimizni yuqoridagi bir qator olimlarning fikrlaridan iqtoslar keltirib asoslashni maqsad qildik. Quyidagi fikrlar kimlarningdir asarlaridan ko‘chirish emas balki fikrlarimiz shu fikrlarga hamohangligini isbotlashdir.

Rus olimlari N.V.Kuzmina, A.K.Markova, E.F.Zeer, V.A.Slastenin, T.F.Loshakova o‘qituvchining «kasbiy kompetentlik» haqida ko‘plab monografiyalar, ilmiy maqolalar, qo‘llanmalar, darsliklar yaratganlarki, bu asarlar kasbiy kompetensiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyatini juda asosli isbotlashga xizmat qiladi.

B.A.Nazarova o‘zining ilmiy ishida D.Dyui, U.Uoller, M.Mid, K.Yung, P.Sorokin, F.Znaneskiylarning falsafasida kasbiy kompetentlik tushunchasiga shunday ta’rif berganliklarini ta’kidlaydi: «Bu muhitga o‘rganish vositasi, chunki kasb odamni unga to‘g‘rilaydi, odamning qiziqishlarini aniqlaydi, bitta kasbda ishlagan odamlarning qiziqishlarini jamlaydi[1]».

D.L.Tompson, D.Pristinlar: «Kasbiy kompetentlik - ishda kerak bo‘lgan bilimlarning va barcha axloqiyqoidalarning yig‘indisidir», - deb ta’kidlaydilar.

I.V.Grishina kasbiy kompetensiya shaxsning o‘z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha ta’riflaydi[2]: - ushbu faoliyatga bo‘lgan munosabati, unga zarurat va qiziqishi, intilishlari, qadriyatlari, faoliyatdan maqsadi, o‘zining ijtimoiy urnini tasavvur qilishi;

- o‘zining shaxsiy uziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqeiga, kasbiy bilim, mahorat va ko‘nikmalari, kasbiga xos boshqa xususiyatlariga baho berish; - shu asosda o‘zini kasbiy jihatdan shakllanishini va o‘sishini boshqara bilishi.

Psixologiyada I.N.Shpilrien, S.G.Gellershteyn, Ye.A.Klimov, V.D.Shadrikov, K.K.Platonov, N.V.Kuzmina fikrlariga ko‘ra hayotda yuz beradigan turli vaziyatlarni, muammolarni yechishga yordam beradigan fazilatlar, qobiliyatlar kompetentlik deb tushuntiriladi. Kasbiy kompetentlik - bu qaysidir kasbda bor bo‘lgan standartga rioya qilish.

A.P.Aqimova kasbiy kompetentlikni shunday ta’riflaydi: «O‘z faoliyatida kerak bo‘lgan yangiliklarning, bilimlarning, qobiliyatlarning yig‘indisi va atrof muxit bilan o‘zaro to‘g‘ri kelishi».

Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bogliqligini N.V.Kuxarev shunday ta’riflaydi: «Psixologik - pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o‘qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va

[1]Назарова Б.А. Педагогика коллежлари булгуси укитувчиларинингкасбий лаёкатини тарбиялаш: Дис. ... пед. фан. ном. -Т.:2 0 0 9 .- 170 б.

[2]Гришина И.В. Профессиональная компетентность директорашколы Автореф.: дис. ... докт.пед.наук. - М.: 2004. - 40 с.

pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to‘plami».

A.K.Markova o‘qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgano‘qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o‘qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o‘qituvchio‘zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o‘z mexnatida qo‘llashni bilishi kerak[1].

A.K.Markova eng ko‘p o‘qituvchi mehnatining kasbiy kompetentligi asoslarini qidirgan pedagog olim. A.K.Markova fikri bo‘yichao‘qituvchining mexnati kompetentlikka aylanadi kachon-ki o‘qituvchi uz faoliyatini yetarlicha yuqori xamda talaba va talabalarni ukitish va tarbiyalashni yuqori darajada amalga oshirsa.

Ushbu asoslar bilan birga o‘qituvchining kasbiy kompetentligini to‘rtga bo‘libo‘rganadi: Maxsus yoki faoliyatli kasbiy kompetentlik - bu faoliyatni yuqori kasbiy darajada olib borishi. Maxsus kasbiy kompetentlik nafaqat maxsus bilimlardan, balki bu bilimlarni amalga oshirishdan iborat;

Ijtimoiy kompetentlik - bu qo‘shimcha faoliyatni olib borish yo‘llarini bilish, xamkorlikda bajarish yo‘llarini bilish;

Shaxsiy kompetentlik - o‘zini rivojlantirish va o‘ziniko‘rsatishyo‘llarini bilish (mutaxassis o‘zining faoliyatini rejalashtirish, mustaqilqarorqilish, ma’lumotlar bilan va o‘z ustida ishlash).

Individual kompetentlik - bu o‘ziniboshqarish yo‘llarini bilish, kasbiy rivojlanishga tayyorgarlik va kasbiy yangiliklar yaratish. Shu bilan birga o‘qituvchining bilimlari yangiliklar bilan boyigan bo‘lishi, psixologik va pedagogik fazilatlar yuqori darajada bo‘lishi[2].

R.X.Tugeshevning ta’kidlashicha, kasbiy mahorat shaxs sifatining yuksalishi sari qo‘yilgan qadamlar yordamida faqat bir faoliyat uchun egallangan kompetensiyadir. Kompetensiya egasi deganda, olim shaxsning o‘z ishining ustasi, mahorati bilangina cheklanmaydi, balki ishni tashkil etishi, o‘z faoliyatiga aloqador barcha muammolarni tizimli ravishda tushunishi, vazifa qo‘ya bilishi va aniq muammolarga yechim topish qobiliyatiga ega bo‘lishi kabi fazilatlarni nazarda tutadi. Ana shunday inson ma’lum bir soxada kompetensiya egasi degan nomga sazovor ekanligini qayd etadi[3].

---

[1]Маркова А.К. Психология профессионализма-М.: Знание,1996-308 с.

[2]Маркова А.К. Психология профессионализма -М.: Знание,1996.-308 с.

[3]Тугешев Р.Х. К вопросу системной психодиагностикипсихологической компетентности субъектов профессиональной деятельности. /Тугешев Р.Х. Режим доступа:[http:/www.psycheya.ru/]

Agar R.X.Tugeshev kompetensiya tushunchasini kasbiy mahorat degan tushuncha bilan bir xil ekanligini qkayd etsa, E.F.Zeer esa kasbiy yo‘naltirilgan kompetensiya va kasbiy qobiliyat oliy darajadagi kasbiy mahoratni ta’minlaydi, degan fikrni olg‘a suradi[1].

Kasbiy kompetensiya shaxening sub’ektiv faoliyati tarkibidagi turt jihatning biri hisoblanib, E.F.Zeer ta’kidlaganidek, kasbiy kompetensiya o‘z kasbiga oid bilimlar, mahorat hamda kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari yigindisidir.

Psixolog A.K. Makarova kasbiy kompetensiya tushunchasi insonning barcha xislatlarini uz ichiga oladi, ular yordamida kasbiy faoliyat davomida inson yuksak natijalarga erishadi deb uktiradi. Uning fikricha, kasbiy kompetensiya mutaxassisning shunday mexnat faoliyatiki, natijada yuqori darajada kasbiy faoliyat amalga oshiriladi va mutaxassis shaxe sifatida o‘zini namoyon qiladi. Shunday kilib, A.K. Makarova kasbiy kompetensiya tushunchasi mazmunini yanada kengaytiradi, uning tarkibiga mutaxassisning sub’ektiv xususiyatlarini xam kiritadi[2].

Bu sohada, kompetensiya bilan bog‘liq muammolarni, umuman, ijtimoiy kompetensiyalarni, tadqiq etish ishlariga xorijlik olimlar .P.Alekseeva, V.M.Basova, N.V.Nuzmina, A.K.Makarova, L.M.Mitina, V.G.Podzolkov, A.A.Petrovskaya, A.N.Sergeev, A.V.Sergeeva, G.I.Sivkova, N.A.Shaydenko kabi olimlar ulkan xissa qo‘shganlar.

Kasbiy kompetensiya fenomenini «tayyorgarlik» tushunchasi bilan qiyoslash keng tarqalgan. V.A.Slastenin nuqtai nazariga ko‘ra, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi tushunchasi uning nazariy va amaliy tayyorgarligi shaxs umumiy tayyorgarligi tizimi tarkibiga kirib, kasbiy mahorat, uning kasbiy darajasini belgilaydi[3].

Kasbiy kompetensiyani oliy ta’limning asosiy maqsadi sifatida Yu.G.Tatur quyidagicha tariflaydi: «Oliy ma’lumotli mutaxassis kompetensiyasi, uning amaliyotdagi intilishi va qobiliyati» (tayyorgarligi) xamda o‘zining imkoniyatlarini (bilim, mahorat, tajriba, shaxsiy fazilatlari va boshqalarni) muvaffaqiyatli, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, kasbiy va ijtimoiy soxada qo‘llashga xamda bu faoliyatni ijtimoiy axamiyatini, uning natijalariga nisbatan shaxsiy mas’uliyatni xis etishi, doimo uzluksiz ravishda o‘z ustida ishlashi kabi fazilatlarni ruyobga chiqaradi.

---

[1]Зеер Э.Ф., Заводчиков Д. Идентификация универсальных компетенцийвыпускников работодателем // Вьющее образование вРоссии/ -2007. -№2

[2]Маркова А.К. Психология профессионализма-М.: Знание,1996.-308 с.

[3]Сластенин В. А., Руденко Н. Г. О современных подходах кподготовке педагога// Педагогика. - 1999. - № 6. - с. 55-62

Yu.G.Tatur kasbiy kompetensiya tushunchasini tahlil qilar ekan, bu tushunchani faoliyatning samaradorligiga erishish, sub'ektning muvaffaqiyat qozonishi, omad va maqsadga yetish qobiliyati, deb tushuntiradi.

Ko'pchilik olimlar kasbiy kompetensiya tarkibida umumlashgan shaxsiy sifatlarni har qanday oliy ta'lim muassasasini tamomlaganlar uchun o'ta muxim ekanligini qayd etadilar.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetensiya bva uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va roli juda muhim. Chunki ertangi kun taraqqiyotining shakllanishi va rivojlanishida ustoz-murabbiylarning mehnatlari va o'z shogirdlariga bergan ta'lim tarbiyalari o'z mevasini beradi. Jamioyatning barcha qatlamlarini tarbiyalash va ularni dunyoqarashini shakllantirish o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari va qobiliyatlariga bo'gliq. Shunday ekan har bo'lajak pedagog o'z faoliyatida umumiy va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lmog'i va uni faoliyatida ijobiy qo'llay olmog'i darkor.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining farqli jihatlarini asoslang.
2. Umumiy kompetentlik nima?
3. Kasbiy kompetentlik nima?
4. Kompentlik haqida qaysi olimlarning qarashlarini bilasiz?
5. Kasbiy kompetentlik haqidagi xorijiy olimlarning qarashlarini qiyosiy tahlil qiling.
6. Kasbiy kompetentlilikning rivojlanish bosqichlarini aytib bering

5- MAVZU: O‘QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYASINING TAKOMILLASHTIRISH TIZIMI.

Taynach atamalar: o‘qituvchi, kasb, kasbiy sifatlar, kasbiy kompetentlik, mahorat, pedagogik mahorat, mahoratning tarkibiy qismlari, kompetentlik, tizim, kasbiy tayyorgarlik, model, shaxsiy kompetentlik.

5.1 O‘qutuvchi kasbiy kompetentsiyasi tizimining pedagogik mahoratda namoyon bo‘lishi

Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora ortib, inson qalbi va ongini egallash, avvalambor, yoshlarning ma’naviy olamini izdan chiqarish, ularni o‘z qarindoshlariga qarama-qarshi qo‘yishga qaratilgan, el-yurtiga qarshi qo‘yishga qaratilgan tahdid va xurujlar kuchayib borayotgan bir paytda kelajak avlodining siyosiy faolligini oshirish, ularni jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi yetuk inson bo‘lib yetishish masalalari dolzarb.

Shunday vaziyatda yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashdek ma’suliyatli davrda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tadiklaganlaridek, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz[1]” degan fikrlari davlatimizning ta’lim sohalarida olib borilayotgan islohotlarda o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Jumladan, 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonida, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli qarorida oliy ta’lim tizimi sifatini yaxshilash va yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, o‘qituvchi mutaxasislarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar kabi ustuvor vazifalar nazarda tutilgan. Yuqoridagilarni e’tiborga olib, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga katta e’tibor qaratilishi lozim.

[1]MirziyoyevSh.M. Erkinva farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. B.14

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi mutaxasislarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilmoqda. Chunonchi, “Tarbiyachi – ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o‘zida kasbiy kompetentlik kompetensiyani shaklantirish lozim. O‘qituvchi – ta’lim va tarbiya mazmuni boshqaruvchi, o‘quvchilarning butun ongli faoliyatining tashkilotchisi hisoblanadi. O‘qituvchi shaxsida pedagogik qadr-qimmatning obyektiv va subyektiv fazilatlari aks etadi. U obyektiv bilim, malaka va ko‘nikmalarning miqdorini o‘zlashtiradi va shaxsiy qobiliyatlar me’yorida ularni shakllantirishni tashkil qiladi.

Jamiyat rivojlangani sari jamiyat talabiga javob beradigan shaxslarni yetishtirish ehtiyoji ham ortib borgan. Yosh avlodni o‘qituvchilik kasbi yo‘nalishida o‘qitish va tarbiyalash sohasida tajribalarning boyishi, nazariy jihatdan kengayishi va hayotda qo‘llanilishi natijasida o‘qituvchi ompetesiyasini rivojlantirishga talab kuchaydi. Chunki, bugungi kun yoshlarini har tomonlama “... mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash masalasi davlatimiz oldida to‘rgan eng dolzarb masaladir. Shu sababli, yoshlar har soniya bilim olishdan, olgan bilimlaridan kelib chiqib tajribasini oshirishdan to‘xtamasligi lozim. Zero, ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda mamlakatimizni taraqqiyot sari yetaklash oliy maqsaddir[1]”.

“Ta’lim to‘grisida”gi qonunda – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xolos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxasislarni yaratish to‘rganligini bilishimiz lozim. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayoniga boshqacha nazar bilan qarashni talab etadi. Xususan, ta’lim tizimi uchun yangi pog‘ona bo‘lishi, xalq ta’limi tizimida bu muammo o‘z dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. Dunyoga yangi ko‘z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko‘zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi yoshlarni tarbiyalash, Respublikamiz pedagoglari oldida to‘rgan eng muhim va mas’uliyatli vazifadir. Hozirda bunday ulkan vazifani sharaf bilan bajaradigan, zamonaviy va jahonning

[1]Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik /Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq, 2001. – 400 b.

eng ilg‘or ta’lim texnologiyalari bilan qurollangan pedagog mutaxasislarga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Hozirgi zamonda hayot juda o‘zgaruvchan. Ta’limdagi katta o‘zgarishlar o‘qituvchining kasbiy ongidagi o‘zgarishlarsiz bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘qituvchida zarur bo‘lgan ko‘plab yangi bilimlar, tushunchalar paydo bo‘ldi. Shunday tushunchalardan biri kompetentlilikdir.

Kompetentlilik - bu o‘qituvchining noaniq holatda harakat qilish qobiliyati. Hozirgi zamon o‘qituvchisi doimo ijodiy izlanishda bo‘ladi, shuningdek, talabani nimaga o‘rgatish kerak kabi dolzarb savolga javob qidirishi darkor. Zamonaviy o‘qituvchi ishiga va o‘quvchilarga bo‘lgan mehrni o‘zida mujassam etish, nafaqat bolalarni o‘qitish, o‘zi ham ulardan o‘rgana olishi zarur. Zamonaviy pedagog har bir boladagi eng yaxshi sifatlarni yuzaga chiqarib, ularni rag‘batlantirishi kerakki, bu bolalar maktabni tugatganlaridan keyin ham olgan bilimlaridan quvonib, jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari, unga sidqidildan xizmat qilishlari zarur.

Muammoni o‘rganish zamonaviy globallashuv, jadallashuv va modernizatsiya davrida bo‘lajak o‘qituvchi qiyofasida aqliy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy, badiiy-estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik madaniyat hamda sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lishni ifodalovchi sifatlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagog kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga doir ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi va bugungi kunda qanday sodir bo‘lishi kerak? - degan dolzarb savol tug‘iladi.

Bo‘lajak mutaxassislar uchun jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirildi. «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» da

davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intelektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xorijiy tillarni chuqur o‘rganish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli 5-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5-iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3775-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasi mazkur faoliyatga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilmoqda.

Zamon talablariga javob beradigan kadr chinakam ma’rifatli odam bo‘lishi uchun,.inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin"[2].

Tarixiy manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, milliy-ma’naviy qadriyatlar orasida alohida o‘rin tutuvchi “Avesto”[3] asarida bo‘lajak o‘qituvchini tarbiyalashning o‘ziga xos Konsepsiyasi yaratilgan. Unga ko‘ra “yaxshi fikr, yaxshi so‘z va yaxshi ish” inson kamolotini belgilovchi muhim ma’naviy-axloqiy mezon sifatida e’tirof etilgan. Fikr, so‘z va ish (amal, faoliyat) birligi hamda uning in’ikosini ta’minlash g‘oyasi tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlarida ham bo‘lajak o‘qituvchi barkamolligiga bo‘lgan yondashuvlar mazmunining asosini tashkil etadi.

Islom dini g‘oyalariga ko‘ra esa, “qo‘li va tili bilan boshqalarga ozor bermaslik”, “halol va harom amallarning farqiga borish”, islomiy amallarni ado etish, e’tiqod mustahkamligi bo‘lajak o‘qituvchi qiyofasini belgilovchi sifatlardir.

Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони. www.lex.uz

[2] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Ma’naviyat. Toshkent. 2008 yil, 63 bet.

[3] Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik /Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq, 2001. – 400 b

asarlarida tarbiyachi-o‘qituvchi ega bo‘lishi zarur bo‘lgan sifatlar majmui, ularning mohiyati haqidagi qarashlar yoritilgan[1].

Pedagog-olimlar: A.Abduqodirov, R.Djurayev, U.Inoyatov, O.Musurmono-va, D.Ro‘ziyeva, Sh.Sharipov, D.Sharipova, M.Quronov va boshqalar tomonidan bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning turli jihatlari tadqiq qilingan.

S.Nishonova, V.Karimova, U.Mahkamov, M.Ochilov, M.Quronov, A.Choriyev, N.Djumayeva, Sh.Majitova, N.Ochilova, O.Xaydarova va boshqalarning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchini tarbiyalash, uning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish, o‘qituvchi odobi, bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy-ijodiy sifatlarining shakllanishida oila, ta’lim muassasalari hamda jamoatchilik o‘rni kabi masalalar o‘rganilgan.

Biroq, muammoni nazariy jihatdan o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari yetarlicha tahlil qilinmagan, bu jarayonning mazmuni va muhim tamoyillari bugungi kun talablari darajasida asoslanmaganligini ko‘rsatdi.

Sharq mutafakkirlarining o‘qituvchi haqidagi falsafiy va didaktik qarashlari, O‘zbekistonda yuqori malakali mutaxasislar tayyorlashning huquqiy-normativ asoslari, Mustaqil O‘zbekistonning davlat siyosatidagi ta’lim sohasidagi tamoyillari, o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi, uning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan maorif sohasida qabul qilingan rasmiy hujjatlar, «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi», O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, didaktik manbalar tashkil etadi.

O‘qutuvchi kasbiy kompetentsiyasi tizimining pedagogik mahoratda namoyon bo‘lishi pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyasini yaratish muammosini nazariy va amaliy jihatdan aniq olishga, pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyasini yaratishga doir pedagogik va didaktik talablar ishlab chiqilsa, pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish yo‘llari va metodlari aniqlashda, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik munosabatlari o‘rnatishda, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olishda, pedagogik kompetentlik sifatlarini

[1] Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi /Pedagogika oliy o‘quv yurtlari va dorilfunun talabalari uchun darslik. – T.: Milliy kutubxona nashriyoti, 2005. – 320 b.

rivojlantirish va takomillashtirish natijalari samarali bo‘lishiga bo‘lishiga bog‘liq.

Jamiyatni isloh qilishning asosiy maqsadi insonning qadr-qimmatini, uning turmush darajasini, kelajagini yuksaltirishga qaratilgan bo‘lib, bunda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlarning asosiy maqsadi ham inson manfaatlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Bu olamshumul jarayon xalqning hayoti va taraqqiyotiga yangi davr bo‘lib kirdi.

Jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablar o‘z davrida Sharq mutafakirlari hamda G‘arb ma’rifatparvarlarining asarlarida o‘z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o‘qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya’ni, u o‘zi ega bo‘lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o‘rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo‘la oladi.

Sharqning buyuk allomasi, qomusiy olim Farobiy (873-950) muallimning ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni va uning xos xususiyatlari to‘g‘rsida ibratli g‘oyalarni ilgari so‘rgan.

«O‘qituvchi, - deydi Forobiy, aql-farosatga, chiroyli nutqga ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur. Shu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi», deb ta’kidlaydi. Mutafakkir Farobiy o‘qituvchi shaxsiga xos qator fazilatlarga xolisona, odimona, oqilona sharh berish imkoniyatiga erishgan buyuk zoddir. Shuning uchun mazkur sharzlar, ilmiy ilovalar, teran fikrlar, ibratli mulohazalar ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Mazkur muammo yuzasidan mulohaza yuritgan atoqli olim Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning fikricha, «...O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bola tarbiyalash uslublarini axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim».

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida, o‘qituvchi bolalarga ta’lim berishdek mas’uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvoffaqiyatga erishish garovi bo‘lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishiga e’tiborni qaratish;
- ta’limda turli shakl va metodlardan foydalanish;

•talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi, fanga qiziqtira olishi;

•berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;

•bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

•har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish.

O‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy (1441 - 1501) o‘z davrining ayrim maktabdorlari ega bo‘lgan sifatlar, xususan, qattiqqo‘llik, ta’magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o‘qituvchining ma’naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo‘yadi. Xususan, “mudarris kerakki, g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko‘rgazmasa va olg‘irlik uchun gap-so‘z va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo‘lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o‘rin bo‘lmasa. Yaramasliklardan qo‘rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o‘zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo‘lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo‘lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir”. Ayni o‘rinda o‘qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta’kidlab o‘tadi: «Uning ishi odam qo‘lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to‘da bolaga ilm va adab o‘rgatadi, ko‘rkim bunga nima yetsin.

Shunisi ham borki, u to‘dada fahm-farosati ozlar bo‘ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo‘ladi, har qanday bo‘lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko‘pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o‘z asarlarida o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o‘rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog‘lom bo‘lib o‘sishida ota-onalar o‘ziga xos rol o‘ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta’kidlab, “fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur”, - deydi.

Komil insonni shakllanirish masalasi barcha davrda ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta’kidlansa, islom ta’limoti g‘oyalariga ko‘ra yetuklikning bosh mezoni - ilmlilik, bilimli bo‘lishdir.

O‘qituvchi kasbining nozikligi, mas’uliyatiligi va murakkabligi hamda sharafli ekanligi to‘g‘risida mulohazalar, muallimning mahorati, ularga qo‘yiladigan talablar, fazilatlariga oid qasharlar, munosabatga kirishish mahorati, muomala madaniyati Sharq mutafakkirlarining asarlarida ifodasini topgan. Sharq ma’naviy-madaniyatining xilma-xil jihatlari, ayniqsa Uyg‘onish davrida juda rivojlangan bo‘lib, bu davrda yashab ijod etgan Abu Nasr Farobiy. Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida yosh murabbiylarning ma’naviy-axloqiy kamolotida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham komil inson qiyofasining yoritilishiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy komil insonni shakllantirish va fozil jamoa (yetuk jamiyat)ni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yo‘nalishi ekanligiga urg‘u beradi. Allomaning fikricha, fozil jamiyat komil inson sa’yi-harakati bilan barpo etilishi mumkin. Shu bois mamlakatni boshqaruvchi shaxs o‘zida eng oliy insoniy fazilatlarni mujassam eta olishi zarur, deb hisoblaydi. «Aql ma’nolari tog‘risidagi» risolasida Abu Nasr Forobiy rahbar shaxs qiyofasida namoyon bo‘lishi lozim bo‘lgan o‘n ikki fazilatni keltirib o‘tadi. Bizning fikrimizcha, mazkur fazilatlar har bir zamonaviy shaxsda o‘z aksini topa olishi kerak, zero, ular inson hayotini mo‘’tadil kechishi hamda muayyan kasbiy faoliyatlarni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishishni kafolatlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ham komillikning asosini ilmli bo‘lishda deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urg‘u beradi. Allomaning fikricha, axloqiylik, to‘g‘rilik, odillik, tadbirkorlik, o‘zini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, shuningdek, adolatli va vijdonli bo‘lish komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo‘lgan eng asosiy sifatlardir. Abu Ali ibn Sino ham kamolotga erishishning birinchi mezon sifatida bilimli bo‘lishni alohida qayd etadi. Bilimli insonning adolatli bo‘lishi esa uning yanada yuksalishini ta’minlaydi, deya baholab alloma, adolatni ruhiy lazzat (ruhiy xotirjamlik)ning muhim ko‘rsatkichi ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o‘rinni egallaydi va o‘z orzusidagi komil inson shaxsini asarlarining qahramonlari timsolida gavdalantirishga urinadi. Mutafakkir qarashlarida komil inson quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi borasidagi g‘oya ilgari suriladi: aqlli, axloqli, bilimli, ijodkor,qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, saqovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog‘lom, jismonan baquvvat, mard va jasur.

Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta’minlashdagi o‘rni va roliga alohida e’tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o‘zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta’sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo‘lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta’kidlaydi. Bolani yomon ta’sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi.

Shuningdek, alloma o‘qitish samaradorligini ta’minlashda bolalarga jamoa asosida bilimlarni berishni maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi.

Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, inson boshqalar bilan munosabatda bo‘lish, ularning yordami va qo‘llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo‘lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetaklaydi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o‘zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrixohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o‘rnini belgilab beradi.

Abu Ali ibn Sino mulohazasinga ko‘ra tarbiyachi dastlab bolalarni yaxshi ko‘rish, hurmat qilishi, ular bilan xushmuomala bo‘lishi shart. Agar bola ishni yaxshi bajarsa, uni o‘z vaqtida rag‘batlantirish, gohida maqtab qo‘yish, aksincha bo‘lganda esa, unga tanbeh berish kerak. Lekin dedi Ibn Sino, tanbeh izzat-nafsiga tegadigan bo‘lmasligi lozim, o‘quvchiga murosassozlik qilish esa bolaning o‘zboshimcha bo‘lib qolishga olib boradi», - deydi ibn Sino[1].

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida o‘qituvchi bolalarga ta’lim berishdek mas’uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvafaqiyatga erishish garovi bo‘lgan quyidagi tavsiyalarni beradi: bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish; berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishiga e’tiborni qaratish; ta’limda turli shakl va metodlardan foydalanish; talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati,

[1] Farberman L. «Ilg‘or pedagogik texnologiyalar» T. «FAN», 2000 yil.

shaxsiy xususiyatlarini bilishi; fanga qiziqtira olishi; berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi; bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish; har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish.

Nasriddin Tusiy o‘zining «O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida» degan asarida shunday deydi: «O‘qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo‘lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi lozim . . » O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol va qattiq bo‘lishi mumkin emas.

Yetuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy (1414-1492) o‘z asarlarida bola dunyoqarashining kamol topishida maktab va muallimning roliga katta baho beradi. Uning fikriga qaraganda, muallim aqlli, adolatli, o‘zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi, degan fikrni bildiradi.

Abdulla Avloniy komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlari bilan Sharq mutafakkirlarining fikrlarini boyitar ekan, komil inson qiyofasida, yana shuningdek, vatanparvarlik, hamda intizomlilik sifatlari ham namoyon bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Alloma millat taqdirining jonqo‘yari sifatida milliy til taraqqiyoti jamiyat ma’naviy rivojini ta’minlovchi asosiy omil, deya baholaydi.

O‘qituvchi va uning professional sifatlari orasidagi muammolar chet ellik olimlar Y.A.Komenskiy, Djon Lokk, I.G.Pestalotssi, A.Disterverg kabilarning asarlarida o‘z ifodasini topdi. Jumladan, ulug‘ chex olimi, pedagog Y.A.Komenskiy o‘qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolani sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritib, ularning mohiyatini atroflicha tavsiflab beradi.

Yan Amos Komenskiy o‘z davrida o‘qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o‘qituvchilik “yer yuzidagi har qanday kasbdan ko‘ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb” ekanligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, pedagog o‘z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o‘z qadr-qimmatini to‘la baholay bilishi zarur. Y.A.Komenskiy o‘qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarning namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiqligiga urg‘u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, oquvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘otuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortida ergashtiruvchi va diniy e’tiqodga ega bo‘lgan shaxs.

Ushbu masalaga sal boshqacharoq yondoshgan I.G.Pestalotssi o‘qituvchining professional sifatlariga baho berishidan umuman chetlashib, uning xalq ta’limi tarmog‘ini takomillashtirishdagi roli, fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to‘xtalib o‘tadi.

A.Disterverg o‘qituvchining ta’limdagi roliga baho berib, u o‘z faoliyatini bilishi, uni sevishi, o‘quvchilarini yoqtirishi deb uqtiradi, o‘qituvchi bolalarning individual xususiyatlarga qobiliyati, faoliyati uslubi to‘g‘risida muayyan darajada bilimga ega bo‘lish kerakligini ham ta’kidlab o‘tadi.

Mutafakkir Djon Lokk o‘qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlari orasiga mo‘tadillik, g‘ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi hislatlarini kiritib, ularning ta’limdagi roli yuzasidan mulohaza yuritadi.

G‘arb mutafakkirlari g‘oyalarining vorislari sifatida A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, I.G. Chernishevskiy, K.D.Ushinskiy kabi rus mutafakkirlari mazkur muammolarga o‘z mulohazalarini bildirganlar.

A.I.Gersen mulohazasiga ko‘ra, o‘qituvchining asosiy hislati – bu uning bolalar bilan munosabatda bo‘layotganligi sezishda bolalar ruhiy dunyosini tushuncha olishda, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste’dodga erisha olmaydi, buni unutmaslik kerak.

O‘qituvchi kasbiga oid ilmiy, tajribalarda sinalgan mulohazalar rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, hech bir ustav yoki programma hamda sun’iy organizm puxta ishlab chiqarilganiga qaramay, inson shaxsining o‘rnini bosa olmaydi deb hisoblaydi. Insonining harakteri va his-tuyg‘ulari, uning o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish usuli, o‘qituvchi qalbi bolalarga yaqinligi kabi axloqiy hislatlarining shaxsiga xos muhim fazilatlar bo‘lib hisoblanib, muallimning tarbiyaviy kuchini belgilaydi va ijtimoiy qimmatiga ega bo‘lgan, barkamol bola shaxsini tarkib toptiradi. K.D.Ushinskiy ta’kidlashicha, pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi pedagogik-psixologik odob (takt) hisoblanadi. Uning fikricha, psixologik odob (takt) hayotimizning barcha jabhalarida g‘oyatda keng qo‘llaniladi, shuning uchun usiz odamlar orasida hech qanday muloqot va nutq qobiliyatining o‘zi ham bo‘lmagan bo‘lar edi, deydi.

K.D.Ushinskiy o‘qituvchi ma’naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho berib, ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomilashtirib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bu g‘oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o‘qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

O‘qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Mutaxasislar tayyorlash milliy dasturi g‘oyalarini amaliyotga tadbiq etish Respublika ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlash, ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog‘liqdir.

Shunday qilib, chet el mutafakkirlari o‘z asarlarida o‘qituvchining qator muhim fazilatlari mavjud bo‘lishini bayon qilganlar. Bularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: o‘qituvchining har tomonlama barkamol bo‘lishish, o‘zining yuksak hislatlari va his tuyg‘ulari bilan boshqa kasbdagi kishilardan ajralib turishi, davrlarni o‘zlashtirshda orqada qolganlar bilan individual ishlash, o‘quvchilar diqqatini o‘ziga torta olish sehri, mustaqil ishlash va o‘z mahoratini, malakasini oshirish. Pedagogik qobiliyat va odobga ega bo‘lish kabilar. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, sharq va g‘arb mutafakkirlari tomonidan tahlil qilingan ko‘pgina o‘qituvchi kasbi haqidagi mulohzalari to hozirgi ajdodlar g‘oyasini takomillashtirish evaziga ta’limni yuksak bosqichga ko‘tarishini davrning o‘z ko‘rsatmoqda.

XX asrning oxiri XXI asrning boshlanishi insoniyatning ma’naviy va moddiy sohalarida tub o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Shunday tarixiy jarayonlarda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy rivojlanishda keng ko‘lamdagi innovatsion tendensiyalar, fan, madaniyat sohasidagi o‘zgarishlar, axloq, estetika va san’atning boshqa turlaridagi nomutanosibliklar chuqur ta’sir ko‘rsatdi va ta’sir ko‘rsatishi davom etmoqda. Bunday ta’sirlardan ta’lim sohasi ham chetda qolmayapti. XXI asrning birinchi o‘n yilligi va undan keyin ham moddiy boylikning bilim, tajriba, ko‘nikma, sog‘liq, jismoniy rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib qolishi bashorat qilinmoqda. Binobarin, har bir jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda ilm-fan va madaniyat muhim o‘rin tutadi. Jahondagi ilg‘or mamlakatlar tajribasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Zero, ta’lim-tarbiyaga ustuvor ahamiyat berish mamlakat va xalqning istiqbolini belgilab beradi.

AQSH, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribasi ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tiborning qaratilishi, uning jamiyat tomonidan moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlanishi soha rivojlanishini ta’minlashda yetakchi omil ekanligini tasdiqlamoqda.

Shu bois mustaqil O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini rivojlantirish, uni jahon standartlari darajasiga ko‘tarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etildi va ana shu maqsadda keng

ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish ijtimoiy maqsad etib belgilandi. Ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsad faol, mustaqil, mas’uliyatli, aniq hayotiy maqsad hamda mustaqil fikrga ega, shuningdek, mavjud murakkab sharoitda hayot muammolarini hal etishga qodir bo‘lajak o‘qituvchiini shakllantirishdan iboratdir.

Jamiyat taraqqiyoti va bo‘lajak o‘qituvchi rivojining o‘zaro uyg‘unligi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda subyektning funksional imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, shu jumladan, ta’limiy islohotlarning natijasi yosh avlodning intellektual salohiyat, yuksak aql-zakovatiga, ta’lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida rivojlantirishga, eng yangi texnologiyalarni ta’lim jarayoniga kiritilishiga, uning milliy zaminini mustahkamlashga qaratilganligi bejiz emas.

Jamiyatning hozirgi taraqqiyoti inson faoliyatining ma’naviy va moddiy sohalarida katta o‘zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Bu bo‘lajak o‘qituvchi omili, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati rolining ahamiyati ortib borayotganligi bilan belgilanadi. Zero, bo‘lajak o‘qituvchi intellektual qobiliyatini rivojlantirmay, uni ma’naviy-axloqiy tarbiyalamay, shuningdek, imkoniyatlarining yangi qirralarini to‘la ro‘yobga chiqarmay turib ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Jamiyat tomonidan bo‘lajak o‘qituvchi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratilar ekan, o‘z navbatida o‘qituvchi qobiliyati, imkoniyatlari ana shu jamiyatning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Ayni vaqtda o‘qituvchining kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorligi, qobiliyati, imkoniyatlarini rivojlantirish va uni yagona ijtimoiy maqsadga yo‘naltirish o‘ziga xos dolzarblik kasb etmoqda.

Mavjud sharoitda ta’lim tizimida 1) o‘qituvchiga yo‘naltirilgan maqsadli ta’lim (ta’limiy jarayon bo‘lajak o‘qituvchining subyektiv tajribasiga tayangan holda olib boriladi); 2) amaliy-faoliyatli (o‘qituvchi ta’limiy faoliyatning faol subyekti hisoblanadi); 3) ta’limga insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, kabi yondashuvlar yetakchi o‘rin tutmoqda.

Ushbu talablar O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ta’lim jarayonining ularga muvofiq tashkil etilishi ijtimoiy buyurtmaning muvaffaqiyatli bajarilishini ifodalaydi. Jumladan, ta’lim islohotlarining asosiy maqsadi yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali

mutaxasislar tayyorlash tizimini yaratishdan iborat ekanligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

5.2 Kasbiy tayyorgarlik modelining tuzulmasi.

Kasbiy tayyorgarlik- bu maxsus bilimlar, umumiy va o‘ziga xos ko‘nikmalar, kasbiy faoliyatni ijodiy bajarish qobiliyatlari tizimini o‘zlashtirish jarayoni va tayyorlik, ya’ni bo‘lajak mutaxassisning kasbiy jihatdan muhim sifati.

Bugungi ta’limning eng muhim vazifalaridan biri o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bo‘lib, u ilmiy bilimlar strukturasini qayta ko‘rib chiqishni va ularni tayyorlashga yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Buning sababi shundaki, zamonaviy ta’lim tizimida turli metodlarni qo‘llash, o‘zgaruvchan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan shug‘ullanadigan ijodiy fikrlaydigan o‘qituvchilar bo‘lishi lozim. Shunday ekan, oliy ta’lim muassasalari an’anaviy ta’limdan voz kechib, talabalarni uzluksiz ta’lim tizimiga tayyorlashni birinchi o‘ringa qo‘yib, innovatsion yondashuvlarni ta’limga joriy etish imkonini beruvchi, murakkab qobiliyatini, o‘qituvchining shaxsi ajralmas xususiyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan, loyiha o‘quv-tadqiqot faoliyatini tashkil etuvchi modellarni yaratish lozim.

Ta’limdagi innovatsion jarayonlar nafaqat butun ta’lim tizimini, balki zamonaviy yosh shaxsining rivojlanishiga, zamonga mos keladigan, jamiyat manfaati uchun zarur harakatlar va tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini yangilangan sog‘lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta’limtarbiya muassasalarida tayyorlanadigan mutaxasislarni intellektual, ma’naviy va axloqiy saviyasiga ko‘ra rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish bo‘yicha belgilangan nazariy-metodologik, amaliypedagogik yondashuvlar majmui ta’limning milliy modelida kasbiy tayyorgarlik modelini yaratishning asosida o‘z ifodasini topgan. Ta’limning milliy modelida ma’naviy intellektual jihatdan barkamol shaxsning o‘z ijodiy qobiliyatini to‘la namoyon etishini ta’minlash ko‘zda tutiladi. Shunday ekan, kasbiy tayyorgarligi bo‘lmagan pedagog ta’limning milliy modelida ko‘rsatilgan sifatlarni faoliyatida namoyon eta olmaydi.

Jahon ta’lim tizimi tajribasida mutlaq yangilik bo‘lgan O‘zbekiston ta’limning milliy modeli o‘zida beshta tarkibiy qism shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish singari tushunchalarni

namoyon etadi. Bugungi O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining tarkibiy qismlari ta’lim modelida ta’riflanib, ularning asosiy vazifalari belgilab berilgan. Jumladan, shaxs tizimining bosh sub’yekti va ob’yekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Ta’limning milliy modelining o‘ziga xosligi tarkibiy qismning boshlanishidayoq yaqqol namoyon bo‘ladi. Unda shaxsga ta’limning iste’molchisi, ya’ni ob’yektigina emas, balki uni amalga oshiruvchi, ya’ni ta’lim jarayonining sub’yekti sifatida ham qaraladi. Bu hol shaxsni ta’limning iste’molchisidan bu jarayonning ijrochisiga aylantiradi, uning faolligini oshirib, rivojlanishini tezlashtiradi. Ta’limning milliy modelida, davlat va jamiyat o‘z zimmasiga mutaxasislar tayyorlash ishini tashkil etish, ta’lim jarayonini nazorat qilish hamda tayyorlangan mutaxassislar faoliyatini yo‘lga qo‘yish kafolatini oladi. Shunday ekan, uzluksiz ta’lim — malakali raqobatbardosh mutaxasislar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, mutaxasislar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi. Ta’limning milliy modeli shaxsning kamoloti umr bo‘yi davom etadigan uzluksiz jarayon ekanligiga asoslanadi. Shuning uchun ham ta’lim tizimlarining barkamol insonni shakllantirishda ishtirok etishi lozim bo‘lgan barcha bo‘g‘inlar faoliyati uzviy va uzluksiz bo‘lishi ko‘zda tutidi. Ta’limning muayyan bosqichida biror shaxsda shakllantirilishi lozim bo‘lgan bilim, malaka va kunikmalar miqdori, tartibi qamda bajarilish jarayoni ayni shu uzluksiz ta’lim tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘ladi. Ta’limning milliy modelida mutaxasislar tayyorlash borasida xalqimizga xos milliy xususiyatlar maksimal darajada hisobga olinishi lozim. Shuningdek, unda barkamol shaxsni shakllantirish hamda uning aqliy, kasbiy va ma’naviy imkoniyatlarini eng samarali yo‘llaridan foydalana olish yo‘llarini aniq hisobga oladi. Ta’limning milliy modelida shaxsda shakllantirilishi zarur bo‘lgan kasbiy va ma’naviy sifatlarning uygunligiga alohida e’tibor berilgan.

Ta’limning bosh ob’yekti hisoblangan bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi hozirgi kunda ko‘plab tadqiqotlar mavzusiga aylanmoqda, bu jamiyatdagi tub o‘zgarishlar sharoitida o‘qituvchiga mutaxassis sifatida qo‘yiladigan talablar va shunga mos ravishda uning mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorgarlik sifatiga bog‘liqdir.

Zamonaviy fanda "kasbiy tayyorgarlik" tushunchasi kasbiy tayyorgarlik bilan bog‘liq bo‘lib, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonini aks ettiradi.

Kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar:

- muayyan ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni talabalar tomonidan jadal egallashga qaratilgan kasbiy tayyorgarlik tizimi;

- ma’lum faoliyat sohasidagi ishlarni bajarishga imkon beruvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayoni.

- muayyan ishni yoki faoliyatni bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallash va ta’lim sifatini oshirish.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik bo‘lajak mutaxassislardan kasblarning faqat protsessual tomonni o‘zlashtirish bilan cheklanmay balki, tanlangan faoliyat samaradorligini ta’minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish, rivojlantirish bo‘yicha maqsadli faoliyatni tashkil etishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan kasbiy tayyorgarlikni shakllanishini ta’minlovchi tashkiliy-pedagogik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish lozim. Bu chora-tadbirlar ta’lim oluvchilarning kasbga yo‘nalganligi, bilim, ko‘nikma, qobiliyat va kasbiy tayyorligini o‘zida namoyon etishi lozim.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, pedagogik yo‘nalishda ta’lim oladigan talabalarining kasbiy tayyorgarligini pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘zlashtirish, pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlaydigan kasbiy va shaxsan muhim fazilatlarni rivojlantirish asosida bo‘lajak o‘qituvchining shaxsini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga olgan ajralmas pedagogik tizimni yaratish darkor.

Ushbu konsepsiya yaratishda bir yoki bir nechta yaxlitlik tamoyillarni ishlab chiqib, shu asosida tashkil etilgan barcha elementlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular tizimga birlashtirilgan holda harakat qilishlari kerak.

O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi - o‘qituvchilarni tayyorlash yo‘nalishlaridan birida amalga oshiriladi. Kasbiytayyorgarlik quyidagi turlarga ajratiladi:

1) Asosiy kasbiy tayyorgarlik.
2) Qo‘shimcha ta’lim: o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash.

Kasbiy tayyorgarlik-bu g‘daklikdan shaxs bo‘lib shakllanishiga bo‘lgan davr. Kelajakda kasbiy pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishga intilayotgan, unga moyil bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlashga qaratilgan jarayon. O‘quvchilardagi ehtiyoj va mayllarini namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi bilan birgalikda kerakli tajriba-sinovlarni ham amalga oshirish talab etiladi. Bu sinovlar anketa-so‘rovnima, test, kuzatuv, mustaqil topshiriq shakllarida amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, o‘qituvchilar kasbiy faoliyatining o‘ziga xos

xususiyatlari, uning afzalliklari va qiyinchiliklari bilan bolalikning ilk davrlar tanishtirib borishlari kerak[1].

O‘quvchilarni kasb-hunarga oldindan tayyorlash bosqichida kasbga yo‘naltirish amalga oshiriladi, ya’ni kasbiy pedagogik faoliyat motivatsiyasi va ta’lim muassasalariga pedagogika fakultetlariga qabul qilish amalga oshirildi. O‘qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarlik talabalarni pedagogika texnikumlari va kollejlariga yoki oliy o‘quv yurtlari - institutlar, universitetlar, akademiyalarga, oliy kasbiy pedagogik ta’lim olish uchun qabul qilish bilan bog‘liq. So‘nggi yillarda o‘quv amaliyoti talabalarni pedagogika kasbiy faoliyatiga tayyorlash uchun maxsus “yo‘l xarita”larini ishlab chiqishni va shu asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishni talab etmoqda. Bundan tashqari, talabalar maslahatchilar, tyutorlar bilan hamkorlikdajoylarda amaliyotnio‘tamoqda. Bunday jarayonlar kasbni tanlashning ahamiyati, murakkabligi va istiqbollarini tushunishda yordam beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, oliy talim muassasalari o‘kituvchisininu eng muhim vazifasi talabalarning kasbiy kompetentliliklarini barkarorlashtirish, to‘ldirish va uzatish mexanizmlarini boshqarish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich tarbiyalash uchun psixologo-pedagogik sharoitlarni yaratishdan iborat.

[1]https://spravochnick.ru/pedagogika/sistema_professionalnoy_podgotovki_pedagriniogicheskih_kadrov

5.3 Kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlari

Kompetensiya keng qamrovli tushuncha bo‘lib, inglizcha “competence” , ya’ni “mahorat” , “qobiliyat” degan ma’nolarni anglatadi.

Zamonaviy o‘qituvchining kompetentlilik modelini quyidagi elementlar tarkibida tasavvur qilish mumkin:

- qadriyatlar, tamoyillar va maqsadlar;
- kasbiy sifatlar;
- muhim kompetensiyalar;
- pedagogik uslublar, usullar va texnologiyalar
- kasbiy pozitsiyalar.

O‘qituvchi o‘qitilayogan fan bo‘yicha bilimli bo‘lishi kerak, ya’ni kompetentli yondoshuvni quyidagi tamoyillarda amalga oshirishi lozim:

•Hayot uchun, jamiyatda ijtimoiy muvaffaqiyat uchun va shaxsiy rivojlanishi uchun ma’lumot olish;

•O‘qituvchilarni ta’lim natijalarini o‘zlari rejalashtirish va ularni doimiy o‘z-o‘zini baholash jarayonida takomillashtirish imkoniyatlari bilan ta’minlashni baholash;

•O‘qituvchilarning shaxsiy motivatsiyasi va mas’uliyati asosida mustaqil, ongli faoliyatini turli shakllarda tashkil etish.

Bugungi kunda ta’lim tizimimiz uchun yangi pog‘ana bo‘lishi, oliy ta’limi tizimida muammo o‘z dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. Dunyoga yangi ko‘z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko‘zini biluvchi, buyuk kelajagimiz quruvchilari va yuksaltiruvchi yoshlarni tarbiyalash, Respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muxim va mas’uliyatli vazifadir. Hozirda bunday ulkan vazifani sharaf bilan bajaradigan, zamonaviy va jahonning eng ilg‘or ta’lim texnologiyalari bilan qurollangan pedagog mutaxasislarga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish uchun avvalo, ta’lim berayotgan pedagoglar o‘z kompetensiyasini muntazam rivojlantira borishga, hozirgi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarinig o‘zlashtirishga, ijodiy mehnat qilishga intilmoqdalar. Ammo shuni ham e’tirof etishimiz kerakki, o‘quv yurtlarida ayrim o‘qituvchilar o‘z pedagogik mahoratlari va kompetensiyasini oshira borishning ahamiyatini yetarli darajada his qilmaydilar, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun talablarini chuqurroq o‘rganishga qiziqmaydilar, o‘quv jarayonining ilmiyligiga, zamon talablariga mosligi, turmush, amaliyot bilan bog‘lanishiga yuzaki

qaraydilar, o‘qitilayotgan o‘quv fanlarining ilmiy va g‘oyaviy tarbiyaviy birligini doimo esda tutmaydilar. Bu esa ular qo‘lida ta’lim olayotgan o‘quvchi, talabalarning bilim darajasi va saviyasining yetarli emasligiga, o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishdan orqada qolishlariga sabab bo‘lmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko‘ngildagidek o‘qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bu g‘oyat murakkab hamda ko‘p qirrali vazifani faqat malakali pedagogik mahorat va kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchi mutaxasislar bilan amalga oshirish mumkin.

Pedagogik kompetentlik tug‘ma talant yoki nasldan-naslga o‘tuvchi xususiyat emas, balki uning zamirida izlanish, ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik kompetentlik hamma o‘qituvchilar uchun standart, ya’ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

Bu jarayonda ilg‘or o‘qituvchining pedagogik kompetentligi va tajribalarini boshqa o‘qituvchi o‘rganishi, undan ijodiy foydalanishi, o‘z faoliyatini ilg‘or tajribalari bilan boyitishi zarur. O‘qituvchining pedagogik kompetentligi asosan sinf, auditoriya mashg‘ulotlarida yaqqol ko‘rinadi. Chunki o‘quv mashg‘ulotlari o‘zining mazmun va mohiyatiga ko‘ra o‘qituvchining o‘quv yurtidagi asosiy ishidir. Shu sababli u ilmiy, g‘oyaviy va ommabop bo‘lishi, turmush bilan o‘quvchi talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan bog‘lanishi zarur. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi bilan o‘quvchi talabalar o‘rtasida o‘zaro jonli til, fikr olishuv, samimiy munosabat, hurmat, asosiy maqsadga erishishda hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so‘z va quruq nasihatguylikdan iborat bo‘lgan, rasmiyat uchun yuzaki o‘tkaziladigan dars ma’ruza va boshqa o‘quv mashg‘ulotlari o‘quvchi talabalarni qiziqtirmaydi, ularni ilmiy, g‘oyaviy jihatdan yetarli oziqlantirmaydi. Shunday ekan, o‘quv mashg‘ulotlarini shunday tashkil qilish kerakki, uning ta’sirida talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e’tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak.

Ta’lim va tarbiya jarayoni ta’sirchanligining yanada yuksak bo‘lishi o‘qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro‘siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste’dodiga, ta’lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o‘quvchi talabalar bilan o‘rnatilgan do‘stona munosabatiga bog‘liqdir.

Pedagogik faoliyat samarali o‘qituvchining pedagogik kompetentligi qay darajada shakllanganligiga ham bog‘liqdir. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi deb ta’kidlanadi. Jumladan, bilish

qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, nutq qobiliyati, obro‘ orttira olish qobiliyati, muomala qila bilish qobiliyati kabilar.

Pedagogik qobiliyat va kompetentlik o‘qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o‘z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o‘qishi, o‘rganishi hamda izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, mustaqil yurtimizda bo‘layotgan voqelikni tez anglashi va o‘z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi zarur.

O‘qituvchining pedagogik kompetentligi haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongligiga, milliy g‘oya va mafkuraga sodiqligiga, bilish va fikr doirasini kengligiga o‘z vazifasiga munosabatiga e’tibor bermoq kerak. Ayniqsa, pedagogik kompetentlikda o‘qituvchining fikr doirasi keng bo‘lish zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki, kishida bilim, fikr mukammal bo‘lmasa, u kamolatga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta, fikr orqali hal etadi.

Shuning uchun pedagogik mahorat sohibi bo‘lishga intilgan kishi, shubhasiz o‘z bilimini doimo kengaytirishi, o‘quvchi, talabaga ma’naviy-axloqiy ta’sir etuvchi g‘oya va fikrlarni yangilab borishi zarur. Buning uchun ko‘p o‘qishi, o‘rganishi lozim. O‘qituvchining pedagogik mahoratiga baho berishda uni ta’limni qay darajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Uzluksiz ta’limda dars va ma’ruzalarni mukammal tashkil qilish o‘qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o‘tilgan mavzular yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularning iymon, e’tiqodi va mafkuralarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sabab, o‘qituvchining ilmiy saviyasi o‘z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati, uning kompetentligi dastlab dars va ma’ruzalarda ko‘rinadi. Fan o‘qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars va ma’ruzaning sifati belgilaydi.

Dars berish san’atini egallashda o‘qituvchi uyushtirgan o‘quv mashg‘uloti, chuqur bilim berish vositasi bo‘lishi bilan birga, mustaqil O‘zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo‘lgan ishonch, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi hamda quruvchisi bo‘lish uchun nimalar qilish zarurligini ko‘rsatuvchi ko‘zgu bo‘lib xizmat qiladi.

Bitiruvchilarning kasbiy kompetentligini shakllanishiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablarida:

- dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb

masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof - muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli shaxslar egallashi lozim bo‘lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

- tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha magistraturada oliy ta’limni davom ettirishga;

- bitiruvchi talabalar kasb ta’limi yo‘nalishida asosan umumkasbiy va ixtisoslik fanlardan olgan nazariy bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirishda malakaviy amaliyotlarning tutgan o‘rnini alohida ta’kidlash zarur.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirishda albatta, pedagogik amaliyotning o‘rni ahamiyatlidir. Talabalar pedagogik amaliyot davrida o‘qituvchi faoliyatida zarur bo‘lgan kasbiy kompetentlikni amalda xis etib, bilim ko‘nikma va malakaga ega bo‘ldilar. Malakaviy amaliyot davrida esa tayanch mutaxassis bo‘yicha tajriba orttirib, texnologik jarayonlarning o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, unda ishtirok etib o‘zlariga zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi.

Shu nuqtai nazarda oliy ta’lim muassasalarda 4 yil davomida har kursda tashkil etiladigan va o‘tkaziladigan amaliyotlarni ahamiyati juda katta bo‘lib, bitiruvchi kelajakda pedagog o‘qituvchi kompetentligini

shakllanishiga alohida o‘rin egallaydi. Bitiruvchi iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishi amaliyotni bir qismini tashkil qilishi mumkin.

Ilmiy-tadqiqot ishi bitiruvchilardan kasbiy kompetentligini shakllantirish va mustahkamlashga ko‘maklashadi. U bitiruvchining kafedralarning ilmiy ishida albatta ishtirok etishini kurs ishlarini kasbiy bazaviy fanlar mavzusi bo‘yicha bajarilishi, himoya qilinishini, talabalar ilmiy jamiyati yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy ishda ishtirok etishini va bitiruv malakaviy ishni kafedraning ilmiy mavzusi bo‘yicha bajarilishini nazarda tutadi. Demak, pedagogik amaliyot bitiruvchilarining pedagogik kompetentlikni shakllantirishda asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Bundan tashqari, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma’ruza (muammoli ma’ruza, ma’ruza-seminar, binar ma’ruza, ma’ruza-konferensiya, ma’ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma’ruza, on-Line ma’ruza) trening, videotrening, innovatsion o‘qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o‘yinlar, o‘quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash, o‘qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta’lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Kompetentlik - bu o‘qituvchining noaniq holatda harakat qilish qobiliyati. Noaniqlilik qanchalik yuqori bo‘lsa, bu qobiliyat shunchalik ahamiyatlidir.

1-jadval

KOMPETENSIYA TURLARI			
KASBIY	SHAXSIY	UMUMMADANIY	MAXSUS
-Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish; -O‘z ustida ishlash; - Ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish; -O‘quvchilar ehtiyojini anglay olishi;	-Muloqatchanlik; -Bag‘rikenglik; -Etakchilik; Faol,tashabbuskor; -Moslashuvchan; -Sog‘lom turmush tarzi; -Mas’uliyat; -Ishchanlik; -Insonparvarlik.	-Ma’lumotli; -Madaniyatli; -Umuminsoniy qadriyatlarga egalik; -Milliy madaniyatga ega bo‘lish; -Mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; -Boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi.	-O‘quvchilar ehtiyojini bilishi; -Turli yosh xususiyatlarini bilishi; -Maxsus qobiliyatlarni ishga sola bilishi.

Zamonaviy o‘qituvchining kompetentlilik modelini quyidagi elementlar tarkibida tasavvur qilish mumkin:

- qadriyatlar, tamoyillar va maqsadlar;
- kasbiy sifatlar;
- muhim kompetensiyalar;
- pedagogik uslublar, usullar va texnologiyalar
- kasbiy pozitsiyalar.

O‘qituvchi o‘qitilayogan fan bo‘yicha bilimli bo‘lishi kerak, ya’ni kompetentli yondoshuvni quyidagi tamoyillarda amalga oshirishi lozim:

•Hayot uchun, jamiyatda ijtimoiy muvaffaqiyat uchun va shaxsiy rivojlanishi uchun ma’lumot olish;

•O‘qituvchilarni ta’lim natijalarini o‘zlari rejalashtirish va ularni doimiy o‘z-o‘zini baholash jarayonida takomillashtirish imkoniyatlari bilan ta’minlashni baholash;

•O‘qituvchilarning shaxsiy motivatsiyasi va mas’uliyati asosida mustaqil, ongli faoliyatini turli shakllarda tashkil etish.

1-chizma

O‘qituvchining kompetensiya piramidasi



Mamlakatda, jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, ustuvor milliy ta’lim loyihasini amalga oshirish hozirgi zamon o‘qituvchisiga yangi talablarni qo‘yadi. Hozirgi zamon o‘qituvchisining o‘zi qanday? Bu savolga bir tomonlama javob berish qiyin bo‘lsa kerak. Bu – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yarata oladigan, o‘quvchilarda

bilim olishga ijodiy yondoshuvni rivojlantiradigan, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadigan, ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida masalalarni o‘zi uchun mustaqil ifodalay oladigan, o‘quvchilar talabiga to‘liq javob beradigan, fanni o‘zlashtirishda ularning qobiliyatlari va mehnatlariga ko‘ra rag‘batlantiradigan inson.

Hozirgi zamon o‘qituvchisi doimo ijodiy izlanishda bo‘ladi, shuningdek, o‘quvchini nimaga o‘rgatish kerak? kabi dolzarb savolga javob qidirishi lozim. Zamonaviy o‘qituvchi ishiga va o‘quvchilarga bo‘lgan mehrini o‘zida mujassam etish, nafaqat bolalarni o‘qitishi, o‘zi ham ulardan o‘rgana olishi zarur. Zamonaviy pedagog har bir boladagi eng yaxshi sifatlarni yuzaga chiqarib, ularni rag‘batlantirishi kerakki, bu bolalar maktabni tugatganlaridan keyin ham olgan bilimlaridan quvonib, jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari, unga sidqidildan xizmat qilishlari zarur.

Zamonaviy o‘qituvchi - bu professional. Pedagogning professionalligi kasbiy layoqati, fikrlashi va mustaqil rivojlanishi bilan, ya’ni kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan sifatlarni o‘zida shakllantira olganligi bilan belgilanadi, zamonaviy pedagogning asosiy xususiyatlari - doimo o‘z ustida ishlash o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lish bilimdonlik va yuqori madaniyatlilik. O‘qituvchining kasbiy o‘sishini o‘qishga bo‘lgan ehtiyojsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘qituvchi uchun erishilgan yutuqda to‘xtamaslik juda muhim, u doim olg‘a borishi shart. Chunki o‘qituvchining mehnati - bu cheksiz ijod uchun ajoyib manba.

Har bir pedagog o‘zi uchun quyidagi qoidani doimiy shior sifatida o‘z faoliyatida unutmasligi lozim:

“O‘zingizni chegaralamang. Ko‘p kishilar o‘zlari nimani bilishsa, shu bilan cheklanib qoladilar. Siz undan ko‘prog‘iga erisha olasiz. Faqat siz qilayotgan ishingizga ishoning. Zamonaviy o‘qituvchi uchun uning kasbi - bu o‘zini ko‘rsata olish imkoniyati, qoniqish va shuhrat topish manbai. Zamonaviy o‘qituvchi atrofdagi hamma narsaga qiziqib va kulib qaray oladigan kishi, chunki maktabda o‘qituvchiga bolaning ehtiyoji bor ekan, maktab yashaydi.”

O‘qituvchi ishidagi asosiy xususiyat nima? Bilim, malaka, mahoratimi? Bolalarning bilim olishimi? Odamlarning muloqotimi? O‘zini shaxsiy rivojlantirishimi?

Shu savollarga javob berish bilan birga, biz pedagoglik kompetensiyasining fanda o‘rganilishini quyidagicha tahlil qilamiz.

Pedagogik kompetensiya quyidagi turlarga bo‘linadi:

- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish;

- O‘z ustida ishlash;
- Ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish;
- O‘quvchilar ehtiyojini anglay olishi;
- O‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- Eng so‘nggi yangiliklar va yutuqlardan xabardor bo‘lish;
- Ta’lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O‘z fanini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.

Uning shakllanish bosqichlari quyidagicha:

1. O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. O‘zini rivojlantirishni rejalashtirish, maqsad, vazifa belgilash;
3. O‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

A.V. Xutorskoy ta’limda o‘qituvchining yetti kompetensiyasini tafsiflaydi[1]:

1. Dunyoqarash asnosida ya’ni qadriyat va o‘zini anglash- o‘qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni mohiyatini ko‘ra oladi va tushunadi bunga o‘zini yo‘naltiradi, pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya- o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘z-o‘zini anglash mexanizmini ta’minlaydi.

2. Umummadaniy – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf–odatlarga hurmat; ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini anglay olishi va o‘quvchi yoshlarga tushuntira olishi.

3. O‘quv va bilish jarayoni - o‘qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O‘quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko‘nikmasini tahlil qila olishi.

4. Ma’lumotga ega bo‘lish - pedagogik faoliyati, o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko‘nikmasi.

5. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

[1] Kuznetsova N.P. — O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi DTSlari talabalarini amalga oshirish sharti sifatida. M. 2003.

6. Ijtimoiy- foydali mehnat - oilaviy munosabatlar va mas’uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

7. O‘z ustida ishlashi - jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o‘z-o‘zini rivojlantirib borishi, hissiyotini boshqarish.

Kompetensiya ko‘rinishlari quyidagicha bo‘ladi: umumiy - turli xil holatlarda qo‘llash mumkin; maxsus - kasbiy faoliyatda bajarish lozim bo‘lgan harakatlar, ya’ni didaktik kompetensiya:

- o‘qitish muhitini yaratish;
- mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish;
- o‘quv jarayoni boshqarish;
- o‘quvchilarning yutuqlari va rivojlanishlarini baholash;
- o‘quvchilarga motivatsiya berish va yordam ko‘rsatish;
- o‘quvchilar bilimini anglash va ularni rivojlantirish.

Hozirgi davr talabini inobatga olib, ta’lim sifatini oshirishda pedagoglarga zamonaviy talablar qo‘yiladi. O‘qituvchidagi zaruriy ijtimoiy ko‘nikmalar quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- O‘z-o‘zini namoyon qilish.
- Boshqa odamlar bilan ijtimoiy muloqotda bo‘lish.
- O‘z ustida tinimsiz ishlash.
- Vaziyatni baholash va muammolarni yechish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.
- Tashkilotchilik, ijodiy yondashuv.
- Boshqaruv ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

Ta’lim sifatini o‘zgartirishda o‘qituvchining roli quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Tashkilotchi-ijtimoiy pedagog: o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlaydi.

- Sinf yetakchisi - sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi va ta’sir ko‘rsatadi;
- Metodist - ta’lim jarayonida o‘quvchilarning muammoni yechishda yordam beradi va qo‘llab-quvvatlaydi.
- Faylasuf - bilim va tajribalarni tahlil qiladi, o‘z qarashlarini asoslaydi;
- Tajribali yaqin do‘st - o‘quvchilar oldidagi to‘siq va muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.
- Tadqiqotchi – novator - yangilik yaratuvchi-muntazam ravishda o‘z ustida ishlaydi, yangi g‘oyalar yaratadi, tatbiq etadi.

•O‘quv jarayonini rahbari va uni rag‘batlantiruvchi - maqsadga yetish vositalari, istiqbolini nazarda tutadi, o‘qitish uslublarini tanlaydi, o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatadi, ijodiy yondashadi.

•O‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi - jamoa bo‘lib ishlay oladi va ishlashga o‘rgatadi.

•Maslahatchi - shaxsiy namunasini o‘rgatadi

•Tarbiyachi - o‘quvchilarga jismonan, aqliy va ma’naviy tomondan rivojlanishlariga yordam beradi.

•Psixolog - o‘zini yaxshi biladi va tushunadi

•O‘zgarishlarga yo‘naltiruvchi - o‘quvchilarni hayotiy ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi

•Ma’lumotlarni taqsimlovchi - o‘quvchilarga asosiy yangi ma’lumotlarni yetkazadi va amaliyotga tatbiq etishga o‘rgatadi.

-O‘qituvchi o‘quv jarayonida maslahatchi sifatida faoliyat qiladi. Ya’ni:

-O‘quvchilarga ko‘nikmalarini o‘qish jarayonida rivojlantirishga yordam beradi;

-Turli xil yo‘nalishdagi reja (strategiya)larni qanday qo‘llash kerakligi bo‘yicha maslahat beradi;

-Faol qayta aloqani ta’minlaydi;

-Noan’anaviy usullar bilan o‘quvchilarning harakatlarini qo‘llaydi va mustahkamlaydi;

-O‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi;

-O‘quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi;

-O‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi.

O‘qituvchi:

- yangilik kirituvchi sifatida yangiliklarni ayniqsa o‘zga davlatlardan kirib kelayotganlarini farqlaydi va tushunib yetadi;

-yangiliklarni tahlil qila olishga layoqatli; yangiliklarni turli xil vaziyatlarda qo‘llay oladi va kamchiliklarini to‘g‘rilaydi;

- o‘z pedagogik amaliyotida yangiliklardan ijodkorona foydalana olishga layoqatli shaxs hisoblanadi.

Ta’lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu o‘qituvchining o‘z fani bo‘yicha kompetensiyaga ega bo‘lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo‘ladi:

-ilmiy bilim;

-turli xil faoliyatni bajara olishi (namuna, misol keltira olishi);- muammoli vaziyatlarni samarali yechimini topishda ijodiy faoliyat asosida yondashish; - jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional

munosabatda bo‘lish tajribasi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxasislarni tayyorlash bugungi zamonning dolzarb masalasidir. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayoniga boshqacha nazar bilan qarashni talab etadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish - o‘qituvchi, uning kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi. Bu jarayonda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

5.4 Kasbiy – shaxsiy kompetensiyaning turlari

Ta’limning samaradorligini oshirish, yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni qo‘llay oladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o‘qituvchi-professorlar kerak. Bunday o‘qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarda qo‘llash malakalarini uzluksiz oshirib borish, bir so‘z bilan aytganda, pedagogik kompetentlik sifatlarini shakllantirish lozim. Pedagogik kompetentlik esa o‘z navbatida pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, pedagogik muloqot, pedagogik texnologiyalar va fanlararo integrasiyalashgan holda o‘qituvchida namoyon bo‘ladi.

Jahonning eng rivojlangan mamlakatlari tarixiy tajribasi shundan dalolat berib turibdiki, ular mustaqillik va taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘yishlari bilan asosiy e’tibor va mablag‘larni birinchi navbatda, yoshlarni o‘qitish va tarbiyalashga sarflaganlarligi tarixiy tajribada o‘zini oqladi. O‘zbekiston bugun o‘zining ta’lim tizimidagi o‘zgarishlari va yutuqlari bilan jahonga mashhur bo‘lmoqda. Bu jarayonga erishishda malakali kompetentli o‘qituvchilarning roli beqiyosdir. O‘qituvchining kasbiy va shaxsiy kompetentligi ta’lim-tarbiya muhitini tashkil eta olishidadir.O‘qitishni bunday tashkil etishda birga o‘ylash, munozara yuritish, mukammal masalalarni qo‘yish, mustaqil fikrlash, g‘oyalar berish, turli nuqtai nazarlardan kelib chiqib xulosalar chiqarishga olib keladi. Bu esa talabalarning intellektual o‘sishiga yordam beradi. Oldingi rejada kmpetensiyalarning kasbiy, shaxsiy, umumiy, maxsus turlarini haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, talabalarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalari ta’lim-tarbiya jarayonlarda shakllanadi, rivojlanadi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik nima? **Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- Har bir kasbning murakkab jarayonlarida;
- Nomuayyan vazifalarni bajarishda;
- Konfiliktlar va ziddiyatli hollarda;
- Kutulmagan vaziyatlarga tez moslasha olishda;

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxasislar

- Yangi bilimlarni egallashga qiziquvchan bo‘ladi;

- O‘z bilimlarini muntazam boyitib boradi;
- Yangi axborotlarni tez o‘zlashtiradi.
- Bu yangiliklarni o‘z faoliyatida samarali qo‘llay oladi.

Shu o‘rinda kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarga izoh berib, ularni birma-bir ta’riflashni joiz deb bildik.

1. Kasbiy kompetensiyalar.

- Pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lish;
- O‘z ustida ishlash;
- Ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnata olish;
- O‘quvchilar ehtiyojini anglay olishi;

2. Shaxsiy kompetensiyalar.

- Muloqatchanlik;
-Bag‘rikenglik;
-Yetakchilik;
- Faol,tashabbuskor;
-Moslashuvchan;
-Sog‘lom turmush tarzi;
-Mas’uliyat;
-Ishchanlik;
-Insonparvarlik.



Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova, va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi.

Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari (A.K.Markova)

3. Pedagogning kasbiy kompetentligi. O‘zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan bo‘lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan faoliyat o‘ziga xos ahamiyatga ega. Olimaning fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi. Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

O‘z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o‘zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish.

O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish

Oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi yana bir muhim komponent - o‘qituvchi, uning kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi.

Ta’limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosli samarasi bo‘la olmaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion-muammoli vaziyatlarni qo‘yish yoki o‘rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga ega bo‘lish.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o‘qituvchida o‘z kasbiga layoqat bo‘lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo‘lishdir. Bu avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishida ko‘rinadi. Bundan tashqari o‘qituvchi, o‘quvchiga o‘z faoliyatining ob’yekti sifatida qiziqib qarashi, uning ehtiyoj va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim.

Quyidagilar o‘qituvchi-pedagogiklarning tayyorgarlik darajasini ta’minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi:

1.Dars berish mahorati;

2.Tarbiyalash mahorati;

3. O‘quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta’minlaydigan shaxsiy sifatlari;

4. Ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati;

DARS BERISH MAHORATI:

Kasbiy layoqat va eruditsiya;

Psixologik-pedagogik tayyorgarlik;

Ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlash va yangi bilimlar olishga o‘rgatish mahorati;

O‘quv adabiyotlari shakllari va turlarini bilish;

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallanganlik, internetning global tarmog‘i bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar;

Pedagog mutaxasislar malakasini oshirishning asosiy shakllarini bilish;

Ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish;

Pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini bilish;

Fanlararo aloqalardan foydalanish mahorati;

Ritorika va notiqlik san’ati asoslarini bilish;

TARBIYALASH MAHORATI-o‘qitish va tarbiyalash jarayonining o‘zaro uyg‘un holda shaxsni shakllantirishga, ularda yuksak madaniy va ma’naviy saviyaning qaror toptirishga, pedagogning yuksak shaxsiy sifatlarida namoyon bo‘ladi.Shuningdek, vatanparvarlik, obro‘ va burchni his etishgda, siyosiy va ijtimoiy hayotdan boxabarligida, shuningdek o‘quvchilar o‘rtasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning amaliy ko‘nikmalariga asoslahisida ham yaqqol ko‘rinadi. Pedagogning o‘quv-tarbiyaviy jarayondagi liberalligini belgilaydigan shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta’lim oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. SHaxsiy kompetentsiyalar o‘qitish va tarbiyalash mahoratiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati-psixologik pedagogik jihatdan o‘qitish va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog‘liqdir. Pedagog ta’lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi kerak.

O‘qituvchidagi shaxsiy kompetentligi quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- O‘z-o‘zini namoyon qilish;
- Boshqa odamlar bilan ijtimoiy muloqotda bo‘lish;
- O‘z ustida tinimsiz ishlash;
- Vaziyatni baholash va muammolarni echish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- Tashkilotchilik, ijodiy yondashuv;
- Boshqaruv ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

Ta’lim sifatini o‘zgartirishda o‘qituvchining roli quyidagilarda ko‘rinadi.

1. O‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash;
2. Sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish va ta’sir ko‘rsatish;
3. Metodist-ta’lim jarayonida o‘quvchilarning muammoni echishda yordam berish va qo‘llab quvvatlash;
4. Faylasuf-bilim va tajribalarni tahlil qilish, o‘z qarashlarini asoslash;
5. Tajribali yaqin do‘st o‘quvchilar oldidagi to‘siq va muammolarni bartaraf etishga yordam berish;
6. Tadqiqotchi-novator-yangilik yaratuvchi-muntazam ravishda o‘z ustida ishlaydi, yangi g‘oyalar yaratadi, tatbiq etadi;
7. O‘quv jarayonini rahbari va uni rag‘batlantiruvchi-maqsadga etish vositalari, istiqbolini nazarda tutadi, o‘qitish uslublarini tanlaydi, o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatadi, ijodiy yondashadi;
8. O‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi-jamoa bo‘lib ishlay oladi va ishlashga o‘rgatadi;
9. Maslahatchi- shaxsiy namunasini o‘rgatadi;
10. Tarbiyachi-o‘quvchilarga jismonan, aqliy va ma’naviy tomondan rivojlanishlariga yordam beradi;
11. Psixolog-o‘zini yaxshi biladi va tushunadi;
12. O‘zgarishlarga yo‘naltiruvchi-o‘quvchilarni hayotiy ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi;
13. Ma’lumotlarni taqsimlovchi-o‘quvchilarga asosiy yangi ma’lumotlarni etkazadi va amaliyotga tatbiq etishga o‘rgatadi.

O‘qituvchi o‘quv jarayonida maslahatchi:

- o‘quvchilarga ko‘nikmalarini o‘qish jarayonida rivojlantirishga yordam beradi;

- turli xil yo‘nalishdagi reja (strategiya)larni qanday qo‘llash kerakligi bo‘yicha maslahat beradi;

- faol qayta aloqani ta’minlaydi;

- noan’anaviy usullar bilan o‘quvchilarning harakatlarini qo‘llaydi va mustahkamlaydi;

- o‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni engishga yordam beradi;

- o‘quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi;

- o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi.

O‘qituvchi-yangilik kirituvchi:

- yangiliklarni, ayniqsa o‘zga davlatlardan kirib kelayotganlarini farqlaydi va tushunib etadi;

- yangiliklarni tahlil qila olishga layoqatli;

- yangiliklarni turli xil vaziyatlarda qo‘llaniladi va kamchiliklarini to‘g‘rilaydi;

- o‘z pedagogik amaliyotida yangiliklardan ijodkorona foydalana olishga layoqatli.

O‘qituvchi kasbiy va shaxsiy kompetensiyasi yana quyidagi vazifalarda namoyon bo‘ladi.

1	*Moderator*	ta’lim mazmunini yaratuvchi, modullarini ishlab chiquvchi.
2	*Trener*	o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o‘tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassis.
3	*Tyutor*	masofadan o‘qitishda ish turlarining yaratuvchisi va bajarilishini ta’minlovchi.
4	*Menejer*	ustoz, boshqaruvchi, o‘rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).
5	*Ma’ruzachi*	nazariy ma’lumotlar bilan tanishtiruvchi
6	*Ekspert*	kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.
7	*Innovator*	Yangiliklarnita’lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy qiluvchi.
8	*Assistent*	mashg‘ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo‘llashga tayyorlash, mashg‘ulot ishtirokchilariga yordam ko‘rsatib turish.
9	*Texnolog*	Pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etib boradi.
10	*Fasilitato*r	inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, ―yordam beruvchi, ―engillashtiruvchi degan ma’noni anglatadi. Ta’lim-tarbiya maqsadiga erishishni osonlashtirish uchun o‘quvchilarning samarali hamkorligini shakllantiradi
11	*Menejer*	o‘quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini o‘rganish natijasida ta’lim-tarbiya jarayoni strategiyasini ishlab chiqadi va jarayonni boshqaradi.
12	*Ekspert*	aniq mavzu, masala bo‘yicha hakamlik qiladi. BKM darajasini belgilashda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy kompetensiyalaribu pedagog osongina, o‘z-o‘zidan erisha oladigan jarayon emas. Buning uchun o‘qituvchilik kasbiga, ya’ni sog‘lom avlodning chinakam murabbiy bo‘lishiga havasi, ishtiyoqi zo‘r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o‘zining ilmiy, ijtimoiy - siyosiy saviyasini, pedagogik kompetentligini izchillik bilan amalga oshira boruvchi, mustaqillik g‘oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar, mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Kompetenlik va kompetensiyaning pedagogik mahorat bilan bog‘liqligi haqida ma’lumot bering?
2. Pedagogik mahorat deganda nimani tushunasiz?
3. Pedagogik mahorat va kompetensiya tushunchalarini qiyosiy tahlil qila olasizmi?
4. Kompetensiya va uning turlari haqida nimani bilib oldingiz?
5. Kasbiy va shaxsiy kompetentsiya turlari haqida ma’lumot bering?
6. Kasbiy kompetensiya haqida ma’lumot bering?
7. Shaxsiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

6-MAVZU: PEDAGOGIK MAHORAT VA KOMPETENSIYA MEZONLARI.

Tayanch tushunchalar: mahorat, pedagogik mahorat, pedagogik kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentsiya, professionalizm, pedagogik professionalizm, zamonaviy o‘qituvchi, zamonaviy pedagog, o‘qituvchi modeli, pedagogik andoza,kasbiy professonalizm.

6.1 Pedagogik mahorat va kasbiy tayyorgarlik.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining hujjatlarida asosan hozirgi zamon ta’lim maqsadlari aniq faoliyat soxasi uchun tor doiradagi mutaxassislarni tayyorlash emas, balki har bir odamning shaxsiyatini rivojlantirish, uning kasbiy kompetentligini oshirishdan iborat ekanligi qayd etilgan. Hozirgi vaqtga kelib, pedagogik faoliyatning turli soxalari uchun mutaxassislar tayyorlash jarayonining ko‘p qirrali jihatlarini ochib berishga bag‘ishlangan jiddiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘qituvchining kasbiy mahorati va kasbiy tarbiyalanganligida ta’lim-tarbiya masalalarining uzoq tarixiy ildizlari sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy asarlarida ham aks etgan. Tarixiy merosimizda kasbga yo‘naltirilganlik goyalarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligi masalalari haqida ko‘plab fikr-mulohazalar bayon etilgan. Keyingi davr olimlari E.Roziyev, B.Qodirov, M.Davletshin, V.Karimova, L.S. Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiya tushunchalarini shakllantirish, ularni kasbga yo‘naltirishning psixologik asoslari haqida e’tiborga molik fikrlarni ilgari surishgan bo‘lsa, M.Ochilov, U.Maxkamov, M.Kuronov, F.Yuzlikayev, J.Xasanboyev, Yo.Xdydarov, U.Tolipov, N.Sayidaxmyedov, N.Nishonaliyev, E.Choriyev, N.Shodiyevlar faoliyatlarida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiya tushunchalarini shakllantirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash masalalari muhokama qilingan va tahlil qilingan.

Shuningdek, talabalarning pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligini tarbiyalashda oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisini tayyorlash va malakasini oshirishning didaktik tomoni M.Ochilov, O.Roziqov, B.Adizov, psixologik-pedagogik jihati E.Roziyev, umumpedagogik N.N.Azizxodjayeva, O.A.Abdullayeva, innovatsion

tomoni R.A.Mavlonova, V.A.Slastyenin, ijodiy tomoni V.A.Kan-Kalik faoliyatida o‘rganilgan.

Pedagogik mahorat va kompetentlik tushunchalari mazmuni haqida fikrimizni bayon etar ekanmiz, albatta ayrim mualliflarni fikrlarini qiyosiy tahlil qilish lozim. Chunki tushuncha ancha keng muhokama va tahlillarga asoslangan bo‘lib, bir qator fikrlar bildirilgan. Jumladan, “Pedagogik ensiklopediya”da pedagogik mahorat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis». Ensiklopediya berilgan ta’rif mazmuniga yondashgan holda pedagogik mahorat tushunchasini quyidagicha ta’riflash mumkin:

- yuksak ma’naviy salohiyat, savodxonlik va tafakkurning yuqori bosqichi;
- o‘z mutaxsisligini yuksak darajada bilish;
- pedagogika va psixologiya tizimidagi fanlarni puxta egallaganligi, ulardan o‘z faoliyatida qo‘llay olishi;
- o‘quv – tarbiya jarayoni mazmun-mohiyatini tushunish, tashkil eta olish;

Pedagogik mahorat tarkibida bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi asosiy komponentlar:

1) insonparvarlik;
2) mutaxasislikka oid bilimlarni yuqori darajada bilish;
3) kasbiy qobiliyatning shakllanganligi va rivojlanishi;
4) pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Pedagogik mahorat bo‘lg‘usi o‘qituvchilar pedagogik faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarida shakllanadi:

• Pedagogik faoliyatning maqsadi.
• Pedagogik faoliyatning ob’yekti va sub’yekti.
• Pedagogik faoliyatning vositasi.

Pedagogik jarayonning mazmuni anglamagan, yoshlarga nisbatan chuqur izzatda bo‘lmagan o‘qituvchi ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo‘lib, o‘qituvchining faoliyat mezonini belgilab beradi. O‘qituvchining faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning ob’yektlari bo‘lmish tarbiyalanuvchi insonga, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhiga hamda alohida o‘quvchiga, pedagogik jarayonning sub’yektlari — ota-

onalar, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas’uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta’lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar.

Biroq, o‘quv yilining oxirida kelib oliy ta’lim muassasalarida talabalarning fanlarni o‘zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmaydi. Ko‘plab talabalarning ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qib bormoqda. Buning natijasida o‘qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o‘ylashmayapti. Ta’lim tizimini boshqaruvchi organlar ta’lim olishga nisbatan xohish-istagi bo‘lmagan talabalar, bu kabi ta’lim oluvchilarni o‘qitishni istamayotgan o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o‘zgarishsiz qolmoqda.

Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalar uchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag‘bat bildirmayotgandir. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga

bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi .

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir.

Ko‘plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kretivlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar (Kim, 2005 y.)[1].

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.).

Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi.

Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir vako‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin,

[1] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

birva har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyatkasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talabayechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi(bir tomonlama fikrlash). Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari,tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishlari ularda o‘quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, bo‘lajak pedagoglarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali taminlanadi.

Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi.

10.2 Pedagogik keaktivlikning qoidalari, metodlari va pedagogik kreativlik malakalari

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo‘sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo‘ladi? Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur: Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu

1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish ijodiy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

Tadqiqotchi N.Fayzullaeva pedagogik tafakkurga ega bo‘lish uchun talabalar pedagogika oid bilimlarni puxta o‘rganish asosida quyidagi ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtira olishlari zarur deb hisoblaydi: pedagogikaning asosiy g‘oyalari, konsepsiyalari, qonuniyatlarini va pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish; pedagogikaning eng muhim nazariy g‘oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish; asosiy pedagogik faktlarni bilish; ta’lim va tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash. Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi: Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko‘ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishdan oldin sinfda qulay muhitni yaratish lozim. Kreativ muhitda ta’lim olayotgan talabalarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega o‘qituvchini kuzatish natijasida

1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma’lumotlarga e’tiborsiz bo‘lmaslik;

2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish Turlari Ijodiy tafakkur va uning natijalari (tezkorlk, samaradorlik, mahsuldorlik va b.)ni aniqlovchi testlar Shaxsning hayotiy tajribasi va shaxsiy sifatlarini aniqlovchi testlar E.P.Torrensning shaxsa kreativ sifatlarini namoyon bo‘lishini aniqlovchi testlarning turlari kreativ fikrlashga moyil bo‘ladi. Kreativlik xarakteridagi o‘quv-bilish muhiti talabalarda ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo‘lgan tanqidiy va kretiv fikrlash ko‘nikmasining rivojlanishiga olib keladi (Boykin & Noguera, 2011, 2012; Marks, 2000, as cited in Jensen, 2013).

Kreativ tafakkurga ega talabalar:

- boshqa talabalarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildiradi;
- o‘zlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi;
- ba’zan mavzu aloqasi yo‘q yoki g‘ayrioddiy savollar beradi;
- yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi;
- g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi;
- muammoning yechimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi. Shaxs kreativligini rivojlantirish jarayonida “tabaqalashtirish”, “davrlashtirish” tushunchalarining muhim ahamiyat kasb etishi e’tiborni

tortadi. Xo‘sh, bu ikki tushuncha qanday mazmunni ifodalaydi? Shaxsga xos kreativlik sifatlarining turlari

Kreativ jihatdan rivojlanisha har bir shaxs hayotida davr va bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Demak: Shunga ko‘ra ma’lum davr va bosqichlarda pedagoglarda ham kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi. Pedagoglar kreativlik sifatlari bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo‘lishlari zarur: Quyida ushbu malakalar guruhlarining mohiyati yoritiladi: Bilishga oid

(gnostik) malakalar: talabalarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosligini inobatga olgan holda o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash; zamonaviy ta’lim talablaridan kelib chiqqan holda o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va tahlil qilish; ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning samarali⎫ shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish; talabalar tomonidan o‘quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni o‘zlashtirganlik natijalarini, o‘quvchilarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlay bilish;

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

1) bilishga oid gnostik) malakalar;
2) loyihalash malakalari;
3) ijodiy-amaliy konstruktiv) malakalar;
4) tadqiqotchilik malakalari;
5) muloqotga kiruvchanlik kommunikativ) malakalari;
6) tashkilotchilik malakalari;
7) izchillikni ta’minlovchi protsesssual) malakalar;
8) texnik-texnologik malakalar;

Tabaqalashtirish lot. “diferentia” – “farqlanish”, “darajalanish”) – butunning turli bosqich yoki darajalarga ajratilishi. Davrlashtirish yunon. “peridos” – “doira bo‘ylab aylanish”) – muayyan hodisani o‘zida qandaydir yakunlangan jarayonni qamrab olgan ma’lum vaqt birliklariga ajratilishi kreativlikning rivojlanish davri–ma’lum kreativlik sifatlarining rivojlanishi yakuniga yetgan qandaydir vaqt birligi. Kreativlikning rivojlanish bosqichi –muayyan kreativlik sifatlarining ivojlanganlik darajasi talabalarning bilishga bo‘lgan qiziqish, ehtiyoj va faolliklarini rivojlantirish bo‘yicha turli ko‘rinishdagi ishlarni olib borish; darsda, darsdan tashqari sharoitlarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda, to‘garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy ishlarni olib borish; talabalar, ularning

ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish; talabalarda sog‘lom turmush kechirishga bo‘lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigienaga amal qilish ko‘nikmalarini, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish malakalarini shakllantirish; ta’lim jarayonida turli ko‘rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish; didaktik material va ko‘rsatmali qurollarni ishlab chiqish; ota-onalarni pedagogik bilimlar asoslari, bolalarning asosiy yosh xususiyatlari, psixologik o‘ziga xosliklari, turli yosh bosqichlarida farzandlar bilan ota-onalar o‘rtasida kechadigan munosabatlar mohiyatidan xabardor qilish; o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish.

Loyihalash malakalari dars yoki tarbiyaviy tadbirlarning loyihalarini yaratish; dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik xaritasini yaratish; dars yoki tarbiyaviy tadbir mohiyatini bosqichma-bosqich yoritish; ta’limiy yoki tarbiyaviy faoliyat maqsadini aniq belgilash; maqsadga mos keladigan vazifalarni aniqlash; o‘quv materialining didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini bayon etish; o‘quv yoki tarbiyaviy xarakterdagi material mazmunini shakllantirish; o‘quv yoki tarbiyaviy material mazmunini ochib beradigan bir qancha ma’lumotlar o‘rtasidagi o‘zaro izchillikni ta’minlash; talabalarni mustaqil fikrlashga rag‘batlantiruvchi savollar tizimini ishlab chiqish; dars yoki tarbiyaviy tadbirning metodik tuzilishini asoslash; dars yoki tarbiyaviy tadbir jarayonida bajariladigan pedagogik topshiriqlar tizimini aniqlash; yangi materialni bayon etishda turli zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash; muayyan izchillikka ega test topshiriqlarini ishlab chiqish; talabalarning bilim darajasini tashxislash jarayonini asoslash; talabalar jamoasi hamda alohida talabaning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholash mexanizmini yaratishga xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyat ta’lim jarayonining uzviy, ongli va maqsadli qismi sifatida jamiyatning eng muhim funksiyalaridan biridir. Uning tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat.

1. Pedagogik ehtiyojlar, ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalari, shaxsga qo‘yiladigan asosiy talablarni bilish.

2. Talabalarga umumlashtirilgan shaklda beriladigan, ishlab chiqarish, madaniyat, ijtimoiy munosabatlar sohasida shaxs tomonidan to‘plangan turli ilmiy bilimlar, qobiliyat va malakalar, tajriba asoslari.

3. Aslida pedagogik bilim, tarbiyaviy tajriba, mahorat.

4. O‘qituvchining yuksak axloqiy, estetik madaniyati.

Pedagogik faoliyatning samaradorligi ushbu tarkibiy qismlardan tashqari, fikr-mulohazalarni yo‘lga qo‘yishni, ta’lim jarayonining borishi va uning natijalari to‘g‘risida ma’lumotlarni tashkiliy ravishda olishni talab qiladi. Pedagogik diagnostika o‘qituvchiga o‘rganishga, o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga nima va qanday ta’sir qilishini bilish imkonini beradi. Bu pedagogik ta’sir natijalarining ta’lim va tarbiya maqsadlariga muvofiqligini tekshirish va ta’lim jarayonining mazmuni va uslubiga zarur qo‘shimchalar, tuzatishlar, tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Pedagogik faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida dialektik, qarama-qarshiliklarda amalga oshiriladi. Aynan qarama-qarshiliklar uning rivojlanishiga, ilg‘or va innovatsion tajribalarning paydo bo‘lishiga, pedagogik fikrni rag‘batlantirishga turtki bo‘lgan harakatlantiruvchi kuchdir. Jamiyatning rivojlanishi, yangi bilimlarning to‘planishi, ijtimoiy taraqqiyot - bularning barchasi pedagogik funktsiyalarning mazmunini o‘zgartirishni talab qiladi. Ta’lim va tarbiyaning eskirgan mazmuni, pedagogik faoliyat usullari va shakllari o‘rtasida, bir tomondan, jamiyatning yangi talablari, ikkinchi tomondan, qarama-qarshilik paydo bo‘ladi. Uning qarori jamiyat hayotining barcha sohalarini tahlil qilish, shaxsga qo‘yiladigan yangi talablarni aniqlash va o‘quv jarayonining mazmunini qayta ko‘rib chiqish, pedagogik faoliyat shakllari va usullarini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan pedagogika fanining ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi. . Bunday sharoitda pedagogik ijodga katta rol o‘ynaydi.

Pedagogik ijodni tushunishda turli yondashuvlar namoyon bo‘ladi. Ulardan biri ta’lim va tarbiyaning ob’yektiv yangi texnologiyalarini yaratishdir. Agar ushbu mezonga rioya qilinsa, unda bir nechta o‘qituvchilar bunga javob beradigan ko‘rinadi, bu tubdan noto‘g‘ri.

Pedagogik faoliyatda ijodkorlik ko‘pincha reproduktiv reproduktiv) faoliyatni rad etish sifatida qaraladi. Qoida tariqasida, reproduktiv faoliyat faqat ijodkorlikka kiruvchi, ammo zaruriy o‘tish sifatida tan olinadi. Pedagogik faoliyatda takror ishlab chiqarish ko‘p bosqichli tuzilishga ega ekanligi e’tiborga olinmaydi: bilimlarni noaniq qayta hikoya qilishdan tortib, ko‘plab tashqi omillarni hisobga olgan holda materialni moslashtirish qobiliyatigacha. Pedagogik ish ustasi osonlik bilan takror ishlab chiqarishdan ijodkorlikka o‘tadi va aksincha.

Darhaqiqat, barcha pedagogik faoliyat ijodiy xarakterga ega. Mashhur uslub va usullarni muvafaqqiyatli mujassam etgan har qanday mashg‘ulot ma’lum darajada ijodkorlikning natijasidir. Buni ma’lum elementlardan

yangi tizim yaratish allaqachon ijodkorlikning namoyon bo‘lishi bilan tasdiqlaydi. Har bir darsning qurilishi va o‘tkazilishi ijodiy yondashuvni talab qiladi, chunki har qanday dars nafaqat uni o‘tkazishning ma’lum sxemalarini, balki har doim guruhning har xil holatini va har bir o‘quvchining individualligini o‘z ichiga oladi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, pedagogik faoliyat individual emas, balki birgalikda. Bu talaba shaxsini, uning qobiliyatlari va malakasini shakllantirish va rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Har bir talaba shaxs sifatida ob’yektiv jihatdan noyob bo‘lganligi sababli, samarali pedagogik faoliyat ijodiydir.

Pedagogik ijod ham ilmiy ijod kabi inson faoliyatining eng yuqori darajasidir. Pedagogik ijodning psixologik tuzilishini quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin:

- ijodkorlikning maqsadi;
- motivlar;
- sub’ekt yoki ijod ob’yekti);
- yo‘llar, vositalar;
- shartlar;
- natija.

Ushbu bo‘limda biz pedagogik ijodning mohiyati va mazmunini batafsilroq ochib beramiz.

Pedagogik ijod - bu kursantlar va oliy o‘quv yurtlari talabalarining kasbiy tayyorgarligi samaradorligi va sifatini oshirishga yordam beradigan pedagogik muammolarning o‘ziga xos echimlarini topish va amalga oshirishga qaratilgan o‘qituvchining nazariy va amaliy faoliyatining individual noyob jarayoni.

Shunday qilib, pedagogikada ijodkorlik nazariy jihatdan ajralib turadi, bu ta’lim va tarbiyaning ilgari noma’lum bo‘lgan qonuniyatlarini ochish, aniqlash, yuqori samarali nazariyalar va usullarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Amalda ijodkorlik pedagogik muammolarni hal qilishda nostandart yondashuvlarda namoyon bo‘lishi mumkin; darslarni o‘tkazishning yangi shakllari, usullari, usullarini ishlab chiqishda; mavjud tajribani yangi sharoitlarda samarali qo‘llashda; bir xil muammoni hal qilishning ko‘plab variantlarini ko‘rish qobiliyatida va hokazo.

Mazmun jihatidan pedagogik ijod - bu o‘qituvchi va tinglovchilarning ofitser shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan birgalikdagi harakatlarining muayyan majmuidir.

Pedagogik ijodkorlik o‘qituvchi tomonidan namoyon bo‘ladi:

- o‘quvchilari bilan pedagogik hamkorlik tizimini yaratishda;

- pedagogik faoliyatni ilmiy bashorat, o‘z-o‘zini baholash asosida o‘quv jarayonini doimiy ravishda takomillashtirishda;

- xilma-xil pedagogik ta’sir vositalaridan optimal foydalanishda;

– universitetdagi pedagogik jarayonning eng dolzarb muammolarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida;

- o‘qituvchining ta’lim va tarbiyada qo‘llaniladigan ko‘p qirrali sevimli mashg‘ulotlarida;

- o‘z-o‘zini takomillashtirishda, o‘qituvchi sifatida o‘zini o‘zi rivojlantirishda.

Pedagogik ijodning o‘ziga xos xususiyatlari bor:

1. Bir tomondan, bu shaxsni yaratish tarbiyalash, tarbiyalash, rivojlantirish); ikkinchi tomondan, pedagogik muammolarning yangi yechimlarini izlash va amalga oshirish;

2. O‘qituvchining ijodkorligi - o‘quvchi bilan birgalikda ijod qilish;

3. O‘qituvchi o‘quvchi bilan birgalikda jonli “inson materiali” asosida ijod qiladi;

4. Cheklangan vaqt;

5. Takroriylik;

6. Olingan natijalarning ikki tomonlama va nisbiyligi;

7. Ijodkorlikning har xil turlarining organik birikmasi.

Pedagogik ijodkorlikni o‘ziga xoslikdan, uzoqqa cho‘zilganlikdan, loyihalashtirishdan loyiha - amalga oshirib bo‘lmaydigan loyiha) farqlash kerak.

Proyektorlar juda ixtirochi bo‘lishi mumkin, lekin ularning g‘oyalari yolg‘on, loyihalar haqiqiy emas, ularning ilmiy asoslari yo‘q. Bunga har qanday sharoit va holatlar uchun samarali bo‘lgan universal ixtirolar, darslarni o‘tkazish usullari, usullari va shakllari kiradi. Proyektsionizm, shuningdek, har qanday g‘oya, tushuncha, nazariya yagona to‘g‘ri va maqbul deb e’lon qilingan holatlar deb ataladi.

Shu sababli, ijodkorlikka da’vat - bu anarxiya va nazoratsizlikka chaqirish, ammo eng yaxshisini ilmiy asoslangan tanlash.

Pedagogik ijod “inson ijodi” bo‘lganligi uchun u yangi boshlovchi o‘qituvchiga ham, pedagogik mahoratga ega shaxsga ham xosdir. Shunda savol tug‘iladi – pedagogik mahorat va pedagogik ijod o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

Bu savolga javob berish uchun pedagogik mahoratning mohiyatini tushunish kerak. Shu maqsadda ba’zi tushunchalarga oydinlik kiritamiz:

-o‘qituvchining umumiy madaniyati - bu umumiy jahon madaniyatini egallash darajasi. Bunga uning aqliy rivojlanish darajasi, dunyoqarashining mazmuni, bilim darajasi, mehnatga munosabati, umumiy ma’lumoti, qiziqishlari va iltimoslari doirasi, kundalik xatti-harakatlar shakllari kiradi;

-pedagogik madaniyat - pedagogika sohasida butun jahon ijobiy nazariy va amaliy tajriba;

- o‘qituvchining pedagogik madaniyati - o‘qituvchining insoniyatning jahon pedagogik tajribasini ma’lum darajada o‘zlashtirishi. U bir vaqtning o‘zida o‘qituvchining kasbiy rivojlanish darajasini va uning xatti-harakati va faoliyatiga qo‘yiladigan asosiy talablarni ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat kasbiy va shaxsiy hodisa sifatida falsafiy, mafkuraviy, intellektual, hissiy, estetik, jismoniy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Pedagogning pedagogik madaniyati ta’lim jarayonida pedagogik mahorat orqali namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchining pedagogik mahorati - bu bilim, ko‘nikma va malakalar bo‘lib, ular ma’lum shaxsiy fazilatlar bilan uyg‘unlashib, unga ta’lim-tarbiya jarayoni muammolarini yuqori professional darajada hal etish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, bu pedagogik madaniyatni amalda singdira olishdir.

Pedagogik mahorat tashqi ko‘rinishda keng ko‘lamli pedagogik muammolarni muvaffaqiyatli ijodiy hal etishda, tarbiyaviy ish maqsadlariga samarali erishishda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik mahoratning ichki tomoni o‘qituvchining bilim, ko‘nikma, kasbiy muhim fazilatlari, pedagogik mehnatga ijobiy munosabat, unga qiziqish va muhabbat, pedagogik va tashkilotchilik qobiliyati, kasb talablariga javob beradigan xarakter xususiyatlari, temperamentning namoyon bo‘lishi, o‘z ichiga oladi. aqliy jarayonlarning xususiyatlari, faoliyatga psixologik tayyorligi.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- o‘qituvchining pedagogik va insonparvarlik yo‘nalishi;

- umumiy harbiy ishlarni bilish va o‘z fanini o‘qitishda undan foydalanish;

– fan bo‘yicha kasbiy bilim, uni o‘qitish ko‘nikma va malakalari;

- ta’lim nazariyasini bilish, odamlarni tarbiyalash ko‘nikmalari;

– pedagogik masalalarni nostandart usulda yechish qobiliyati;

- yangi vazifalar bilan bog‘liq holda o‘qitish va tarbiyalashning ma’lum usullarini bajarishda o‘ziga xoslik;

- ta’lim va tarbiyaning yangi usullari, usullari, vositalarini izlash va qo‘llash;

– pedagogik tajribani yangi sharoitlarda samarali qo‘llash.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, pedagogik ijod yuqori kasbiy-pedagogik kompetentsiyaga asoslansa samarali bo‘ladi. Agar bu kompetentsiya bo‘lmasa, ta’lim jarayonida turli xil pretsedentlar mavjud. professional mukammallik ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Haqiqiy pedagogik ijodkorlik yangilikning sub’ektiv mezoniga, ijodiy faoliyat natijalariga emas, balki ob’yektivga mos keladi.

O‘qituvchining pedagogik mahorati pedagogik ijodning garovidir.

Pedagogik ijod shaxsiy va ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, pedagogik, psixologik, ilmiy) omillar ta’sirida rivojlanadi.

Shaxsiy omillarga quyidagilar kiradi:

a) motivatsiyaning mazmuni va darajasi;

b) o‘qituvchining pedagogik faoliyatning yangi, samarali shakllari va usullarini izlashga intilishi;

v) intellektual va pedagogik qobiliyatlar;

d) kasbiy bilim, malaka, malaka;

e) o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari: o‘qituvchilik kasbiga ishtiyoq; mustaqillik; tashabbus; ishlash; maqsadlilik; xushmuomalalik.

Ijtimoiy omillarga quyidagilar kiradi:

- pedagogik faoliyatda ortiqcha yuklanishdan qochish;

- o‘qituvchilarga mustaqil ishlash uchun vaqt ajratish;

- universitetda o‘qituvchi shaxsi va faoliyatiga qo‘yiladigan talablarning mazmuni va mohiyati;

- pedagogik mehnatni tashkil etish darajasi va sifati;

- o‘quvchilarning bilim olishga, o‘qituvchining ijodiy faoliyatiga munosabati;

– professor-o‘qituvchilar tarkibidagi axloqiy-psixologik muhit;

– universitet va kafedralarda uslubiy ishlarning yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi;

- pedagogik jarayonning moddiy-texnik ta’minlanishi.

Pedagogik ijodning shakllanishi va rivojlanishida bir qator ichki va tashqi qarama-qarshiliklar mavjud.

Pedagogik ijodni rivojlantirishdagi ichki qarama-qarshiliklarga quyidagilar kiradi:

a) o‘qituvchining ijodiy faoliyatga intilishi va tegishli bilim, ko‘nikma, shaxsiy fazilatlarning mavjudligi o‘rtasidagi;

b) o‘qituvchining yuksak ijodiy qobiliyatlari va pedagogik muammolarni ijodiy hal qilish uchun motivatsiyaning etishmasligi o‘rtasida;

v) o‘qituvchining ijodiy intilishlari va etarli darajada faol emasligi, o‘quvchilarning inertsiyasi o‘rtasida;

d) o‘quv faoliyatini amalga oshirishga o‘rnatilgan yondashuv va uning etarli darajada samaradorligi yoki pedagogik ishning o‘zgartirilgan shartlariga mos kelmasligi o‘rtasida.

Tashqi qarama-qarshiliklar quyidagilardan iborat:

- pedagogik faoliyatning ijodiy tomoniga qo‘yiladigan zamonaviy talablar va pedagogik jamoaning unga tayyorgarligi o‘rtasidagi;
- o‘qituvchilarning huquqlarini kengaytirish va pedagogik faoliyatni ortiqcha, ba’zan esa keraksiz tartibga solish o‘rtasida;
- pedagogik ishning ahamiyati va uni adekvat baholanmasligi, oliy o‘quv yurtlari rahbariyati tomonidan rag‘batlantirilishi o‘rtasida;
- alohida o‘qituvchilar tomonidan to‘plangan pedagogik ijod tajribasi va undan etarli darajada foydalanmaslik, o‘quv jarayoniga joriy etish o‘rtasida;

Yuqoridagilarni tahlil qilib, amin bo‘lamizki, pedagogik ijodiyotning rivojlanishiga quyidagilar yordam beradi:

1. O‘qituvchilarda ijodkorlik uchun barqaror motivatsiyani shakllantirish.

2. Pedagoglarni ijodiy mehnatga kasbiy tayyorgarligini oshirish.

3. Universitet va kafedralarda pedagogik ijod uchun maqbul sharoit yaratish.4. O‘qituvchining o‘z-o‘zini tarbiyalashi va o‘z-o‘zini tarbiyalashi.

5. O‘qituvchi va talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ishtiroki.

Ta’lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantiruvchi metodlar.



10.3 Kreativning tarkibiy asoslari, ustuvor tamoyillari.

Har qanday shaxsda bo‘lgani kabi pedagoglarda ham ijodiy-kasbiy xarakterdagi sifatlardan biri sifatida kreativlik muayyan bosqichlarda rivojlanadi. Ta’lim amaliyotini kuzatish, talabalar va malaka oshirish kursi tinglovchilarining faoliyatini o‘rganish, tashxislovchi metodlarni qo‘llash natijasida ma’lum bo‘ldiki, pedagoglarda kreativlik quyidagi to‘rt bosqichda shakllanadi va rivojlanadi.



Talabalarda kreativlik sifatlarining o‘zlashtirilishiga erishish yo‘lida pedagogik faoliyatni tashkil etishda yuqorida qayd etib o‘tilgan barcha bosqichlar birdek ahamiyatli sanaladi.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish murakkab jarayon sanaladi. Ta’lim jarayonini kuzatish, bevosita pedagogik jarayonni tashkil etish jarayonida quyidagi metodlar talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish bilan birga pedagoglarda kasbiy faoliyatni tashkil etishda namoyon bo‘luvchi ijodiy malakalarni mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shaxsda kreativlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar faqatgina ko‘ngilochar xarakterdagi topshiriq, mashq yoki vazifalardan iborat bo‘lib qolishi kerak emas. Balki, talabalarga beriladigan barcha topshiriq, mashq va vazifalar mavjud davlat ta’lim standartlarga mos kelishi, talabalarga bilim, ko‘nikma va malakalarini to‘laqonli namoyish

qila olish imkoniyatini yaratishi zarur. Mashg‘ulotlar jarayonida o‘qituvchilar talabalarni asta-sekin mas’uliyatdan ozod qilish orqali mustaqil ta’lim olishga rag‘bat bildiradigan shaxs bo‘lishlariga erisha olishlari lozim[1].

Pedagogning kreativligi rivojlantirishda uning ma’ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun pedagoglar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirish yo‘lida tizimli, izchil amaliy harakatlarni tashkil etishlari zarur.

Har bir o‘quv topshirig‘i o‘z ichiga yana bir necha kichik turdagi topshiriqlarni qamrab oladi. Ular quyidagilardir:

I. Xotirada saqlash, qayta yodga tushirishni talab etuvchi topshiriqlar:

1) xabardor bo‘lishga oid topshiriqlar;

2) alohida dalil, son, tushunchalarni yodga olishga doir topshiriqlar;

3) ta’rif, me’yor, qoidalarni yodga olishga oid topshiriqlar;

4) katta hajmdagi matn, bo‘lim, she’r, jadval va b.ni yodga olishga oid topshiriqlar.

II. Raqam va ma’lumotlar bilan ishlashda oddiy fikriy operatsiyalarni taqozo etuvchi topshiriqlar:

1)dalillar o‘lchash, tortish, hisoblash va b.)ni aniqlashga oid topshiriqlar;

2)dalillarni keltirish va ta’riflashga hisoblash, sanab o‘tish va

b.)ga doir topshiriqlar; 3)harakatlar jarayoni va usullarini tashkil etish va tavsiflashga

oid topshiriqlar;

4)ajratish va yig‘ish tahlil va sintez)ga doir topshiriqlar;

5)qiyoslash va farqlash taqqoslash va bo‘lish)ga oid topshiriqlar;

6)taqsimlash kategoriyalashtirish va tasniflash)ga doir topshiriqlar;

7)dalillar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik sabab, oqibat, maqsad, vosita, ta’sir, foydalilik, vosita, usullar)ni aniqlashga oid topshiriqlar;

8)mavhumlashtirish, aniqlashtirish va umumlashtirishga doir topshiriqlar;

9)murakkab bo‘lmagan kattalik, o‘lchamlari noma’lum bo‘lgan) misollarni yechish.

[1] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

III. Raqam va ma’lumotlar bilan ishlashda murakkab fikriy operatsiyalarni taqozo etuvchi topshiriqlar:

1) ko‘chirish biror joyga uzatish, shaklini o‘zgartirish)ga oid topshiriqlar;

2) bayon qilish sharhlash, ma’nosini tushuntirish, mohiyatini yoritish, asoslash)ga doir topshiriqlar;

3) induksiya juz’iy xususiyatga tayangan umumiy xulosa chiqarish) ga oid topshiriqlar;

4) deduksiya umumiy holatga ko‘ra xususiy xulosalar chiqarishga) doir topshiriqlar);

5) isbotlash dalillashtirish) va tekshirishga oid topshiriqlar;

6) baholashga doir topshiriqlar.

IV. Ma’lumotlarni e’lon qilishga oid topshiriqlar:

1) umumlashtiruvchi qisqacha ma’lumot, qoralama, mazmun va b.ni ishlab chiqishga doir topshiriqlar;

2) hisobot, ma’lum muammoga bag‘ishlangan ilmiy asar, ma’ruzalarni tayyorlashga oid topshiriqlar;

3) mustaqil ravishda yozma ishlar, chizmalar, loyihalar va b.ni bajarishga doir topshiriqlar.

V. Ijodiy fikrlashni talab etuvchi topshiriqlar:

1) amaliy takliflarni ishlab chiqarishga doir topshiriqlar;

2) muammoli masala va vaziyatlarni hal qilishga oid topshiriqlar;

3) savollarni qo‘yish va masala yoki topshiriqlarni ifodalashga doir topshiriqlar;

4) shaxsiy kuzatishlarga asoslangan holda yechimni topishga oid topshiriqlar;

5) shaxsiy mulohazaga asoslangan holda yechimni topishga doir ratsional yechimga asoslangan) topshiriqlar. Anglanganidek, pedagoglar ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quv materiallarining xarakteridan kelib chiqqan holda yuqorida qayd etilgan topshiriqlardan ikki va undan ortig‘ini tanlash imkoniyatiga ega. Bir mashg‘ulotda talabalarni bir necha turdagi topshiriqlar bilan ishlashga jalb etish talabalarda o‘quv faoliyatiga nisbatan qiziqishni oshiradi va o‘quv-bilish faoliyatini kuchaytiradi.

5. O‘quv topshiriqlari uchun ish qog‘ozlarini tayyorlash. Ish qog‘ozlari asosida o‘quv topshiriqlarining bajarilishi mazkur jarayonni tezlashtirish, talabalar faoliyatini osonlashtirish va eng muhimi, mumkin qadar vaqtni tejash imkonini yaratadi. Shu tufayli yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribasida o‘quv topshiriqlari bilan ishlash jarayoni uchun ish

qog‘ozlarini shakllantirish va ularni mashg‘ulotlar uchun tayyorlashga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbekistonda ham mustaqillik yillarida ta’limni tashkil etishga innovatsion yondashish natijasida uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida deyarli har bir dars, o‘quv mashg‘ulotida talaba va talabalarning amaliy faoliyatini ish qog‘ozlari vositasida tashkil etish an’anasi bir qadar shakllandi. Ayni vaqtda bu boradagi tajribani yanada boyitishga nisbatan ehtiyoj mavjud. Shu sababli OTM pedagoglarida ish qog‘ozlarini shakllantirish borasidagi ko‘nikma, malakalarini ivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, o‘quv mashg‘ulotlarida bajariladigan topshiriqlar uchun ish qog‘ozlarining tayyorlanishi pedagoglarda kreativlik qobiliyatini yanaa rivojlanishiga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llashda grafik organayzerlarning grafikli tavirlaridan ish qog‘ozlari sifatida foydalanish mumkin.

6. Kreativ yondashuv asosida o‘quv fanlari bo‘yicha nazorat- sinov topshiriqlarini tayyorlash, keys va darajali testlar to‘plamini shakllantirish. Zamonaviy ta’limda talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, tayyor bilimlarni o‘zlashtirish garchi talabalarning borliqni anglashlarii, ijtimoiy munosabatlar mazmunini, u yoki bu ko‘rinishdagi kishilik faoliyati mohiyatini tushunishlariga yordam beradi. Biroq, borliq va ijtimoiy munosabatlarning mavjud holatini ifoalovchi hodisa, voqelik, jarayonning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro birlik, aloqadorlikni tushunish, sabab-oqibatlarini tahlil qilish, faoliyat mazmuni, yo‘nalishi va eng muhimi, natijasini kafolatlovchi omillarni tahlil qilish malakalarini samarali rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Shu kabi salbiy holatning olini olishda talabalarni “muammo vaziyatlar”ga ro‘para qilish metodik jihatdan samarali sanaladi.

Muammoli vaziyatlarning didaktik imkoniyatlari talabalarni o‘rganilayotgan masala mavzu, muammo) yuzasidan fikrlash, masala mohiyatini yorituvchi tarkibiy elementlar o‘rtasidagi o‘zaro birlik va

aloqadorlikni anglash, “muammo-muammoni hal qilish jarayoni-yechim” tizimi asosida masalani tahlil qilish, yechim borasida farazlarni ilgari surish, ularning maqbulligini tekshirish, yechimni bayon etish va uni himoya qilish kabi amaliy harakatlarni tashkil etishga majbur qiladi.

Qolaversa, muammoli vaziyatlar yordamida talabalar o‘z bilimlarini mustaqil tahlil qilish, o‘quv-bilish faoliyatiga tanqiliy yondashish, o‘rganilayotgan masala mavzu, muammo) yuzasidan ijodiy fikrlarni ilgari

surish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladiki, xuddi shu holat jamiyat tomonidan ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning to‘laqonli bajarilishini ta’minlaydi. Ya’ni, muammoli o‘qitish, uni o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar respublika uzluksiz

ta’lim tizimi tomonidan o‘z oldiga qo‘yilgan har tomonlama aqliy, axloqiy, jismoniy, hissiy jihatdan) rivojlangan barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashdan iborat ijtimoiy buyurtmaning bajarilishini ta’minlovchi zarur pedagogik shart-sharoitni vujudga keltiradi. Shu sababli bugungi kunda ta’lim tizimida muammoli ta’limdan foydalanish, muammoli ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida umumiy va mutaxassislik fanlarini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyalari orasida muhim o‘rin egallagan “Keys-stadi” texnologiyasini qo‘llash tajribasi shakllanmoqda.

Shunday qilib, malaka oshirish kurslarida “Kreativ pedagogika” moduli fani)ni o‘qitish pedagoglarda ularga xos kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagoglarda kreativlik sifatlari, ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida amerikali tadqiqotchi Patti Drepeau tomonidan taklif qilingan yo‘llarda foydalanish kutilgan natijalarni qo‘lga kiritishga yordam beradi. Qolaversa, pedagoglarda kreativlik sifatlarini shakllantirisha ustuvor tamoyillar asosida ish ko‘rish aniq maqsaga yo‘naltirilgan faoliyat samaradorligini kafolatlaydi. Malaka oshirish kurslaridaa maliy mashg‘ulotlar jarayonida pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko‘rsatichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash mumkin bo‘ladi.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar va topshiriqlar.

1. Kreativ pedagogika haqida ma’lumot bering.
2. Kreativlikning shakllanish bosqichlari haqida gapirib bering.
3. Pedagogik kreativlik mezonlari nimalardan iborat?
4. Talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish yo’llarini aytib bering.
5. Kreativning tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari qaysilar?
6. Bolalarda kreativlikni shakllantirishga qaysi talablar mavjud?
7. Kreativlikka to’sqinlik qiluvchi omillarni aytib bering.
8. Qaysi metodlar orqali ta’lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish mumkin?

11-MAVZU: HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING TASNIFI.

Tayanch tushunchalar: hamkorlik, hamkorlik pedagogikasi, hamkorlikda o‘qitish, mashg‘ulot turlari, innovator-pedagoglar, pedagog-jurnalistlar.

11.1 Hamkorlik pedagogikasida mashg‘ulotlarni tashkil etish yo‘llari.

Hamkorlik pedagogikasi- bu pedagogikaning insonparvarlik yo‘nalishi bo‘lib, unda boshqa toifalarga nisbatan asosiy tushunchalar "hamkorlik" toifasi bo‘lib, u ta’lim-tarbiya tizimida shakllanadigan pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, ayni paytda o‘quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini birlashtiradigan omil bo‘lib, har birini ta’lim, tarbiya va taraqqiyotda sub’yektiv pozitsiyaga aylantiradi.

Hamkorlik pedagogikasi Rossiyada XX-asrning 80-larida keng qamrovli pedagogik jarayon bo‘lib, ta’lim sohasida ko‘plab innovatsion g‘oyalarni hayotga olib keldi. Hamkorlik pedagogikasi g‘oyalari bir guruh pedagog-jurnalistlar va innovator-pedagoglar tomonidan birinchi navbat Solovychikom Simon Lvovich 1930 – 1996) va Matveev Vladimir Mixaylovich 1932 – 1989), va I.P Ivanov, V.F Shatalov, I.P Volkov, Sh. A. Amonashvili, V. A. Karakovskiy, S. N. Lysenkova, B. P. va L. A. Nikitinym va boshqalar.

Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin 1990), Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson 1987), Koliforniya universiteti professori – Sh.Sharon 1988), tomonidan ishlab ishlab chiqilgan.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o‘qitish, asosan o‘quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o‘qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko‘proq o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini qayta ishlash, loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o‘quv bahsi va munozaralar o‘tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g‘oyalar bir-birini to‘ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi didaktikada 1970-yillarda paydo bo‘lgan. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta`lim muassasalarida keng qo‘llanila boshlagan.

Ular texnologiya-hamkorlik pedagogikasi deb nomlangan. Umumiy tajribada hamkorlik pedagogikasida sovet maktabining eng yaxshi an’analari N. K. Krupskaya, S. T. Shatskiy, A. S. Makarenko, V. A. Suxomlinskiy), rus yutuqlari birlashtirish psixologik va pedagogiklardan rus olimlaridan K. D. Ushinskiy, N. P. Pirogov, L. Tolstoy va xorijlik olimlardan J.-J. Russo, J. Korchak, K. Rogers, E. Bernlar o‘rganishgan.

Hamkorlik pedagogikasi bolaning shaxsiga, kollektivistik ta’limga, yuksak professionallikka chuqur tushuncha va insoniy yondashishga asoslangan o‘qituvchilar va maktabga jamoatchilik e’tibor.

Bugungi o‘zgarishlar davrida jamiyatimiz hayotida murakkab, lekin davr taqozo qilgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatda, iqtisodiyotda, umuman, hayotimizning barcha jabhalaridagi bunday olamshumul o‘zgarishlarning amalga oshirilishi o‘zimizning ham o‘zgarishimizni, ya’ni o‘zligimizni anglashni talab qiladi. Bu masala oldimizga qo‘yilgan vazifalarning eng murakkabi desak, adashmaymiz.

Davr taqozo qilayotgan bunday vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarish uchun yosh avlod oldida – yangi bilimlarni egallash va uni amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, bu bilimlarning eng muhim tarkibiy qismi – boshqarish san’ati va fani ekanligini bildirmoqda.

Ta’kidlash joizki, boshqarishning zamonaviy nazariyalari hayotning barcha muammolariga tayyor yechimlar topib bera olmaydi. Shuning uchun tadqiqotimizda rivojlangan G‘arb va Sharq mamlakatlari yutuqlari bilan hayratlanish davri o‘tib ketganligini, urushlar, turg‘unlik va inqirozlarni boshidan kechirgan bu mamlakatlarning olamshumul muvaffaqiyatga erishganligini, ularning tajribasini jiddiy o‘rganish hamda yechimini izlashga tanqidiy va konstruktiv yondashish davri kelganligini ko‘rish mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish kabi maqsadlardan iborat bo‘lgan o‘z taraqqiyot yo‘lini aniq belgilab oldi. Shu yo‘lda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar markazida, avvalo, inson omili, uning manfaatlari ustuvor o‘rin tutadi. Jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash haqida g‘amxo‘rlik qilish ushbu siyosatning muhim yo‘nalishidir.

Hayotga izchil tatbiq etilayotgan, o‘z taraqqiyot yo‘limiz – “o‘zbek modeli”ning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun

bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalardagi rivojlanishni ta’minlayotgan amaliy dastur sifatida yaqqol namoyon bo‘lib, dunyoning rivojlangan davlatlari hamda xalqaro ekspertlar tomonidan sifatida e’tirof etilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashining yig‘ilishi bilan tasdiqlangan “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi konsepsiyasi”, aytish joizki, o‘quv-tarbiya jarayoniga hamkorlik pedagogikasini joriy etish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Hamkorlik pedagogikasi konsepsiyasining eng asosiy maqsadi – har bir bolaning hayotda o‘z o‘rnini topib, o‘z baxti uchun zamin yaratishiga, el-yurt oldidagi mas’uliyatini seza oladigan, vatanparvar bo‘lishiga qaratilgan.

Ta’lim-tarbiya jarayonining sifati, eng avvalo, quyidagi bir qator muhim omillarga bog‘liq:

– o‘qituvchilarning zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, ilg‘or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishi;

– o‘quvchilarda zarur bilimlar va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan hamda bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvini samarali joriy etilishi;

– ta’lim-tarbiya jarayonini hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilishi;

– o‘qituvchining pedagogik ehtiyojiga asoslangan metodik xizmatning samarali yo‘lga qo‘yilganligi;

– o‘quvchilar tomonidan davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatish, o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlar va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish va h.k.

Eng avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi, zamonaviy talablarga javob beradigan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish ko‘p jihatdan barcha maktablarimizda zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, barkamol avlodni tarbiyalashda oila,

mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy etilishiga bog‘liq.

Shu bilan birga, o‘tgan davr mobaynida kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladigan bir qator jiddiy muammolar yuzaga keldi.

Jumladan, hamkorlik pedagogikasining metod, vositalari va texnologiyalari ilmiy-metodik jihatdan asoslanmagan. Bu pedagogik amaliyotda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida o‘zining salbiy jihatini ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimiga yangicha yondashuvlar ta’sirida ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishning muhim belgisi sifatida – uni boshqarishga texnologik yondashuv muammosi tadqiq etilmoqda. Shuningdek, ta’lim menejmenti nazariyasi va amaliyoti ta’lim muassasasini ilmiy-metodik asosda boshqarish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning o‘ziga xosligi shundan iboratki, jamiyatimiz tomonidan har bir shaxsning rivojlanishi uchun yangidan-yangi talablar qo‘yilmoqda. Shu bois pedagogik jamoatchilikning asosiy e’tibori pedagogik jarayonlarni unda ishtirok etadigan barcha ijtimoiy institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda hamkorlik pedagogikasi muammosining dolzarbligiga quyidagilar asos bo‘lmoqda:

Birinchidan, jamiyatda ijtimoiy va pedagogik jarayonlar amalga oshirilayotganligi munosabatlarning insonparvarlashuvi va demokratlashuvi, inson faktori rolining kuchayayotganligi, innovatsion jarayonlar asosida ta’lim-tarbiya sifatining oshayotganligi, butun xalqning ta’limga, maktabga uning muammolariga e’tiborining oshayotganligi va h.k.);

Ikkinchidan, umumiy, ommaviy pedagogik amaliyotning holati ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarga yetarli darajada pedagogik qo‘llab-quvvatlashning berilmayotganligi, ularning o‘quv-tarbiya jarayonidan qoniqmayotganliklari, ta’lim beruvchilar tomonidan ta’lim oluvchilarga munosabatlarni o‘zgartirish zarurligini tushunmasliklari, bilmasliklari va ayrim hollarda xohlamasliklari va h.k.);

Uchinchidan, pedagog – amaliyotchilarning innovatsiyalarga intilishlari bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya berishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish va h.k.).

Ko‘pgina ilmiy-tadqiqot ishlarida “hamkorlik”, “sherikchilik”, “muvofiqlashish”, “birgalikdagi harakat” tushunchalari sinonimlar sifatida ishlatib kelingan. Bizning fikrimizcha, “hamkorlik” tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi harakat deb qabul qilinishi mumkin.

Hamkorlik-o‘quv jarayonning ob’ektlari va sub’ektlari umumiy birlashadigan ta’lim va tarbiya jarayonining darajasi hamkorlik munosabatlari, o‘zaro hurmat, o‘zaro yordam, kollektivizm faoliyati.

Hamkorlik pedagogikasi yuzlab maqolalar va kitoblar bilan "tarqalib ketgan", uning g‘oyalari deyarli barcha zamonaviy pedagogik texnologiyalarga kiritilgan bo‘lib, bugungi ta’limning zamonaviy tushunchalarining asosi hisoblanadi. Shuning uchun hamkorlik pedagogikasi yangi pedagogik fikrlashning timsoli, ilg‘or g‘oyalar manbai bo‘lgan va ko‘plab zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bir qismi bo‘lgan "penetratsion" texnologiyaning alohida turi sifatida qaralishi kerak qismi.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – o‘quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o‘qish o‘rganishdir.

[1]Костина Н. А. Тьютор как сопровождающий профессиональное развитие педагогов [Текст]/ Н. А. Костина. - Сибирский учитель. – 2006. – № 1.
[2]Ковалева, Т.М. Введение в тьюторство [Электронный ресурс]/ http://www.mioo.ru/

oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli farmoni mazmun*mohiyatini, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli "Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalami turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" qarori mohiyatini, 2021-yil 9-sentabrdagi 563-son qarorlarida belgilangan vazifalami amalga oshirish tartibi va yo‘nalishlarini belgilab berish maqsadida qabul qilingan qarorini, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 30-sentyabr kuni 412-sonli tyutorlik lavozimini joriy etish maqsadidda buyruq mazmun mohiyatini o‘rganishlari hamda mazkur Nizom orqali kelajakda davlat oliy ta’lim muassasalari talabalar bilan ishlashning yangi tizimi - tyutorlik faoliyatini tashkil etish hamda tyutorlikning maqsad va vazifalarini, huquq va majburiyatlarini belgilab berish, yuksak axloqiy fazllatlarga ega bo‘lgan xodim bo‘lib, o.ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta’lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo,sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko‘maklashadi, ularni insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to‘garak va klublarga jalb etish, ta’lim olish jarayonida ytzaga keladigan barcha masala va muammoni o‘rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyat bilan shug‘ullanish borasida imkoniyat beradi[1].

Tyutor talabalar turar joylarida, ijaradagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalaming yashash manzillariga muntazam borib, u yerda yaratilgan sharoitlar va talabalarning muammolarini o‘rganib borish va ulami yaxshilash choralarini ko‘rish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Tyutor o‘z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, oliy ta’lim muassasasi ichki tartib va odob-axloq qoidalariga amal qiladi.

Tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadlari ta’lim va tarbiya jarayoni samarali tashkil etish, oliy ta’lim muassasasi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, talabalarga ijtimoiy-ma’naviy va psixologik yordam ko‘rsatish, ta’lim olishda ve kelajakdagi faoliyatida to‘g‘ri qaror qabul qilish, kasbiga muhabbatni oshirish, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilish, talabalar darsga kelib-ketishini nazorat qilish, oila va mahallalar bilan doimiy hamkorlikni ta’minlash, talabalarning dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishini tahlil qilish va darsdan

[1] Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 30-sentyabr kuni 412-sonli tyutorlik lavozimini joriy etish maqsadidda qabul qilingan buyruq’dan

bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlarini ta’minlash, ulaming ijtimoiy oilaviy) ahvolidan birdek xabardor bo‘lish kabi maqsadlari mavjud bo‘lib ushbu maqsadlarni bajarishda quyidagi vazifalarni amalga oshirib borishlari lozim.

Ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy-tarbiya sohasida muntazam ravishda talabalarning ota-onasi bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish, ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, majburiyati, mas’uliyati va farzandlar bilan o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko‘maklashish, ularning ta’lim tizimidagi islohotlar haqida ma’ lumotga ega bo‘ lishlarini ta’minlash, ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya sifatini o‘rganish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish; qonunchilik talablaridan kelib chiqib ta’lim muassasasiga yaqin hududlarda alkogolli va tamaki mahsulotlari sotilishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ta’lim muassasasi rahbariyatiga takliflar kiritish, oila, mahalla, ta’lim muassasasi hamkorligini yanada kuchaytirishga doir uslubiy asoslarni yaratish, “Birinchi kurs maktabi" tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etishda faol ishtirok etish ishlarida faol ishtirok etmog‘ kabi vazifalarni amalga oshiradilar.

Ta’lim muassasasining odob-axloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi siyosati), ta’lim muassasasining ichki mehnat tartibi qoidalari hamda boshqa lokal hujjatlar bilan o‘ziga biriktirilgan talabalarni tanishtirish; psixolog bilan birgalikda talabalaming ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish; talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar va milliy qonunchiligimizga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash; talabalami boy tarixiy, milliy va diniy an’analarimizga yot bo‘lgan illatlar, ya’ni terrorizm, separatizm, prozelitizrt, diniy aqidaparastlik, missionerlik, “ommaviy madaniyat", narkomaniya, uyushgan jinoyatchilik va boshqa illatlarga murosasizlik hamda ularga qarshi kurash ruhida tarbiyalash; talabalaming qonuniy manfaatini himoya qilish, yaratilayotgan sharoitlardan foydalanish imkoniyatini yetkazish, ulaming muammolarini bartaraf etishda bayonnomalarni shakllantirib, amaliy yordam ko‘rsatish hamda o‘qishi, ilm-fan bilan shug‘ullanishi, yashashi va dam olishi uchun tegishli choralami ko‘rib borish; talabalami darsdan bo‘sh vaqtlarda besh muhim tashabbus doirasidagi klub, to‘garak va tanlovlarga jalb qilish, ularning ta’lim muassasasi hayotidagi ijtimoiysiyosiy va madaniy tadbirlardagi ishtirokini ta’minlash; nogironligi bo‘lgan, yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va kam ta,minlangan talabalxga alohida g‘amxo‘rlik qilish, ularga tegishli tartibda ijtimoiy, ma’naviy va psixologik yordam berish choralarini ko‘rish; iste,dodli va iqtidorli talabalami

aniqlash va ulami Respublika va xalqaro tanlovlarga maqsadli tayyorlash, iqtidorli talabalami O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomdor davlat stipendiyalariga tavsiya etish; o‘zlashtirish ko‘rsatgichi past hamda tarbiyasi og‘ir talabalar bilan tizimli ishlarni olib borish; shuningdek, talabalar turar joylarida, ijaradagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam borib u yerda yaratilgan sharoitlarni o‘rganib borish va ulami yaxshilash bo‘yicha mutasaddilarga taklif kiritish, talaba tomonidan odob-axloq qoidalari va boshqa qoidalar buzilganda unga nisbatan chora ko‘rish to‘g‘risida ta’lim muassasasi va fakultet rahbariyatiga taklif kiritish, ta’lim muassasasi, shahar va Respublika doirasida tashkil etiladigan tadbirlarga talabalarni tartib va intizom, uyushqoqlik bilan olib kelish va ishtiroklarini ta’minlash; talabaning axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlarini va u haqidagi shaxsiy ma’lumotlami yorituvchi yig‘ma jild hamda "Axborot va murabbiylik soati" darsi va ish rejasidagi turli xil tadbirlami qayd qilish jurnalini elektron tutish va yuritib borishni ta’minlashlari kerak bo‘ladi.

O‘quv tarbiyaviy ishlar jarayonida talabalarning darslarga qatnashishlari bo‘yicha kunlik davomatini yuritib borish, ular tomonidan sababsiz qoldirilgan dars mashg‘ulotlari yuzasidan tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha fakultet dekanatiga bildirgi kiritib boorish, talabalaming darslami o‘zlashtirish darajalarini nazotat qilib borish, innovatsion ta’lim texnologiyalari va o‘quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta’minlashga hamda ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishga ko‘maklashish, talaba haqida fakultet dekanatiga tushayotgan ma’lumot asosida guruh sardori bilan birgalikda professor-o‘qituvchilar bilan suhbatlashish, o‘zlashtirishi past talabaga yordamlashib, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan talabani unga biriktirish, qo‘shimcha darslar va maslahatlar tashkil etish, fanlar bo‘yicha akademik qarzdorliklarni belgilangan muddatda topshirishini nazorat qilish kabi vazifalarni amalga oshirmoqlari, Ilm-fan, innovatsiya va tadqiqotlar sohasida esa iste’dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ulami maqsadli tayyorlash hamda ilmiy to‘garaklar, innovatsion startaplarga va klublarga jalb etish, talabalarni turli ilmiy tadbirlar, konferensiyalar, seminarlar, Respublika va xalqaro miqyosdagi olimpiadalar va forumlarda ishtirok etishlarini uyushtirish, talabalarning xalqaro grantlar va loyihalarda qatnashishlariga ko‘mak berish va rag‘batlantirish, ilm-fan hamda tadqiqotlarda faol ishtirok etayotgan talabalarni ta’lim muassasasi rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan rag‘batlantirilishini tashkil etish, talabalarga ilmiy maqolalar yozishda maslahatlar berish va chop etishda yordam ko‘rsatish, ulami

kelgusida ilmiy faoliyat olib borishlariga yaqindan yordam berish kabilarni bajarishlari ta’lab etiladi bu borada talabalarimiz albatta kelajakda tyutorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lishsa tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish borasida ko‘proq ishlari talab etiladi.

Tyutorlarning huquq va majburiyatlari.

Tyutorlarning huquqlari:

- o‘ziga biriktirilgan talabalaming darslarini, talaba davomati va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish;
- TTJga joylashishlari uchun talabalarga e’lon berish va ular tomonidan tegishli hujjatlami yig‘ib taqdim etish hamda tashkil etiladigan komissiya yig‘ ilishida talabalaming ishtirokini ta’minlash;
- talabaning talabalar turar joyidan chiqarilishiga rozilik berish, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha takliflar kiritish;
- o‘quv-tarbiyaviy sohalardagi muammolarini bartaraf etish bo‘yicha fakultet dekanati bilan hamkorlikda ishlash,madaniy-ma’rifiy tadbirlar va sport musobaqalarini o‘tkazishda dekanat, rektorat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;
- talabaga tavsifiroma va akademik ta’til berish masalasini hal etishda ishtirok etish, talaba haqidagi fakultetda mavjud ma’lumotlardan to‘la foydalanish, talabaning darslariga qatnashishi, o‘zlashtirish va ijtimoiy hayotidagi roliga oid takliflarni fakultet dekanatiga kiritish, talabaning rag‘batlantirilishi yoki jazolanishi va maxsus stipendiyalarga loyiqligi bo‘yicha xulosa berish;
- Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti, Kasaba uyushmasi va Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi bilan birgalikdatalaba bilimini odilona baholashni nazorat qilish,
- Tyutor qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Tyutorlar quyidagi majburiyatlarni bajaradilar:

- talabalaming ma’naviy, axloqiy va kasbiy tarbiyasi bilan muntazam shug‘ullanish;
- o‘z mahorati, kasbiy tayyorgarligi, nazatiy bilim va ish tajribasini doimiy ravishda oshirib borish;
- talabalaming sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilish;
- ta’lim muassasasida professor-o‘qituvchilar tomonidan talabaning obro‘-e’tibori va nufuziga dog‘ tushirishning oldini olish;

- talabalaming psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslami o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e’tibor qaratish;

- tyutorlik guruhlaridagi talabalarning ma’lumotlar bazasini yaratish va fakultetga taqdim etish;

- talabalar haqidagi shaxsiy ma’lumotlami ulaming roziligisiz oshkor qilmaslik;

- tyutorlik guruhidagi talabalar turar joyi, liaru, yaqin qarindoshi va o‘z uyida istiqomat qiluvchi talabalaming yashash sharoitidan doimiy xabardor bo‘lish;

- talabalaming to‘garak va klublarga a’zoligini maksimal darajada ta’minlash va ulaming ushbu to,garaklar faoliyatidagi ishtiroki monitoringini yuritish;

- o‘ziga biriktirilgan akademik guruhlardagi talabalar bilan muntazam guruhlarda va yakka tartibda) suhbatlar o‘tkazib borish;

- talabalar va ulaming ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini oliy ta’lim muassasasi ustavi, ichki tartib, odob-axloq hamda TTJdan foydalanish qoidalari va ta’lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar bilan tanishtirishi;

- akademik guruhlarda dars jadvali asosida har haftada bir marta "Axborot va murabbilik soati", "Soft skills" treninglari o‘tilishini tashkil etish hamda uning samaradorligini ta’minlash ;

- talabalar bilan bog‘liq favqulodda muammoli vaziyatlar yuzasidan zudlik bilan fakultet dekaniga axborot berish;

- talabalar o‘rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik va diniy ekstremizmning oldini olish bo‘yicha soha mutaxassislari ishtirokida muntazam tushuntirish ishlarini olib borish;

- alkogol, tamaki va psixotrop vositalar iste’mol qilishning zararli oqibatlari xususida doimiy profilaktik ishlami tashkil etish;

- moddiy yordamga muhtoj talabalami aniqlash, ulami ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha fakultet dekaniga taklif kiritish;

Tyutor o‘z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, oliy ta’lim muassasasi ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizomga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajaradi.

Oliy ta’limda tyutorlik bilan birgalikda zamonaviy ta’limga fasilitatorlik faoliyati ham kirib kelmoqda. Fasilitator o‘qituvchi singari guruh oldida to‘rgan va ma’ruza o‘qiygan kishi emas, o‘quv jarayonining faol va ob’yektiv ishtirokchisi, fasilitatorning roli- muayyan bir guruh

odamlarni o‘zlarining umumiy maqsadlarini amalga oshirishda har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishishda ularga yordam berishdir. "fasilitatsiya" atamasi inglizcha “fasilitati” so‘zidan olingan bo‘lib, qulay muhit yaratish, yordam berish, targ‘ib qilish, yaratish kabi ma’nolarni anglatadi. Fasilitator faoliyatida ham ijtimoiy va pedagogik salohiyat mavjud bo‘lib, shaxsning faoliyati samaradorligi va uning amalga oshirilishi natijasida shaxsning tezligi yoki samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchi-fasilitator -bu o‘qituvchi, uning faoliyati ta’limdagi shaxsiy-yo‘naltirilgan yondashuv doirasida amalga oshiriladi va ochiqlik bilan tavsiflanadi, o‘quvchilarning his-tuyg‘ulari, his-tuyg‘ulari, tajribalari, muvaffaqiyat va qadr-qimmatlari uchun ularni rag‘batlantirish, ularning qobiliyatlari va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonch munosabati, ularning faoliyati va harakatlarining empatik ko‘rinishi[1].

Fasilitatorlik -bu o‘ziga xos boshqaruv uslubi bo‘lib, unda menejment o‘zini o‘zi boshqarish tizimining o‘z-o‘zini tashkil etish doirasidan tashqariga chiqmagan holda, boshqaruv va pedagogik jarayonni tashkil etish tizimini yaratishni nazarda tutadi. Qisqacha aytganda, jismoniy tarbiya jarayoni ham, harakatlarning usuli ham, yuqori sifatli va samarali guruhlararo hamkorlikni amalga oshiradigan vositachi bo‘lib, guruh hamkorligi va birgalikdagi faoliyat tashkil etishga xizmat qiladi.

Pedagogik fasilitator ta’lim ta’lim, tarbiya) samaradorligini oshirish va sub’ektlarning rivojlanishini anglatadi, maxsus muloqot uslubi va o‘qituvchining shaxsiyati tufayli kasbiy-pedagogik jarayoni nazorat qiladi[2]. Fasilitator bu bir maqsad doirasida birlashgan guruh faoliyatini rejalashtiradi va boshqaradi, shuningdek, guruh maqsadlariga samarali erishish, har bir ishtirokchi nima qilayotganini aniq tushuntish, guruh a’zolarini muhokamaga yaxshi jalb qilish, o‘z imkoniyatlaridan maksimal foydalanish kabi faoliyatni bajarilishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talabalarni tyutorlik va fasilitarolik faoliyatiga tayyorlashdan maqsad, nafaqat oliy ta’lim muassasasilarida, balki talimning barcha bosqichlarida ta’lim va tarbiya jarayoni samarali tashkil etish, munosabatlarni tartibga solish, tarbiyalanuvchilarga ijtimoiy-ma’naviy va psixologik juhatdan yordam ko‘rsatish, o‘z faoliyatlarida to‘g‘ri qaror qabul qilish, kasbiga muhabbatli bo‘lish, bir maqsad doirasida birlashgan guruh faoliyatini chiroyli loyihalab, guruh maqsadiga samarali

[1] https://spravochnick.ru/pedagogika/uchitel-fasilitator/

[2] Зеер, Э. Ф. Личностно-ориентированное профессиональное образование [Текст] / Э. Ф. Зеер, Г. М. Романцев // Педагогика. – 2002. – № 3. – С. 16–21.

erishishi uchun vazifalarini aniq tushunishlari, muhokamalarda faol bo‘lishlari, o‘z imkoniyatlaridan maksimal foydalanish, yetarli bilim, malaka, ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim.

Mavsuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Hamkorlik pedagogikasi nima?
2. Hamkorlik pedagogikasi shakllanish tarixi haqida ma’lumot bering.
3. Bugungi kun ta’limi tizimida hamkorlikda o‘qitishning shart-sharoitlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Talabalarni komunikativ qobiyatlarini rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?
5. Muloqot va uning tarkibi, turlari haqida krossvord tuzing.
6. Tyutorlik va fasilitatorlik faoliyati qiyosiy tahlil qiling?
7. Venn diagrammasida tyutorlik va fasilitatorlik faoliyatini izohlang?

12- MAVZU: PEDAGOGLIK, TYUTORLIK, FASILILATORLIK QOBILIYATILARI ASOSIDA LOYIHAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

Tayanch tushunchalar: Pedagogik faoliyat, loyiha, pedagogik loyihalash, mohiyat, induvidual ishlar, tutor, loyiha turlari, guruhiy loyiha, fasilitatorlik.

12.1 Pedagogik faoliyatni loyihalash va uning mohiyati

Ta’lim-tarbiya umumiy tizimining pedagogni shaxsiy-kasbiy shakllantirish tomon yo‘nalganligi keyingi yillarda talabalarni pedagogik oliy o‘quv yurtlari sharoitida tayyorlash tarkibi, mazmuni va texnologiyalarida jiddiy o‘zgarishlar vujudga kelishiga olib keldi. Pedagogik ta’limning insonparvarlashtirish, tabaqalashtirish va xalqchillashtirish uzluksiz ta’lim tizimini nisbatan tez moslashuvchan, o‘zgaruvchan, ochiq qildi. Natijada talaba-o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan ta’lim olish yo‘llarini tanlashga aniq zamin vujudga keldi, bu esa ularning shaxsiy - kasbiy ehtiyojlari va intilishlariga ancha to‘liq javob bera oladi.

Ta’limni insonparvarlashtirish dastavval shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasiga asoslanadi, bu esa savodxonlik pedagogikasidan rivojlantirish pedagogikasiga o‘tishda namoyon bo‘ladi. Farzandlarimizni nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratish o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan. Demak, ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasiga daxldorligi uning asosiy holatlarini aniqlashtirishni talab qiladi.

Hozirgi kunda o‘qituvchi nafaqat axborot beruvchi, bilim manbai, o‘quv jarayonida mutaxassis ma’ruzachi) rolini bajarishi kerak. A. Shusherina, E. V. Gritskevich ta’kidlashicha, oliy ta’lim o‘qituvchisi tarbiyaviy faoliyatining mazmunini kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalar shakllanishining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratish ilmiy-amaliy vazifasidir. "O‘qituvchi-tarbiyachi professional pedagogik faoliyatga tayyorgarlik jarayonida talaba o‘rnida tayyorlanishi kerak" A.A.Verbitskiy)[1] [20, p. 40].

[1] Вербицкий, А. А. Гуманизация и компетентность: контексты интеграции[Текст] / А. А. Вербицкий, О. Г. Ларионова. – М.: МГПОУ, 2006. – 172 с

O‘qituvchilik tushunchlari qatorida bugungi kunda fasilitator, tuyurorlik kabi yang tushunchlar kirib kelmoqdaki, bu soha mutaxasislari oliy ta’lim tizimini lohiyalash va rejalashda muhim rol o‘ynaydigan mutaxasislar sanaladi. Jahon ta’lim tizimida fasilitator va tuyutorlar oliy ta’lim tizimida boshqaruvning quyi bosqichidagi mutaxasislar hisoblanishadi. Atamaning lug‘aviy mazmuniga to‘xtaladigan bo‘lsak. Fasilitator inglizcha so‘z bo‘lib, bir guruh talabalarga birgalikda yaxshi ishlashga, umumiy maqsadlarini tushunishga va ushbu maqsadlarga qanday erishishni rejalashtirishga yordam beradigan shaxs.

Tyutor-norasmiy pedagogik lavozim, sinonimlari o‘qituvchi, xususiy o‘qituvchi) biror mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni yetkazish maqsadida talaba yoki bir nechta talaba bilan har kuni, haftalik yoki oylik qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazadigan o‘qituvchi. Tyutorlik turli joylarda bo‘lishi mumkin: sinf xonasi, repetitor markazi yoki talaba uyi yoki masofadan turib boshqaruvchi tyutorlar bor. O‘qitish usuli sifatida-ta’lim repetitorlik) ta’lim muassasalarida rasmiy darslardan farq qiladi, chunki u ko‘proq norasmiy sharoitda amalga oshiriladi, shuningdek darslarning davomiyligi, o‘qitish tezligi va o‘qituvchi bilan bo‘lgan munosabatlar nuqtai nazaridan pedagogik usullarning moslashuvchanligi bilan farqlanadi.

Tyutorlik haqida gapirar ekanmiz, “Tyutorlik” repetitorlik) qadimgi Yunonistonda ta’lim yordamining norasmiy va tuzilmasiz usuli sifatida boshlandi. Repetitorlar teutors) aniqlanmagan mehnat sharoitlarida improvised asosda ishladi; o‘qituvchining asosiy maqsadi ma’lum bir sohada malakaga ega bo‘lishga yordam berish uchun o‘quvchiga bilimlarni yetkazish[1] bilan shug‘ullangan shaxslarga nisbatan aytilgan.

Fasilitatorlik va tutor bilan shug‘ullanmoq uchun avvallo kamida bakalavr diplomiga ega shaxslar albatta pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanmog‘i darkor.

Pedagogik faoliyatni loyihalash haqida to‘xtalar ekanmiz, har bir pedagog o‘z faoliyatini loyihalay olishi lozim. Avvalo pedagogik faoliyat o‘zi nima? U qanday shakllangan?

Pedagogik faoliyat- ma’naviy va amaliy tajribani yetkazishda odamlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni ta’minlaydigan faoliyatdir. Pedagogik faoliyat ikki turdan iborat: ilmiy va amaliy. Har bir jamiyatda har doim yosh avlodga insoniyatning to‘plangan ma’naviy va amaliy tajribasini – jamiyatni saqlab qolish va rivojlantirish uchun madaniyatni

[1] Gardner III R. et al. Tutoring system innovations: Past practice to future prototypes //Intervention in School and Clinic. – 2007. – T. 43. – №. 2. – C. 71—81.

yetkazishga intiladi. Shuning uchun madaniyatga ega bo‘lgan kishi jamiyatning asosiy maqsadlaridan biridir.

Pedagogik faoliyatni loyihalash ta’lim sohasining rivojlanishi va texnologiyasini tavsiflovchi faoliyat sifatida shakllandi, jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida bir qator olimlar o‘z asarlarida bu loyihalash faoliyati haqida to‘xtaldilar.

Jumladan, Tomas mor "Utopiya" Tommaso Campanella "Quyosh shahri" asarida, I. A. Kolesnikov va M. P. Gorchakov asarlarida, Ya. A. Kamenskiy, "Buyuk didaktika" asarida pedagogika faoliyatni loyihalash g‘oyalarini shakllantirish va jamiyat bolalarini tarbiyalashda o‘zlarini qarashlarini bayon etganlar. Bundan tashqari, bu fikr fransiyalik faylasuf J. J. Russo, shveytsariyalik o‘qituvchi I. G. Pestalozzi, nemis o‘qituvchisi Adolf Distervegning asarlarida ham kuzatilgan.

XVII-XVIII asrlarda yashagan J.J Russo, V.F Odoevskiy M.V. Lomonosov, I. I. Betskiy, J.A. Kondorse, L.M. Lepelete, Sh.M. Taleyran, M.J. Shene asarlarida pedagogik faoliyatni loyihalash haqida ma’lumot keltirilgan hattoki maktablar, gimnaziyalar va ularda ta’lim berish tizimlari ishlab cjhiqilgan. Biroq shunday bo‘lishiga qaramasdan, o‘sha davr pedagogikasida, terminologiya va an’anaviy umumiy mohiyatga ega pedagogik faoliyatni loyihalash mavjud emasdi, asosiy maqsad pedagogik ob’ektni rivojlantirish istiqbollarini nazarda tutadigan yagona pedagogik faoliyatni loyihalashni davr taqozo etardi. Pedagogik faoliyani loyihalashning uslubiy bazasi va kontseptual qoidalar mavjud emas edi.

Hozirgi davr pedagogik faoliyatni lohiyalashda, N. O. Yakovleva, Mixail Knoll, E. A. Penkovskiyning alohida o‘rni bor[1]. Shuningdek, XX-asr pedagogikasida pedagogik faoliyatni loyihalash haqida amerikalik pedagoglardan Dj. Dyui, G. Saymon, V.X. Kilpatrik, pus pedagogiklaridan L.Tolstoy, A.S. Makarenko N.K. Krupskoy,A.P. Pinkevich, S.T. Shatskiy, B.V. Ignatev, Ye.V. Ignatev, S.M. Rives, I.M. Soloyev va boshqalar o‘z faoliyati davomida yaratishga harakat qildilar.

Rus olim A.S Makarenkoning qarashlarida kollektiv ta’lim g‘oyalarini amalga oshirishda ta’lim sohasidagi loyihalash mexanizmlari haqida so‘z boradi. Rus pedagogi koloniyalar tartibida XX asrning 30 yillarida balog‘atga yetmagan huquqbuzar va ko‘cha bolalari uchun koloniyalarni tashkil qilish va boshqarish mexanizimini ishlab chiqadi. Uning koloniya maktablarida qatag‘on qilinganlarning bolalari, kam ta’minlangan oilalar farzandlari bor edi. Makarenko bolalarni noqonuniy xatti-harakatlari bilan

[1] Самойлова М. В. Педагогическое проектирование: учебное пособие. – Симферополь: ИПХотеева Л.В., 2019. – 7 с.

tarbiyalash ya’ni, oddiy jamiyatda yashashga qodir bo‘lmagan jinoyatchi bolalarni tarbiyalash bilan shug‘ullangan.

Rossiyaning Dzerjinskiy viloyatida A.S Makarenko koloniya maktabida o‘qituvchilarni butunlay tark etgan 600 sobiq huquqbuzar bolalarni tarbiyash bilan shug‘ullangan bo‘lib, uning loyihasi mazmunini jamoaviy tarbiya konsepsiyasi tashkil etgan. O‘sha davr Rossiya federatsiyasi Bosh prokuraturasi ma’lumotlariga ko‘ra, Rossiya davlat bolalar uylari va internatlar bitiruvchilari haqidagi molumotlarida faqat 10% hayotga moslashgan, 40% jinoyatchi, 40% i alkogoliklar va giyohvandlar bo‘lib, 10% o‘z joniga qasd qilish holatlari kuzatilgan. A.S. Makarenko boshchiligidagi jamoalarning deyarli 3000 nafar o‘quvchilari orasida birorta jinoyatchi bolalar ma’lum emas va bu bitiruvchilarning taqdiri bo‘yicha ko‘plab tadqiqotchilar shunday ta’kidlashardi ular baxtli odamlar edilar"[1].

A.S.Makarenkoning pedagogik nazariyasining yadrosi, uning kollektiv doktrinasi. Makarenko "kollektiv" atamasini professional va pedagogik so‘z birikmalariga kiritdi, ular ostida umumiy do‘stona, uy-joy, biznes maqsadlari bilan bog‘liq bolalarning muayyan tashkilotini tushunishdi va bu o‘zaro munosabatlar shaxsiy rivojlanish uchun qulay muhit bo‘lib xizmat qiladi.

"Kollektiv bizning ta’limimizning birinchi maqsadi bo‘lishi kerak, mutlaqo aniq fazilatlarga ega bo‘lishi kerak" degan edi A.S.Makarenko.

Pedagogik loyihalash -bu talabalar va o‘qituvchilarning kelgusidagi faoliyatining asosiy bosqichlarini oldindan ishlab chiqish jarayonidir. Darsni to‘g‘ri tashkil qilish, bolalar tanasining funksional holatiga va ularning ishlashiga katta ta’sir ko‘rsatish mumkin. Zamonaviy ta’lim sharoitlari o‘qituvchilardan yangi texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Hozirgi vaqtning o‘ziga xosligi shundaki, zamonaviy darsni o‘tkazishning yangi shartlari shaxsga yo‘naltirilgan, faol, malakali va sog‘lom o‘qitishda himoya qiluvchi yondashuvdan foydalanishni nazarda tutadi. Bunday texnologiyalardan biri o‘quv faoliyatining pedagogik loyihalashdir.

Pedagogik faoliyatni loyihalashtirish darajasiga texnologik mahorat darajasi va quyidagi asosiy mezonlar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Maqsadga aniqligi va ta’lim jarayoniga muvofiqligi;
2. Pedagogik loyihalashda ijodkorlik;
3. Turli maqsadlarni umumlashtirgan ishlab chiqarish;

[1] .Козлов И.А. Педагогическая система А.С. Макаренко [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.psychologos.ru/articles/view/pedagogicheskaya-sistemaa.s.makarenko

4. Optimallik-samarali vositalarni tanlash; samaradorlik-natijada. Boshqacha aytganda, pedagogik loyiha-o‘qituvchining ijodiy faoliyatini tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar tuzilishi.

Darsda pedagogik faoliyatning mazmunini loyihalash uning bir necha bosqichlarini o‘z ichiga oladi:

- maqsadlarni belgilash
- o‘quv faoliyatining maqsadlarini belgilash,
- standart
- o‘qituvchini maqsad tizimini loyihalash[1].

Pedagogik faoliyat, ayniqsa, zamonaviy ta’limda juda murakkab bo‘lib qoldi, chunki pedagogik bilimlarning jadal rivojlanishi, ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarning juda kopligi bilan izohlanadi. Ta’lim, rivojlanish va tarbiya usullari, vositalari va shakllari soni ortib bormoqda, pedagogik munosabatlarga ta’sir qiluvchi ko‘plab omillar aniqlangan, bilimlarni tezda yangilash, dasturlar axborot bilan to‘lib-toshgan, talabalar kam tayyorlangan va boshqalar. O‘qituvchi bu bilimlarni katta qiyinchiliklarga duchor qiladi va ularni yanada ko‘proq qiyinchiliklar bilan ishlatadi. Loyihalash g‘oyalari ko‘p, shu jumladan, pedagogik loyihalash, o‘quv faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi. Ya’ni, pedagogik loyihalash o‘qituvchi va talabalarning kelajakdagi faoliyatining asosiy tafsilotlarini dastlabki ishlab chiqishni va uning natijalarini prognozlashni o‘z ichiga oladi. Loyihalash jarayonida o‘qituvchi nomukammal amaliyotni o‘zgartirish, yanada mukammal va samarali o‘z faoliyatini shakllantirish uchun hali mavjud bo‘lmagan yangi haqiqatni o‘rganadi va yaratadi. Pedagogik loyihalash mohiyati -asosan ta’lim, tarbiya va rivojlanish maqsadlariga mos pedagogik jarayonni yaratish, mo‘ljallangan ta’lim tizimini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchining professional o‘zini-o‘zi rivojlanishini ta’minlash tushuniladi. Pedagogik loyihalash ob’ektlari pedagogik tizimlar, pedagogik jarayonlar va pedagogik vaziyatlarni o‘z ichiga oladi. Pedagogik tizimlar murakkab ta’lim bo‘lib, ular shaxsning rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradigan barcha omillarning yaxlit birligi hisoblanadi. Pedagogik jarayonlar o‘qituvchi uchun loyihalashning asosiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik jarayon o‘quvchilar va o‘qituvchilarning bevosita o‘zaro ta’siri va didaktik tamoyillarga bo‘ysunishida rivojlanishiga hissa qo‘shadigan omillarning birligi bilan ifodalanadi. Pedagogik vaziyatlar ma’lum bir vaqtda va ma’lum bir makonda uning holatini tavsiflovchi pedagogik

[1]https://spravochnick.ru/pedagogika/proektirovanie_pedagogicheskoy_deyatelnosti

jarayonning ajralmas qismidir. Pedagogik vaziyatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi yoki oldindan rejalashtirilgan bo‘lishi mumkin.

Pedagogik loyihalash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. ***Yaratilgan modelni amaliy foydalanish darajasiga loyihalash va ishlab chiqish.*** Masalan, kalendar-tematik reja yoki muayyan dars loyihasi – loyihalash-ishlab chiqilgan loyihani amalda bajarish Ushbu bosqichning natijasi konstruktsiyani yaratish, ya’ni loyihani muayyan sharoitlarda haqiqiy ishtirokchilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun, agar biz kalendar-tematik rejani loyiha sifatida ko‘rib chiqsak, unda sinf rejalari loyihalash sifatida ishlaydi. Xulosa qilish mumkinki, talabalar va o‘qituvchilar faoliyati pedagogik loyihalashdan kelib chiqadi.

2. ***Pedagogik loyihalash shakllari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:*** ishchi o‘quv rejalari; ish dasturlari; kalendar-tematik rejalashtirish; dars rejasi; o‘quv-tarbiyaviy ish rejasi va boshqalar.o‘qituvchi uchun pedagogik faoliyatni loyihalashning barcha shakllarini o‘rganish juda muhimdir, chunki bu uni uslubiy jihatdan yaxshilashga imkon beradi. Pedagogik jarayonni loyihalash o‘qituvchining har qanday ijodiy faoliyatida qo‘llanilishi mumkin. Agar o‘qituvchi ma’lum bir algoritm va uslublar majmuasini bilsa va ishlatsa, ushbu texnologiya muvaffaqiyatga erishadi.

Ta’limning hozirgi shartlari o‘qituvchidan yangi texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Zamonaviy dars- belgilangan talablar asosida darsni tashkil etish, tartibga solish, o‘quvchilarning vazifalarni to‘liq bajarishi, ijro etishi, o‘qituvchiga bo‘ysunishi va shaxsga bo‘lgan munosabatni shakllanishi va rivoji. Hozirgi vaqtda, oliy maktabda zamonaviy darsni o‘tkazishning yangi shartlari shaxga yo‘naltirilgan, faol, malakali, sog‘lom o‘qitishda himoya qiluvchi yondashuvni o‘z ichiga oladi. **Ushbu texnologiyalardan biri o‘quv jarayonini pedagogik loyihalash texnologiyasi**. Pedagogik loyihalash darajasi texnologik mahorat darajasiga bog‘liq va quyidagi asosiy mezonlar asosida aniqlanadi:

1) maqsadga muvofiqligi yo‘nalish bo‘yicha);
2) ijodkorlikfaoliyat mazmuni bo‘yicha);
3) ishlab chiqarish pedtexnik darajasi bo‘yicha);
4) optimallik samarali vositalarni tanlash bo‘yicha);
5) hosildorlik natija bo‘yicha).

Shunday qilib, pedagogik loyihalash-o‘qituvchining ijodiy faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar to‘plami. Loyihalash metodologiyasiga bag‘ishlangan adabiyotlarda uning bosqichlarini ajratish uchun turli yondashuvlarni ko‘rish mumkin.

Darsda pedagogik faoliyatning mazmunini loyihalashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- maqsadlarni belgilash — o‘quv faoliyatining maqsadlarini yaratish bloki; o‘qituvchi tomonidan tushunishdan maqsad tizimini ishlab chiqishga o‘tish.

- Diagnostika-maqsadlarga erishish darajasi va darajasini belgilovchi mustaqil ishlar bloki. Standartning mazmuni talabalarning ishlash tiliga tarjima qilinadi. Uy vazifasini dozalash-diagnostika muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlaydigan bilimlar miqdori. O‘quv jarayonining mantiqiy tuzilishi darslarning ketma-ketligini, o‘quv materiallarining tuzilishini, rivojlanish dasturlari maydonini o‘z ichiga olgan uch bosqichli modeldir. Tuzatish faoliyati-o‘quvchilar olgan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarning sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Pedagogik loyihalash shakllarining mohiyati, bosqichlari

1. **Pedagogik loyihalashning mohiyati.** "Loyihalash" atamasi lot. projektus - "oldinga tashlangan") pedagogika tomonidan texnik bilimlardan olingan. Bu nimani anglatadi? Loyihalash-bu tabiiy shaklda amalga oshiriladigan narsalarning oldindan yaratilishi. Pedagogik faoliyat, ayniqsa, so‘nggi paytlarda juda murakkab bo‘lib qoldi, chunki pedagogik bilimlar jadal rivojlanmoqda ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarning katta miqdori mavjud), ta’lim, tarbiya, rivojlanish usullari, vositalari va shakllari soni ortib bormoqda, pedagogik munosabatlarga ta’sir qiluvchi ko‘plab omillar aniqlandi: tez yangilanib turadigan bilim, ma’lumotlarning haddan tashqari ko‘pligi, o‘quvchilarning zaif tayyorgarligi, nuqsonning murakkab tuzilishi va boshqalar. Texnik loyihalashning ko‘plab g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan pedagogik loyihalash o‘qituvchining faoliyatini optimallashtirishga imkon beradi. Pedagogik loyihalash-o‘qituvchi va talabalarning kelgusidagi faoliyatining asosiy tafsilotlarini dastlabki ishlab chiqish va uning natijalarini prognoz qilish. O‘qituvchi loyihani qanday maqsadda yaratadi? Loyihalashda o‘qituvchi nomukammal amaliyotni o‘zgartirish, o‘z faoliyatini yanada mukammal, samaraliroq qilish uchun yangi, hali mavjud bo‘lmagan haqiqatni o‘rganadi va yaratadi. Pedagogik loyihalashning maqsadi-ta’lim, tarbiya, rivojlanish maqsadlariga eng mos keladigan pedagogik jarayonni yaratish, o‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish, mo‘ljallangan ta’lim tizimini amalga oshirishga qodir.

2. Pedagogik loyihalash ob’ektlari. O‘qituvchi nimani loyihalashtiradi? Loyihalash ob’ektlari: pedagogik tizimlar, pedagogik

jarayonlar, pedagogik vaziyatlar. Pedagogik tizimlar murakkab ta’lim bo‘lib, inson rivojlanishining belgilangan maqsadlariga erishishga yordam beradigan barcha omillarning yaxlit birligini ifodalaydi. Pedagogik jarayonlar o‘qituvchi uchun loyihalashning asosiy ob’yekti hisoblanadi. Pedagogik jarayon o‘quvchilar va o‘qituvchilarning bevosita o‘zaro munosabatlarida rivojlanishiga hissa qo‘shadigan va didaktik tamoyillarga bo‘ysunadigan omillarning birligi. Pedagogik vaziyatlar-ma’lum bir vaqtda va ma’lum bir makonda uning holatini tavsiflovchi pedagogik jarayonning ajralmas qismi. Pedagogik vaziyatlar o‘z-o‘zidan yoki oldindan loyihalashtirilishi mumkin. Vaziyatlar dars, imtihon, ekskursiyalar va h.k. jarayonida yaratiladi yoki paydo bo‘ladi va darhol hal qilinadi. Pedagogik vaziyatlarni loyihalashtirish, haqiqiy vaziyatni hisobga olgan holda, muayyan odamlar uchun pedagogik jarayonni sozlash jarayoni sifatida amalga oshiriladi.

3. Pedagogik loyihalash shakllarining bosqichlari. Loyihalash bosqichi. Loyihalash-yaratilgan modelni amaliy foydalanish darajasiga ko‘tarishdir. Loyihalash natijasi loyihadir. Misol uchun, loyiha kalendar-tematik istiqbolli-tematik) rejasi, dars rejasi loyihasi va boshqalar. Loyihalash-ishlab chiqilgan loyihani amalda bajarish uchun moddiy asos yaratishdir. Loyihalashning natijasi darsning texnologik xaritasini yaratishdir. Loyihalash-bu loyiha haqiqiy ishtirokchilar tomonidan muayyan sharoitlarda amalga oshiriladigan narsa. Misol uchun, agar loyiha kalendar-tematik reja bo‘lsa, unda loyihalar kurslar bo‘yicha rejalar bo‘ladi. Agar loyiha dars rejasi bo‘lsa, unda konstruktsiyalar uning metodik ta’minoti topshiriqlarning mazmuni, testlari, savollar, o‘qitish vositalari va boshqalar). Pedagogik loyihalash shakllariga quyidagilar kiradi: ishchi o‘quv rejalari, ishchi o‘quv dasturlari, kalendar-tematik istiqbolli-tematik) rejalar, dars rejalari, o‘quv-tarbiya ishlari rejalari va boshqalar. Talabani aql-zakovat bilan o‘qitish yangi ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi, bu esa o‘quvchilarning ta’lim, rivojlanish, ijtimoiy moslashuvi masalalarini samarali hal qilish imkonini beradi. Ko‘pgina o‘qituvchilar uchun pedagogik loyihalash shakllarini bilish juda dolzarb bo‘lib, o‘qituvchiga metodik jihatdan takomillashtirishga imkon beradi. Pedagogik jarayonni loyihalash o‘qituvchi tomonidan har qanday ijodiy faoliyatda qo‘llanilishi mumkin. Ushbu texnologiya ma’lum bir algoritm va usullar majmuasini bilish va ulardan foydalanish sharti bilan muvaffaqiyatli bo‘ladi. Bugungi kun axbort texnologiyalariga asoslangan holda aytadigan bo‘lsak, loyihalash bu dasturlash degan tushunchaga aynan yaqin tushuncha sanaladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan, jahon pedagogikasining ilg‘or metodlaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan bo‘lib, loyiha metodi ta’lim ilg‘or usullarini o‘zida mujassamlashtirgan. Loyiha metodidan barcha fan o‘qituvchilari o‘quv mashg‘uloti jarayonida mavjud tajribani o‘zlashtirish va ta’limning barcha bosqichlarida qo‘llashdek muhim vazifa turadi. Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o‘rnatilgan vaqt mobaynida yo‘l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o‘quv axborotini etkazish vositasi va yo‘llarini aniqlash usulidir. Barcha fan o‘qituvchilari ta’limni loyihalar usuli bilim va malakalarni amaliy qo‘llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmuali o‘qitish usulini amalga oshiradi. Ta’lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o‘qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. O‘quv loyihalar usuli ta’lim beruvchining ta’lim oluvchilarga muammoni, faraz, vazifalarni ifodalashda yordam beradi va tezkor boshqaradi. Loyihalarda o‘qitish nafaqat natijalar, balki jarayonini o‘zi ham qimmatli. Loyiha fanlararo, bir fan yoki fan tashqarisida bo‘lishi mumkin. Loyihalash ikki usulda - shaxsiy va guruhiy asosda amalga oshiriladi. Har ikki yo‘nalishning ijobiy va afzallik xususiyatlari bor. barcha fan o‘qituvchilari fanini loyihalash ta’limning sifati va samaradorligini oshiradi, talabalar loyiha ustida ishlashda loyiha rejasi asosida aniq maqsad uchun faoliyatlarini amalga oshiriladi. Natijada qatnashchilarda loyihani bajarilishi o‘zining faoliyatiga bog‘liq ekani tushunchasini anglash yuqori mas’uliyat hissini yuzaga keltiradi; loyihaning barcha bosqichlarini bajarish jarayonida fikrning tug‘ilishidan yakuniy refleksiyagacha o‘quvchilar tajriba orttiradilar; o‘quvchilarda eng muhim o‘quv ko‘nikma va malakalari tadqiqotchilik, baholash, mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlar chiqarish, taqdimot qilish) shakllantirish to‘la boshqariladigan jarayonga aylanadi. O‘quv loyihasining metodik pasporti bu – o‘quv loyihasining mazmun-mohiyatidan kutiladigan maqsadi, o‘quv dasturidagi o‘rni to‘g‘risida qisqacha tavsif hisoblanadi. O‘quv loyihasining metodik pasporti quyidagilarni o‘zida aks ettiradi: fan predmetining o‘quv rejasidagi mavzular, predmetning ta`limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarini, o‘quv-pedagogik vazifalarni, o‘quvchilarning yoshi xususiyatlaridan kelib chiqib o‘quv loyiha topshirig‘ini, loyihaning bajarilish muddatini va o‘quv loyihasining ish rejimi. Tadqiqot loyihasi

pasporti mualliflar va loyiha rahbari tomonidan to‘ldirilib, unda o‘quv loyihasining nomi, loyihaning maqsadi va vazifalari, loyiha muallifi, loyiha rahbari va konsultantlari, loyiha turi aks ettiriladi. O‘quv loyiha faoliyatida o‘quvchilarda tadqiqotchilik, ijodiy, o‘yin, axborot izlanish faoliyatlarini qamrab olib, ijtimoiy ehtiyoj qiziqishlar hisobga olinadi, natijaga aniq yo‘naltiriladi.

Amaliy mashg‘ulotda loyiha metodi asosida o‘tiladigan dars mashg‘uloti texnologiyasi tahlil qilinadi.

Loyiha usuli qo‘llanilgan o‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	*F a o l i ya t*	
	ta’lim beruvchi	*ta’lim oluvchilar*
Tayyorgarlik	Loyiha mavzulari va maqsadini aniqlaydi. Ta’lim oluvchilarni loyihalash yondashuvi mohiyati bilan tanishtiradi. Bir qancha mavzular taklif etadi, loyiha mazmuni to‘g‘risida ma’lumot beradi, ular doirasini shakllantiradi, ish turlari, ularning natijalari va baholash mezonlarini sanab o‘tadi	Guruhga birlashadilar, loyiha mavzusini tanlaydilar va muhokama qiladilar. Kerak bo‘lganda qo‘shimcha axborotlar oladilar. Maqsadni aniqlaydilar, loyiha bo‘yicha ish natijalarini muhokama qiladilar
1 - bosqich Rejalashtirish	G‘oyalarni taklif etadi, takliflarni aytadi. Axborot manbai va uning yig‘ish usullari va tahlilini tavsiya etadi. Ish tartibi va oraliq bosqichlarni baholash mezonlari va umuman jarayonni belgilaydi	Harakat rejasini tanlaydilar: vazifalarni shakllantiradilar, yo‘nalish va bajarish bosqichlarini, ular tartibini aniqlaydilar, vazifalarni guruh a’zolari o‘rtasida taqsimlaydilar. Ta’lim beruvchi bilan natijalarni tahlil etish usulini hisobot shaklini) ma’qullaydilar
2 - bocqich Tadqiq qilish	Kuzatadi, maslahat beradi, axborot manbasini izlashga yordam beradi, o‘zi axborot manbai hisoblanadi	Tadqiqotni bajaradilar. Axborot to‘playdilar, oraliq vazifalarni echadilar,
3 - bosqich Axborot tahlili. Xulosalarni shakllantirish.	Butun jarayonni boshqaradi, qaytar aloqani ushlab turadi	Olingan axborotni tahlil qiladilar, xulosalarni shakllantiradilar

4 - bosqich Hisobot	Eshitadi, oddiy ishtirokchi bo‘lib, maqsadga yo‘naltirilgan savollar beradi, quvvatlaydi va rag‘batlantiradi	Hisob beradilar. Ish natijalarini: og‘zaki hisobot materiallarini namoyish bilan og‘zaki hisobot, loyiha ko‘rinishida yozma hisobot shakllarida taqdim etadilar
5 - bosqich Jarayon va natijalarni baholash.	Muammoni echishning to‘liq darajasini, guruhlar harakati strategiyasi, ta’lim oluvchilar kuchi, manbalardan foydalanish sifati, ijodiy yondashuv, ishni davom ettirish imkoniyati, hisobot sifati va boshqalarni baholaydi	Jamoaviy muhokama orqali ish natijalari va uning borishi, shu jumladan muammoni echishning to‘liqlik darajasi va harakat strategiyasini himoya qiladilar, baholaydilar

Loyihalashtirish faoliyatini bajarish bosqichlari tahlil qilinadi:

- *Tayyorlov bosqichi:*

a) loyiha mavzusini tanlanib, uning dolzarbligi, yechilishi kerak bo‘lgan muammo shakllantiriladi.

b) loyiha maqsadi, predmeti, ob’yekti va vazifalari belgilanib olinadi.

v) loyihalashtirish faoliyati turlari va yechilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar tayyorlanib, ularni yechish usul va vositalari tanlanadi.

g) loyiha mavzusiga doir adabiyotlar va axborot manbalari bilan tanishiladi.

- *O‘quv faoliyatini rejalashtirish bosqichi.*

a) maqsadga erishish ketma-ketligi ishlab chiqiladi.

b) Ish rejasini tuziladi loyihani ishlab chiqish, rasmiylashtirish, uni taqdimotga tayyorlash, hisobotni tuzish bo‘yicha topshiriqlarni ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash, ularni bajarish va tayyor holatga keltirish muddatini belgilanadi).

- *Loyihani bajarish bosqichi.*

a) kerakli ma’lumotlarni to‘planib, tizimga keltiriladi va tahlil qilinadi.

b) tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish jarayoni tayyor holatga keltiriladi).

v) yo‘riqnomaga muvofiq loyiha faoliyati to‘g‘risida hisobot tayyorlanadi.

Bo‘lajak barcha fan o‘qituvchilari fani o‘qituvchilari amaliy mashg‘ulotda loyihanibajarish rejasini quyidagicha shakllantiradilar.

Loyihani bajarishning ish rejasi

Ishtirok-chilarning F.I.Sh.	*Topshiriq*	*Faoliyat turi*	*Tayyor mahsul ko‘rinishi*	*Bajarilish muddati*
	Loyiha doirasida qatnashchilarni aniqlash, har bir qatnashchining vazifasini belgilash	Qatnashchilar ro‘yxati tuziladi, qatnashchilar imkoniyatlariga qarab loyiha uchun tanlangan faoliyat yo‘nalishidagi korxonaning hisob siyosatidagi bandlar o‘zaro taqsimlanadi	Loyihani amalga oshirish rejasi shakllanadi	
	Loyiha mavzusi ma’lumotlari bankini shakllantirish	Tanlangan Loyiha mavzusining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi	loyiha pasporti	
	Loyihani rasmiylashtirish	Loyiha ishi natijalarini to‘plash	Loyiha tayyor holga keltiriladi	
	Loyihalashtirish faoliyati natijalari va loyiha taqdimoti bo‘yicha hisobotni tayyorlash	Mavzu dolzarbligi va muammoni asoslab berish, loyihaning maqsad va vazifalarini ko‘rsatib berish va boshqalar	Hisobot	
	MS Power Pointda loyiha taqdimotini tayyorlash	Taqdimotni umumiy rasmiylashtirish va uning mazmunini yana bir bor tekshirish, yangi slaydlarni qo‘shish va hokazo	Taqdimot	

Loyihani taqdimotga tayyorlash.

a) MS Power Point da taqdimotlarni tayyorlash bo‘yicha qo‘llanmadan foydalangan holda loyiha taqdimotini tayyorlash.

b) loyihaning og‘zaki taqdimotida guruh a’zolari o‘rtasida vazifalarni aniqlanadi.

v) ommaviy taqdimot, loyiha himoyasi va baholash

Loyiha ishi to‘g‘risida hisobotga tayyorgarlik bo‘yicha talaba quyidagi yo‘riqnoma asosida faoliyatini tashkil etishi maqadga muvofiq:

a) taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi xulosalarni 1 betdan ko‘p bo‘lmagan matn asosida ifodalash.

b) hal etmoqchi bo‘lgan muammoni 5-6 so‘z bilan) asoslanadi**.**

v) loyihaning maqsadi: uning nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo‘lishi va u kimga qaratilganligini 1-3 taklif orqali) ko‘rsatiladi.

g) loyiha vazifalarini qisqa va bir ma’noli) ifodalanadi.

d) loyihaning ish rejasi bayon etiladi.

e) vazifani echimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko‘rsatiladi.

j) taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi xulosalarni shakllantiriladi.

z) bajarilgan ish bo‘yicha foydalanilgan manbalar ro‘yxati ko‘rsatiladi.

Loyihalar ekspertizasining aniq tizimi g‘olibni xolisona aniqlashtirib qolmay, loyihaning sifatini xolisona baholash, loyiha ustida ishlash elementlari monitoringini yaratadi. Loyihani ekspert baholashi uchun ekspert komissiyasi tuziladi. Ushbu komissiya tarkibiga zaruriy malakaga ega bo‘lgan ota-onalarni, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilarini boshqa maktab o‘qituvchilarini kiritish mumkin. Bajarilgan o‘quv loyhasi natijalarini baholash jarayonida loyiha sifati, loyiha ustida ishlash jarayoni, ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni engib o‘tish yo‘llariga e’tibor qaratiladi. Fan o‘qituvchisi bilan birga amaliy mashg‘ulotda bajarilgan loyiha bo‘yicha hisobotni tayyorlashni quyidagi varianti tahlil qilinadi:

Bajarilgan loyiha bo‘yicha hisobotni baholash

	Baholash mezoni	*Baholash ko‘rsatkichlari*
1.	Hisobotni tayyorlash bo‘yicha yo‘riqnomaga rasmiy ravishda rioya etilishi	Hisobot tuzilmasi yo‘riqnomaga muvofiqligi - maks. 1 ball
2.	Tanlangan mavzu asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi aks ettirilishi - maks. 1 ball
3.	Echimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslanganligi - maks.1 ball
4.	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlarining bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlari aniq belgilanganligi - maks. 1 ball
5.	Loyiha azifalarining belgilanishi	Loyiha vazifalari aniqligi - maks.1 ball
6.	Loyihaning ish rejasini ishlab chiqish	Ish reja ishlab chiqilgan yondashuvlarga muvofiqligi - maks.1 ball

7.	Vazifalar bo‘yicha loyihaning ish natijalarini keltirish	Vazifalar bo‘yicha loyiha ish natijalari ishtirokchilarni ko‘rsatish bilan, aniq va ravshan keltirilganligi - maks. 1 ball
8.	Xulosalarni ifodalash	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilganligi - maks. 1 ball
9.	Foydalanilgan manbalar ro‘yxatini tarkiblashtirish	Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati bajarilgan vazifalar bo‘yicha tarkiblashtirilganligi - maks.1 ball
10.	Loyiha faoliyatini o‘zi baholashi	Tanqidiy baho: mahsul sifati, loyiha ustida ishlash: har bir ishtirokchi ishining natijaviyligi, qiyinchilik va uni yengish berilganligi, loyiha ishining ish materiallari mavjudligi - maks.1 ball
Jami: 10 ball		

Amaliy mashg‘ulotning yakunida loyiha portfoliosi - o‘quvchilar loyihani bajarish davomida to‘plangan hujjatlar, ma`lumotlarni, ko‘rgazmali vositalarni jamlashtirib hisobot tayyorlaydilar va loyiha portfoliosiga joylashtiradi. Shu o‘rinda pedagogikfaoliyatni loyihalashda o‘qituvching o‘rni haqidagi grafik organeyzerni taqdim etsak.

12.2 Induvidual loyiha ishlarini bajarishda tyutorning o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali mutaxasislar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilda va amaliyotga joriy etilib, oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish masalalariga katta e’tibor qaratildi.

Shu maqsadda Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish, oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali mutaxasislar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, akademik mustaqilligini ta’minlash, ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta’lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar

darajasiga olib chiqish, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko‘rsatkichlari oshishi, shuningdek Respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta’minlash, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi “xab”ga aylantirish, oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, talaba-yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ta’limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash masalalari O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, konsepsiya tegishli davrga mo‘ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida tasdiqlanadigan “Yo‘l xaritasi” orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Konsepsiya doirasida vazifalar ishlab chiqilib, asosiy vazifalar etib quyidagilar belgilandi.

1) professor-o‘qituvchilar, talabalar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish, jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

2) oliy ta’limni davlat tomonidan boshqarish tizimi samaradorligiga va professor-o‘qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ular tomonidan ta’lim berishda qo‘llanilayotgan ta’lim-tarbiya usullarining ta’sirchanligiga xolisona baho berish;

3) ta’lim berishda yuqori sifatni ta’minlash yuzasidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish;

4) oliy ta’lim muassasalarida shaffoflik, xolislik va obyektivlikni ta’minlash, korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

5) oliy ta’lim tizimida mutaxasislar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

6) xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo‘shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o‘qituvchilar va xorijdagi vatandoshlarni oliy ta’lim tizimiga jalb etish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

7) oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida ularni Respublika oliy ta’lim muassasalari sharoitida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish[1].

Konsepsiyada belbilab berilgan vazifalar doirasida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari o‘z faoliyati bilan to‘liq shug‘ullanishi va ijod qilishi, talabalar bilan induvial ishlash uchun tu’torlik lavozimlari joriy etilib, ularning malaka talablari belgilab berildi. Shu o‘rinda tutor kim degan savolga javob berib, tutorning maqsad va vazifalarini aniqlab olamiz.

Tutor-shaxsiy rivojlanish yo‘lida maktabgacha tarbiyachi, o‘quvchi yoki talaba bilan birga ta’lim sohasidagi mutaxassis. Tutor inglizcha **tutor** so‘zidan olingan bo‘lib, tarixan talabalar va talabalar individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish imkonini yaratib beruvchi, uzluksiz ta’lim tizimlarida, maktabda, universitetda individual ta’lim jarayoni bilan birga maxsus ta’lim olish imkoniyatini tashkil etuvchi mutaxassisdir.

Tyutorlik Yevropa universitetlarining tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, dastlab Buyuk Britaniya vujudga kelgan kasb turi sanaladi. XIV asrda klassik ingliz universitetlari — Oksfordda va keyinchalik Kembrijda shakllandi.

O‘sha paytda universitet bir tilda gapiradigan va bir ilmiy hokimiyatni tan olgan yagona qadriyatlarni e’tirof etgan birodarlik edi. Ingliz universiteti barcha talabalar muayyan kurslarni tinglashlari haqida qayg‘urmadi. Ba’zi kollejlardan kelgan talabalar boshqa kollejlardan professorlarning ma’ruzalari tinglashlari mumkin edi. Har bir professor o‘z

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni

kitobini o‘qib uni sharhlardi. Bu esa talabalarga qiyinchiliklar tug‘dirgan, Talaba qaysi professorlarni va qanday mavzularni tinglashini o‘zi hal qilishi kerak edi. Universitet o‘z talablarini faqat imtihonlarda taqdim etdi va talaba o‘z darajasini olish uchun zarur bo‘lgan bilimlarga erishish yo‘lini tanlashi kerak edi. Bunda tutor yordam berdi.

O‘sha davrning doimiy qiymati erkinlik ta’lim va ta’lim) bo‘lganligi sababli, tyutor erkin professor va erkin maktab o‘quvchisi o‘rtasida vositachilik vazifasini bajargan. Erkinlikning qiymati insonning qadr-qimmati bilan chambarchas bog‘liq edi va tutorning vazifasi shaxsiy tarkibni va ilmiy g‘oyalarni amalda birlashtirishdan iborat edi. Tutor bola, o‘smir, yosh yigit va qizlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash va rivojlantirish bo‘yicha individual dasturni tayyorlashda ishtirok etadi, mo‘ljallangan yo‘lda harakat qilishiga yordam beradi. Shaxsiy ta’lim dasturlari va shaxsiy qo‘llab-quvvatlash barcha ta’lim muassasalarida talab etiladi, ammo talab yuqori bo‘lib, talaba-yoshlar maxsus ehtiyojlarga ega bo‘lgan muassasalarda qo‘llaniladi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni universitet bilimlarini olishning asosiy jarayoni bo‘lib, dastlab bu o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonini qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajargan.

XVII asrda tutorning faoliyat sohasi kengayib bormoqda, ta’lim funksiyalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tutor talabaga qaysi ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlar eng yaxshi ishtirok etishi, ularning o‘quv rejasini qanday tuzishi, o‘quvchilarning yaxshi ishlashi va universitet imtihonlariga tayyor bo‘lishiga ishonch hosil qilishini belgilaydi va maslahat beradi. Tutor-eng yaqin talaba maslahatchisi va barcha qiyinchiliklarda yordamchi.

XVII asrda tyutor tizimi ingliz universitet tizimining bir qismi sifatida rasman tan olingan bo‘lib, u asta-sekin professorni almashtiradi. 1700 yildan 1850 yilgacha ingliz universitetlarida jamoat kurslari va kafedralar mavjud emas edi. Talabaning imtihonlari uchun o‘qituvchi tayyorlandi. XIX asrning oxirida universitetlarda bepul kafedralar xususiy ma’ruzalar) va kollegial ma’ruzalar paydo bo‘lganda, talaba professor-o‘qituvchilar va kurslarni tanlash huquqiga ega edi. XVIII-XX asrlarda Angliyaning eng qadimgi universitetlarida turing tizimi nafaqat o‘z pozitsiyalaridan voz kechibgina qolmay, balki treningda Markaziy o‘rinni egalladi; ma’ruza tizimi faqat unga qo‘shimcha sifatida xizmat qildi.

Tutor va o‘qituvchi lavozimlarini taqqoslash

Bugungi kunda olimlar quyidagi jarayonlarni ajratib turadilar: ta’lim, tayyorgarlik, ularni nisbatan mustaqil pedagogik jarayonlar deb hisoblaydi.

Tashkiliy-pedagogik jihatdan, bu o‘rta maktab o‘quvchilarining yaxlit ta’lim maydoni uchta "yo‘nalish" yoki uchta nisbatan mustaqil joylarda — ta’lim, ta’lim-refleksiv va ijtimoiy-amaliy jihatdan taqdim etilishini anglatadi.

Ta’lim makonining an’anaviy tushunchasida, ijtimoiy amaliyot va ta’lim aks ettirish jarayonlari odatda o‘rganilmaydi. Xuddi shu modelda, an’anaviy tarzda farqli o‘laroq, ta’lim jarayoni, ijtimoiy amaliyot va ta’limiy aks ettirish bir — biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayonini aks ettirish uchun yetakchi funksiyadir.

Ta’limni aks ettirishning asosiy jarayoni-bu shaxsni o‘z taqdirini belgilash jarayoni. "Maktab bitiruvchisi maktabda "o‘rgangan" bilim va ko‘nikmalar to‘plamini amalda tatbiq etishga qodir emas, balki... yangi bilim va faoliyat usullarini yaratishga, ishlab chiqarishga tayyor bo‘lgan, maktabda olingan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan vaziyatlarda yetarli darajada harakat qilish uchun zarur bo‘lgan shaxs bo‘lishi kerak. Shaxsni ilgari mavjud bo‘lmagan yangi, bilim, tushunish, faoliyatning yangi usullarini ishlab chiqishga imkon beradigan vositalardan biri". Ta’limni aks ettirish-o‘quvchilarning ta’lim tarixini tushunish va kelajakda o‘z imidjini yaratish orqali o‘z ta’lim loyihasini yaratishdir. Buning uchun talaba o‘z imkoniyatlarini va ta’lim istiqbollarini tushunishi, ta’lim olish uchun ongli ravishda buyurtma berish, ya’ni shaxsiy ta’lim dasturini tuzishi kerak. Ushbu jarayonni ta’minlaydigan shaxs bu tutordir.

Tyutor - talabaning individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish va amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni tashkil etuvchi shaxs.

An’anaga ko‘ra, asosiy ta’lim jarayoni madaniyatni uning bilim shaklida tarjima qilish jarayonidir. Ushbu jarayonni ta’minlaydigan shaxs o‘qituvchi. O‘qituvchi— bu o‘qitadigan kishi, ya’ni bilimlarni o‘rgatadigan hamda talabalar bilan ishlaydi, shuning uchun ular talaba-yoshlarda bilim, ko‘nikma va mahorat shaklida o‘rnatiladi. Zamonaviy o‘rta maktab o‘quvchilarini o‘qitish "bilimdon" malakali "yondashuvga o‘tishni talab qiladi, chunki pedagogik maqsadi yoshlarning o‘zlari oldida to‘rgan muammolarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati " A. B. Vorontsov. Ushbu yondashuvda o‘qituvchi o‘z mavzusining vositasi va usullari o‘rta maktab o‘quvchisiga ushbu ta’lim tizimidan tashqarida hayot, martaba va ta’lim muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Ya’ni, Repkinning so‘zlariga ko‘ra, talabani talabaga aylantiradi.

Har bir talabaning individual ta’lim traektori-ta’lim har bir talaba shaxsiy salohiyatini amalga oshirish uchun shaxsiy yo‘lidir[1]. Sinonim sifatida "variativ ta’lim", "individual ta’lim yo‘nalishi" va boshqalar ishlatiladi[2]. Shaxsiylashtirilgan ta’limdan farq qiladi, unda o‘qishning traektori talabaning o‘zi tomonidan belgilanadi, chunki bu holda o‘qituvchilar ta’lim traektoriyasini shakllantirishda ishtirok etadilar.

Ijtimoiy amaliyotning asosiy jarayoni-ijtimoiy va professional namunalar jarayoni, ijtimoiy tajribaga ega bo‘lish jarayoni hisoblanadi. Shaxsiy ta’lim dasturini amalga oshirish va kelajakdagi g‘oyalar orqali hayot traektoriyasini yaratish uchun haqiqiy ijtimoiy harakatlar bo‘lishi kerak. Bu makonda kattalarning pozitsiyasi "ijtimoiy prodyuser"dir. Bu talabalarga o‘z ta’lim loyihalarini ijtimoiy sohaga olib chiqishga yordam beradi[3].

Tyutor nafaqat bolani mo‘ljallangan yo‘ldan olib boradi, balki unga ta’lim faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirishga yordam beradi. Tutorning maqsadi o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirishdir. Tutor bilan hamkorlikda mijoz mustaqil faoliyatni rejalashtirishni, shaxsiy manfaatlar, qobiliyatlar va ehtiyojlarga muvofiq shaxsiy yo‘lni qurishni o‘rganadi.

Tutorning vazifasi talaba yoki talaba hayotida inqiroz, o‘tish bosqichlarida unga o‘rdab berish:

Talaba-yoshar hayotida qanday holatlarda inqiroz, o‘tish davri sodir bo‘ladi:

- Maktabgacha ta’lim muassasasini tamomlaganda;
- birinchi sinfga borganda;
- maktab o‘zgarganda yoki tamomlaganda;
- professional ta’lim bosqichiga o‘tailganda;
- texnik maktab yoki universitetga kirishda;
- ishga joylashishda;
- mutaxasislik bilan bo‘gliq bo‘lgan dasturni o‘zlashtirishda muammolar, ichki hayajonlarni yo‘qotish, istaklarini aniqlashda;

O‘tish davrlarida va boshqa inqirozlarda talaba unga nima bo‘layotganini tushunmaydi. Tyutor o‘qituvchi yoki psixolog emas, balki u ikkala kasbning xususiyatlarini ham o‘z ichiga olgan mutaxasis bo‘lmog‘i lozim. Biroq, mutaxassislik pedagogik sohaga tegishli. Aslida,

1. *Хуторской А. В.* Методика личностно-ориентированного обучения. Как обучать всех по-разному? — М., 2005.
2. *С. А., Кунгурова И. М.* Сущность и направления реализации индивидуальной образовательной траектории // Интернет-журнал Науковедение. 2013. (дата обращения: 20.08.2015).
3. Ковалева Т.М. Сборник АПКиППРО / Т.М. Ковалева, Л.М. Долгова и др.— Москва. 2009

mutanosiblik murabbiylik kabi. Har ikki holatda ham, mijoz talaba) o‘z-o‘zini anglash, oshkor qilish va maqsadlarga erishish uchun ichki resurslardan samarali foydalanish uchun harakat qiladi. Tutorlar mana shunday jarayonda talaba-yoshlarni imkoniyatlarini kegnaytirib, o‘z-o‘zini anglashga yordam beradi. Tutor bilan ishlash orqali talabalar o‘zlarini tinglashadi, o‘zlarini tushunadilar, o‘z ehtiyojlari va istaklarini bajaradilar.

Tutorlar nafaqat davlat va xususiy ta’lim muassasalarida ishlaydi. Ular shaxsiy faoliyat bilan shug‘ullanadilar, ammo xususiy xizmatlarga bo‘lgan talab hali bizda mavjud emas davrlar o‘tishi va ta’limga bo‘lgan ehtiyojning yanada ortishi natijasida tutor ham har bir oila kesimida talab ortadi bu esa taraqqiyotning rivojiga bogliq bo‘ladi. Ota-onalar hali yangi lavozimdan ehtiyot bo‘lishadi. ota-onalar har doim ham bolaning ta’lim muhitining murakkabligini tushunishmaydi, tutorning xizmatlaridan foydalanish lozimligini anglashmaydi.

Shu bilan birga, talaba-yoshlarning shaxsiy psixologik xususiyatlarini individual yondashuv va hisobga olish ta’limning asosiy tamoyillari hisoblanadi. Barcha talaba-yoshlar nafaqat maxsus talabalar, balki individual rivojlanish va ijtimoiylashuv dasturiga muhtoj, ota-onalar buni tushunishga kirishmoqdalar, tutorlarga bo‘lgan talab o‘sib bormoqda. Individual, maqbul tanlangan va tuzilgan o‘quv muhitining qiymati asta-sekin mutaxassislar tomonidan emas, balki ota-onalar tomonidan tan olinadi.

Tyutorning vazifalari

Tutor inson va ta’lim muassasasi, ta’lim muhiti o‘rtasida vositachilik vazifasini bajaradi.

Tyutorning vazifalari:

- talabalarga o‘z xususiyatlarini, individualligini bilishlariga yordam berish;
- talabalarga o‘zini isbotlashga yordam berish;
- harakatlar, tanlov natijalari uchun ongli tanlov va mas’uliyatni o‘rgatish;
- o‘quvchiga maqsadlar, manfaatlar va ularni amalga oshirish bo‘yicha qaror qabul qilishga yordam berish;
- talabaga tashqi dunyo bilan shaxsning muvozanat va uyg‘unligini topishga yordam berish;
- ota-onalarga bolaning o‘ziga xos xususiyatlari va unga mos keladigan ta’lim muhitining o‘ziga xosligi haqida aytib berish.

Tutor talaba-yoshlarga qiziqarli narsalarni tahlil qilishni, nima bo‘lmasin, bu oson va katta qiyinchilik bilan egalanishini tushuntiradi. Tutor kuzatuvlar asosida talabalarni mustaqil tanlovga olib keladi. Bundan tashqari, Tutor muhim, foydali va qiziqarli mutaxassislar bilan uchrashuvlar o‘tkazadi. Talabalar bilan birgalikda aqliy xaritalar, kollajlar, jadvallar, sxemalar, rejalar va boshqalar yaratishni o‘rganadi.

Tutor maktab o‘quvchilari bilan tez-tez ishlaydi, lekin u har qanday yoshdagi odamlarga hamroh bo‘lishi mumkin. Bolalar bog‘chasi, maktab, maktab, universitet, kasbiy qayta tayyorlash, qayta tayyorlash – bularning barchasida Tutor ishtirok etishi mumkin.

Tutor talaba-yoshlarning o‘zi bilan emas, balki uning ta’lim muhiti bilan ishlaydi. Shu boisdan tutor quyidagi tamoyillarga amal qilshi lozim,

Muammolarni hal qilish, tahlil qila olishi kerak, faoliyatni tashkil qilish nuqtai nazaridan har bir variantni talabaga yetkaza olishi lozim

a) Qoidalar, maslahatlar, talablar va ko‘rsatmalar ishlab chiqishi, tanlovda avtomatik ravishda "sinov va xato" usulini o‘z ichiga oladigan induvidual loyihalari yaratishi, talaba o‘zi qanday vositalar va natijalar bilan mos kelishini ta’limlaydigan imkoniyat hosil qilishi;

b) Talabalarning xaraktek-xususiyatlarining xilma-xilligi, noyob xususiyatga ega ekanligiga ishontirish.

c) Talabalar bilan aloqa qilish, ularning takliflarini, qiziqishlarini, istaklarini yo‘naltira bilish.

d) Talabalarni o‘z-o‘zini tahlil qilish va doimiy tanlov borligini tushuntirish;

Tutorning elkasiga talaba-yoshlarni ta’lim jarayoniga jalb qilish, motivatsiya berish, o‘rganishga qiziqishni rag‘batlantirish kabi vazifalar turadi. U tabalarni qiziqtirishi, darslarda faol ishtirogini ta’minlashi, talaba-toshlarni uy vazifalarini bajarishga undashlari kerak. Buning uchun tutorlar talaba-yoshlarning psixologik xususiyatlarini diqqat bilan o‘rganishingiz kerak. Kuzatishlar asosida, suhbatlarni tahlil qilishi, nafaqat qiziqish uyg‘otadigan, balki bolani ham ochib beradigan, o‘zi bilmagan narsalarni ko‘rsatadigan muhitni yaratadi.

Tyutor o‘quvchining faoliyatini nazorat qiladi, boshqaradi va qo‘llab-quvvatlaydi. Tyutorning ishi tufayli muayyan ta’lim oluvchining ta’lim betartibligi asta-sekin tartibga aylanadi. Shogird ta’limdan nimani, qanday qilib va qayerda ishlatishi kerakligini tushunadi. U o‘z hayoti va jamiyat hayotida mustaqil va faol ishtirokchiga aylanadi.

Tyutorlikning faoliyati mijozning o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish qobiliyatini o‘strishni ham o‘rgatadi. Bu nimani anglatadi: mas’uliyat, o‘z

taqdirini belgilash, tashabbus ko‘rsatish, nafaqat shaxsiy ish uchun, balki jamoada faoliyat yuritish uchun ham amal qiladi. Talaba-yoshlarda jamoaning g‘alabasi uchun nima qilish kerakligini tushunadi, uning kuchi va o‘ziga xosligi nima, jamoaviy maqsadga erishish, zaif va kuchli tomonlarini tushunish, ularni hayotiy maqsadlarga erishish uchun samarali ishlatish qobiliyatini shaklantirish va rivojlantirish tutorning asosiy yutug‘i hisoblanadi.

12.3 Guruhiy loyihalarni amalga oshirish yo‘llari va fasilitatorlik faoliyati.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limdan kuzatilgan maqsad – kishida o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini yo‘naltira olish, o‘z taqdirini o‘zi belgilay olish mexanizmlarini qo‘llab - quvvatlash va rivojlantirishki, bular shaxsiy, o‘ziga xos obrazning shakllanishi, kishilar, tabiat, madaniyat bilan dialogik o‘zaro munosabatlari uchun zarurdir. Shu bilan birga biz o‘zining imkoniyatlarini amalga oshirish, deb kishi tomonidan unda mavjud iste’dod va qobiliyatni eng yuqori darajada rivojlantirish jarayoni va natijasini, ularning amaliyotda tadbiq qilinishini tushunamiz. Bu, shuningdek, shaxsning o‘z-o‘zini doimiy rivojlan-tirishidan xam iboratdir. O‘z-o‘zini anglash – shaxsning o‘z harakatlari, muomalalari, intilishlari, manfaatlarini boshqa kishilar manfaatlari, harakatlari, intilishlari bilan moslashtirishga doimiy intilishidan, o‘zida ijtimoiy manfaatlarga amal qilishni vujudga keltirishdan, bunda o‘zidagi shaxsiy va takrorlanmas o‘ziga xoslikni yo‘qotmaslikdan iborat. O‘z o‘rnini belgilab olish - bu shaxsning ma’naviy, axloqiy o‘rnini shakllanishi, o‘zida “Men”ning o‘rin olishi, o‘ziga, jamiyatdagi, hayotdagi o‘z o‘rniga tushunib yetishidan iborat. Oliy maktabda shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuvning amalga oshirilishiga bo‘lgan zaruriyat oliy maktabni isloh qilish yo‘nalishida muhim yo‘nalishlarni ishlab chiqarish jarayonida rasmiylashtirilgan ta’lim taraqqiyoti bilan o‘z tasdig‘ini topadi.

Oliy o‘quv yurtlari tomonidan mutaxassislarni tayyorlashni insonparvarlashtirish muammosini yechish yo‘llarini izlash ham o‘quv fanlarining o‘qitilishini ixchamlashtirish va jadallashtirish yo‘li bo‘yicha, xam talabalarning yakka tartibda bilim orttirish fazilatlarini, ularning qiziqishlari, moyilliklarini hisobga olinishini ta’minlash bo‘yicha olib borilmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’limni takomillashtirish sharoitida aniq metodologik asoslarni izlash dolzarb tus oldi.

Kasbiy ta’lim sifati muammolarini tahlil qilish jarayonida metodologik asos sifatida pedagogik loyihalash namoyon bo‘ladi. “Pedagogik loyihalash -pedagogning pedagogik masalalarni yechishga qaratilgan ketma-ket o‘zaro bog‘liq harakatlari tizimi yoki oldindan rejalashtirilgan pedagogik jarayonning amaliyotga ketma-ket mujassamlanishidir”. Loyihalash muammosi o‘zining rivojlanish barcha fan o‘qituvchilariiga ega. “Pedagogik loyiha” atamasi ko‘proq quyidagi ma’noga ega bo‘lgan pedagogik ishlarda uchraydi: ta’limda, loyiha - ta’lim tizimini loyihalashtirishga qaratilgan holda rasmiylashtirilgan pedagogik g‘oyalar, pedagogik jarayonlar va texnologiyalar majmuasi, shuningdek ularning amaliy joriy etilish dasturlaridir. Bu holda loyihalash, Ye.S.Zair-Bekning fikricha, bor narsani nimaga aylantirish zarurligi yuzasidan g‘oyalar va harakat dasturini ishlab chiqarishdan iborat. Ishlab chiqilgan g‘oyalar va harakat dasturi mazkur tadqiqotda – talaba shaxsining o‘ziga xos ta’limiy yunaltirilganligi) loyihalash mahsuli sifatida ro‘y beradi. Loyihalash kasbiy faoliyat sohasi sifatida texnika, qurilish, ishlab chiqarishda paydo bo‘ldi, so‘ng iqtisodiyot, boshqa-rish, ijtimoiy sohadagi faoliyatga, xususan, pedagogik faoliyatga tarqaldi. V.Ye.Radionovaning fikricha, loyihalashning ko‘p qirrali madaniy-barcha fan o‘qituvchilari fenomeni o‘z faoliyatining barcha sohalarida hozir bo‘lgan istalgan kishi-ning hayotiy faoliyatning tub mohiyatidan kelib chiqadi.

Ilmiy yoki amaliy jihatdan kasbiy pedagogik faoliyat bu qatorda mustasno emas.

Kishining maqsadga muvofiq harakati shu faoliyatdan olinishi mumkin bo‘lgan natijalarni rejalashtirilishiga bog‘liqligi oldindan aniqlangan.

Asrlar davomida pedagog o‘zining kundalik ta’lim berish va tarbiyalash amaliyotida turli-tuman qarorlarni qabul qilishga to‘g‘ri kelgan va bu aynan uning shu kabi qarorlarning oqibatlarini yakka tartibda rejalashtirishiga, uning oldingi amaliy tajribasi ostida ishlab chiqilgan kasbiy his-tuyg‘usiga asoslangan.

O‘rta Osiyoning buyuk mutafakkirlarining asarlarida, jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiylarning asarlarida, shuningdek, qadimgi yunon faylasuflari Aristotel, Sokrat, Platonning asarlarida, hozirgi kunda ham biz uchun g‘oyat darajada qiziqarli bo‘lgan, xususan, ta’lim - tarbiyaning maqsadi va vazifasi, mazmuni va usullariga oid tashhisiy mulohazalar va fikrlar mavjud.

Abu Ali ibn Sino, ulug‘ qomusiy olim, inson mohiyati va mohiyaviy kuchi muammosini tadqiq qilar ekan, abstrakt narsalarning g‘oyaviy yetilish ma’nosini “hayotiy narsalarni fikran qarash” sifatida aniqladi. Shunga ko‘ra odam uchun bilim atrof dunyoda mo‘ljalni to‘g‘ri olish uchun, hodisalarni tushuntirish va oldindan ko‘rish uchun, faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish va boshqa bilimlarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘ladi. Bilim - voqelikni o‘zgartirishning juda muhim quroli. U tez rivojlanayotgan o‘zgaruv-chan tizimdan iborat, uning o‘sishi hozirgi sharoitda o‘zining sur’ati bo‘yicha boshqa har qanday tizimning o‘sishiga qaraganda jadalroqdir. Kishilarning qayta o‘zgartuvchi amaliy faoliyatida bilimlardan foydalanish qoidalarning maxsus guruhi bo‘lishini taqozo qiladiki, bu qoidalar qanday holatda, qaysi vosita yordamida va qanday maqsadlarga erishish uchun u yoki bu bilim zarur bo‘lishini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, bilim faoliyat tizimiga kiradi va maxsus shakl sifatida namoyon bo‘ladi, uning asosida esa faoliyatdagi ish tartibi bayon etiladi.

O‘zining falsafiy karashlarida mashhur matematik faylasuf Abu Nasr Forobiy pedagogikaning fan sifatidagi ayrim muhim vazifalarini ko‘rsatib o‘tadi. “Tarbiyalash san’ati tamoyili shundayki, - degan u,- tarbiyalash uchun reja tuzadigan kishilarning ko‘z oldidan quyidagilar ketmasligi kerak va bu shunday: bolalar faqat hozirgi kungina emas, balki kelajak uchun xam tarbiyalanishlari lozim, ya’ni, odamzod mafkurasi uchun va uning umumiy burchi uchun tarbiya olishlari kerak”. Ulug‘ matematik, astronom Mirzo Ulug‘bek o‘z shogirdlariga tez-tez shunday deb to‘rgan: “Agar Yerdagi voqelikni yaxshi tushunishni istasang, kelajakni yaxshi rejalashtira ol”. Astronomiya, matematika, fizika, tibbiyot, geografiya, barcha fan o‘qituvchilari va ling-vistikaga oid ko‘plab asar yozgan buyuk mutafakkir Abu Rayhon al-Beruniy ta’kidlagan: “Aqlli kishi kelajak avlod uchun foyda keltirib, u aql va idrok bilan hammani mushohada eta olsagina, ruhan qanoat hosil qilgan”. Vatanimizda faol ijtimoiy-pedagogik tafakkur rivoj-lanishiga Toshmuhammad Qori-Niyoziy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashid-xonovlar katta hissa qo‘shdilar.

Ularning asarlarida kelajak kishi siymosini yaratish g‘oyasi muammosi alohida o‘rin egallaydiki, unga erishish yo‘lida tarbiyaning tegishli tizimi barpo bo‘lishi lozim edi. Mashhur o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy o‘z asarlarida ko‘p marta o‘z diqqatini pedagogikaning vazifalarini tahlil qilishda, uning tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaviy faoliyatning san’at sifatidagi ahamiyatini yoritishga qaratdi. Abdulla Avloniyning fikricha, «tarbiya san’atlarning oliysidir, san’at esa hali

mavjud bo‘lmagan tomon intiladi, uning oldida ijodiyotining kelajakdagi maqsadi va g‘oyaviy siymosi gavdalanadi». Mutafakkir pedagoglar qoldirgan boy ijodiy merosdan olingan misollar shuni ma’lum qiladiki, ular pedagogik rejalashtirish loyihalashtirish) qadimdan muhokama markazida bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Talabalarga ta’lim va tarbiya berishning muvaffaqiyatliligi va natijaga egaligi pedagog tomonidan loyihaviy faoliyatni qanchalik o‘zlashtirib olganligiga bog‘liq, chunki bu faoliyat vaziyatga qarab texnologik yechimlarni takomillashtirishga qodir, yangi ta’lim yondashuvlari va usullarini ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Loyihaviy faoliyat, V.S.Bezrukovaning fikricha, “bu – ta’lim oluvchilar va pedagoglarning bo‘lajak faoliyatlarining asosiy qismlarini birinchi galda ishlab chiqishdan iborat”. Har qanday loyihalash ob’yektining, bu pedagogik tizimmi, pedagogik jarayonmi, pedagogik vaziyatmi, uning asosiy qismi - uning ishtirokchilarining faoliyati hisoblanadi. Shunning uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchi va ta’lim oluvchining faoliyati loyihalash-tiriladi. Loyihalash istalgan pedagogning tashkilotchilik, bilish va muomala qila olish bilan bir qatorda) vazifasidir, maktabda o‘quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga imkon yaratadi.

Loyihaviy faoliyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: muammo tahlili; maqsadning qo‘yilishi; unga erishish uchun vosita tanlash; axborotni izlash va qayta ishlash, uni tahlil qilish va umumlashtirish; olingan natijalarni baholash va xulosalar.

Predmetli faoliyat uch qismdan tashkil topadi: predmetli, faoliyatli va muloqatli. Loyihaviy faoliyat rivojlantiruvchi ta’lim uslublaridan biri bo‘lib, mustaqil tadqiqotchilik ko‘nikmasini hosil qilishga yo‘naltirilib muammoning qo‘yish, axborotlarni to‘plash va uni qayta ishlash, tajriba-sinovlar o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish), ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta’lim jarayonida olingan bilimlarni birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Loyihaviy faoliyatdan kuzatilayotgan maqsad ta’lim oluvchilar tomonidan turli o‘quv fanlarini o‘rganish davrida mujassamlashgan bilim, mahorat va ko‘nikmalarni tushunish va qo‘llay olishdan iborat.

Pedagogning loyihalash faoliyatidan kuzatilgan maqsad:

- rejalashtirishga o‘rgatish pedagog maqsadni aniqlay olishi, ish davomida qo‘yilgan maqsadga erishishning asosiy bosqichlarini ifoda eta olishi);

- axborot materiallarni yig‘ish va uni qayta ishlash ko‘nikmasini shakllantirish pedagog kerakli axborotni tanlay olishi va undan to‘g‘ri foydalana olishi lozim);

- tahlil qila olish ko‘nikmasi ijodiy va tanqidiy tafakkur);

Yozma hisobot tuza olish ko‘nikmasi ish rejasini tuza olishi, axborotlarni aniq taqdimot etish, izohlarni rasmiylashtirish, zaruriy adabiyotlar bibiliografiya) haqida tushunchaga ega bo‘lish);

- ishga ijobiy munosabatda bo‘lishni shakllantirish pedagog tashabbus ko‘rsatishi, ishni belgilangan ish rejasi va tartibi bo‘yicha o‘z vaqtida bajarishga harakat qilishi kerak).

G.Ye.Muraveva fikricha, pedagog tomonidan loyihalash faoliyatni yuqori darajada o‘zlashtirganligini oldindan ayta olish, rejalashtirish, tuza olish va modellashtirish ko‘nikmalarini shakllanganlik darajasi belgilaydi. Bu tushunchalarning va ularning mazmunini alohida qarab chiqamiz. Tadqiqotimiz ob’yekti loyihalash faoliyati bo‘lib, u oldindan ayta olish faoliyati bilan jips aloqada bo‘ladi, shunga ko‘ra bashorat qilishni oldindan ayta olishni) batafsilroq qarab chiqiladi.

Dastlabki tushuncha: “bashorat qilish - kelajakda biron-bir voqea-natijasini oldindan ko‘rmoq, oldindan aytib bermoq”. Didaktik bashorat qilish - didaktik voqealar rivoj topishini ilmiy tarzda oldindan ko‘ra olish jarayoni tushuniladi.

Bashorat qilish loyihadan farqli ravishda o‘zgarmas mazmunga ega.

Bashorat qiluvchi modellar asosida ta’lim jarayonini jadallashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Didaktik bashorat qilish, shuningdek, pedagogning o‘qitish faoliyatini rejalashtirishga asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Bashoratlashning oddiy uslubiyoti tadqiqotning quyidagi asosiy bosqich-larini o‘z ichiga oladi: “bashoratlashdan oldingi mo‘ljal ob’ekt, predmet, muammo, maqsadlar, vazifalar, ilgari ketish vaqti, ishchi farazlar, usullar, tadqiqot tarkibi va tashkil etishni aniqlash); bashoratlash muhiti ob’ekt rivojlanishiga ta’sir etuvchi, bashoratlashning ixtisoslashmagan, qo‘shni tarmoqlari bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash); dastlabki model, ya’ni ob’ekt xarakteri va tarkibini yorituvchi ko‘rsatkichlar, o‘lchamlar tizimi ma’lumot-larini to‘plash; izlash bashorati dastlabki modelning kelajakdagi loyiha-si, bunda bashorat muhiti omillarini e’tiborga olgan holda kuzatiladigan holatlar bo‘yicha hal qilinishi talab etiladigan kelajakdagi muammolar aniqlanadi); me’yoriy berilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha ko‘rsatilgan maqsad va me’yorlarga muvofiq bo‘lgan kelajakdagi dastlabki model loyihasi); ishonchlilik darajasini baholash va

bashoratlovchi modellarni aniqlash, odatda, xolis mutaxassislardan so‘rash yo‘li bilan; bashoratlovchi modellarni taqqos-lash asosida yechimlarni ixchamlashtirish uchun tavsiyalar tayyorlash”.

Bashoratlash – ob’ekt haqida oldin bo‘lgan ma’lumotlarni olish jarayoni, ilmiy asosda oldindan asoslashtirilgan holatlar va usullar B.S.Gershunskiy)

Bashoratlash biror-bir holat, jarayon mavjud yoki uning vujudga kelishi uchun shart-sharoit bor deb oladi. Loyihalash jarayoni esa kelajakdagi, ya’ni, hali mavjud bo‘lmagan ob’ekt loyihasini tayyorlashdan iborat. Loyihalash bashorat qilish qismini o‘z ichiga oladi yoki mavjud bashoratga tayanadi.

Ikkinchi tushuncha – rejalashtirish. Rejalashtirish – biror narsaning rejasi yoki loyihasini solishtirish bo‘lib, reja – “umumiy maqsadga birlashgan amalga oshirilishi uchun dastlab bir qancha oldindan uylab qo‘yilgan harakatlar, tadbirlarni bajarish talab etiladigan niyat, loyiha, topshiriqdir”. Ko‘pincha rejalashtirish va loyihalash sinonimlar tarzida foydalaniladi. Reja va loyihani tuzish maqsadi nuqtai nazaridan, haqiqatda farq yo‘q. Reja ham, loyiha ham kelgusi aniq voqelikni yoritadi va uni amalga oshirish uchun tuziladi. Lekin, fikrimizcha, loyihalash rejalashtirishga qaraganda kengroq tushunchaga ega. Rejalashtirish aniq harakat, ularning tartibini belgilash bilan bog‘liq, ya’ni, kelajakning o‘zgaruvchan tashkil etuvchisi bo‘lgan faoliyatdan iborat. Loyihalashda kelajakdagi narsa yoki jarayonlar tamoyillarga tayangan holda asoslanadi va tavsiflanadi, uni amalga oshirish usuli namoyon etiladi. Reja esa o‘ylab qo‘yilganlarni amalga oshirish yuzasidan harakatlar tizimini aks etadi. Pedagogning kasbiy faoliyatida rejalashtirish keng o‘rin egallaydi. Rejalashtirish jarayonida pedagog oldida to‘rgan faoliyatga diqqat bilan ish tutadi, mazmunini pedagogik jihatdan qayta ishlab chiqadi. Uni tashkil etishning samarali, mahsuldorroq shakllari va uslublarini izlaydi.

U uning tarkibini aniqlaydi, uning ayrim qismlari orasidagi bog‘lanishni, ayrim qismlari orasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni aniqlaydi, ularni birlashtirish va o‘zaro ta’sirining nisbatan mahsulli shakllari va usullarini izlaydi va h.k, ya’ni ishning mahsuldor, unumli tizimini shakllantiradi.

I.P.Rachenko rejalashtirishni ko‘zdan kechirishning bir necha tomonini ajratadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan pedagogik faoliyatni rejalashtirish -shaxs, jamoaning rivoj topishiga bir butun yondoshuvni loyihalashdan iborat.

Rejalashtirishning iqtisodiy tomoni – faoliyat natijasi samara-dorligini ta’minlashdir. Psixologik nuqtai nazardan reja miyada harakatlar qonuniy ketma-ketligini aniqlovchi shajaraviy tuzilgan jarayondir. Muallif fikricha reja tuzish - ishni loyihalashtirishdir. Reja ishning aniq bir tizimidir, bunday tizimlarni loyihalash esa rejalashtirishning asosini tashkil etishi lozim. Bu holda tizimlarni loyihalash – o‘quv-tarbiya masalalarining jadal, unumli psixologik-pedagogik yechimini izlashdan iborat. I.P.Rachenko pedagogik faoliyatni rejalashtirishga quyidagilarni kiritadi:

a) pedagog oldida to‘rgan asosiy maqsad nuqtai nazaridan pedagogik holatni baholash;

b) oldindan asosli tarzda ayta olish, ishning borishi va natijalarini oldindan ko‘rish, shunga bog‘liq tarzda uning maqsad va vazifalarini aniqlash;

v) zaruriy chora-tadbirlar, harakatlar ketma-ketligi dasturini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish uchun eng unumli uslublar, usullar va jihozlarni tanlash;

g) ishni vaqt bo‘yicha hisob-kitobini qilish, uning boshlanishi va oxirini belgilash;

ye) hisobga olish va nazorat shakllari va uslublarini belgilash.

I.P.Rachenko keyingi ishlarida rejalashtirish jarayonini quyidagicha izohlaydi:

a) maqsad va vazifalarni shakllantirish; b) ketma-ket harakatlar dasturini ishlab chiqish; v) faoliyat jarayoni va natijalari jarayonini vaqti hisobini nazorat

qilish.

Ammo, pedagogik adabiyotda bu jarayonlarga nisbatan qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Masalan, V.I.Zagvyazinskiy istalgan kishi, shu jumladan pedagogik faoliyatda quyidagi davrlarni ajratadi:

- erishilgan dastlabki holat , boshlang‘ich vaziyatlar tahlili;
- tashhislash yo‘nalishlarini aniqlash;
- bashorat qilish va oldindan aytish;
- maqsad va asosiy vazifalarni aniqlashni o‘z ichiga olgan maqsadga yo‘nalganlik;
- o‘ziga xususiy masalalar na ularni yechishning asosiy bosqichlarni o‘z ichiga olgan rejalashtirish.

Bunga qaraganda, loyihalash rejalashtirishdan keyin keladi va rejani aniqlashtirishdan iborat. Bizning nuqtai nazarimizda I.P.Rachenko fikrlariga nisbatan bu qarash aniqroqdir, chunki, shaxs o‘z faoliyatini

rejalashtirish uchun kelajakdagi ta’lim jarayoni dasturi yoki loyihasi bo‘lishi kerak.

P.Ye.Reshetnikov tomonidan tayyorlangan pedagogik faoliyatni rejalash-tirish usullari qiziqarlidir: dasturiy - maqsadli, majmuaviy-tadbiriy, tizimli-texnologik. Dasturiy-maqsadli rejalashtirishda faoliyatning yakuniy va oraliq maqsadlari loyihalanadi va tavsiflanadi, reja, yakuniy hujjat shakli sifatida ish dasturi xizmat qiladi. Majmuaviy-tadbiriy rejalashtirishda quyidagilar loyihalashtiriladi:

a) eng muhim masalalar, ularni yechish uchun yo‘naltiriladi;

b) ishning majmua shakliga ega bo‘lgan ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirlar;

v) bajarish muddatlari;

g) bajarilishi uchun mas’ullar;

d) nazorat qilish shakllari va bajaruvchilar;

ye) kurs mavzularini o‘rganish ketma-ketligi;

j) darsning asosiy bosqichlari, uning jihozlanishi, o‘quvchilarga beriladigan vazifalar. Reja shakli: tadbir, dars va boshqalarning aniq rejasi.

Tizimli-texnologik rejalashtirishda quyidagilar loyihalanadi:

a) ta’lim muassasasining ta’lim faoliyati yoki rivojlanishi to‘g‘risidagi va tajriba-sinovlarning yetakchi g‘oyalari;

b) o‘quv rejasi;

v) talabalar tomonidan kasbiy tajribani o‘zlashtirishni ta’minlovchi o‘quv va kasbiy masalalarining ishlab chiqarilishi;

g) o‘quv jarayonining tartibi; d) o‘quv fanlari bo‘yicha dasturlar;

ye) har qaysi alohida o‘quv kursini o‘rganish texnologiyasi;

j) har qaysi alohida kursni o‘tkazish texnologiyasi;

z) ish unumi mezonlari va ko‘rsatkichlari tizimi va mutaxassis kasbiy-shaxsiy rivojlanishini tashhislash texnologiyasi;

i) oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkazish texnologiyasi;

k) moddiy, moliyaviy, mutaxasislar bilan ta’minlash yuzasidan olib boriladigan ishlar;

l) pedagogik jamoani rivojlanish jarayonidagi ta’limiy masalalarni hal qilishga tayyorlash bo‘yicha ishlarning shakli; muassasaning ta’limiy dasturlari.

Uchinchi tushuncha modellashtirish. Bu – “bilish ob’ektlarini ularning modellarida tadqiq qilish uslubi; aniq mavjud predmetlar, voqealar va tuziladigan ob’ektlarning tavsifnomalarini aniqlash yoki yaxshilash, ularni yasash usullarini qulaylashtirish, boshqarish kabilar uchun yasash va o‘rganish”.

Model – tabiiy yoki ijtimoiy borliq muayyan ko‘rinishning, inson madaniyati, g‘oyaviy-nazariy ta’lim mahsulining, aslining o‘xshatmasi chizmasi, tarkibi, belgilari tizimi. Bu o‘xshatma asl bo‘lib, uning xossalari va tuzilishi, uni o‘zgartirish yoki boshqarish haqidagi bilimlarni ma’lumotni) saqlash va kengaytirish uchun xizmat qiladi. Model - bu aslni bilish va boshqarishdagi “vakili”, “o‘rinbosari”dir. Muayyan shartlarda nusxani tayyorlash va tadqiq qilish natijalari asl nusxaga o‘tkaziladi»[36]. Model tushuntirish, oldindan aytish, topilmali vositasi sifatida, doimo bilishga oid rolni bajaradi.

Modelning loyihadan birinchi farqi - uni tuzish maqsadidir. Model narsa, hodisani o‘rganish, ma’lumot axborot) olish, uning qirralarini o‘rganish uchun, shuningdek, uni o‘zgartirish va boshqarish uchun foydalaniladi. Loyiha esa narsani tuzish, borliqqa mujassamlashtirishda ishlatiladi va yuqorida ko‘rsatilganidek, bilishga oid vazifani bajaradi.

Modelning boshqa o‘ziga xos xususiyati, yuqorida keltirilgan ta’rifga ko‘ra, u aniq mavjud aslni «ifodalaydi», «almashtiradi», loyiha esa hali mavjud bo‘lmagan narsalarni tavsiflaydi. Model – borliq qismining o‘xshatmasi; uni tuzishda muhim bo‘lmagan holatlardan chetlaniladi, faqat bosh asosiy qismlar va tavsifnomalar qayd etiladi. Model - xayoliy tuzilma.

Loyihada, aksincha, kelajakdagi narsa va jarayonlar to‘g‘risida, shartlar e’tiborga olingan holda, aniq tasavvur akslanadi.

Biz bergan modellashtirish tushunchasi ta’rifida hali mavjud bo‘lmagan ob’ektlar ham bo‘lishi mumkin. Bunda loyihalash va modellashtirish tushunchalari o‘zaro kesishadilar. Lekin, ularni ajratish mumkin. Yasalayotgan narsa modeli bevosita narsaning o‘ziga mujassamlanmaydi, lekin jarayonning bu eng boshida sodir bo‘lishi mumkin. Modellash, shuningdek berilgan shartlarda maxsus uyushtirilgan ta’sir natijasida ob’ektda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan holat haqida yangi ma’lumot olishga imkon beradi, ya’ni, bashoratlash vazifasini bajaradi. Modellash bashorat qilish uslubi sifatida ta’lim jarayonida o‘rganiladigan narsaning axborotli modelini yasash bilan bog‘langan bo‘ladi. Bu mo‘ljallangan chiziqlar deb ataladiganlar ko‘rinishida yasalgan mantiqiy chizmalar u qaysi tushunchalar va ta’riflardan qaysilari tomon harakat qilishni ko‘rsatadi), mazmunning asosiy holatlarini yorituvchi turli ramzlar yoki mavzuni o‘rganishning aniq rejasi bo‘lishi mumkin.

Pedagog va talabalarning faoliyati, usullar bilan to‘ldirilgan axborotli faoliyat modeliga, jarayonli modelga aylanadi. Pedagog talabalardagi va yangi ma’lumotni, mavjud va zarur bo‘ladigan odat va ko‘nikmalarni,

boodobliklikning aniq va zaruriy darajasini o‘zaro solishtiradi va faraziy tarzda talaba uchrashi mumkin bo‘ladigan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Farazga asoslanib, u muammoning yechilishini, bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni, maqsadga muvofiq bo‘lgan yoki bo‘lmagan harakatlarni oldindan ko‘radi, faoliyatning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlovchi vositalarni tanlaydi, ya’ni, xayolan tajribalar o‘tkazadi. Buning uchun xayoliy tajribaga yana bitta shart kiritilishi lozim - talabalarni faoliyatga undovchi shartlarning holati va kuchini, ularning qiziqishlarini, o‘z-o‘zlarini tarbiyalashga istaklari borligini nazarda tutish, zarur bo‘lsa, intilishlarini rivojlantirish chorasini ko‘rish lozim.

Pedagogning yuqorida tavsiflangan harakatlari, aynan fikran sinab ko‘rishi, loyihalash faoliyatiga kiritilishi mumkin, ya’ni modellashtirish loyihalashning bir qismi bo‘ladi. Didaktikada modellashtirishni bilish uchun pedagogning loyihalash faoliyatini aniqlash lozimdir.

Tuzish-qurish konstruksiyalash) tushunchasi. Tuzish-qurish - «biror-bir qurilish, inshoot, qurilma qismlarining tarkibi va o‘zaro joylashuvi, shunday tuzilishli qurilish, inshoot, mashinaning o‘zi». Tuzish-qurishda biror-bir ob’ektning tarkibi bosh tushuncha bo‘lib, tuzuvchilik faoliyati loyihalash faoliyatidan farqli ravishda, xayoliy va amaliy buyumli tuzuvchilik) faoliyat bo‘lishi mumkin, xayoliy tuzuvchilik mazmuni bo‘yicha loyihalashga yaqin va uning o‘xshashi sifatida ko‘plab ishlatiladi. Lekin, bizning fikrimizcha, tuzish loyihalashga nisbatan tor ma’nodagi tushuncha, chunki, u yaratilayotgan ob’ektning sirtqi tomonini akslantiradi, loyihalash esa ichki, o‘zgaruvchan va boshqa tashkil etuvchilarni o‘z ichiga oladi, Pedagogik qomusiy lug‘atda tuzish-qurish ta’rifi quyidagicha keltirilgan: «Tuzish-qurish konstruksiyalash) - loyihalar va hisoblashlarni bajarish yo‘li bilan model, mashina, inshoot, texnologiyani yasash jarayonidir».

Keltirilgan ta’rifga ko‘ra tuzish-qurish ob’ektlari sifatida nafaqat qurilishlar, inshootlar, mashinalar, qurilmalar, balki, modellar va texnologiyalar xam namoyon bo‘lishi mumkin. Bunda belgili, ramzli mavhum emas, balki moddiy, narsali modellar ko‘zda tutiladi. Texnologiyalar haqida esa, «texnologiyalarni loyihalash» so‘z birikmasi o‘rinliroq, chunki texnologiya jarayon sifatida vaqtinchalik, o‘zgaruvchan tashkil etuvchiga ega, qurilmalar esa tuzish mahsuli tarzida faqat o‘zgarmas tavsifnomaga ega. Bundan tashqari, ko‘rsatilgan ta’rifda tuzish loyihalashni o‘z ichiga oladi. Ayrim mualliflar masalan, Ya.Ditrix) tuzishni loyihalash natijasiga tayanadigan faoliyat tariqasida qaraydilar, va «loyihaviy - konstruktorlik jarayoni» atamasini ishlatadilar.

V.S.Bezrukova pedagogik tuzishni bir vaqtda loyihalashning bosqichi sifatida va tuzilgan loyihani keyingi detallashtirilishini batafsil aniqlash sifatida qaraydi. Bizning nuqtai nazarimizdan loyihalash tuzishni o‘z ichiga oladi, uni o‘quv faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan vositalarning yaratilishi sifatida qarash mumkin.

Ma’nosi bo‘yicha loyihalashga yaqin bo‘lgan modellash, bashorat qilish, rejalash, o‘quv va o‘qitish faoliyatini tuzish tushunchalarining tahlili, ularning umumiyligi va farqini aniqlash ta’lim jarayonini loyihalash ma’nosi haqida bir qator xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Pedagogik jarayonni loyihalash – bu pedagogning tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlarni nazarda tutilgan holda ma’lum bir vaqt birligi ichida talabalarni maqsadga muvofiq holda rivojlantirishning kelajakdagi jarayoni va natijasi o‘rin oladigan kasbiy faoliyatining bir ko‘rinishidir.

Bo‘lajak ta’lim jarayonining loyihasi loyihalashning mahsulidan iborat.

Loyihalash modellashdan tuzish maqsadi bo‘yicha farq qiladi. Loyiha loyihalanayotgan ob’ektni borliqqa mujassamlashtirishdan iborat; model -

Pedagogik loyihalash tamoyillari va algoritmi

ob’ektni tadqiq qilish uchun, dastlab model, so‘ngra uning asosida loyiha ishlab chiqilsa, modellash loyihalashning tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin.

Loyihalash bashorat qilish tushunchasi bilan uzviy bog‘langan. Ularning umumiyligi shundaki, loyiha va bashorat kelajakdagi didaktik hodisalar haqida tushuncha beradi. Lekin, loyihadan farqli ravishda bashoratlar ehtimoliy mazmunga ega va u yoki bu didaktik jarayonning rivojlanish natijalarini oldindan ko‘ra oladi. Loyiha esa bu jarayonlarni qaytadan tuzadi. Loyihalash o‘z tarkibiga bashorat qilish qismini kiritishi mumkin.

Agar talabaning o‘quv - bilish faoliyat rejasi haqida gap borsa, va shu jarayon davom ettirilsa, rejalashtirish loyihani amalga oshirishi tarkibiga kiradi.

Tuzish-qurish ham ta’lim jarayonini loyihalash tarkibiga kiradi.

Fikrimizcha, u texnologik jarayonni amalga oshirish uchun moddiy vositalarni tuzishdan iborat. Loyihalash u yoki bu darajada kelajakdagi ta’lim jarayonini modellashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, tuzish-qurish qismlarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonini loyihalash - murakkab faoliyat bo‘lib, pedagogdan amaliy, didaktik, uslubiy - metodologik, buyumli va boshqa bilimlarning tizimini talab qiladi.

Ta’lim maqsadi bilan bog‘liqlikda ham o‘quv loyihasini turlarga ajratish mumkin: axboriy, tadqiqotchilikka doir, amaliy-yo‘naltirilgan, ijodiy, o‘yinli yoki rolli. Masalan, agar o‘qituvchi o‘quvchida axborotlar bilan ishlash malakalarini, matnni tahlil etish, turli manbalardagi ma’lumotlarni tasniflash va tekshirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysa, u holda axboriy tavsifdagi o‘quv loyihasidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Axboriy tavsifdagi loyihaning maqsadi aynan ma’lumotlarni to‘plash, axborotlarni rasmiylashtirish va taqdim etishdan iborat. Albatta, o‘quv loyihasining istalgan turida axborot to‘plash bosqichi bor, biroq bu yerda u o‘quv ishi vositasi bo‘lib xizmat qiladi, axboriy tavsifdagi loyihada esa, asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Mazkur holatda o‘quvchi faoliyati aynan axborotlar bilan ishlashga yo‘naltiriladi. Shu bilan birgalikda o‘quvchida axboriy kompetentlikni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanadi. O‘quvchilarning analitik, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, idrok etishning mantiqiy usullarini o‘zlashtirish va katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash maqsad qilib qo‘yilsa, tadqiqotchilikka doir o‘quv loyihasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur o‘quv loyihasining maqsadi loyiha farazini asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tajriba-sinov ishlari o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil etish, umumlashtirish, taqqoslash, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, bundan tashqari xulosalar chiqarish, o‘z nuqtai nazarini asoslash zarur. Ana shu tarzda tadqiqotchilikka doir o‘quv loyihasida asosiy e’tibor fikriy kompetentlikni rivojlantirishga qaratiladi.

Loyiha tarkibi quyidagicha belgilanishi mumkin:

- loyihadan kuzatilgan maqsad;
- uning dolzarbligi - axborot manbalari adabiy, ommaviy axborot vositalari, ma’lumotlar bazasi, elektron ma’lumotlar, intervyu, anketa, jumladan, xorijiy sheriklar uchun, “aqliy hujum”ni o‘tkazish kabilar) ;
- axborotni ishlash tahlil, umumlashtirish, dalillarni solishtirish, isbotlangan xulosalar)
- natija maqola, referat, ma’ruza, video va boshq.)
- taqdimot nashr, tarmoqda, teleanjumanlarda muhokamalar va hokazo).

Bunday loyihalar ko‘pincha tadqiqot loyihalariga aylanadi va ularning ajralmas qismi bo‘lib qoladi. Axborot izlash va tahlil maqsadida tekshirish

faoliyati tarkibi yuqorida aytilgan predmet-tadqiqot faoliyatiga juda o‘xshash:

- axborot izlash predmeti;
- izlashning bosqichliligi, oraliq natijalarini belgilash bilan;
- to‘plangan dalillar ustidan tahliliy ish;
- xulosalar;
- dastlabki yo‘nalishni tuzatish agar talab qilinsa);
- aniqlangan yo‘nalishlar bo‘yicha axborotni yana izlash;
- umumlashtirish;
- yakuniy xulosalar ishtirokchilarni qanoatlantiruvchi ma’lumotlar olinganicha davom etish);
- xotima, natijalarni rasmiylashtirish muhokama, tahrir, taqdimot, tashqi baho).

Ishtirokchilar soniga qarab ushbu loyihalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- shaxsiy turli o‘quv yurtlari, hududlar, mamlakatlardagi yakka kishilar hamkorligida bajariladi);
-juftli bir juft ishtirokchilar o‘rtasida);
- guruhli ishtirokchilar guruhlari o‘rtasida).

Ijroning bajarilishi vaqti, muddati) bo‘yicha loyihalar quyidagicha bo‘ladi:

- qisqa muddatli kichik muammo yoki katta muammoning biror qismini yechimini topish uchun), ular bir narsa, jarayonning dasturi bo‘yicha bir necha darsda yoki fanlararo aloqadorlik sifatida tayyorlanishlari mumkin; o‘rtacha muddatli bir haftadan bir oygacha);
- uzoq muddatli bir oydan bir necha oygacha cho‘ziladi).

Eng muhimi vazifalarni guruhlar bo‘yicha taqsimlash, tadqiqotning imkonli usullarini muhokama qilish, axborotlar, ijodiy holatlarni izlash. Bundan keyin loyihaga qatnashuvchilarning yakka tartibda yoki guruhlar bo‘yicha tadqiqiy, ijodiy masalalari bo‘yicha mustaqil ishlari boshlanadi. Guruhlarda olingan natijalarni oraliq muhokama qilishlar doimo o‘tkaziladi. Loyihalarni bajarishning zaruriy bosqichi: ularni himoya qilish, ularga baho berishdir.

Ish uni jamoa o‘rtasida muhokama qilish, xolis xulosalash, tashqi baho natijalarini e’lon qilish, xulosalarni bayon qilish bilan tugaydi. Loyihani tashqi baholash mezonlari:

- loyihalashning oldiga quyilgan muammolarning qimmatliligi va dolzarbligi, o‘rganilayotgan mavzuga mosligi;
- foydalaniladigan tadqiqot uslublari va olingan natijalarni ishlash uslublarining muvofiqligi;

- loyiha ishtirokchisining o‘ziga xos imkoniyatlariga muvofiq faolligi;

- qabul qilinadigan qarorlarning jamoviy mazmundaligi;

- loyiha ishtirokchilarining o‘zaro aralashuv, o‘zaro yordam, o‘zaro to‘ldiruvchanlik mazmuni;

- muammoga zaruriy va yetarlicha chuqur kirish, boshqa sohalardan bilimlarni jalb etish;

- qabul qilinadigan qarorlarni isbot qilinishi mumkinligi.

O‘z fikrlari va xulosalarini asoslay olish;

- bajarilgan loyiha natijalarini rasmiylashtirish tartibi;

- taqrizchilar savollariga javob bera olish, guruh xar bir ishtirokchisi javoblarining qisqachaligi va asoslanganligi.

O‘quv loyihasini ishlab chiqish bosqichlari: tayyorgarlik motivatsiya, muammoli vaziyatlarni aniqlash, mavzuni tanlash, loyihaning maqsadini belgilash); loyihalashga doir umumiy rejani ishlab chiqish, faoliyatni amalga oshirishning aniq rejasini tuzish, tanlab olingan nuqtai nazar bilan bog‘liqlikda topshiriqlarni talabalar o‘rtasida taqsimlash, mustaqil ish, guruhlarda ishlash, “aqliy hujum”, praktikum va boshqalar); amaliy muammoni tadqiq etish, ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash, natija olish, natijalarni sinovdan o‘tkazish, natijalarni grafik ko‘rinishida taqdim etish, hujjatlarni rasmiylashtirish); analitik rejalashtirilgan ishlar va olingan natijalarni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash); nazorat va baholashga doir muvafaqqiyatlarni va yo‘l qo‘yilgan xatolarni tahlil etish, xatolarni to‘g‘rilash yo‘llarini izlash, real holat bilan bog‘liqlikda loyihaga o‘zgartirishlar kiritish); yakuniy ish mazmuni bilan tanishtirish, xulosalarni asoslash, loyiha himoyasi).

Guruhiy va individual loyihalarning o‘ziga hos tomonlari bor.

Guruhiy o‘quv loyihalar:

• Birgalikda mehnat qilish ko‘nikmalari hosil qiladi

• Boshqalarni fikrini eshitadi

• Umumiy maqsad yo‘lida kelishuvga o‘rgatadi

Loyiha har tomonlama chuqur ishlangan bo‘lishi mumkin. Guruhlardagi ishlar har bir qatnashchiga vazifalarni bo‘lib berish va o‘zining kuchli tomonlarini ko‘rsatishga imkon beradi. O‘z kuchiga ishanmaydigan, havotirli talabalar uchun guruhlarda qulay va havfsiz psixologik sharoit yaratiladi.

Birgalikdagi faoliyat natijasida bir-birida o‘rganish jarayoni bo‘ladi, o‘quv jarayoning eng maqbul, foydali jihatlarini ko‘rsatadi. Bunday loyihalr guruhlarni birlashuva-hamfikrligiga olib keladi. Bunday

loyihalarda ayrim talabalar birovlarning hisobida “kun” ko‘rishlari mumkin.

Loyihaning barcha bosqichlarida har bir qanashchi uchun,har tomonlama ish amaliyotini olish mumkin emas.

Ayrim talabalarda ishning borishi va natijasi uchun mas’uliyat hissi bo‘lmaydi.

Ishni maqbullashtirish va tashkillashtirish imkoni bo‘lmaydi.

Har bir qatnashchining ishtirokini baxolash qiyin bo‘ladi Individual loyihalar:

• Loyiha muallifi ishning har bir bosqichida loyihaviy ishlarning to‘liq va har tomonlama tajribasini oladi.

• Shaxsiy namuna, mas’uliyat, sobitqadamlik va faollik rivojlanadi.

• Guruhlardagi birga ishlash tajribasi bo‘lmaydi.

• Birovlarning tajribasidan foydalanish imkoni yo‘q.

• Loyiha mavzusi muallif qiziqishlariga qarab tanlanadi.

• Ishning matijasi va borishi faqat muallifga bog‘liq bo‘ladi

• Yakuniy baholash muallifning ishini to‘laqonli sifatini belgilaydi.

• Loyihaning hamma bosqichlarida ish qiyin va mas’uliyatli bo‘ladi.

• Loyihaning har bir bosqichida mustaqil faoliyat olib boriladi.

Loyihalar ustida ishlashning individual va guruhiy faoliyatni tashkil etish

O‘quv loyihasini amalga oshirish bir qator metod va texnologiyalarga tayanadi. O‘quv loyihasini tashkil etishning turli bosqichlarida bir biridan farq qiluvchi metodlarga murajaat etishga to‘g‘ri keladi.Bu jarayonda o‘qituvchi va talabalarning faoliyatlari ham bir biridan farqlanadi.

Loyihaning guruhli yoki yakka tiplari o‘zining afzalliklari va kam-chilliklariga egadir.

Ta’lim-tarbiya vazifalarini ko‘p mehnatni talab qiluvchi loyihalash uslubi yordamida amalga oshirish va loyihaning ikki tipidan birini tanlashimizda talabaning ehtiyojini, shaxsiy xususiyatlarini va imkoniyat-larini, guruhdagi o‘rnini, maqomini va shunga o‘xshash xususiyatlarini hisobga olish zarurdir. Guruhli va yakka loyihalarning afzalliklari va kamchiliklari quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan.

Loyiha tiplarining afzalliklari va kamchiliklari

Guruhli

-umumiy maqsadga erishish uchun o‘zgalar nuqtai nazarini qabul qila olish, murosaga kelishish ko‘nikmalari, hamkorlik malakalari shakllanadi;

-loyiha chuqur va har tomonlama keng yoritiladi;

-guruhda ishlash talabalar o‘rtasida vazifalarni to‘g‘ri taqsimlashga, ishni bajarishda ularni kuchli tomonlarini ochishga yordam beradi

- ayrim talabalarni sust ishtirokiga imkoniyat yaratadi;

-guruhning har bir ishtirokchisiga loyihani amalga oshirish bosqichlarida har tomonlama tajriba to‘plash imkoniyatini bermaydi;

-ayrim ishtirokchilarda ishni-ng bajarilishi va natijalariga bo‘lgan mas’uliyatli yondoshuvni shakllantirmaydi;

-ishni muvofiqlashtirish va tashkil etishda qiyinchiliklardi;

-ishning amalga oshirishda guruhda vujudga kelgan ruhiy va ijobiy muhit, guruhdagi ayrim o‘ziga ishonchsiz ishtirokchilar-ning shaxsiy o‘rninini ishdagi o‘zaro hamkorlik orqali yuqori darajaga ko‘taradi;

-hamkorlikdagi ishlar boshqa ishtirokchilarning ish tajribasini o‘rganish-ga, uzoq maqsadni ko‘zlab amalga oshirilayotgan o‘quv faoliyati va o‘zini tuti-shini kuzatishga imkon beradi;

-loyiha guruhning jips-lashishiga yordam beradi.

vujudga keladi;

-har bir guruh a’zosining faoliyatini alohida baholashda qiyinchiliklar tug‘diradi.

-muallif loyihaviy faoliyat tajribasining barcha bosqichlarini to‘la va har tomonlama egallaydi;

-muallif loyihaning barcha bosqichlarini amalga oshirish haqida to‘la va har tomonlama tajribaga ega bo‘ladi;

-loyihani bajarishning barcha bosqichlari ko‘p mehnat va mas’uliyatni talab qiladi.

Guruhli loyihalarni tashkil etish yo‘llari

-shaxsiy tashabbus, mas’uliyat, faollik, tirishqoqlik rivojlanadi;

-loyiha mavzusi muallif qiziqishi asosida tanlanadi;

-ishni amalga oshirish va natijasi faqat loyiha muallif faoliyatiga bog‘liq;

-yakuniy baho muallif ishining sifatini to‘la yoritadi.

Ko‘pchilik hollarda pedagoglar guruhli loyihalar yuzasidan ish olib borishni ma’qul ko‘radilar. Guruhli loyiha ishlarini boshqarish bir muncha qiyin bo‘lsa ham, guruhli ishlash nafaqat o‘quv, balkim o‘ziga xos tarbiyaviy vazifalarni ham samarali amalga oshirishda pedagogga yordam beradi. Loyihalash guruhini o‘zini shakllantirish jiddiy vazifalardan hisoblanadi. Uning qatnashchilarini ongli, faol, mustaqil va mas’uliyatli bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, guruhli loyihalashni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, qatnashchilar tarkibida quyidagilar

bo‘lishi kerak: “g‘oyalar generatori”- o‘ylab topuvchi, yaratuvchi; “iqtidor”- ko‘p narsalarni biluvchi; “tanqidchi”- shubhalashuvchi, tekshiruvchi va qayta tekshiruvchi.

Yo‘lboshchilar va bajaruvchilar ham bo‘lishi lozim. Talabalar o‘zaro hamkorlikda, kerakli vaqtda boshqalarning nuqtai nazarlarini tushunishi, o‘zining fikrini himoya qila olishi, umumiy maqsadga erishish uchun o‘zaro kelisha olishi hamda shu bilan birgalikda boshqalarning fikrini qabul qila olishi yoki qat’iyatli bo‘lishlari kerak.

Guruhli loyiha ustidan ish olib borishning yana bir cheklovchi omili- ular uzoq vaqt mobaynida amalga oshirilishi mumkin bo‘lmasligidir. Talabalar hamkorlikdagi ishlarini mustaqil yo‘lga qo‘ya olishi qiyin bo‘lib, bundan tashqari uzoq muddat davomida guruhli ishni pedagog nazorat qilib borishi ham oson kechmaydi. Shuning uchun guruhli loyihalarni darsdan tashqari qisqa muddatli loyihalar sifatida bajarilishi ko‘p uchraydi.

N.Yu. Paxomova o‘zining “Metod uchebnogo proyekta v obrazovatelnom uchrejdenii” nomli kitobida guruhli loyihalar haqida ma’lumot beradi.

Guruhli loyihalashni tashkil etishda o‘quv maqsadlariga erishish bilan birgalikda talabalarda hamkorlik qilish ko‘nikmalarini ham shakllanib boradi. Lekin, guruhli loyihalashda har bir talabaga loyihani amalga oshirish bosqichlarida bir xil faol va mas’uliyat bilan ishtirok etish malakasini shakllantirish uchun sharoit yaratish imkoniyati yo‘q. Kimdir loyihani bajarishda asosiy ishni, kimdir ikkinchi darajadagi ishlarni bajaradi. Shuning uchun talabalar guruhli loyiha ishlari bilan birgalikda yakka loyiha ishlarida ham o‘zlarini sinab ko‘rishlari lozim bo‘ladi. Ular ko‘rsatmalarni umumiy tushuntirishda oladilar. Olib borilayotgan kundalik daftarlari talabalarga ma’qul bo‘lgan erkin shaklida yozib boriladi. Talaba ishni bajarilish vaqtida kerak bo‘ladigan hujjatlar, loyiha hisobotlarining yozuv qismini yozib, o‘rganib borishlari lozim. Hujjatlarni to‘g‘ri yuritish loyiha mualliflarida intizomlilikni shakllantiradi, ishning asosiy maqsadidan chalg‘imaslikka yordam beradi.

Guruhlarni talabalarning do‘stlik aloqalari, yoki o‘quv qiziqishlari, asosida yoki qur’a tashlash yo‘li bilan, yoki pedagogning ko‘rsatmalari bilan tuzishimiz mumkin, lekin ular ham o‘ziga xos kamchiliklariga ega bo‘lishi mumkin. Guruhlarda taqsimlanishda kelishmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun pedagog guruhdagi o‘zaro shaxsiy munosabatlarni, talabalarning maqomi, o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi, shu bilan birgalikda guruhli ishlarni olib borish jarayonida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy vazifalarni ham e’tiborga olishi zarur.

Guruhlar faoliyatini nazorat qilish va boshqarishda bugungi kun ta’lim tizimida bir qator yangi tushunchalar kirib kelmoqdaki biz bu haqida mavzu davomida qator ma’lumotlarni berib o‘tamiz. Kredit-modul tizimida xorijda keng tarqalgan supervayzerlik, moderatorlik, fasilitatorlik kabi faoliyat turlari ham ko‘zda tutilishi mumkin. Bu faoliyat turlari albatta ta’lim sifati va samaradorligini oshirish va shaffaflikka asoslangan raqobat muhitini tashkil etishga xizmat qiladi. Keling faoliyat turlariga izoh beraylik.

Moderator - qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirishga yordam beradi.

Ma’lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Supervayzer - quyidagi to‘rt fazifani bajaradi: o‘qituvchi sifatida o‘rgatadi, fasilitatorlik, maslahatchi, ekspert vazifani bajaradi.

Bizning ta’limda ushbu faoliyatlarning hammasi professor-o‘qituvchilar tomonidan bajariladi. O‘qituvchilik faoliyatini bunday turlarga ajratish bu faoliyat turining samarasini yanada oshiradi.

Biz mavzu doirasida fasilitatorlik faoliyati haqida kengroq to‘xtalamiz. Chunki fasilitator tushunchasi yuqoridagi tushunchalarni ta’riflashda ta’lim oluvchini anglashi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Fasilitator - bu muvaffaqiyatli guruh muloqotini ta’minlovchi shaxs. "Fasilitator" so‘zi inglizcha facilitatorning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi bo‘lib, ingliz tilidagi "osonlashtirish" fe’lidan olingan bo‘lib, soddalashtirish degan ma’nolarini bildiradi.

Fasilitator -bu tadbirlarda barcha kerakli ishtirokchilarning borligini ta’minlaydigan g‘oyalarni yozib olgan kishi emas balki, guruhning ko‘plab a’zolari o‘rtasida aloqa jarayonini soddalashtiradigan shaxs hisoblanib, ayniqsa, murakkab munozaralarda, ishtirokchilarning turli qarashlar va manfaatlarini yengil tushuntiradigan shaxs.

Fasilitator kim? Ingliz tilidan olingan so‘z bo‘lib, "facilitate" — "soddalashtirish" yoki "jarayonni osonlashtirish" degan ma’nolarni bildiradi. Fasilitator-guruhiy loyihalarni amalga oshirish yo‘llarini ta’minlaydigan, guruh tamonidan tadbirini rejalashtiradigan, boshqaradigan va munozarani boshqaradigan, guruh maqsadini samarali yakun topishini ta’minlovchi shaxs. Fasilitator muhokamalarning borishini, g‘oyalarning ravshanligini va barcha ishtirokchilarning ishtirokini nazorat qiladi. Samaradorlikka erishish uchun fasilitator xolislik va ob’yektivlikni saqlab turishi kerak. U o‘zining shaxsiy qarashlaridan, boshqa ishtirokchilar bilan munosabatlaridan chiqib ketadi va faqat guruh dinamikasiga yoki jarayonga e’tibor beradi. “Guruh jarayoni” - bu munozaralarni boshqarish, ishtirok etgan har bir kishidan eng yaxshi natija olish va tadbirni muvaffaqiyatli yakunlash uchun qo‘llaniladigan jarayon. Fasilitator muvaffaqiyati - bu guruh faoliyatini nazorat qilish, unga bildirilgan munosabatlar va guruh tomonidan qabul qilingan qarorlar bog‘liq. Har qanday fasilitatorning asosiy mas’uliyati guruh jarayoniga rahbarlik qilish va ular rivojlanishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratishdir. Shunday qilib, u guruhga eng oqilona qarorlar va muvaffaqiyatli xulosaga kelishga yordam beradi.

Fasilitator vazifasi quyidagilar:

- Guruh jarayoni rejasini tuzish, shuningdek, guruhga kerakli natijaga yaqinlashishga yordam beradigan texnika va vositalarni tanlash;
- Guruh dinamikasini nazorat qilish:
- har bir guruh a’zosini to‘g‘ri ishtirokini ta’minlash;
- guruh a’zolari o‘rtasida qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro tushunish olib borish;
- har bir g‘oya, savol va taklifni ko‘rib chiqish;
- natijada yig‘ilish a’zolarining birgalikda javobgarligi.

Facilitator -bu guruhga munozarani tuzish va guruhning jarayonlari va natijalarining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lganda aralashish orqali muammolarni aniqlash va hal qilishga yordam beradi. Facilitatorlarni moderatorlar, deb atashadi, mavzular va masalalarga neytral yondashuvni saqlab qoladi va butun guruhga xolis xizmat qiladi.

Facilitator so‘zi fransuzcha faciliter so‘zidan tarjima qilganda esa, oson qilish yoki soddalashtirish degan ma’noni anglatadi. Haqiqatan ham, mashg‘ulotchining maqsadi guruhning qaror qabul qilish jarayonini oson, aniq va samarali qilishdir.

1970 yil o‘rtalarida Yevropa davlatlarida guruhlar uchrashuvlarda ish qilish uchun mualliflar, vositachilar fasilitatorlar deb ataldi, ular muammoni hal qilish va qaror qabul qilish uchun eng samarali yondashuvlar yordamida amalga oshiruvchi mas’ullar edi.Mavzu bo‘yicha chop etilgan bir qator so‘nggi adabiyotlarda o‘qituvchining mas’uliyati va ko‘nikmalarini rivojlantirishda yondashuvlar tasvirlangan. Bu farq ko‘pincha tashkilot yoki guruh uchun tashqi facilitator va ichki facilitatoro‘rtasida amalga oshiriladi. Tashqi va ichki vositachilar asosan guruhning jarayoniga e’tibor qaratadilar. Facilitator vazifasi odamlar guruhlarida sifatli aloqa yaratish uchun zarur kishilar sanalgan.

Bugungi kunda odamlar bir-birlari bilan masofadan muloqot qilish uchun gadjetlar ishlatilishi hech kimni ajablantirmaydi. Ishda jamoaviy harakat natijasi muhim ahamiyatga ega. Bu eng yaxshi holat. Guruh faoliyati teatrga o‘xshaydi va unda har guruh a’zosi o‘z o‘rniga ega. Jamoada ochiq raqobat muhitini shakllantirish fasilitatorning vazifasiga sanaladi.

Ba’zan jamoa muammosini hal etishda avtoritar yetakchilik qiladi. Bu jamoada noroziliklarga, kelishmovchiliklarga sabab bo‘ladi. Mana shunday holatlarni oldini olish maqsadida fasilitatorlar xolis yondashgan holda masalani hal etishlari kerak bo‘ladi.

Ta’limda fasilitator o‘qituvchi emas, balki nozik pedagogik yondashuvlar orqali talabalar jamoalarida adolat muhitini yaratuvchi kimsa sanaladi.

Fasilitator menejer emas, balki drijyor. Ishtirokchilarni noto‘g‘ri ijro etuvchi orkestrga to‘g‘ri joylashtirishga qodir kishi. Vaqti-vaqti bilan ko‘rsatma berib, har bir musiqachiga kerakli eslatmani aytib berishini talab qil turuvchi inson desak mubolag‘a bolmaydi.

Fasilitatorlar nima uchun guruhlar orasida tashkil etilgan treningda ko‘maklashish muhim?

Chunki fasilitator, guruh birgalikda harakat qilishini yaxshilashga yordam berishi, muammoni aniqlashi, hal qilishi, qarorlar qabul qilishi, mojarolarni bartaraf etishi lozim. Fasilitatortrener)ning roli guruhni sinergiyasini yaratish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqarish bilan birgalikda kelishuvga erishish orqali yanada samarali ishlashga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Fasilitatorlik faoliyatini uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikmalar, va malakalar.



Oliy talimda tahsil olayotgan talabalarga osonlashtirish ko‘nikmalarini shaklantirish kelgusida guruhlar bilan birga samarali mehnat qilishlari uchun imkoniyat yaratishdan iborat. Bunday moslashuvchan kundalik hayotda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Talabalarni mehnat bozorida tez o‘rnini topib ketishiga xizmat qiladi. Fasilitator mavjud vaqt ichida o‘zaro maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur qarorlar qabul qilish, har bir bosqich orqali guruh harakatiga yordam beradi.

Professional o‘qituvchi va fasilitatorning umumiy tomonlari juda ko‘p. Ammo shunga qaramay, o‘qituvchi va fasilitatorning roli bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi va bu tushunchalarni farqlash juda muhimdir.

Bu nafaqat chalkashliklarni bartaraf etishga, balki ularning haqiqiy ma’nosini saqlab qolishlariga ham yordam beradi. Shu o‘rida o‘qituvchi va fasilitator o‘rtasidagi farq va o‘xshahshliklar haqida to‘xtalsak.

Fasilitator faoliyati.

- Har qanday savolda har doim ham mutaxassisdek javob bera olmaydi;
- Guruh jarayonlarini boshqarish bo‘yicha mutaxassis jumladan, guruhlararo va guruhlararo nizolarni hal qilish, strategik rejalashtirish, jamoani qurish va boshqalar);
- Ko‘pincha guruhga g‘oyalar va natijalarni aniqlash, og‘zaki ifodalashga yordam beradi masalan, muammoni hal qilish yoki yangi tartibni ishlab chiqish). Natijalar qayd etilgandan so‘ng, guruhga natijaga erishish yo‘lidagi keyingi qadamlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va "o‘rganish" ga yordam beradi;
- Umumiy tashkiliy maqsadlarga erishish uchun aniq qadamlarni amalga oshirishda yordam beradi.

O‘qituvchi faoliyati.

- Har doim mutaxassis sifatida ishlaydi;
- Guruh jarayonlarini boshqarishda mutaxassis bo‘lish shart emas. Buning o‘rniga, ishtirokchilarga aniq ta’lim natijalariga erishish uchun doimiy ravishda yangi bilimlar va ko‘nikmalarni o‘rgatadi;
- Ko‘pincha, ta’lim muassasalarida o‘qituvchi har bir guruh o‘quvchilarga o‘zlarining aniq maqsadlariga erishishga yordam bermaydi bu xalq ta’limi tizimida yaqqol ko‘rinadi). Biroq, o‘qituvchi ta’lim ehtiyojlarini baholashni amalga oshirish va tahlil qilishni amalga oshiradi, o‘z navbatida, haqiqiy yoki potentsial) ishtirokchilarning fikrlarini, shuningdek, boshqa manfaatdor shaxslarni hisobga olish kerak;
- Ko‘pincha, ta’limda individual vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. uzoq vaqt davomida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fasilitator va o‘qituvchi faoliyatidagi o‘xshahsliklar.

- Ham murabbiy, ham yordamchi;
- Guruhni turli xil usullar yordamida faollashtiradi natijalarga erishishga yordam beradi;
- Har doim jarayonni haqqiqiy baholaydi, ishtirokchilarning natijalariga qanchalik erishganini asoslay oladi;
- Tashkiliy ishlarda, bajarayotgan vazifa doirasida birlashishga ko‘maklashadi;
- Guruh a’zolarini rag‘batlantirishga ko‘maklashadi.

Xulosa qilib aytganda, fasilitator faoliyati kredit-modul tizimiga asoslangan zamonaviy ta’lim jarayonida tyutorlik faoliyatiga o‘xshash faoliyat sanalib, maqsadida ta’lim muhitini yanada barqarorligini ta’minlash, mehnat bozoriga tez moslasha oladigan kardlarni tarbiyalashga ko‘maklashish, kelajak avlod tarbiyasida ta’lim tizimining bosqichlarida tez o‘z o‘rni topib ketadigan, muammolarni aniqlash, hal qilish, qarorlar qabul qilish, mojarolarni bartaraf etish kabi vazifalarni bajara oladigan, vatan kelajagi uchun mas’ul mutaxasislarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat ekanligini aytishimiz mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Loyiha deganda nima tushunasiz?
2. Pedagogik loyihalash haqida gapirib bering.
3. Grafik organayzerlardan foydalangan holda pedagogik loyihalashni tavsiflang.
4. Tyutorlik faoliyati haqida ma’lumot bering.
5. Tutorning vazifasi nimalardan iborat?
6. Guruhli lohiyalash deganda nimani tushunasiz?
7. Fasilitator tushunchasi va unga ta’rif bering?
8. Fasilitator va o‘qituvchi faoliyatining farqli va o‘xshashlik tomonlarini Venn-diagrammada yoriting.

Glossariy.

Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui.

Axloqiy qadriyatlar - kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari haqida g‘oyalar tizimi.

Baholash va xulosa chiqarish — voqea va hodisalarga baho bera olish, muammoli vaziyatni ma’lum ichki yoki tashqi mezonlar asosida baholash va taqqoslash, sabab va oqibatlarini o‘rganish, natijalarni tahlil qilish asosida tanqidiy fikrlash, xulosa chiqarish.

Burch — ado yetilishi, bajarilishi shart bo‘lgan vazifa, majburiyatdir.

Deontologiya – o‘qituvchi tarbiyachining xulq-atvori, kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati va etikasi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi fan. Deontologiya atamasi, kishining xulqi, odobi haqidagi tushuncha bo‘lib, 16-asrning boshlarida fanga kirib keldi. “Deontologiya” so‘zi lotincha deontos – “shart”, “burch”, logos – “ta’limot”, degan ma’noni anglatib, ingliz faylasufi Dj.Bentam mazkur tushunchani ilmiy jihatdan asoslagan. “Deontologiya” inson tomonidan talab darajasida xulq normalarini va qoidalarini o‘rgatuvchi fandir

Deontologiya, yoki deontologik etika (qadimgi yunoncha "deontos" va logos iboralardan kelib chiqqan bo‘lib, axloq va axloq muammolari to‘g‘risidagi ta’limot, axloqning bir bo‘limi.

Etika (yun. egpoz — xulq, odat) — axloq va uning shaxs hamda jamiyat hayotidagi o‘rnini o‘rganuvchi falsafiy fan. Etika axloqshunoslikning falsafiy nazariy muammolarini va axloqqa doir didaktik amaliy asarlarni o‘z ichiga oladi.

Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik qilish

Fasilitator-guruhiy loyihalarni amalga oshirish yo‘llarini ta’minlaydigan, guruh tamonidan tadbirini rejalashtiradigan, boshqaradigan va munozarani boshqaradigan, guruh maqsadini samarali yakun topishini ta’minlovchi shaxs.

Hissiy barqarorlik- o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati shaxsning hissiy barqarorligini, vaziyatni va vaziyatda o‘zini nazorat qilish qobiliyatini yaratish.

Information kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik pedagogik faoliyat da sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Ijtimoiy-psixologik kompetensiya– bu shaxsning ijtimoiy-psixologik hodisalar hamda muomala qonuniyatlari, o‘zgalarni bilish, to‘g‘ri idrok qilish, dilidagini anglash va shu asosda o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish borasidagi savodxonligidir.

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.

Interaktivlik – o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta`siri. Hamkorlik faoliyatini takomil bosqichiga o‘tish jarayonida o‘zaro ta`sir o‘tkazish harakatini baholash

Kasb - bu maqsad uchun ishlab chiqilgan kasbni anglatadi jamiyat farovonligi bilan hamkorlik qilish.

Kasbiylik - shaxsning kasbiy ko‘nikmalarni egallash darajasi, mutaxassis esa asosiy mashg‘uloti o‘z kasbi bo‘lgan shaxsdir, o‘z sohasi bo‘yicha tegishli tayyorgarlik va malakaga ega bo‘lgan mutaxassis.

“Kompetentlik” (ingl. “competence”so‘zidan olingan bo‘lib, “qobiliyat” ma’nosini anglatadi. Bo‘lajak kasb egasi tomonidan egallanadigan va faoliyatda qo‘llaniladigan nazariy bilimlardan unumli foydalanish.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinish.

Kompetensiya – loyiqman, muvofiqman, mos kelaman ma’nolarni anglatib, u har qanday kasbni egallash uchun muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar qurollanish.

Kognitiv kompetensiya– bu rahbarning ma’lumot darajasini oshirishga tayyorligi, o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini faollashtirishga ehtiyojmandligi, yangi malaka va bilimlarni mustaqil ravishda yaratish hamda o‘zini-o‘zi rivojlantirish qobiliyati

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga yegaligini namoyish eta olish.

Kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

Loyihalash- tabiiy shaklda amalga oshiriladigan narsalarning oldindan yaratilishi.

Madaniy kompetensiya– bu menejerning tashkilot normalari va qadriyatlari orqali xulq-atvorini boshqarishga tayyorlik qobiliyati

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil yetishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash.

Model – tabiiy yoki ijtimoiy borliq muayyan ko‘rinishning, inson madaniyati, g‘oyaviy-nazariy ta’lim mahsulining, aslining o‘xshatmasi chizmasi, tarkibi, belgilari tizimi.

Moderator - qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirish,

Muloqotchanlik- til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

Nazokat — xushmuomalalik, latiflik, noziklik Kishining yurish-turishi, harakat va qilikdaridagi noziklik, latofat.

Nutq - bu og‘zaki kommunikasiya, ya’ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron – bir mohiyatni anglatadigan so‘zlar og‘zaki kommunikasiya vositasi

Odob (arab. — adab so‘zining ko‘pligi) — jamiyatda e’tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma’naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o‘zgalar bilan munosabat (oila, mehnat ja-moasi, turli marosimlar)da namoyon bo‘ladi.

Odoblilik — yaxshi tarbiya ko‘rganlikning namoyon bo‘lishi, xatti-harakatlarda, so‘zlashuvda me’yorni, chegarani, muvofiqlilik va nomuvofiqlikni bilishdir.

Pokizalik — bu tozalik va soflik degani.

Pedagogik deontologiya – jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsi, uning pedagogik majburiyatlari, ma’suliyati munosabatiga nisbatan qo‘yiladigan talab va axloqiy yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatmalar majmui.

Pedagogik madaniyat- bu pedagogik qadriyatlar, faoliyat usullari va o‘qituvchining kasbiy xulq-atvorining dinamik tizimi.

Pedagogik mahorat - yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati.

Professionallik- jamiyatda mavjud bo‘lgan standartlar va ob'ektiv talablarga mos keladigan kasbiy faoliyatning psixologik tuzilishini shaxs tomonidan o‘zlashtirish darajasi

Pedagogik qobiliyatlar - pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydigan o‘qituvchining ana shunday individual psixologik xususiyatlari va kasbiy ahamiyatli fazilatlarining umumlashtirilgan majmui.

Pedagogik loyihalash-talabalar va o‘qituvchilarning kelgusidagi faoliyatining asosiy bosqichlarini oldindan ishlab chiqish jarayoni.

Pedagogik faoliyat - turli harakatlar yordamida o‘quvchilarni o‘qitish va rivojlantirish muammolarini hal qiladigan o‘qituvchining kasbiy faoliyat

Pedagogik texnika - bu alohida o‘quvchilarga va butun jamoaga pedagogik ta’sir ko‘rsatish usullari tizimini samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan malakalar majmui.

Pertseptiv qobiliyat - bu pedagogik ta’sirning boshqa predmetini og‘zaki (og‘zaki) ma’lumotlarsiz tushunishga imkon beradigan qobiliyat.

Professional deontologiya- bu to‘g‘ri hodisalarni, jamiyatning ayrim sohalarida munosabatlarni ko‘rib chiqishning ob’yektiv ehtiyojlari tufayli falsafaning umumiy nazariy masalalarini, ijtimoiy hayotdagi muayyan tushuncha.

Professiogramma-(lot. Professio dan - mutaxassislik + Gramma - yozuv) - ma’lum bir kasbni tavsiflovchi belgilar tizimi, shuningdek, ushbu kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha xodimga qo‘yiladigan normalar va talablar ro‘yxati.

Professiograma - (Lat. Professio ixtisosligi, mashg‘uloti va yunoncha grammatika yozuvidan) ing qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan so‘z professiogramma bo‘lib, ixtisoslik haqidagi fan.

Professional kompetensiya– bu o‘zi boshqarayotgan soha faoliyatini mukammal darajada yo‘lga quyish uchun tashkilot missiyasini aniqlashtirishga xizmat qiluvchi mavjud ma’lumot, bilim hamda malakalarga ega bo‘lish.

Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish.

Rostgo‘yilik — halollikning bir ko‘rinishi bo‘lib, haqiqatni gapirish, o‘zining ham, o‘zgalarning ham qadr-qimmatini to‘gri baholash, yaxshini yaxshi, yomonni yomon deb ochiqchasiga aytishdir.

Sobitqadamlik — niyat qilingan ishga jiddiy kirishish va oxiriga yetmaguncha undan chekinmasliq boshlangan ishni oxiriga yetkazishdir.

Sabr-qanoat — boshga tushgan qiyinchiliklarni chidam bilan yengishdir.

Shijoat — botirliq jasorat, dovyurakliq mardlik degani.

Tamoyil - lotincha “tamoyilium” so‘zidan olingan bo‘lib, asos, boshlang‘ich nutqa, holat, asosiy g‘oya, xulq va faoliyatning asosiy qoidasi kabi ma’nolarni anglatadi.

Ta’lim jarayonini loyihalash - murakkab faoliyat bo‘lib, pedagogdan amaliy, didaktik, uslubiy - metodologik, buyumli va boshqa bilimlarning tizimini

Ta’lim ishi - bu shaxsning barkamol rivojlanishi muammolarini hal qilish uchun ta’lim muhitini tashkil etish va o‘quvchilarning turli faoliyatini boshqarishga qaratilgan pedagogik faoliyat.

Tabaqalashtirish lot. “diferentia” – “farqlanish”, “darajalanish”) – butunning turli bosqich yoki darajalarga ajratilishi.

Tanqidiy fikrlash va tizimli fikrlash — masalani anglashda va murakkab qarorlar qabul qilishda puxta dalillar keltirishdan foydalanish, tizimlar voqealar va hodisalar, vaziyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglash.

Tarbiyalash mahorati-o‘qitish va tarbiyalash jarayonining o‘zaro uyg‘un holda shaxsni shakllantirishga, ularda yuksak madaniy va ma’naviy saviyaning qaror toptirish

Tozalik-inson salomatligining garovi. O‘qituvchining axloq normasi sifatida kiyim-kechagi, ish joyining pokiza bo‘lishini hamda qalbining pok bo‘lishini, taomiga harom aralashmasligi, halol bo‘lishini talab qiladi.

Tyutor - talabaning individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish va amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni tashkil etuvchi shaxs.

Tushunish, idrok qilish — o‘rganilgan materialni xotirada saqlab qolish, mohiyatini idrok etish va tushunganlikni namoyish qilish, bir darvdan boshqa davrga ko‘chira olish

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Uslubiy kompetensiya– bu rahbarning bilgan narsalari, shaxsiy malaka va ko‘nikmalari, turli loyihalar xususidagi ma’lumotlar hamda topshiriqlarni tez, to‘g‘ri va tushunarli (operativ) tarzda xodimlarga yetkaza olish qobiliyati.

Xulq-atvor madaniyati -jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy va estetik me’yorlarni aks ettiradigan xatti-harakatlarning shakllari va usullari to‘plami.

Xushmuomalilik — ko‘ngildagi ardoqli fikrlarni, yeng noyob his-tuyg‘ularni, yeng yezgu niyatlarni o‘quvchilar, odamlar bilan baham ko‘rish, osoyishtaliq vazminliq xotirjamlik bilan ish tutishdir.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga yerishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. - T., 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
3. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard vaoliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatiarini ta’minlash taraqqiyoti vaxalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-sonli «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, Toshkent sh., 2017 yil 20 aprel
6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘ll. -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006. -159 b.
7. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma. -T.: BROK SLASS SERVIS, 2016. - 84 b.
8. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. O‘quv qo‘llanma. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017. -320 b.Abdullayeva. SH., Axatova. D.A Pedagogika. Toshkent. «Fan» 2004-y.
9. Andreev, V.I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya. [Tekst] / V.I.Andreev. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya. - Kn. 2. – Kazan, 1998. – 318 s.
10. Verbiskiy, A. A. Gumanizatsiya i kompetentnost: kontekstы integratsii [Tekst] / A. A. Verbiskiy, O. G. Larionova. – M.: MGPOU, 2006. – 172 s.
11. Grevseva G.Ya., Olimov Sh.Sh., Abdullaev K.F., Sh.H.Samieva. Pedagogika [Tekst]: uchebnoe posobie / Avt.-sost. G.Ya.Grevseva i dr. – 2019. – 162 s.
12. DavronovI.E., JurayevB.T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. –B.: Durdona, 2019
13. Ziyomuhammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. O‘quv qull.- T.: TIB KITOB, 2009.-183 6.
14. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009.

15. Hasanboev J., To‘raqulov X.A., Alqarov I., Usmonov N.O‘., Is’yanov R.G., Yuzlikaev F. Pedagogika nazariyasi Didaktika): Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011. - 420 b.

16. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya / Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – Toshkent: “ Fan van texnologiyalar”, 2007.– 176 b.

17. MavlonovaR.A., AbdurahimovaD.. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma T:.Fan va texnologiya 2012-yil

18. Mahkamov U.I., Xo‘jayev B.Q., Tilabova N., Didaktik vositalar majmui. Toshkent 2009

19. Muhiddinov A.G. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O‘qituvchi, 1995.

20. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.

21. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kopetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

22. Muslimov N.A. va boshqalar. Professionalnaya kompetentnost budущego uchitelya: teoriya i texnologiya obucheniya Uchebnoe posobie . -T.: TDPU, 2014

23. LernerP.S. Fasilitatsiya uchaщixsya uchrejdeniy professionalnogo obrazovaniya v fakultativnom kurse «dlya texnarey» [Tekst] / P. S. Lerner // Shkolnыe texnologii. – 2005. – № 6. – S. 100–105.

24. Nazarova B.A. Pedagogika kollejlari bo‘lgusi o‘qituvchilarining kasbiy layoqatini tarbiyalash: Dis. ... ped. fan. nom. - T.:2009 .- 170 6.

25. Nishonova S., Imomova M., Xasanov R..Pedagogika tarixi. Darslik T.: O‘qituvchi 1996-yil

26. Ochilov M. YAngi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000. – 80 b.

27. Ochilov M.. Muallim qalb me’mori. O‘quv qo’llanma T:.O‘qituvchi. 2004-yil

28. Psixologiya. Qisqacha izohli lug‘at / Tuzuvchilar: M.G.Davletshin va boshq. Mas’ul muharrir M.G.Davletshin. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1998. – 46 b.

29. Pedagogika fanidan izohli lug‘at / Tuzuvchilar J.Yu.Hasanboev va boshq. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009. – 671 b.

30. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo‘ll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.

31. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / OO‘Yu uchun o‘quv qo‘ll. -T.: “Pedagog”, 1993.

32. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. T.: OPI, 2003.Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

33. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.

34. Xodjayev B.Q. Didaktik vositalar majmui. –Buxoro. 2017.

35. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik-T.: Iqtisod-moliya, 2011. - 420 b.

36. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika. Darslik.-Toshkent, “Sano-standart”,2017 y.434 b.

Mundarija.

Kirish……. 3
1-Mavzu Pedagogik deontalogiya va kompetentlik fanining maqsadi va vazifalari…… 4
1.2 Pedagogik deontalogiya tushunchasi va uning tamoyillari**…… 4**
1.2 Pedagogik deontalogiya fanining maqsadi va vazifalari**…… 15**
1.3 Pedagogik deontalogiya kasbiy xulq-atvor to'g'risidagi fan**…. 18**
1.4 Pedagogik kompetentlik va o'qutuvchi kasbiy etikasiga qo'yiladigan talablar**……... 21**
1.5 Pedagogik deontalogiya va kompenetlik fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi**……..... 25**
2-Mavzu: Pedagogik deontalogiya va kompetentlik fanining nazariy metodologik asoslari……..... 28
2.1 Pedagogik deontalogiya va kompetentlik faniga metodologik yondashuvlar**……..... 28**
2.2 Kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuvlar, fanlararo yondashuv, ma'lumotli yondashuv**……..... 32**
2.3 Kompetensiya tizimida amaliy va nazariy tayyorgarlikning o'rni**……..... 37**
3 Mavzu: Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik deontalogiya va kompetenlikning taraqqiyoti……..... 46
3.1 Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimida pedagogik deontalogiya va kompetentlikning o'rni**……..... 46**
3.2 Pedagogik deontalogiya va kasbiy kompetentlik sohasidagi ilmiy izlanishlar**……..... 56**
3.3 O'zbekistonda pedagogik dentalogiya va kompetentlikning rivoji**……..... 66**
4- Mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasining takomillashtirish jihatlari……..... 74
4.1 Kompetensiya haqida tushuncha**…..... 74**
4.2 Kasbiy kompetentlikning jamiyatdagi o'rni**..... 80**
4.3 Pedagogning umumiy va kasbiy kompetentligi**..... 82**
5- Mavzu: O'qituvchi kasbiy kompetensiyasining takomillashtirish tizimi..... 93
5.1 O'qutuvchi kasbiy kompetentsiyasi tizimining pedagogik mahoratda namoyon bo'lishi**..... 93**
5.2 Kasbiy tayyorgarlik modelining tuzulmasi**..... 106**
5.3 Kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlari**..... 110**

5.4 Kasbiy – shaxsiy kompetensiyaning turlari..... **120**
6-Mavzu: Pedagogik maxorat va kompetensiya mezonlari..... 128
6.1 Pedagogik mahorat va kasbiy tayyorgarlik..... **128**
6.2 Kasbiy professionalism, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi... **136**
6.3 Zamonaviy o'qituvchi va uning modeli..... **151**
7 Mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini nazariy va amaliy aspektlari..... 160
7.1Oliy ta'lim maktab o'qituvchisi va uning kasbiy kompetentligi... **160**
7.2Mamlakatimizda va xoriji mamlakatlarda o'qituvchilik kompetensiyasi to'g'risida ma'lumot beruvchi fanlar..... **171**
7.3 Pedagogik turkum fanlarida pedagogik kompetentlik sohasida ilgari surilayotgan nazariyalar..... **174**
8 Mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar. pefesseogramma..... 184
8.1 Prefesseogramma haqida tushuncha. Uning mazmun mohiyati.... **184**
8.2 Oliy ta'lim o'qituvchisi faoliyatining mazmun-mohiyati va tuzilishi..... **196**
8.3 Oliy ta'limda pedagogik faoliyatga tayyorlanish yo'nalishlari..... **202**
8.4 Oliy ta'lim o'qituvchisining psixologik pedagogik tayyorgarligi..... **207**
9-Mavzu: Pedagogik kasbi maqomlarini tashkil etuvchi kompetensiyalar..... 214
9.1 Insonni faoliyat va muloqot ob'yekti sifatida tavsivlovchi kompetensiyalar..... **214**
9.2 Insonning faoliyatini ta'minlovchi kompetensiyalar..... **217**
9.3 Insonning ijtimoiy hamkorligini va ijtimoiy muhitini ta'minlovchi kompetensiyalar..... **224**
10- Mavzu: Pedagogik kreativlik..... 229
10.1 Kreativlik negizida aks etuvchi muxim sifatlar, shaxs faoliyatida kreativlik..... **229**
10.2 Pedagogik keaktivlikning qoidalari, metodlari va pedagogik kreativlik malakalari..... **237**
10.3 Kreativning tarkibiy asoslari, ustuvor tamoyillari..... **247**
11-Mavzu: Hamkorlik pedagogikasining tasnifi..... 252
11.1 Hamkorlik pedagogikasida mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llari..... **252**
11.2 Talabalarning kommunikativ faoliyatlari va uni jadallashtirish.... **262**
11.3 Hamkorlik pedagogikasida talabalarning o'zlashtirish va qiziqishlarini rivojlantiruvchi texnologiyalar..... **273**

11.4 Talabalarni tyutorlik va fasilitalorlik faoliyatiga tayyorlash..... **276**
12- Mavzu: Pedagogik t'yutorlik fasililatorlik qobiliyatilari asosida loyihaviy faoliyatni tashkil etish..... 285
12.1 Pedagogik faoliyatni loyihalash va uning mohiyati..... **285**
12.2 Induvidual loyiha ishlarini bajarishda tyutorning o'rni..... **299**
12.3 Guruhiy loyihalarni amalga oshirish yo'llari va fasilitatorlik faoliyati..... **307**
Glossariy..... 230
Adabiyotlar..... 236

R. G. Safarova, D. J. Gaipov

PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENLIK

Oliy ta’lim muassasalarining 70110102- Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligi talabalari uchun darslik

NÓKIS
« AVA NGA R D - BA SPA »
2025

Redaktor *I. Serjanov*
Kórk. redaktor *I. Serjanov*
Tex. redaktor *N. Qayıpbergenova*
Operator *A. Atagullaeva*

Original-maketten basıwǵa ruqsat etilgen waqtı 21.07.2025
Formatı 60x84 $^{1}/_{16}$. Tip «Times New Roman» garniturası.
Kegl 12. Ofset qaǵazı. Ofset baspa usılında basıldı.
Kólemi 21,3 b.t. Nusqası 100 dana. Buyırtpa № 011.
Bahası shártnama boyınsha.

951432-canlı licenziya: 15. 02. 2021.

«AVANGARD–BAS PA» baspası. 230103. Nókis qalası, I.Karimov, 111-jay.
«AVANGARD–BAS PA» JSHJ tipografiyasında basıp shıǵarıldı.
230103. Nókis qalası, I.Karimov, 111-jay.